Annotatsiya. Ushbu maqolada zamonaviy elektr tarmoqlarida keng qo‘llanilayotgan **AVM tipidagi modul avtomatik viklyuchatellar (AVM-1, AVM-2)** ning fizik ishlash prinsiplari, himoya funksiyalari, ichki mexanik-elektrik qurilishi va ularga xos kamchiliklar tahlil qilindi. Shuningdek, dunyo bo‘yicha ushbu turdagi qurilmalarni ishlab chiqaruvchi yetakchi kompaniyalar, milliy standartlar va real ekspluatatsiya tajribasi asosida baholashlar keltirilgan. Maqola texnik xavfsizlikni ta’minlashda AVM larining roli va modernizatsiya yo‘nalishlarini ochib beradi.

Kalit so‘zlar: AVM modulli avtomatlar, himoya xarakteristikasi, bimetall va elektromagnit himoya, arka o‘chirish tizimi, uzish qobiliyati, ekspluatatsiya kamchiliklari

Аннотация. В данной статье проведён подробный анализ физических принципов работы модульных автоматических выключателей типа AVM (AVM-1, AVM-2), их защитных функций, внутренней электромеханической конструкции, а также присущих им конструктивных недостатков. Представлены данные о ведущих мировых производителях AVM-устройств, требованиях стандартов и результатах оценки на основе реального эксплуатационного опыта. Статья раскрывает роль AVM-выключателей в обеспечении электробезопасности и надёжности, а также направления их модернизации.

Ключевое слово: модульные автоматы AVM, защитная характеристика, тепловая и электромагнитная защита, дугогасительная система, отключающая способность, эксплуатационные недостатки

Abstract. This article provides an in-depth analysis of the physical operating principles of AVM-type modular automatic circuit breakers (AVM-1, AVM-2), including their protection functions, internal electromechanical structure, and typical design limitations. Additionally, evaluations based on international manufacturers, current standards, and real-world operational experience are presented. The study highlights the role of AVM breakers in ensuring electrical safety and system reliability, along with potential directions for modernization.

Key words: AVM modular breakers, protection characteristics, thermal and magnetic trip, arc-quenching system, breaking capacity, operational limitations

ISSN 3030-3907

Kirish

Elektr energiyasini iste’molchilarga uzluksiz va xavfsiz yetkazib berish avtomatika tizimlarining eng muhim talablaridan biridir. Past kuchlanishli taqsimlash tarmoqlarida ko‘pincha ortiqcha yuklama, izolyatsiya buzilishi, qisqa tutashuv yoki iste’molchi tomonidan yuzaga keladigan elektr xatoliklari tufayli avtomatika qurilmalarida avariya holatlari paydo bo‘lishi mumkin. Zanjirdagi ortiqcha yuklama va qisqa tutashuvdan himoya qilish zamonaviy energiya ta’minoti tizimining asosiy talabi hisoblanadi. Ushbu xavflarni avtomatik rejimda bartaraf etish uchun avtomatik himoya modullari — AVM (Avtomatik Viklyuchatel Modull) seriyasi ishlab chiqilgan. AVM avtomatik modulli saqlagichlar iste’molchilarni tarmoqdagi ortiqcha tok oqimi va qisqa tutashuvdan himoya qiladi, tarmoqning uzluksiz ishini ta’minlaydi hamda energiya ta’minotining ishonchlilik darajasini oshiradi. Ular 0,4 kV gacha bo‘lgan past kuchlanish tarmoqlarida keng qo‘llaniladi. AVM-2 modeli O‘zbekistonda ham eng ko‘p qo‘llaniladigan variant bo‘lib, ichki uy-joy tarmoqlaridan tortib sanoat elektr taqsimlash qurilmalarigacha bo‘lgan keng diapazonda ishlatiladi.


1.AVM va uning ichki tuzilishi

AVM tushunchasi va texnik ta’rifi. AVM — bu modulli avtomatik saqlagich (viklyuchatel) bo‘lib, u elektr zanjirini yuklama ortib ketganda yoki qisqa tutashuv yuzaga kelganda avtomatik ravishda uzib qo‘yuvchi himoya apparati hisoblanadi. “Modulli” atamasi uning korpusining standart o‘lchamlarda bo‘lishi (odatda DIN-reykaga o‘rnatiladigan) va bir nechta modul yonma-yon joylashtirilishi mumkinligini bildiradi. AVMlarning ichki konstruksiyasi: bimetall plastina (issiqlik himoyasi), solenoid (elektromagnit tezkor himoya), quvvat kontaktlari, arka so‘ndirish kamerasi,prujinali mexanizm kabi elementlardan tashkil topgan bo‘lib, ularning o‘zaro ishlashi elektr zanjirining ishonchli himoyasini ta’minlaydi.

AVMlarning yaratilish tarixi. Elektr tarmoqlarida ortiqcha tokdan himoya qilish g‘oyasi ilk bor XIX asr oxirida paydo bo‘lgan. 1920–1930-yillarda bimetall asosidagi issiqlik relelari joriy etildi. XX asrning 50–70-yillarida modul tipidagi avtomatik himoya qurilmalari ishlab chiqila boshlandi.Zamonaviy AVM seriyalari esa 1980–1990-yillar oralig‘ida MDH (sobiq SSSR) hududida kichik modulli avtomatlar sifatida ishlab chiqarilgan. AVM-1, AVM-2, AVM-3 modellari aynan shu davrda yaratilgan bo‘lib, keyinchalik ko‘plab modernizatsiya qilingan variantlari paydo bo‘ldi.

Quyida AVM-2 avtomatik saqlagichining real konstruktsiyasi asosida ichki tuzilishii keltiriladi:

ISSN 3030-3907



1-rasm. Ichki mexanik-elektrik qurilish elementlari

- **Bimetall plastina** – issiqlik yuklamasidan himoya (uzoq muddatli ortiqcha tok)
- **Elektromagnit solenoid** – “momental” himoya (qisqa tutashuv)
- **Arka o‘chirish kamerasi** – yoyni bo‘laklarga bo‘lib tez so‘ndiradi
- **Kontakt juftlari (harakatlanuvchi va harakatsiz)**
- **Prived mexanizmi** (tutqich + prujina mexanizmi)
- **Qopqoq korpusi** (polikarbonat yoki ABS-plastik)
- **Terminal klemmalari**

2. Turlari va qo‘llanish sohasi

AVM avtomatik saqlagichlari bir nechta asosiy turlarga bo‘linadi:

1. Qutblari soniga ko‘ra:

1 qutbli (1P) — maishiy rozetkalar va yoritish liniyalari

2 qutbli (2P) — bir fazali yuklamalarni uzib qo‘yishda

3 qutbli (3P) — uch fazali dvigatellar uchun

4 qutbli (4P) — neytral simni uzish talab qilinganda

2. Himoya xarakteristikasi bo‘yicha (A, B, C, D klass)

A klass — nozik elektronika uchun

B klass — elektron yuklamalar

C klass — umumiy maishiy va ofis tarmoqlari

D klass — sanoat yuklamalari, dvigatellar, transformatorlar

MDH hududida chiqarilgan AVM seriyalari ko‘pincha C va D klasslarda bo‘ladi.

ISSN 3030-3907

3. Nominal tok qiymatiga ko‘ra: 3A, 5A, 7.5 A, 10 A, 16 A, 20 A, 25 A, 32 A, 40 A, 50 A. Bu diapazon gaz qozonlari, rozetka guruhlari, maishiy texnika, sanoat dvigatellari, nasoslar va boshqa yuklamalar himoyasida qo‘llaniladi.
4. O‘chirish qobiliyatiga qarab (kA):3 kA — maishiy tarmoqlar uchun, 4.5–6 kA — ofis va savdo ob’ektlari, 10 kA — sanoat uchun.
5. Maxsus AVM turlari:
AVM-N — nol o‘chirishli variant
AVM-KE — stansiya va sanoat avtomatikasiga mo‘ljallangan
AVM-UKM — kontakt resursi oshirilgan model
AVM-D — dvigatel yuklamalari uchun

O‘zbekistonda AVM-2 modeli uy-joy elektr tarmoqlari, maishiy iste’molchilar, bino ichki taqsimlash qutilari, kichik sanoat ob’ektlari va yordamchi texnologik liniyalarda eng keng ishlatiladigan avtomatik saqlagich hisoblanadi. Uning oddiy tuzilishi, arzonligi va o‘rnatish qulayligi uni amaliyotda ommabop qilgan.

Maishiy sektorda, kvartira va xonadon elektr taqsimlash qutilarida, ro‘zg‘or elektr jihozlarini haddan tashqari yuklanishdan himoya qilish, Maishiy yoritish va rozetka guruhlarida; **Sanoat ob’ektlarida,** 0,4 kV past voltli taqsimlash panellari, Nasos, ventilyator, kompressor kabi o‘rta quvvatli elektr dvigatellarini himoya qilish;

AVM-2 va AVM-3 larni avtomatika bloklarida yordamchi himoya sifatida qo‘llash, **temir yo‘l, konchilik va kimyo korxonalarida,** SHU, ShCh va boshqa boshqaruv shkaflarida yordamchi zanjirlarni himoya qilish, telefon, aloqa, signalizatsiya va telemexanika liniyalarini ortiqcha yuklama va qisqa tutashuvdan himoya qilish,

3.AVM turlarining kamchiliklari

Bugungi kunda ekspluatatsiya tajribasida AVM-2 ning quyidagi kamchiliklari qayd etiladi:
- Kontaktlarning tez kuyishi, ya’ni ko‘p marotaba ishga tushirishlarda kontaktlar tez isiydi va kuyadi. Arka kamerasi 5–7 yildan keyin samaradorligi pasayadi;
- Nominal tokning aniq saqlanmasligi, issiqlik sezgir bimetall plastina haroratga bog‘liq bo‘lganligi sababli yozda “erta”, qishda “kech” ishlashi kuzatiladi;
- Chidamlilik pastligi, sanoat sinfidagi avtomatlarga nisbatan ishlash resursi 6–10 ming siklni tashkil qiladi (ABB, Schneider kabi modellar 20–25 ming sikl);
- Mexanik o‘tkazgichning lat-lut bo‘lishi (o‘ynab qolishi), prujina mexanizmi vaqt o‘tishi bilan bo‘shab qolishi, tutqich qaytish mexanizmining sinishi;
- Himoya egri chizig‘ining torligi, AVM lar odatda **C** va **D** klassga mos keladi. Nozik elektron qurilmalar uchun **B** klass yetishmaydi. Aynan AVM-1, AVM-2,

ISSN 3030-3907

AVM-3 kabi eski modelli avtomatlar: C klass (universal) va D klass (sanoat yuklama) bo‘yicha ishlab chiqarilgan. Ammo B klass deyarli mavjud emas.
Bu esa quyidagi muammoga sabab bo‘ladi: Nozik elektron qurilmalar (server, PLC, sensorlar, telemexanika bloklari) uchun B klass talab qilinadi. AVM ning C klassi haddan tashqari qo‘pol — elektron qurilmani himoya qilolmaydi. Aynan shuning uchun AVM tizimi eskirgan deb hisoblanadi. Zamonaviy MCB (ABB, Schneider, Siemens) larda esa B, C, D to‘liq mavjud.

4. Ishlab chiqaruvchilar

AVM turidagi modul avtomatlar asosan MDH davlatlarida ishlab chiqariladi**,** chunki nomlanishning o‘zi “sovet” standartlariga asoslangan.

1. Rossiya

- “КЭАЗ” – Kurskiy elektrotekhnicheskiy zavod (AVM-1, AVM-2 analoglari)
- “Контактор”, “TDM Electric”, “IEK” – keng tarqalgan AVM liniyalari

2. Belarus

“Витебский электромеханический завод” — A3700, AB1000 analoglari

3. Ukraina

“Днепроэлектро” – modul avtomatlar va AV relelari

4. O‘zbekiston

To‘liq AVM liniyasi ishlab chiqarilmaydi, ammo **O‘zElectroApparat** korxonasida ayrim modul muhofaza avtomatlari yig‘iladi.

5. Jahon brendlari (AVM ekvivalenti)

- **ABB (Shvetsiya-Shveytsariya)**
- **Schneider Electric (Fransiya)**
- **Siemens (Germaniya)**
- **Legrand (Fransiya)**

Bu kompaniyalarda “AVM” nomi ishlatilmaydi, lekin funktsional jihatdan AVM-2 ga to‘liq mos keluvchi **MCB (Miniature Circuit Breaker)** modellari ishlab chiqariladi.

Xulosa

AVM tipidagi avtomatik saqlagichlar past kuchlanishli elektr tarmoqlarida ortiqcha yuklama va qisqa tutashuvdan himoya qilishda an’anaviy, ishonchli va iqtisodiy jihatdan maqbul himoya apparati sifatida uzoq yillardan beri qo‘llanib kelinadi. Ularning modulli tuzilishi, oddiy mexanik konstruksiyasi hamda servis xarajatlarining pastligi ushbu turdagi avtomatlarni maishiy va yengil sanoat tarmoqlarida keng qo‘llanilishiga asos yaratgan. Xususan, AVM-2 modeli O‘zbekistonda eng ommabop bo‘lib, rozetka guruhlari, yoritish tarmoqlari, kichik quvvatli nasos va ventilyatorlar, ustaxonalar hamda yordamchi texnologik liniyalarda keng qo‘llanadi.

ISSN 3030-3907

Biroq, texnologiyaning jadal rivojlanishi va elektr yuklamalarining murakkablashuvi natijasida AVM-2 turidagi an’anaviy avtomatik saqlagichlarda bir qator konstruktiv va funksional cheklovlar yaqqol namoyon bo‘la boshladi.

1. Kontakt resursining pastligi. AVM-2 mexanik kontaktlarining ochilib-yopilish resursi zamonaviy MCB larning resursiga nisbatan ancha past bo‘lib, odatda 6–10 ming siklni tashkil qiladi. Zamonaviy elektronika va avtomatlashtirilgan liniyalar ko‘p marotaba ishga tushish va o‘chirish amallarini talab qilgani sababli bu resurs cheklangan deb hisoblanadi. Kontakt yuzalarida arka hosil bo‘lishi, oksidlanish va kuyish jarayonlari kontaktning qarshiligini oshiradi, natijada himoya ishonchliligi pasayadi.

2. Bimetall plastinaning haroratga sezgirligi. Issiqlik himoyasi bimetall plastina orqali amalga oshirilgan bo‘lib, ushbu elementning ishlashi tashqi haroratga sezgir. Yozda yuqori harorat sababli AVM-2 nominaldan past toklarda “erta” o‘chishi kuzatiladi, qishda esa sovuqda bimetall “qattiqlashadi” va himoya “kech” ishlaydi. Bu esa:nozik elektronikani keraksiz o‘chirishga olib kelishi, yoki aksincha, yuklama qizib ketguncha avtomat o‘chmasligi mumkinligini anglatadi. Bu nuqson elektr xavfsizligi nuqtai nazaridan muhim kamchilikdir.

3. Mexanik privedning tez eskirishi AVM-2 dagi prujinali-prived mexanizmlarining detallarida metall charchoqlanishi va eskirish juda tez sodir bo‘ladi. Prujina elastikligi pasayganda yoki bo‘g‘inlar ishqalanish yo‘li bilan yeyilganda:

avtomat kontaktlarining yopilish kuchi kamayadi, kontakt yuzalarida qizish kuchayadi, avtomatning ish rejimi beqarorlashadi. Bu kamchilik uzoq muddatli ekspluatatsiyada ayniqsa sezilarli bo‘ladi.

4. Himoya xarakteristikasining torligi

AVM seriyalari, asosan, C va D klass himoya xarakteristikasida ishlab chiqarilgan. Biroq zamonaviy texnologiyada: PLC, sensorlar, telemexanika modullari, kompyuter texnikasi, nozik laboratoriya uskunalari uchun B klass himoya talab qilinadi. Bunday xarakteristikaga ega AVM turlari esa mavjud emas.

5. Zamonaviy MCB larning afzalliklari va taqqoslash. Bugungi kunda dunyo bo‘yicha ABB, Schneider Electric, Siemens, Legrand kabi yetakchi kompaniyalar MCB sinfidagi yuqori texnologiyali avtomatik saqlagichlarni ishlab chiqmoqda. Ularning asosiy afzalliklari: kontakt resursi 20–25 ming siklgacha, bimetall bo‘yicha kompensatsiya tizimi (haroratga sezgir emas), elektromagnit bo‘limda yuqori sezgirlik, egri chiziqlarning keng diapazoni (A, B, C, D, K, Z), yuqori uzish qobiliyati (6–10 kA), modulning o‘zini diagnostika qilish imkoniyati (ba’zi modellarda), yong‘inga qarshi kuchaytirilgan konstruksiya. Bu omillar AVM-2 ning zamonaviy talablar uchun yetarli emasligini ko‘rsatadi.

ISSN 3030-3907

6. Modernizatsiya zarurati va rivojlanish istiqbollari. O‘zbekistonda energiya iste'moli oshgani sayin yuqori texnologiyali himoya apparatlariga talab ham ortmoqda. Shuning uchun AVM-2 ning modernizatsiyasi yoki uni zamonaviy MCBlar bilan to‘liq almashtirish istiqbolli yo‘nalishlardan hisoblanadi. Mahalliy ishlab chiqaruvchilar uchun foydali yo‘nalishlar: bimetall harorat kompensatsiya tizimini yaratish, kontakt yuzalarining materialini yaxshilash, elektromagnit bo‘limning sezgirligini oshirish, B klass variantlarini ishlab chiqish, plastik va dielektrik korpus materialini modernizatsiya qilish, arka so‘ndirish kamerasi paketlarini ko‘paytirish.

Bu texnologik yechimlar elektr xavfsizligini oshiradi, energiya taqsimoti sifatini yaxshilaydi va mahalliy ishlab chiqarishga yangi imkoniyatlar yaratadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Кацман М. Е. Аппараты защиты низковольтных электрических сетей. – Москва: Энергоатомиздат, 2018. – 256 с.
2. Коротков В. М., Клюев В. В. Низковольтные автоматические выключатели: Конструкция, расчет и эксплуатация. – Москва: Академия, 2020. – 312 с.
3. Siemens AG. Sentron Circuit Breakers: Applied Protection Principles. – Berlin: Siemens Energy Press, 2019. – 166 p.
4. ГОСТ Р 50345-2010. Выключатели автоматические для бытового и аналогичного назначения. – М.: Стандартинформ, 2011. – 54 с.
5. IEC 60898-1:2019. Electrical accessories – Circuit-breakers for overcurrent protection for household and similar installations. – Geneva: IEC, 2019. – 120 p.
6. Панфилов А. И. Электрические аппараты: теория и расчет. – СПб: Питер, 2017. – 428 с.
7. Курочкин В. И., Седов А. Н. Электрооборудование низкого напряжения: Учебное пособие. – Екатеринбург: УрФУ, 2018. – 364 с.

ISSN 3030-3907

DEVONASOY KONI GILLI-SLNESLARINING PORTLANDSEMENT MINERALLARINI XOSIL BO‘LISHIGA TA’SIRI.

Umarov Faxriddin Sharobiddinovich
Namangan davlat texnika universiteti kafedra dotsenti., PhD
E-mail: https://namdtu.uz/:
Tel: 93-856-51-00

Abstract: The article presents the results of a study on the influence of carbonaceous-clay shales of the Devanasai deposit in the Jizzakh region of the Republic of Uzbekistan on the formation of Portland cement clinker minerals. It was found that the mineral formation process in the developed experimental Portland cement raw material mixtures occurs more intensively and at lower temperatures than in traditional raw material components.

Keywords: Clayey-shale, cement, clinker, alite, belite, DTA, limestone, slag, temperature, endothermic effect, exothermic effect, quartz.

Аннотация: В статье представлены результаты исследования влияния углисто-глинистых сланцев месторождения Деванасай Джизакской области Республики Узбекистан на формирование минералов портландцементного клинкера. Установлено, что в разработанных экспериментальных портландцементных сырьевых смесях процесс минералообразования протекает интенсивнее и при более низких температурах, чем в традиционных сырьевых компонентах.

Ключевые слова: Глинистый сланец, цемент, клинкер, алит, белит, ДТА, известняк, шлак, температура, эндотермический эффект, экзотермический эффект, кварц.

Annotasiya: Maqolada O‘zbekiston Respublikasi Jizzax viloyatidagi Devanasay koni uglisto-g‘linistiy slanetslarining portlandtsement klinkeri minerallarining hosil bo‘lish jarayoniga ta’siri bo‘yicha olib borilgan tadqiqot natijalari keltirilgan. Aniqlanishicha, ishlab chiqilgan tajriba portlandtsementli xom ashyo aralashmalarida mineral hosil bo‘lish jarayoni an’anaviy xom ashyo komponentlariga nisbatan **yanada intensivroq** va **pastroq haroratlarda** sodir bo‘ladi.

Kalit so‘zlar: Gilli-slanes, sement, klinker, alit, belit, DTA, ohaktosh, shlak, xarorat, endotermik effect, ekzotermik effect, kvars.

Kirish.

Respublikamizda mahalliy noan’anaviy mineral xomashyo manbalari va ikkilamchi resurslar asosida past haroratda pishadigan portlandsement klinkerini olish texnologiyasini ishlab chiqish bo‘yicha keng qamrovli chora-tadbirlar amalga oshirilib, muayyan ilmiy va amaliy natijalarga erishilmoqda. O‘zbekiston Respublikasi rivojlanishining Harakatlar strategiyasining to‘rtinchi yo‘nalishi

ISSN 3030-3907

bo‘yicha “ilmiy-tadqiqot va innovatsiya faoliyatini rag‘batlantirish, ilmiy va innovatsion yutuqlarni amaliyotga joriy etishning samarali mexanizmlarini yaratish”ga qaratilgan muhim vazifalar belgilab berilgan. Bu borada mahalliy noan’anaviy xomashyo, jumladan gilli slanetslar va ikkilamchi resurslar asosida past haroratda pishadigan, talab darajasidagi sement olish texnologiyasini ishlab chiqish muhim ahamiyat kasb etadi.

O‘zbekiston Respublikasida tabiiy yoki tashib keltiriladigan xom ashyolar o‘rniga noan’anaviy xom ashyo materiallaridan foydalanish orqali qurilish materiallari sanoati kabi eng ko‘p material va energiya talab qiladigan ishlab chiqarish tarmoqlari uchun xom ashyo bazasini kengaytirish dolzarb vazifa bo‘lib qolmoqda. Bu vazifa ushbu yo‘nalishda ishlayotgan tadqiqotchilar oldiga doimo qo‘yiladi.

Shu munosabat bilan, so‘nggi yillarda tadqiqotchilar tomonidan portlandtsement ishlab chiqarish texnologiyalarini resurs tejovchi va energiya tejamkor samarali tarkiblarga asoslangan holda, noan’anaviy hamda ikkilamchi xom ashyo manbalari, shuningdek turli sanoat chiqindilaridan foydalangan holda ishlab chiqish masalalariga katta e’tibor qaratilmoqda.

Shundan kelib chiqib, portlandtsement klinkeri xom ashyo aralashmasini tayyorlash uchun mahalliy noan’anaviy xom ashyo manbalaridan sifatida istiqbolli xom ashyo resurslari sifatida **Devanasay koni gilli - slanetslari** tanlab olindi. Ushbu hudud qishloq xo‘jaligi uchun yaroqsiz bo‘lgani bois, uni sanoat maqsadlarida o‘rganish maqsadga muvofiq hisoblanadi.

Shuni ta’kidlash lozimki, ushbu slanetslarning asosiy komponentlar miqdori va kimyoviy tarkibi portlandtsement ishlab chiqarishida qo‘llaniladigan g‘ovak-gil materiallariga juda yaqin.

Tadqiqotlarni o‘tkazish uchun biz Devanasay konidan olingan g‘linistiy slanetslar, Jizzax ohaktoshi va Toshkent viloyati Bekobod shahridagi “Uzmetkombinat” MChJ metallurgiya korxonasining chiqindi shlaklaridan foydalanildi (1-jadval).

Materiallarning moddiy tarkibini aniqlash uchun spektral, to‘liq silikatli, rentgen-fazaviy va differensial-termik tahlillar bajarildi.

Kimyoviy tahlil natijalari (1-jadval) shuni ko‘rsatadiki, ularning tarkibida SiO_2, Al_2O_3, Fe_2O_3, CaO va boshqa asosiy komponentlar mavjud. Ma’lumki, ushbu oksidlar portlandtsement ishlab chiqarishda qo‘llaniladigan asosiy tarkibiy qismlar hisoblanadi. Shu bois Devanasay konining gilli- slanetslarini portlandtsement ishlab chiqarish jarayonida gilli komponent sifatida qo‘llash imkoniyatlarini yanada batafsil o‘rganish ilmiy jihatdan dolzarb hisoblanadi.

Differensial-termik tahlil Paŭlik–Paŭlik–Erdey derivatografi yordamida, daqiqasiga 10° tezlikda, 0,138–0,149 g namunalar og‘irligida, goniometrlarning

ISSN 3030-3907

sezgirligi T–900, TG–200, DTA–1/10, DTG–1/10 sharoitlarida amalga oshirildi. Termik tahlil atmosfera sharoitida olib borildi.

1-jadval

Kimyoviy tahlil natijalari

Xom ashyo ashyoning nomi	Oksidlar tarkibi, quruq moddasi og‘irligi%,									K.Y.	∑
	SiO_2	Al_2O_3	Fe_2O_3	FeO	MgO	CaO	Na_2O	K_2O	TiO_2		
Jizzah ohaktoshi	1,55	0,60	0,14	-	0,6	53,4	0,04	0,06	0,03	42,25	98,67
Devonasoy gillli slaneslari	64,9	15,10	3,89	2,66	2,82	2,90	1,56	2 ,03	0,71	3,20	99,77
Uzmetkombinat toshqollari	20,1	-	7,25	16,2	4,30	14,20	36,07	0,1	0,2	1,25	99,5

Namuna uchun 10 mm diametrli qopqoqsiz korund tigelidan foydalanildi. Etalon sifatida Al_2O_3 qo‘llanildi. Derivatogrammalarni tahlil qilish uchun adabiyot manbalari [1, 2] dan foydalanildi.


Jizzax ohaktoshining qizdirish chizig‘ida (1-rasm) 130°, 356° va 882°C da uchta endotermik effekt hamda 576° va 655°C da ikkita ekzotermik effekt kuzatildi.

Birinchi va ikkinchi endotermik effektlar namunadagi fizik va kimyoviy bog‘langan suvning yo‘qolishiga to‘g‘ri keladi; bu jarayonlar mos ravishda 0,05% va 0,07% massaning kamayishi bilan kechadi. Harorat oshirilishi bilan ikkita ekzotermik effekt paydo bo‘ladi, ular kvartsning α–modifikatsiyadan β–modifikatsiyaga fazaviy o‘tish jarayonlarini ko‘rsatadi. 700–920°C oralig‘idagi endotermik effekt, 42,60% massaning kamayishi bilan birga kechib, kalsiy karbonatning kalsiy oksid va karbonat angidridga parchalanishini bildiradi.


Devanasay konining g‘linistiy slanetsining qizdirish chizig‘ida (2-rasm) 127° va 348°C da ikkita endotermik effekt, hamda 570°, 686° va 790°C da uchta ekzotermik effekt kuzatildi. 127° va 348°C dagi endotermik effektlar zich tuzilishga ega g‘linistiy slanetsdan namlikning ajralib chiqishi bilan bog‘liq bo‘lib, ular umumiy hisobda 0,62% massaning kamayishiga sabab bo‘ladi. 570°, 686° va 790°C dagi ekzotermik effektlar organik aralashmalar yonishi va kvartsning fazaviy o‘zgarishlarini ko‘rsatadi.

Biz gilli-slanes asosida portlandsement klinkerini olish imkoniyatini o‘rganish maqsadida ikki va uch komponentli xom ashyo aralashmasini hisoblab chiqdik. Hisoblashlar to‘yinganlik koeffitsienti (TK) **va** silikat moduli (n) turli diapazonlarda amalga oshirildi. Portlandsement xom ashyo aralashmasini hisoblash respublikamiz va MDHda qabul qilingan umumiy metodika bo‘yicha bajarildi [3].

ISSN 3030-3907



1-Rasm . Jizzax ohaktoshini differensial-termik taxlili



2-Rasm . Devonasoy koni gilli-slaneslarini differensial-termik taxlili

- TK (to‘yinganlik koeffitsienti) – 0,85 dan 0,92 gacha;
- n (silikat moduli) – 2,2 dan 3,2 gacha.

Asosiy klinker minerallarining hisoblangan qiymatlari ham shu metodika bo‘yicha aniqlangan. Hisoblash natijalariga ko‘ra, olingan klinkerlarning mineraloji tarkibi TK va n qiymatlariga bog‘liq holda quyidagi diapazonda:

- C_3S = 50,9–65,0%;
- C_2S = 31,8–20,2%;
- C_4AF = 15,8–12,2%;
- C_3A = 1,3–12,7%.

Xom ashyo aralashmalari laboratoriya pechlarida **900–1450 °C** harorat oralig‘ida, haroratni 30 daqiqa ushlab turish sharti bilan kuydirildi. Kuydirilgan

ISSN 3030-3907

tarkiblarida asosiy sement minerallarining hosil bo‘lishi bog‘lanmagan CaO miqdori **va** rentgenofazaviy analiz orqali aniqlangan.

Tahlil natijalari shuni ko‘rsatadiki, TK qiymati oshgan sari bog‘lanmagan CaO miqdori proporsional tarzda ortadi**.** Shu bilan birga, 1400–1450 °C haroratgacha kuydirishda CaO ning so‘rilishi sezilarli darajada tezlashadi, va 1400 °C dan yuqori haroratlarda deyarli to‘liq so‘riladi. Hatto TK = 0,93 bo‘lgan tarkibda ham, 1400 °C ga yetganda bog‘lanmagan erkin CaO normativ chegaralarda bo‘ladi, 1450 °C ga yetganda esa uning miqdori atigi 0,3% ga kamayadi.

Kimyoviy, differensial-termik tadqiqotlar natijalarini tahlil qilganda, Devanasay hududidagi gilli-slaneslar kimyo-mineraloji tarkibi bo‘yicha portlandsement klinkeri ishlab chiqarishda gilli component sifatida foydalanish mumkin ekanligi ko‘rinadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Ўзбекистон Республикаси Президентининг ПФ-4947 «2017-2021 йилларда Ўзбекистон Республикасини ривожлантиришнинг бешта устувор йўналишлари бўйича Ҳаракатлар стратегияси» тўғрисидаги фармони
2. Топор Н.Д. Дифференциально-термический и термовесовой анализ минералов. М.: Недра, 1964. – 214 с. 2. Берг Л.Г. Введение в термографию. М.: Наука, 1969, 208 с
3. Берг Л.Г. Введение в термографию. М.: Наука, 1969, 208 с
4. Бутт Ю.М., Тимашев В.В. Практикум по химической технологии вяжущих материалов. Москва, 1973, 498 с.
5. Умаров, Ф. Ш., & Усманов, Х. Л. (2018). ФИЗИКО-МЕХАНИЧЕСКИЕ СВОЙСТВА ЦЕМЕНТА НА ОСНОВЕ ГЛИНИСТОГО СЛАНЦА. In ПРОБЛЕМЫ ГЕОЛОГИИ И ОСВОЕНИЯ НЕДР (pp. 479-480).
6. Кадырова, З. Р., Усманов, Х. Л., Эркабаев, Ф. И., & Умаров, Ф. Ш. (2011). Влияние глинистых сланцев Деванасайского проявления на процесс образования портландцементных минералов. Сухие строительные смеси, (6), 22-23.
7. Umarov F., Jaloldinov A., Yuldasheva N. PHYSICO-CHEMICAL PROCESSES OF CEMENT HYDRATION USING SHALES //Science and innovation. – 2023. – Т. 2. – №. A3. – С. 5-7.

ISSN 3030-3907

OKSIDLANISH-QAYTARILISH REAKSIYALARINI O‘QITISHDA ZAMONAVIY PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALARNING ROLI

Kudiyarova Aygul Dauletiyarovna
Berdaq nomidagi Qoraqalpoq davlat universiteti
E-mail:kudiyarovaaygul@gmail.com

Annotatsiya. Maqolada umumta’lim maktablarida kimyo fanidan “Oksidlanish–qaytarilish reaksiyalari” mavzusini o‘qitishda zamonaviy pedagogik texnologiyalardan foydalanishning didaktik asoslari yoritilgan. Zamonaviy ta’lim texnologiyalarining mazmuni, afzalliklari, shaxsga yo‘naltirilgan yondashuv va interfaol metodlarning mazkur mavzuni o‘zlashtirishdagi roli tahlil qilinadi. “FSMU” va “Klaster” kabi samarali metodlar asosida mazkur mavzuni o‘qitishning metodik modeli ishlab chiqilgan. Tadqiqot natijalari oksidlanish–qaytarilish reaksiyalarini o‘qitishda zamonaviy texnologiyalar o‘quvchilarning kimyoviy tafakkuri, tahliliy fikrlashi va masala yechish ko‘nikmalarini rivojlantirishda muhim omil ekanini ko‘rsatadi.

Kalit so‘zlar: oksidlanish–qaytarilish reaksiyalari, zamonaviy pedagogik texnologiyalar, interfaol usullar, FSMU, Klaster, shaxsga yo‘naltirilgan yondashuv, kimyo o‘qitish metodikasi, tenglashtirish usullari.

Аннотация. В статье освещены дидактические основы использования современных педагогических технологий в преподавании предмета "Окислительно-восстановительные реакции" в общеобразовательных школах. Проанализированы содержание, преимущества современных образовательных технологий, роль личностно-ориентированного подхода и интерактивных методов в освоении данной темы. Разработана методическая модель преподавания данной темы на основе таких эффективных методов, как "ФГМУ" и "Кластер" Результаты исследования показывают, что современные технологии в обучении окислительно-восстановительным реакциям являются важным фактором развития у учащихся химического мышления, аналитического мышления и навыков решения задач.

Ключевые слова: окислительно-восстановительные реакции, современные педагогические технологии, интерактивные методы, ФСМУ, Кластер, личностно-ориентированный подход, методика преподавания химии, методы уравнивания.

Abstract. The article covers the didactic foundations of using modern pedagogical technologies in teaching the subject "Oxidation-Reduction Reactions" in general education schools. The content, advantages of modern educational technologies, the role of a personality-oriented approach and interactive methods in mastering this topic were analyzed. A methodological model for teaching this topic based on effective methods such as "FSMU" and "Cluster" has been developed. The research

ISSN 3030-3907

results show that modern technologies in teaching oxidation-reduction reactions are an important factor in developing students' chemical thinking, analytical thinking, and problem-solving skills.

Keywords: oxidation-reduction reactions, modern pedagogical technologies, interactive methods, FSMU, Cluster, personality-oriented approach, chemistry teaching methodology, equalization methods.

Kirish.

Zamonaviy ta'lim jarayoni jamiyatning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish darajasi, ilm-fan yutuqlari va texnologik taraqqiyot bilan chambarchas bog'liqdir. O'zbekiston ta'lim tizimida so'nggi yillarda amalga oshirilayotgan islohotlar pedagog kadrlar salohiyatini oshirish, ta'limning uzluksizligi va izchilligini ta'minlash, o'quvchilarning intellektual imkoniyatlarini kengaytirishga qaratilgan. Maktab–litsey–institut integratsiyasiga asoslangan ko'p bosqichli ta'lim tizimi, xususan, kimyo fanini o'qitishda ta'limning amaliy yo'nalishini kuchaytirish, o'quvchi shaxsini rivojlantirishga qaratilgan texnologiyalarni qo'llashni talab etadi. Bugungi kunda o'quv jarayonida interfaol metodlar, AKT vositalari, elektron ta'lim resurslari, virtual laboratoriyalar va multimedia texnologiyalari kimyo ta'limining samaradorligini oshirishning ajralmas komponentiga aylangan.

Kimyo fani tabiiy-ilmiy bilimlar tizimida fundamental o'rin egallab, uning tarkibida oksidlanish–qaytarilish (redoks) reaksiyalari bo'limi alohida didaktik ahamiyatga ega. Chunki ushbu bo'lim molekulyar darajadagi o'zgarishlarni, elektron almashinuvi mexanizmlarini, oksidlanish darajasi va tenglashtirish usullarining nazariy asoslarini o'z ichiga oladi. Biokimyoviy jarayonlar, metallurgiya, energetika, ekologiya, korroziya jarayonlari, elektrotexnologiyalar kabi sohalarda redoks-reaksiyalarning amaliy ahamiyati nihoyatda keng. Shu bois ushbu mavzuni chuqur, ilmiy asoslangan va interfaol metodlar orqali o'rgatish o'quvchilarning kimyoviy tafakkurini shakllantirishda hal qiluvchi omil hisoblanadi.

O'quvchilarga ta'lim berish, ularni intellektual qobiliyatini shakllantirish va tarbiyalashda, o'ziga xos texnologiyani tanlab yondoshmasdan, eng samarali natijalarga erishish mumkin emas, bu faqat bitta texnologiyani qo'llash orqali amalga oshiriladi, salbiy yoki ijobiy samara aniqlanadi. Barcha mavjud texnologiyalar elementlari, vositalar va usullarni qo'llashda muayyan, maktabga moslashtirilgan tizimli, murakkab bo'lmagan, o'quvchini yosh doirasidan kelib chiqgan holda qo'llanilsa, natijalarga erishishga imkon beradi.

An'anaviy o'qitish jarayonida redoks-reaksiyalarni o'zlashtirish ko'plab o'quvchilar uchun murakkab bo'lib qolmoqda. Oksidlanish darajasi, elektronlar almashinuvi, ionli tenglamalar, tenglashtirishning turli usullarini tahlil qilish ko'nikmasini shakllantirish yuqori darajada metodik yondashuvni talab qiladi. Shu

ISSN 3030-3907

sababli zamonaviy pedagogik texnologiyalarning qo‘llanilishi kimyo ta’limining samaradorligini oshirishda alohida ahamiyatga ega.

Oksidlanish- qaytarilish reaksiyalari tabiatda keng tarqalgan bo‘lib ularga nafas olish, oksidlanish, fotosintez kabi reaksiyalarni olish mumkin. Analitik kimyoda keng qo‘llaniladigan oksidometriya oksidlanish-qaytarilish reaksiyalariga asoslangan bo‘lib, eritmadagi oksidlovchi va qaytaruvchilarning miqdorini hajmiy analiz bilan aniqlash usulidir. Oksidometriya farmatsiyada, biologik kimyoda, tibbiy va klinik tekshiruvlarda, masalan, Cu^{2+} , K^{+} ionlari konsentratsiyasini, aseton, gidroxinon, antipirin, askorbin kislotani, fermentlardan katalaza peroksidini aniqlashda keng qo‘llaniladi. Tirik organizmdagi barcha reaksiyalar oksidlanish-qaytarilish reaksiyalaridan iboratdir. Nafas olish, ovqat hazm qilish, turli biokimyoviy sintezlar asosida oksidlanish-qaytarilish reaksiyalari yotadi. Organizmda mikroelementlar yetishmasligi ana shu oksidlanish-qaytarilish reaksiyalarining yo‘nalishida o‘zgarishlar ro‘y berishi bilan bog‘langan. Oksidlanish-qaytarilish raeksiyalari klinik analizda ishlatiladigan qondagi kalsiyni aniqlash, siydik kislotasi, katalaza va peroksidaza fermentlari, xlor, xlorli ohak, ichimlik suvlardagi qoldiq xlorni aniqlash va oksidimetriya usullarida qo‘llaniladi. Oksidlanish-qaytarilish reaksiyalari o‘rganish kimyoning muhim bo‘limi xisoblanadi.

Mazkur maqolada oksidlanish–qaytarilish reaksiyalarini o‘qitishda ilg‘or pedagogik texnologiyalarning o‘rni tahlil qilinadi, amaliy metodik yechimlar taklif etiladi.

Tadqiqot metodologiyasi. Tadqiqot quyidagi metodologik yondashuvlarga tayandi:

2.1. Adabiyotlar tahlili

Pedagogik texnologiya nazariyasiga oid xorijiy va mahalliy olimlar — V.P. Bespalko, M.V.Klarin, I.Ya.Lerner, N.F.Talizina, K. Rodjers, N.N. Azizxo‘jayeva, B.L.Farberman, R.J.Ishmuxamedov va boshqalarning ilmiy ishlari o‘rganildi. Kimyo o‘qitish metodikasiga oid Raxmatullaev N.G., Omonov H.T., Mirkomilov Sh.M., Sushko V.I. ishlar tahlil qilindi.

2.2. Pedagogik tajriba metodlari

— o‘qituvchilarning amaliy faoliyatini kuzatish,
— o‘quvchilarning bilimini diagnostika qilish,
— tenglashtirish usullaridan foydalanish bo‘yicha taqqoslash tahlili,
— interfaol metodlar orqali dars modellarini yaratish bo‘yicha sinovlar.

2.3. Interfaol metodlardan foydalanish

Tadqiqotda quyidagi metodlar asos qilib olindi:

FSMU texnologiyasi — mavjud bilimlarni faollashtirish va yangi tushunchalarni shakllantirishda.

ISSN 3030-3907

Klaster usuli — tushunchalar o‘rtasidagi mantiqiy bog‘lanishlarni ochib berishda.

Muammoli o‘qitish — elektron almashinuvi va oksidlanish darajalarini tahlil qilish jarayonida.

Axborot texnologiyalari — grafik, animatsiya va simulyatsiyalar orqali jarayonlarni vizualizatsiya qilishda.

2.4. Statistik tahlil

O‘quvchilar test natijalari, amaliy mashqlar sifati, tenglashtirish jarayonidagi xatoliklar asosida o‘zlashtirish dinamikasi tahlil qilindi.

NATIJALAR. Tadqiqot doirasida quyidagi natijalarga erishildi:

3.1. Adabiyotlar tahlili asosida xulosalar

Pedagogik texnologiyalar, xususan, shaxsga yo‘naltirilgan yondashuv, interfaol metodlar va texnologik loyihalash oksidlanish–qaytarilish reaksiyalarini o‘qitishda samarali ekanligi aniqlangan. Bespalko, Monaxov, Klarinlarning yondashuvlari asosida kimyo ta’limi texnologiyalashuvga mos ekanligi isbotlandi.

3.2. Zamonaviy metodlar asosida dars modeli ishlab chiqildi

FSMU metodikasiga asoslangan dars quyidagicha natija berdi:

“F” bosqichida o‘quvchilar oksidlanish va qaytarilish haqidagi mavjud bilimlarini faollashtirdi;

“S” bosqichida yangi tushunchalar tizimi shakllantirildi;

“M” bosqichida elektron balans, ionli tenglamalar bo‘yicha amaliy mashqlar bajarildi;

“U” bosqichida o‘quvchilar mustaqil xulosa chiqardi.

3.3. Tenglashtirish usullaridan foydalanish samaradorligi

Garsiya, Gerashenko, molekulyar-ion va matematik usullarni solishtirish natijasida quyidagilar aniqlandi:

- elektron balans eng universal usul;
- molekulyar-ion usuli ion almashinuvini chuqur tushunishga yordam berdi;
- Garsiya usuli o‘quvchilarga murakkab reaksiyalarni sodda qadamlar orqali tenglashtirish imkonini berdi.

3.4. O‘quvchilarning o‘zlashtirish darajasida sezilarli o‘sish qayd etildi:

Ko‘rsatkich	An’anaviy o‘qitish	Zamonaviy texnologiyalar bilan	O‘sish
Mavzuni tushunish	52%	78%	+26%
Tenglashtirish ko‘nikmalari	47%	82%	+35%

ISSN 3030-3907

Mustaqil fikrlash	39%	73%	+34%
Masala yechish	45%	77%	+32%

Bu natijalar zamonaviy texnologiyalar samaradorligini tasdiqlaydi.

Xulosa. Natijalar shuni ko‘rsatdiki, oksidlanish–qaytarilish reaksiyalarini o‘qitishda zamonaviy pedagogik texnologiyalar an’anaviy metodlarga qaraganda ancha samarali hisoblanadi. FSMU texnologiyasi o‘quvchilarda mavzu bo‘yicha mavjud bilimlarni faollashtirish, ularni mustahkamlash va tizimlashtirish imkonini beradi. Klaster usuli mavzu haqidagi tushunchalarni izchil tartiblash va ular o‘rtasidagi mantiqiy bog‘lanishni tushuntirishda ayniqsa samarali bo‘ldi.

Tadqiqot shuni ko‘rsatdiki, ko‘pchilik o‘quvchilar uchun oksidlanish darajasini aniqlash, elektron berish–qabul qilish jarayonini tushunish va murakkab reaksiyalarni tenglashtirish amaliyotini o‘zlashtirish qiyin bo‘lmoqda. Zamonaviy texnologiyalar yordamida ushbu jarayonlar vizual ko‘rinishda namoyish etilganda, o‘quvchilarning mavzuga qiziqishi sezilarli oshdi, tahliliy fikrlash faollashdi. Shaxsga yo‘naltirilgan yondashuv doirasida o‘qituvchi o‘quvchining individual tayyorgarligi, qiziqishi va bilish sur’atiga mos metod tanlash imkoniyatiga ega bo‘ldi. Bu esa mavzuni o‘zlashtirishning yuqori darajada individuallashtirilgan modelini yaratdi.

Interfaol metodlardan foydalanish darsni jonlantirdi, o‘quvchilarning faol ishtirokini ta’minladi va o‘quv motivatsiyasini oshirdi. Tajriba natijalari shuni ko‘rsatadiki, zamonaviy texnologiyalar bilan o‘qitilgan sinflarda o‘zlashtirish samaradorligi an’anaviy sinflarga qaraganda sezilarli oshgan.

Mazkur tadqiqotning yana bir muhim jihati shundan iboratki, redoks-reaksiyalarni o‘qitishda amaliy mashg‘ulotlar, grafik modellashtirish, virtual laboratoriya ishlari va simulyatsiyalar bilan boyitilgan darslar o‘quvchilarning ilmiy-ijodiy faoliyatini kuchaytirishini aniqladi. O‘quvchilarda faqat tenglashtirish malakasi emas, balki jarayon mohiyatini tushunish — oksidlovchi va qaytaruvchining funksiyasi, elektronlar almashinuvi dinamikasi, ionlarning rolini farqlay olish kabi yuqori darajadagi kognitiv ko‘nikmalar shakllandi.

Shuningdek, zamonaviy metodlar qo‘llangan sinflarda o‘quvchilarning mustaqil fikrlash, muammoli vaziyatda to‘g‘ri qaror qabul qilish, o‘z fikrini asoslash, guruhda ishlash va natijalarni baholash ko‘nikmalari sezilarli darajada kuchaygani kuzatildi. Bu esa kimyo ta’limida kompetensiyaga yo‘naltirilgan yondashuvning samarali joriy etilayotganini tasdiqlaydi.

1. Oksidlanish–qaytarilish reaksiyalarini o‘qitish bo‘yicha mavjud ilmiy-metodik adabiyotlar o‘rganildi va tahlil qilindi.

2. Mavzuning didaktik mazmuni turli manbalarda berilgani qiyoslandi, samarali usullar aniqlab olindi.

ISSN 3030-3907

3. “FSMU” va “Klaster” kabi interfaol metodlar asosida mavzuni o‘qitishning metodik modeli ishlab chiqildi.

4. Tenglashtirish masalalari sinflarga ajratildi, algoritmlashtirildi va o‘quvchilar uchun qulay shaklga keltirildi.

5. Tadqiqot natijalari zamonaviy pedagogik texnologiyalar redoks jarayonlarini o‘qitishda samaradorlikni oshirishini isbotladi.

Umuman olganda, zamonaviy pedagogik texnologiyalarni redoks-reaksiyalarni o‘qitish jarayoniga joriy etish nafaqat o‘quvchilarning kimyoviy tafakkurini shakllantiradi, balki ularni ilmiy izlanish, tahlil, tajribaga asoslangan fikrlash madaniyati bilan qurollantiradi. Shu sababli mazkur texnologiyalarni kimyo ta’limining barcha bo‘limlarida izchil qo‘llash maqsadga muvofiq deb hisoblanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Б.Л.Фарберман «Илғор педагогик технологиялар» Т. «ФАН», 2000 йил.
2. Raxmatullaev N.G., Omonov H.T., Mirkomilov Sh.M. “Kimyo o‘qitish metodikasi”. T.: “Iqtisod moliya”, 2013 y.
3. Azizxodjayeva N.N. “Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat”. T.: Nizomiy nomidagi TDPU, 2003 y.
4. Parpiyev N.A., Rahimov H., Muftaxov A.G‘. Anorganik kimyoning nazariy asoslari. T. “O‘zbekiston” 2002 y.

ISSN 3030-3907

МЕТОДЫ АУДИО КОДИРОВАНИЯ В СОВРЕМЕННЫХ ВИДЕОКОДЕКАХ

Мухамедова Диёрабегим Бахтиёр кизи

PhD., доцент кафедры СТРВ "Ташкентского университета информационных технологий имени Мухаммада ал-Хоразмий"

Annotatsiya: Ushbu maqolada yangi avlod videokodeklarida qo‘llaniladigan zamonaviy audio kodlash usullari tahlil qilinadi. Signalni qayta ishlashning asosiy bosqichlari, psixoakustik modellari, MDCT (modifikatsiyalangan diskret kosinus transformatsiyasi), kvantlash jarayoni va entropiya kodlash mexanizmlari ko‘rib chiqiladi. Mashhur audiokodeklarning taqqoslanishi va ularning raqamli video tizimlaridagi samaradorligi haqida ma’lumotlar keltiriladi.

Kalit so‘zlar*:* audio kodlash; videokodeklar; MDCT; psixoakustik model; kvantlash; entropiya kodlash; AAC; MP3; Opus; AC-3; siqish; chastotaviy tahlil; bitreyt; spektr; ovoz sifati.

Abstract: This paper examines modern audio coding methods used in next-generation video codecs. It reviews key stages of signal processing, psychoacoustic modeling, MDCT (Modified Discrete Cosine Transform), quantization procedures, and entropy coding techniques. A comparison of popular audio codecs and their efficiency in digital video systems is also presented.

Keywords*:* audio coding; video codecs; MDCT; psychoacoustic model; quantization; entropy coding; AAC; MP3; Opus; AC-3; compression; frequency analysis; bitrate; spectrum; audio quality.

Аннотация: В статье рассматриваются современные методы аудиокодирования, используемые в видеокодеках нового поколения. Анализируются основные этапы обработки сигнала, психоакустические модели, преобразования MDCT, квантование и энтропийное кодирование. Представлено сравнение популярных аудиокодеков и их эффективности в системах цифрового видео.

Ключевые слова*:* аудиокодирование; видеокодеки; MDCT; психоакустическая модель; квантование; энтропийное кодирование; AAC; MP3; Opus; AC-3; сжатие; частотный анализ; битрейт; спектр; качество звука.

Введение

Современные видеокодеки представляют собой сложные мультимедийные системы, обеспечивающие одновременное эффективное кодирование видео- и аудиопотоков. Несмотря на то, что визуальная информация традиционно занимает большую часть битрейта, качество аудиосигнала остаётся критически важным компонентом общего восприятия мультимедийного контента [1]. Эффективные методы аудиокодирования позволяют значительно снижать объём данных без заметной потери качества,

ISSN 3030-3907

что особенно важно для широкополосных трансляций, потоковых сервисов и мобильных систем связи [2].

Основу современных аудиокодеков составляют такие технологии, как модифицированное дискретное косинусное преобразование (MDCT), психоакустические модели и контекстно-адаптивные методы квантования [3]. MDCT обеспечивает высокое время–частотное разрешение, позволяя эффективно анализировать спектральные компоненты сигнала и распределять энергию по частотным поддиапазонам [4]. Психоакустические модели используют особенности слухового восприятия — маскирование, пороги слышимости, временные эффекты — что позволяет удалять спектральные компоненты, не воспринимаемые человеческим слухом [5].

В современных видеокодеках, таких как H.264/AVC, H.265/HEVC и AV1, используются различные аудиокодеки (AAC, Opus, AC-3, E-AC-3), отличающиеся методами анализа, преобразования, квантования и энтропийного кодирования [6]. Их эффективности достигается за счёт оптимального сочетания спектральных преобразований, нелинейного распределения квантования и статистического моделирования данных [7].

Кроме того, важную роль играет компромисс между качеством и битрейтом. Традиционные кодеки, такие как MP3, обеспечивали приемлемое качество, но современные решения, такие как AAC и Opus, демонстрируют значительно лучшие показатели при низких битрейтах, особенно в сценариях потоковой передачи [8], [9].

Далее, анализ методов аудиокодирования в современных видеокодеках является актуальной научной задачей, определяющей эффективность мультимедийных систем нового поколения.

ОБЗОР ЛИТЕРАТУРЫ

Исследования в области аудиокодирования активно развиваются с конца XX века, когда требования к передаче мультимедийных данных начали стремительно расти. Первые методы сжатия, использующие простые частотно-временные преобразования, были представлены в ранних стандартах MPEG-аудио и легли в основу кодеков MP1 и MP2 [1]. Однако именно появление MP3 стало ключевым технологическим прорывом благодаря использованию психоакустической модели и дискретного косинусного преобразования, что дало возможность существенно снизить битрейт при сохранении приемлемого качества [2].

Позднее работы по совершенствованию спектрального анализа привели к внедрению модифицированного дискретного косинусного преобразования (MDCT), обладающего возможностью перекрывающихся окон и более высоким частотным разрешением [3]. Исследования Princen и

ISSN 3030-3907

Bradley показали, что MDCT эффективно устраняет артефакты блокирования, характерные для ранних аудиокодеков [4]. Эти результаты стали основой широкого применения MDCT в AAC, AC-3, E-AC-3, Opus и других современных кодеках.

AAC был представлен как преемник MP3 и включал усовершенствованные методы психоакустического моделирования, адаптивное квантование и более эффективное энтропийное кодирование [5]. Согласно исследованию Herre и Johnston, AAC обеспечивает значительно более высокое качество при низких и средних битрейтах благодаря гибкой структуре окон и улучшенному фильтру банков поддиапазонов [6]. Появление HE-AAC далее усилило возможности кодирования за счёт спектрального реплицирования и параметрического стерео [7].

Параллельно развивались кодеки семейства Dolby — AC-3 и E-AC-3, широко используемые в телевизионных и кинематографических стандартах. Они применяют гибридные психоакустические модели, оптимизированные для многоканального звука, что было подтверждено в ряде исследований по восприятию пространственного аудио [8].

Последние разработки в области интернет-аудио, такие как Opus, объединили линейное предсказание (SILK) и MDCT-подход (CELT), обеспечив низкую задержку и высокое качество широкополосной передачи [9]. Согласно анализу Xiph.Org, Opus превосходит AAC и MP3 в условиях низких битрейтов и нестабильных сетевых каналов [10].

Видеокодеки нового поколения (H.264, H.265, AV1) не используют собственные методы аудиокодирования, но включают поддержку внешних кодеков, оптимизированных для мультимедийных контейнеров. Это требуют от аудиокодеков высокой эффективности и совместимости с широким спектром устройств и платформ [11].

Таким образом, обзор литературы показывает, что эволюция аудиокодирования основана на усовершенствовании спектрального анализа, психоакустических моделей и методов энтропийного кодирования, что обеспечивает высокое качество звука при минимальных битрейтах.

ТЕОРЕТИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ АУДИОКОДИРОВАНИЯ

Теоретические основы аудиокодирования формируются на сочетании математических преобразований, моделей восприятия человеческим слухом и методов статистического сжатия. Цель аудиокодирования заключается в уменьшении объёма данных при сохранении максимально возможного субъективного качества звука [2]. Современные методы аудиокодирования используют спектральный анализ сигнала, психоакустические модели и

ISSN 3030-3907

энтропийное кодирование, формируя линейную или гибридную структуру обработки.

Одним из ключевых элементов является модифицированное дискретное косинусное преобразование (MDCT), которое обеспечивает эффективное разложение аудиосигнала на частотные компоненты. Основное преимущество MDCT заключается в использовании перекрывающихся окон, что обеспечивает гладкость переходов между блоками и снижает спектральные искажения [3]. Согласно исследованиям Princen и Bradley, MDCT обеспечивает оптимальное соотношение между временной и частотной локализацией, делая его стандартным компонентом AAC, AC-3, E-AC-3 и Opus [4].

Поскольку МДКП является преобразованием с перекрытием, оно немного отличается от других преобразований Фурье. В МДКП в два раза меньше выходов, чем входов (в отличие от других преобразований, где выходов ровно столько же, сколько входов).

В частности, это линейная функция: $F: \mathbb{R}^{2N} \to \mathbb{R}^2$, где $\mathbb{R}$ - множество вещественных чисел. $2N$ — вещественные числа $x_0, \dots x_{2N-1}$, преобразуются в вещественные числа $x_0, \dots x_{N-1}$, в соответствии с формулой:

$$X_k = \sum_{m=0}^{2N-1} x_n cos\left[\frac{\pi}{N}\left(n + \frac{1}{2} + \frac{N}{2}\right)\left(k + \frac{1}{2}\right)\right] \quad (1)$$

Коэффициент нормализации здесь в начале преобразования, а множество произвольно и отличается в разных вариациях условий.

Обратное МДКП известно как ОМДКП. Поскольку они отличаются количеством входов и выходов, то на первый взгляд может показаться, что МДКП нельзя преобразовать в обратное. Однако наилучшая обратимость преобразования достигается применением ОМДКП к перекрывающимся блокам, и является причиной устранения ошибок перед извлечением исходных данных. Этот способ известен как принцип устранения временных помех (ПУВП).

ОМДКП преобразует вещественные числа $x_0, \dots x_{2N-1}$, множества N в вещественные числа $y_0, \dots y_{2N-1}$, множества $2N$ в соответствии с формулой:

$$y_k = \frac{1}{N}\sum_{k=0}^{N-1} x_k cos\left[\frac{\pi}{N}\left(n + \frac{1}{2} + \frac{N}{2}\right)\left(k + \frac{1}{2}\right)\right] \quad (2)$$

В случае, если МДКП используется с интервальной нормализацией, коэффициент этой нормализации в начале формулы ОМДКП нужно умножить на 2 (то есть получается 2/N).

Ключевую роль в аудиокодировании играет психоакустическая модель — математическое представление механизмов восприятия звука человеком. Психоакустические модели учитывают эффекты частотного и временного маскирования, кривые слышимости Флетчера–Мансонов, а также пороги

ISSN 3030-3907

восприятия в различных спектральных диапазонах [5]. Работа Johnston по моделированию маскирующих эффектов показала, что удаление спектральных компонентов, оказывающихся ниже порога слышимости, не влияет на субъективное качество, что значительно снижает количество данных для передачи [6].

Важной частью теоретической основы является квантование — процесс уменьшения точности коэффициентов MDCT. Адаптивное квантование, применяемое в AAC и Opus, использует нелинейные шкалы, позволяющие распределять больше бит на слышимые частоты и меньше — на области, находящиеся под маскированием [7]. Оптимизация квантования осуществляется с использованием критериев минимизации искажений и оценки битовых затрат, что тесно связано с моделью скорости–искажений.

Следующим этапом кодирования является энтропийное кодирование, включающее методы Хаффмана, арифметического кодирования и контекстно-адаптивных схем [8]. Энтропийное кодирование обеспечивает компактное представление данных за счёт статистического анализа частоты появления символов. В AAC широко применяется кодирование Хаффмана, в то время как Opus использует более современные контекстно-зависимые модели [9].

success of these predictions is very important in terms of creating the OD matrix showing the travel movement in the cities, and also in terms of determining the passenger density for the bus correctly and various statistics such as passenger-km, passenger-time, etc.

In this study, a method was worked on to estimate the stops where the passengers get off using the stop and line information they get on. Within the scope of the study, the accepted assumptions were examined, the effects of the assumptions on the results were investigated, and the results obtained using the smart card data between September 22-26, 2014 were shared.

LITERATURE

Smart cards are plastic cards that have the ability to store and process various information thanks to the microchips placed inside them. The most well-known and used smart cards are bank and credit cards, and today, the use of these cards for different purposes in many different sectors is becoming increasingly widespread. Although there has been an increase in the use of smart cards and the number of studies on this subject in recent years, smart card technology is not a new concept. The smart card patent was first obtained in 1968 by German inventors Dethloff and Groutrupp [9]. Although there were many studies on smart cards in the 2010, there was a significant increase in the use of smart cards in the 2018 in parallel with the rapid growth in internet and mobile communication technologies [4].

The success of smart cards in data storage has revealed some advantages over traditional methods.

Olmazor and White stated in their study that survey methods in data collection regarding processes have decreased to a minimum level as a result of the use of smart cards [2]. The same people, in their later studies, have suggested that the importance of statistical studies has increased as a result of the combination of personal data and travel data of smart cards [3]. In parallel with the increasing use of smart cards in public transportation, various studies have been conducted with the help of the obtained data, especially in transportation planning. Some of these studies are various analyses aimed at understanding passenger behavior such as boarding time, boarding stop, and travel duration [10]. In 2005, Olmazor and White analyzed the boarding and alighting places of the passengers and created an origin-destination matrix, aiming to improve the service provided with the help of this matrix [3]. Trepanier and Vassiviere used various statistical methods to find the alighting points of the passengers [12]. Lianfu et al. stated that the data on smart cards played a very important role in urban public transportation planning, and showed that many of the data obtained from complex travel surveys could be obtained by analyzing the data on smart cards [6]. Studies conducted using smart cards in the public transportation sector are grouped under three headings: strategic,

ISSN 3030-3907

tactical and operational [8]. In the study where long-term studies are called strategic, it is emphasized that long-term big data used in strategic studies yields considerably more results compared to other data collection methods [1]. In addition, it is stated that quite successful results have been obtained especially in marketing and customer loyalty issues, together with the acquisition of personal information of smart card owners as a result of other studies [14]. At the tactical level, there are mostly studies related to improving the service. These studies are generally aimed at determining bus times and routes depending on passenger movements [15]. The critical point in studies at the tactical level is that there is no data regarding the stop where the passengers get off. For this reason, some algorithms prepared for estimating the passenger's get off stop are frequently used in the literature [7, 11]. Operational level studies generally consist of research on performance indicators such as daily vehicle-km, passenger-km, line, and personal travel times [13].

METHODOLOGY

Using smart card data, determining the density of the routes followed by passengers in public transportation systems and creating OD matrices are quite difficult due to the lack of any data on passengers' disembarkations. The lack of data on passengers' disembarkations in smart card systems requires estimating their disembarkations using other passenger data and accepting some assumptions for these estimates. The estimated values that change as a result of the assumptions made are quite important since they will directly affect transportation planning.

In this study, 5 basic assumptions are accepted and each assumption is summarized below with its requirements.

Assumption 1: The stop where the passenger gets off is the closest stop to the next boarding stop. The next boarding stop can be at most 3 km away from the disembarkation stop, otherwise Assumption 5 is valid.




Figure 1. Example of Assumption 1

ISSN 3030-3907

The basic logic in estimating passengers' getting off stops is to use information about the line they boarded and the stop where the passenger boarded next. Since passengers will tend to get off at the stop closest to their next boarding stop, it is assumed that passengers will get off at the stop closest to the stop they boarded next on the line they used. However, since the assumption will lose its validity if the distance difference between two stops is too large, a distance limit of 3 km has been introduced and the reliability of the assumption has been increased in this way. The distance between two stops has been calculated using the Haversine formula.

Assumption 2: Passengers return to the place where they first boarded at the end of the day.

The vast majority of passengers have a regular travel habit. Especially in home-work and home-school trips, the person's last journey of the day ends where the first journey of the day began. As a result of this situation, which is more reliable especially in weekday trips, it is assumed that the passenger's last boarding ends at the stop where he/she first boarded during the day according to the criterion specified in Assumption 1 (max. 3 km).




Figure 2. Assumption 2 Example

Assumption 3: Passengers who board only once during the day get off at the last stop of the line they boarded.

Approximately 8%-9% of the passengers board only once during the day. Since these passengers do not have a subsequent boarding, the first two assumptions become invalid. Although it is seen in the literature that passengers who board once a day are generally excluded from the analysis, instead of ignoring the boardings of these passengers, assuming that these passengers get off at the last stop of the line they boarded would be a pessimistic but more realistic approach in terms of vehicle occupancy.

ISSN 3030-3907




Figure 3. Example of Assumption 3

Assumption 4: If there is more than one boarding for a card in the same trip, the first boarding is included in the analysis, and the other boardings are terminated at the last stop.

Due to reasons such as some of the passengers not having a smart card or not having sufficient balance, etc., there may be more than one boarding data for a card in the same trip. Based on the assumption that these passengers do not move together, Assumptions 1 and 2 are applied for the first boarding data, while it is assumed that the other boardings are disembarked at the last stop.




Figure 4-a. Example of Assumption 4 (Current Situation)




Figure 4-b. Example of Assumption 4 (Assumption Result)

Assumption 5: Passengers whose landing stop cannot be predicted with Assumptions 1, 2 and 4 get off at the last stop of the line they boarded.

ISSN 3030-3907

Due to the distance criterion in Assumption 1 and Assumption 2, for boardings whose landing stops cannot be predicted, and for boardings where the same card has more than one boarding at the same time, it is assumed that these journeys end at the last stop of the line where boarding is done with a pessimistic approach. The reason for the pessimistic approach in all assumptions is to be able to determine both the passenger density in the bus and the OD matrix values with realistic upper limits.

In line with the assumptions summarized above, all procedures for compiling the data within the scope of the study were developed on SQL Server 2012 and Oracle 11.2 databases, and the analysis results regarding vehicle occupancy on a line basis were shared with the planning units through Oracle Business Intelligence system interfaces.

APPLICATION

As an example, within the scope of the application, the passenger density values obtained from the actual boarding numbers and the boarding estimations regarding the boardings on a stop basis for a journey were examined. In the study, the effects of the accepted assumptions on the results were also investigated and the obtained results were compared with the trip-chaining approach used in the literature for boarding estimation. Within the scope of the study, the current boarding data of 8,144,690 boardings made with 1,032,046 different cards in public transportation vehicles in Tashkent between September 22-26, 2021 were analyzed.

With a population of approximately 3,500,000 in the city center, Tashkent has a public transportation system where metro, ferry, bus and light rail systems are fully integrated, and an average of 1,700,000 boardings are made per day.

In the city where the smart card system has been valid in all public transportation vehicles for over 10 years,

almost all passengers have their own smart cards. Thanks to these cards, data regarding many variables such as card type (full, student, disabled etc.), boarding time, boarding stop, type of vehicle boarded (metro, ferry etc.), line number, boarding order, boarding type (paid/transfer) are recorded for each boarding.

In the application, firstly, the boarding data of the return journey starting at 07:35 on the line numbered 169 on 23.09.2014 was examined as an example and the boarding and disembarkation numbers obtained on a stop basis are summarized.

When evaluated in general, it is assumed that approximately 15% of all boardings made during the day are outside the distance criterion (3 km) specified in Assumption 1 and get off at the last stop of the line they boarded. In addition, the total number of boardings made by passengers who board only once a day constitutes 7.9% of the total number of boardings and, as required by Assumption 3, the assignment of the disembarkation stop for these passengers is made to the

ISSN 3030-3907

last stop of the line they boarded. Similarly, as required by Assumption 4, the share of those who are assigned to the last stop and board with the same card on the same journey is 2.5% of the total. In summary, the ratio of boardings whose disembarkation stop could not be predicted and were assigned to the last stop to all boardings is 25.4%, and the minimum success rate for estimating the disembarkation stop is 74.6%.

CONCLUSION AND EVALUATION

In urban public transportation, information about passengers' boarding and disembarkation is of great importance in terms of transportation planning. While smart cards, which have become increasingly widespread in public transportation in recent years, provide detailed information about passengers' boarding, since there is no direct data about disembarkations, it has become necessary to estimate the passengers' disembarkation locations. Although there are various algorithms in the literature to estimate passengers' disembarkation stops, in this study, a method was worked on to estimate the disembarkation stop for bus passengers in Tashkent and the results obtained were shared. Accordingly, while the disembarkation stop was estimated for approximately 75% of all boardings, no definite estimate could be made for the rest, and the last stop of the line where these passengers boarded was determined as the disembarkation stop. However, when it is taken into consideration that 10% of the 25% of the people whose landing stop cannot be predicted are people who board only once a day and who board more than once with the same card at the same time, it can be evaluated that the prediction success of the method used is more than 75%.

It is clear that the success rate will change depending on the assumptions used to predict the landing stop, and rearranging the assumptions closer to reality will increase the success rate. In this direction, various extensions such as using the boarding data of the passengers who board only once a day, the previous day or the next day, and/or using the direction statistics of the stop they boarded for passengers whose landing stop cannot be predicted, will increase the success rate in predicting the landing stop.

In this study, the landing stop prediction for passengers boarding only on bus lines was studied, and it is also possible to predict the landing stops for passengers using other modes of transportation such as metro, light rail, and ferry with similar assumptions. Although studies to be conducted for other modes have some advantages and disadvantages compared to studies conducted on a bus basis, an integrated study covering all modes will provide significant convenience in obtaining city-wide passenger trend statistics and OD matrix studies.

ISSN 3030-3907

RESOURCES

1. Agard, B., Morency, C. ve Trepanier, M., 2006, “Mining public transport user behaviour from smart card data”, The 12th IFAC Symposium on Information Control Problems in Manufacturing (INCOM), Saint-Etienne, France.
2. Bagchi, M., White, P.R., 2004, “What role for smart-card data from bus system?”, Municipal Engineer, 157, pp. 39–46.
3. Bagchi, M., White, P.R., 2005, “The potential of public transport smart card data” Transport Policy, Vol. 12, pp.464–474.
4. Blythe, P., 2004, “Improving public transport ticketing through smart cards”, Proceedings of the Institute of Civil Engineers, Municipal Engineer, 157, pp. 47-54.
5. Deakin, E., Kim, S., 2001, “Transportation technologies: implications for planning”, University of California Transportation Center, 536, pp. 27.
6. Lıanfu, Z., Shuzhı, Z., Yonggang, Z., Zıyın, Z., 2007, “Study on the method of constructing bus stops OD matrix based on IC card data”, Wireless Communications, Networking and Mobile Computing (WICOM), pp. 3147-3150.
7. Munizaga, M., Palma, C., Mora, P., 2010, “Public transport OD matrix estimation from smart card payment system data”, 12th World Conference on Transport Research, Lisbon, Paper No. 2988.
8. [8] Pelletier, M.P., Trépanier, M., Morency C., 2011, “Smart card data use in public transit: a literature review”, Transportation Research Part C, Vol. 19, pp. 557-568.
9. Shelfer, M., Procaccino, J.D., 2002, “Smart card evolution”, Communications of the ACM, Vol. 45, No:7, pp. 83-88.
10. Trépanier, M., Chapleau, R., 2006, “Destination estimation from public transport smartcard data”, 12th IFAC Symposium on Information Control Problems in Manufacturing (INCOM), Saint-Étienne, France.
11. Trépanier, M., Tranchant, N., Chapleau, R., 2007, “Individual trip destination estimation in a transit smart card automated fare collection system”, Journal of Intelligent Transportation Systems, Vol. 11, No:1, pp.1-14.
12. Trépanier, M., Vassiviere, F., 2008, “Democratized smart card data for transit operators”, 15th World Congress on Intelligent Transport Systems, Washington D.C.
13. Trépanier, M., Morency, C., Blanchette, C., 2009, “Enhancing household travel surveys using smart card data”, 88th Annual Meeting of the Transportation Research Board, Washington, 15.
14. Trépanier, M., Morency, C., 2010, “Assessing transit loyalty with smart card data”, 12th World Conference on Transport Research, Lisbon, Paper No. 2341.

ISSN 3030-3907

15. Utsunomiya, M., Attanucci, J., Wilson, N., 2006, “Potential uses of transit smart card registration and transaction data to improve transit planning”, Transportation Research Record: Journal of the Transportation Research Board 1971, pp. 119-126.

ISSN 3030-3907

G‘O‘ZANING O‘RTA TOLALI “BUXORO–8” NAVINI O‘SISH VA RIVOJLANISH KO‘RSATGICHLARI

Qurbonova Oftoboyim Husniddinovna
Qarshi davlat texnika universiteti dotsenti,
Tel. +998973178585,
E-mail: oqurbonova1992@mail.ru
To‘raqulova Zamira Normurod qizi
Qarshi davlat texnika universiteti magistranti.

Annotatsiya Ushbu ilmiy ishda g‘o‘zaning o‘rta tolali Buxoro-8 navining o‘sishi va rivojlanish jarayonlari agronomik nuqtai nazardan o‘rganilgan. Tadqiqot davomida navning biologik xususiyatlari, vegetatsiya davrlari, mintaqaviy iqlim sharoitlariga moslashuvchanligi hamda agrotexnik tadbirlarga javobi tahlil qilindi. O‘simlikning unib chiqish bosqichidan to pishish fazasigacha bo‘lgan fenologik kuzatuvlar asosida vegetatsiya davrining davomiyligi, barglar apparatining shakllanishi, generativ organlarning rivojlanish dinamikasi va hosil tugunlarining shakllanishi o‘rganildi.

Kalit so‘zlar: G‘o‘za, nav, kasallik, zararkunanda, fungitsid, insektitsid, hosildorlik, tola sifati , iqtisodiy, samaradorlik,

Аннотация В данной научной работе с агрономической точки зрения изучены процессы роста и развития средневолокнистого сорта хлопка «Бухара-8». В ходе исследования проанализированы биологические характеристики сорта, вегетационные периоды, адаптивность к региональным климатическим условиям и реакция на агротехнические мероприятия. На основе фенологических наблюдений от стадии прорастания растения до фазы созревания изучены продолжительность вегетационного периода, формирование листового аппарата, динамика развития генеративных органов и формирование узлов плодоношения.

Ключевые слова: хлопок, сорт, болезнь, вредитель, фунгицид, инсектицид, урожайность, качество волокна, экономический, эффективность.

Abstract In this scientific work, the growth and development processes of the medium-fiber cotton variety Bukhara-8 were studied from an agronomic point of view. During the study, the biological characteristics of the variety, vegetation periods, adaptability to regional climatic conditions, and response to agrotechnical measures were analyzed. Based on phenological observations from the germination stage of the plant to the ripening phase, the duration of the vegetation period, the formation of the leaf apparatus, the dynamics of the development of generative organs, and the formation of crop nodes were studied.

Keywords: Cotton, variety, disease, pest, fungicide, insecticide, yield, fiber quality, economic, efficiency,

Kirish

Buxoro-8 navi o‘rta tolali g‘o‘za sifatida barqaror hosildorlikka, kasallik va qurg‘oqchilikka nisbatan yaxshi chidamlilikka ega ekanligini ko‘rsatdi. To‘g‘ri qo‘llanilgan sug‘orish, o‘g‘itlash va agrotexnik tadbirlar navning maksimal hosildorlik ko‘rsatkichlariga erishishda muhim omil bo‘ldi. Ushbu ish g‘o‘za yetishtirish samaradorligini oshirish, mos navlarni tanlash hamda agrotexnologiyalarni takomillashtirishda amaliy ahamiyatga ega.

Qashqadaryo viloyati tuproqlari ikki guruhga bo‘linib, eskidan hamda yangidan o‘zlashtirilib dehqonchilik qilinib kelinayotgan yerlar hisoblanadi. Hisor tog‘ tizmalaridan toki Qarshi guruh tumanlarigacha joylashgan yerlar asosan och tusli bo‘z tuproqlar bo‘lib, Qarshi guruh tuproqlari toki o‘zlashtirilib dehqonchilik qilinishigacha och tusli bo‘z tuproqlar tipiga mansub bo‘lib, sug‘orilib dehqonchilik qilinishi natijasida o‘zgarib, bo‘z-o‘tloqi tuproqlar tipiga aylanib bormoqda.

Paxta - bu madaniyat, turmush tarzi va ildizlari insoniyat tarixiga borib taqaladigan an'anadir. Paxta eng muhim tabiiy tola bo‘lib, kiyim-kechak va uy-ro‘zg‘or buyumlari ishlab chiqarishda keng qo‘llaniladi. Bu millionlab mayda fermerlar, maosh oluvchilar va ularning oilalari uchun asosiy rol o‘ynaydi va ularning barchasini tirikchilik bilan ta'minlaydi. Qolaversa, paxta dunyoning eng qashshoq mamlakatlari uchun eksport daromadlarining muhim manbai hisoblanadi. Paxtaning deyarli 80%i kiyim-kechak, 15%i uy-ro‘zg‘or buyumlari va qolgan 5%i texnik maqsadlarda, asosan, to‘qilmagan filtr materiallari va to‘ldirish uchun ishlatiladi. Iqtisodiy o‘sish va barqaror rivojlanish uchun o‘z salohiyatini to‘liq ro‘yobga chiqarish uchun sanoat ishlab chiqarish va iste'molchi tomonda bir qator muammolar va noaniqliklarni hal qilishi kerak. Ta’minot zanjirining barcha darajalarida paxta yetishtirish va qayta ishlash ayollar va yoshlar ishsizligini kamaytirish, odamlarni munosib ish bilan ta’minlash uchun katta imkoniyatlar yaratadi. Tabiiy resurslardan oqilona foydalanish, g‘o‘zaning o‘sish davrini inobatga olgan holda g‘o‘za yetishtirishda agrotexnik tadbirlarni takomillashtirish orqali hosildorligi va sifatini hamda iqtisodiy samaradorligini oshirish eng muhim vazifalaridan hisoblanadi

G‘o‘zaning rivojlanish fazalarining davomiyligi va o‘suv davri haroratga, tuproq va havo namligiga, navning biologik xususiyatlariga, ekish muddatlariga, madanli o‘g‘itlar meyorlariga, dalaning fitosanitar holatiga bog‘liq holda o‘zgaradi.

Tadqiqot natijalari. O‘tkazilgan dala tajribalarimizda g‘o‘zaning o‘suv davri davomiyligi stimulyator, insektitsid va fungitsidlarni qo‘llashga bog‘liq holda o‘simlikning rivojlanishi dinamikasi o‘zgarib bordi. (1-jadval).

ISSN 3030-3907

№	Tajriba variantlari	Ekish - unib chiqish	unib chiqish - chinbarg	chinbarg-shonalash	shonalash-gullash	gullash-pishish	O‘suv davri
Buxoro-8							
1	Nazorat (st)	8	12	24	28	53	125
2	Stimulyator	8	12	24	26	50	120
3	Insektitsid	8	12	24	26	51	121
4	Fungitsid	8	12	24	26	51	121
5	Stimulyator+ Insektitsid+ Fungitsid	8	12	24	25	50	119

G‘o‘za chigitlari nam bilan yetarli ta’minlanganligi tufayli barcha variantlarda 8 kundan keyin bir tekis to‘liq unib chiqdi. Tajribada g‘o‘zaning unib chiqish - chinbarg chiqarish davri barcha tajriba variantlarida 12 kunni tashkil etdi. Chinbarg - shonalash davrida ham barcha tajriba variantlarida 24 kunni tashkil etdi.

Shonalash - gullash davriga kelib nazorat paykalchalarda o‘simliklarning rivojlanishi 2 kunga kechika boshladi. Hashoratlar va kasallikning ta’sirida pishish davrida ham shunday holat kuzatildi.

G‘o‘zaning shonalash - gullash davrida o‘rta tolali Buxoro-8 navida nazorat variantda 28 kunni, Tandem stimulyatori 0,5 l/ga qo‘llanganda 26 kunni, Indoksamektin insektitsidi 0,7 l/ga qo‘llangada 26 kunni, Zeroks fungitsidi 1,5 l/ga qo‘llanganda 26 kunni, Stimulyator+ Insektitsid+ Fungitsid birgalikda qo‘llangan variantda 25 kunni tashkil etdi. Gullash – pishish davriga kelib nazoratda 53 kun, Tandem stimulyatori 0,5 l/ga qo‘llanganda 50 kun, Indoksamektin insektitsidi 0,7 l/ga qo‘llanganda 51 kun, Zeroks fungitsidi 1,5 l/ga qo‘llanganda 51 kun, Stimulyator+ Insektitsid+ Fungitsid birgalikda qo‘llanganda 50 kunni davom etishi aniqlandi.

G‘o‘zaning o‘suv davri o‘rta tolali Buxoro-8 navida nazorat variantda 125 kunni tashkil etib, Tandem stimulyatori 0,5 l/ga qo‘llanganda 120 kunni, Indoksamektin insektitsidi 0,7 l/ga qo‘llangada 121 kunni, Zeroks fungitsidi 1,5 l/ga qo‘llanganda 121 kunni, Stimulyator+ Insektitsid+ Fungitsid birgalikda qo‘llangan variantda 119 kunni tashkil etdi.

G‘o‘zaning o‘sishi va rivojlanishi.

O‘simliklarning o‘sishi va rivojlanishi ularning hayotidagi eng muhim jarayonlardan hisoblanadi va o‘simlik turiga, naviga, yetishtirish sharoiti va qo‘llanilayotgan texnologik tadbirlarga bog‘liq bo‘ladi. Shunday ekan, g‘o‘zaning o‘sishi va rivojlanishi ham u yetishtirilayotgan hududning tuproq-iqlim sharoitiga hamda qo‘llanilayotgan agrotexnologik tadbirlarga uzviy bog‘liqdir.

ISSN 3030-3907

K.Haydarov, K.Mo‘minov tajribalarida ang‘iz va ildiz qoldiqlari haydab tashlanib, g‘o‘za o‘stirilganida, 1 avgustda o‘simlik bo‘yi 67,4-71,8 sm, hosil shoxlari 11,3-14,6 va ko‘saklar soni 8,4-11,5 donani tashkil etgan bo‘lsa, mazkur siderat ekinlarining barcha massasi ko‘kat o‘g‘it sifatida haydab yuborilganda ko‘rsatkichlar mos ravishda 4,5-5,8 sm, 3,2-3,9 va 0,8-1,3 donaga ko‘p bo‘lganligi aniqlangan.

Tajriba dalasidagi g‘o‘zalarning vegetatsiya davrida o‘tkazilgan fenologik kuzatishlar va biometrik o‘lchashlarning natijalari tahlil etilganda yozgi va kuzgi muddatda parvarishlangan qo‘llanilgan pestitsidlar o‘simliklarning o‘sishi, rivojlanishiga kuchli ta’sir ko‘rsatishi aniqlandi (2-jadval).

2-Jadval

№	Tajriba variantlari	01.VI	01.VII	01.VIII	01.IX
Buxoro-8					
1	Nazorat (st)	21	32	70	83
2	Stimulyator	20	36	78	98
3	Insektitsid	19	35	76	97
4	Fungitsid	22	36	77	96
5	Stimulyator+ Insektitsid+ Fungitsid	21	42	82	112

G‘o‘zaning bo‘yi vegetatsiya davrining shonalash va gullash fazalarining boshlarida (1.VI va 1.VII) sezilarli darajada jadal bo‘lganligi kuzatilgan bo‘lsa, keyinchalik o‘simliklar barg sathi va quruq massasi, hosil elementlarining oshishi tufayli bu jarayon sekinlashdi.

Tajriba dalasida 1 iyunda o‘tkazilgan kuzatishlarda o‘rta tolali Buxoro-8 navida bosh poyasining balandligi nazorat variantda 21 sm ni tashkil etgan bo‘lsa, Tandem stimulyatori 0,5 l/ga qo‘llanganda 20 sm ni, Indoksamektin insektitsidi 0,7 l/ga qo‘llangada 19 sm ni, Zeroks fungitsidi 1,5 l/ga qo‘llanganda 22 sm ni, Stimulyator+ Insektitsid+ Fungitsid birgalikda qo‘llangan variantda 19 sm ni tashkil etdi.

Kuzatishlar 1 iyulda o‘tkazilganda o‘rta tolali Buxoro-8 navida o‘simliklarning balandligi nazorat variantda 32 sm ni tashkil etgan bo‘lsa, Tandem stimulyatori 0,5 l/ga qo‘llanganda 36 sm ni, Indoksamektin insektitsidi 0,7 l/ga qo‘llangada 35 sm ni, Zeroks fungitsidi 1,5 l/ga qo‘llanganda 36 sm ni, Stimulyator+ Insektitsid+ Fungitsid birgalikda qo‘llangan variantda 42 sm ni tashkil etdi.

G‘o‘zaning bosh poyasining o‘sish dinamikasi 1 avgustda tahlil etilganida ham yuqoridagi qonuniyat kuzatildi. O‘rta tolali Buxoro-8 navida o‘simliklarning balandligi nazorat variantda 70 sm ni tashkil etgan bo‘lsa, Tandem stimulyatori 0,5

ISSN 3030-3907

l/ga qo‘llanganda 78 sm ni, Indoksamektin insektitsidi 0,7 l/ga qo‘llangada 76 sm ni, Zeroks fungitsidi 1,5 l/ga qo‘llanganda 77 sm ni, Stimulyator+ Insektitsid+ Fungitsid birgalikda qo‘llangan variantda 82 sm ni tashkil etdi.

G‘o‘zaning bosh poyasining o‘sish dinamikasi 1 sentabrda tahlil etilganida o‘rta tolali Buxoro-8 navida o‘simliklarning balandligi nazorat variantda 83 sm ni tashkil etgan bo‘lsa, Tandem stimulyatori 0,5 l/ga qo‘llanganda 98 sm ni, Indoksamektin insektitsidi 0,7 l/ga qo‘llangada 97 sm ni, Zeroks fungitsidi 1,5 l/ga qo‘llanganda 96 sm ni, Stimulyator+ Insektitsid+ Fungitsid birgalikda qo‘llangan variantda 112 sm ni tashkil etdi.

O‘simliklar balandligidagi va o‘sishidagi bunday farqlanishlar eng avvalo zararkunandava kasalliklarga qarshi qo‘llanilgan pestitsidlarning ta’sirida ekinlar hosil qilgan biomassa miqdori bilan bog‘liq ekanligi bilan izohlanadi.

G‘o‘za bosh poyasining o‘sishidagi farqlarni tahlili shuni ko‘rsatadiki, pestitsidlarni qo‘llanilishi bilan dala tajribalarida o‘simlik bo‘yining balandligi vegetatsiyaning boshida yozgi muddatdagi dala tajribalarini singari bo‘lsada, biroq ularning o‘rtacha sutkalik o‘sishi yozgi muddatdagi dala tajribalarida biroz jadalligi aniqlandi. Bu holat, Stimulyator, insektitsid, fungitsidlarning g‘o‘zaning fitosanitar holati yaxshilanib, oziqa rejimiga ta’siri bilan bog‘liq.

Tadqtiqotlar natijasiga ko‘ra may va iyun oyining birinchi va ikkinchi o‘n kunligida g‘o‘za jadal rivojlanadi. Iyun oyi oxirgi o‘n kunligidan ob-havo holati o‘zgarib, o‘ta issiq kunlar boshlandi, g‘o‘zaning gullash- ko‘sak yetilish fazasida mintaqadagi quruq, issiq iqlim ta’sirida shona choklarida yoriqlar paydo bo‘lib, ertalab yashil, durkun holatdagi shonalarning to‘kilishi qayd etildi. Keyingi kunlarda gul va shonalarning to‘kilishi kuchaydi.

Hosil shoxlar sonida ham o‘simlik bosh poyasidagi o‘zgarishlar singari holat kuzatildi, ya’ni o‘simlik bosh poyasi qanchalik uzaygan sari hosil shoxlari ko‘payib borganligi aniqlandi

Tajribalarda 1 iyulda hosil shoxlari soni o‘rtacha har bir tup g‘o‘zada tahlil etilganida o‘rta tolali Buxoro-8 navida nazorat variantda 7 dona ni tashkil etgan bo‘lsa, Tandem stimulyatori 0,5 l/ga qo‘llanganda 8 dona ni, Indoksamektin insektitsidi 0,7 l/ga qo‘llangada 9 dona ni, Zeroks fungitsidi 1,5 l/ga qo‘llanganda 9 dona ni, Stimulyator+ Insektitsid+ Fungitsid birgalikda qo‘llangan variantda 10 dona ni tashkil etdi. Ingichka tolali Marvarid navida hosil bug‘ini nazorat variantda 10 dona ni, Tandem stimulyatori 0,5 l/ga qo‘llanganda 13 dona ni, Indoksamektin insektitsidi 0,7 l/ga qo‘llangada 13 dona ni, Zeroks fungitsidi 1,5 l/ga qo‘llanganda 13 dona ni, Stimulyator+ Insektitsid+ Fungitsid birgalikda qo‘llangan variantda 15 dona ni tashkil yetganligi qayd etildi. Umuman pestitsidlarni qo‘llanilishi bilan g‘o‘za bosh poyasining baland bo‘lishi va hosil shoxlari sonini sezilarli darajada ko‘payishi aniqlandi.

ISSN 3030-3907

G‘o‘za tupining morfologik tuzilishi har bir navning irsiyatiga, biologik xususiyatlariga bog‘liq bo‘lib, shu navning tashqi ko‘rinishini ifodalaydi. Ammo, g‘o‘za tupining morfologik tuzilishiga tashqi omillar ham qisman ta’sir etishi mumkin. G‘o‘zadan yuqori va sifatli hosil olishda navning morfologik xususiyatini bilgan holda texnologik tadbirlarni o‘tkazish muhim hisoblanadi.

Ma’lumotlarning ko‘rsatishicha, Stimulyator + Insektitsid + Fungitsidlar birgalikda qo‘llangan o‘simliklar baquvvat, poyasi yo‘g‘on bo‘lishini ta’minladi. O‘simlik bo‘yi baland bo‘lishi bilan bo‘g‘in oralig‘i uzayib bordi, ayni paytda hosil elementlari soni ortib bordi.

Demak, bir tup g‘o‘zada ko‘saklar soni Stimulyator+ Insektitsid+ Fungitsid birgalikda qo‘llanganda o‘rta tolali Buxoro-8 navida variantda 17 donani tashkil etib, nazoratga nisbatan 5 dona ko‘p bo‘ldi, ochilgan ko‘saklar 8 donani yoki 47,1% ni tashkil etdi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Akkujin D., Kadirov Sh., Jumaniyazov F., Masharipova R. Ratsionalnaya oblistvennost kusta xlopchatnika // AGRO ILM. - 2015. -№ 2-3(34-35).–B. 5-6.
2. Allanazarov S. Defoliatsiya samaradorligining barg sathiga bog‘liqligi // AGRO ILM. - 2015. -№ 6(38). –B. 6-7.
3. Alimuxamedov S., Xujayev Sh. G‘o‘za zararkunandalari va ularga qarshi kurash.-Toshkent: Mehnat, 1991.-193-6.
4. Chorshanbiyev N.E., Nabiyev S.M., Xamdullayev Sh.A., Matniyazova X.X., Shavqiyev J.SH. Ingichka tolali “Marvarid” g‘o‘za navini yetishtirishning afzalliklari // “O‘zbekistonda genetika sohasining bugungi holati, muammolari va istiqbollari” mavzusidagi respublika ilmiy-amaliy kon., 2018, b.53-55
5. Chorshanbiyev N.E., Matniyazova X.X., Nabiyev S.M., Shavqiyev J.SH., Xamdullayev Sh.A., Amanov B.H. Toshkent viloyati sharoitida ingichka tolali g‘o‘za navlari va tizmalarining morfoxo‘jalik belgilarini o‘rganish // Sovremenniye problemi genetiki, genomiki i biotexnologii Respublikanskaya nauchnaya konferensiya 16 maya 2019, b.227-228
6. Chorshanbiyev N.E., Nabiyev S.M. Yangi ingichka tolali g‘o‘za navlarining qimmatli-xo‘jalik belgilarini o‘rganish // Materiali mejd.nauch-prak konf «Evolyutsionniye i seleksionniye aspekti skorospelosti i adaptivnosti xlopchatnika i drugix selskoxozyaystvennix kultur», posvyashennoy 95-letiyu so dnya rojdeniya akademika S.S.Sadikova. Tashkent «Fan» 2005, S.86-88
7. Chorshanbiyev N.E., Nabiyev S.M., Xamdullayev Sh.A., Matniyazova X.X., Usmanov R.M., Shovqiyev J.SH. Qurg‘oqchilik sharoitida ingichka tolali g‘o‘za tizmalari va navlarida qimmatli xo‘jalik belgilarining namoyon bo‘lishi // O‘zbekiston Agrar fani xabarnomasi, 2018, №4 (74), B.35-38

ISSN 3030-3907

8. Chorshanbiyev N.E., Xamdullayev Sh.A., Shavqiyev J.SH., Matniyazova X.X., Usmanov R.M., Nabiyev S.M. Dala sharoitida kuchli suv tanqisligida ingichka tolali nav va tizmalarda ba'zi fiziologik va morfologik belgilar ko'rsatkichlari // "Qishloq xo'jaligi ekinlari genetikasi, seleksiyasi, urug'chiligi va yetishtirish agrotexnologiyalarining dolzarb muammolari hamda rivojlantirish istiqbollari" mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy konf materiallari to'plami.2018, b.134-136

ISSN 3030-3907

KARYERLARDA POG‘ONALARNING TURG‘UNLIK HOLATINI BAHOLASHDA 3D SAR TEXNOLOGIYASIDAN FOYDALANISH

S.I.Erkaboyeva

Islom KArimov nomidagi Toshkent davlat texnika universiteti 1-bosqich doktoranti,

U.T.Toshtemirov

Olmaliq davlat texnika instituti “Konchilik ishi” kafedrasi dotsenti, texnika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)

Annotatsiya. Maqola karyerlarda pog‘onalar turg‘unligini baholashning zamonaviy usuli – 3D Synthetic Aperture Radar (3D SAR) texnologiyasi yordamida real vaqtda 0,1–0,2 mm aniqlikdagi siljishlarni o‘lchash, erta ogohlantirish tizimi yaratilgani hamda 3D SARni sun’iy intellekt bilan integratsiyalash kelajakdagi eng samarali yo‘nalish ekanligi ta’kidlanadi.

Kalit so‘zlar: karyer, pog‘ona, turg‘unlik, 3D SAR, GB-SAR, DInSAR, deformatsiya, xavfsizlik koeffitsiyenti, ko‘chki xavfi, interferometriya.

Аннотация. В статье подчеркивается, что современный метод оценки устойчивости уступов на карьерах - 3D Synthetic Aperture Radar (3D SAR) - позволяет измерять смещения в режиме реального времени с точностью 0,1-0,2 мм, создает систему раннего оповещения, а интеграция 3D SAR с искусственным интеллектом является наиболее эффективным направлением в будущем.

Ключевые слова: карьер, уступ, устойчивость, 3D SAR, GB-SAR, DInSAR, деформация, коэффициент безопасности, лавинная опасность, интерферометрия.

Abstract. The article emphasizes that the modern method for assessing bench stability in quarries - 3D Synthetic Aperture Radar (3D SAR) - allows for real-time measurement of displacements with an accuracy of 0.1-0.2 mm, creates an early warning system, and the integration of 3D SAR with artificial intelligence is the most effective direction in the future.

Keywords: quarry, bench, stability, 3D SAR, GB-SAR, DInSAR, deformation, safety factor, avalanche hazard, interferometry.

Kirish

Chuqur karyerlarda tog‘ jinslarini qazib olish jarayonlari jadallashgan sari pog‘onalar soni ham ortib boradi. Bu pog‘onalar vaqt o‘tishi bilan tabiiy omillar (yomg‘ir, zilzila, va h.k) yoki inson faoliyati ta'sirida beqarorlashishi mumkin, bu esa ko‘chkilar, tosh tushishi va hatto katta miqdordagi tog‘ jinslarning qulashiga olib kelishi mumkin. Natijada, xavfsizlik, iqtisodiy zarar va atrof-muhitga ta'sir katta bo‘ladi. Shuning uchun, pog‘onalar turg‘unligini oldindan baholash va monitoring qilish konchilik korxonalarining dolzarb vazifalaridan biridir.

ISSN 3030-3907

An'anaviy usullar, masalan, vizual kuzatuv, geodeziya o‘lchovlari yoki lazer skanerlash, samarali bo‘lsa-da, vaqt talab qiladi va katta maydonlarni qamrab olishda qiyinchiliklar tug‘diradi. Bu yerda 3D Synthetic Aperture Radar (SAR) texnologiyasi muhim rol o‘ynaydi. 3D SAR – bu sun'iy aperturali radar tizimi bo‘lib, u uzoqdan sensing (masofaviy zondlash) orqali yer yuzasi deformatsiyalarini millimetr darajasida aniqlay oladi.

Synthetic Aperture Radar (SAR) – bu radar texnologiyasining bir turi bo‘lib, u sun'iy aperturani yaratish orqali yuqori aniqlikdagi tasvirlarni hosil qiladi. An'anaviy radarlardan farqli o‘laroq, SAR harakatdagi platformada (sun'iy yo‘ldosh, samolyot yoki yer usti qurilmasi) o‘rnatiladi va u signal faza farqlarini tahlil qilish orqali yer yuzasining 3D modellarini yaratadi. 3D SAR – bu SARning kengaytirilgan shakli bo‘lib, u nafaqat ikki o‘lchovli tasvirlarni, balki uch o‘lchovli (3D) deformatsiya xaritalarini hosil qiladi. SAR keng ko‘lamli dasturlarda, jumladan karyerlarda pog‘onalarning turg‘unlik holatini baholashda o‘rganish, sezgir botqoqlarga neft to‘kilishi yo‘llarini kuzatish va Alyaskaning suv-botqoq erlarini xaritalashda ishlatilgan.

Hozirgi kunda dunyodagi birinchi 3D SAR radar sifatida, yangi IBIS- *Arc* SAR tizimi muhim qarorlarni qo‘llab-quvvatlash va tog‘-kon sanoatida eng yuqori xavfsizlik standartlarini ta’minlash uchun texnologik inqilobni joriy qildi.


Butun dunyo bo‘ylab interferometrik texnologiya yechimlari va ko‘p chastotali, ko‘p kanalli yerga o‘tuvchi radar (GPR) bo‘yicha yetakchi provayder bo‘lgan IDS GeoRadar yangi *Arc* SAR texnologiyasiga asoslangan keyingi avlod qiyalik monitoringi radar tizimi sifatida tavsiflangan IBIS- *Arc* SARni ishga tushirdi. IBIS- *Arc* SAR - bu eng yuqori xavfsizlik standartlarini ta'minlash va xavf sharoitlarini ishonchli boshqarish uchun mustahkamlik va ishlash asosida yaratilgan o‘yinni o‘zgartiruvchi radar. IBIS- *Arc* SAR “muhim qarorlarni qabul qilishda geotexnik muhandislarni qo‘llab-quvvatlash uchun misli ko‘rilmagan moslashuvchanlik va ishlashni ta'minlaydi”, dedi Nikkolo Koli [1].

Nikkolo Kolining ta'kidlashicha, IBIS- *Arc* SAR tog‘-kon sanoatida bitta platformadan chuqurni 360° qamrab oladigan birinchi va yagona radardir. Tizim eng keng va eng uzoq masofani (5000 m) va eng qisqa skanerlash vaqtini (40 soniyada 360°; 20 soniyada 180°) hamda avtomatik geokodlash uchun o‘rnatilgan GNSSdan foydalanadi. Tizim shuningdek, chuqur devorlarini real vaqtda tasvirlash va muhim hududlarni darhol vizualizatsiya qilish imkonini beruvchi o‘rnatilgan panoramali HD kameraga ega.

Bu strategik yoki taktik joylashuv bo‘ladimi, radarning 10 million piksellik ajoyib fazoviy o‘lchamlari uzoq masofalarda ham pastki o‘rindiqdan tortib keng devor harakatigacha bo‘lgan qiyalik beqarorliklarining to‘liq ko‘lamini qamrab olgan holda muhim xavfsizlik monitoringi uchun yangi standartlarni *o‘rnatadi*.

ISSN 3030-3907

Noyob TrueVector imkoniyatlaridan foydalanish uchun bir nechta IBIS radarlarining bir-biriga o‘xshash hududlari, boy geotexnik muhitni taqdim etish, bitta yechim qo‘shimcha dasturiy ta'minotga sarmoya kiritmasdan, radar ma'lumotlarini, prizmalarni siljitish va sekin harakat tahlilini yagona ko‘p qirrali platformaga birlashtiradi (1-rasm).



1-rasm. IBIS-FM Sensorning masofaviy zondlash holati

Zamonaviy geomexanik monitoring yechimlari orasida, biz nafaqat an’anaviy nuqtaviy o‘lchovlarga, balki keng qamrovli masofaviy zondlash usullaridan ham foydalanishimiz kerak, negaki an’anaviy joyida o‘lchash usullari (ekstenzometrlar, piezometrlar, inklinometrlar kabi) faqat oldindan belgilangan beqarorlik joylarida ishlaydi, qolaversa ularni o‘rnatish chuqur, karyerlarda juda qiyin va qimmatga tushadi. Aksincha, Kosmik InSAR (Interferometrik Sintetik Apertura Radari) va yer usti radarlari texnologiyalari katta maydonlardagi yuzaki deformatsiyalarni millimetr aniqligida va real vaqtga yaqin rejimda uzluksiz kuzatish imkoniyatini berib, an’anaviy, nuqtaviy o‘lchovlarning cheklovlarini butkul yengib o‘tishga yordam beradi. Bunga qo‘shimcha ravishda, yuqori aniqlikdagi robotlashgan total stansiyalar (masalan, Trimble S9 HP seriyasi) va GNSS tizimlari esa uzluksiz, yuqori chastotali 3D o‘lchovlarni ta’minlashda beqiyos ahamiyatga ega.


Ushbu tadqiqot ishida Qolmoqir karyerining nazorat nuqtalari (Rp) bir oylik balandlik o‘lchovlarini (atmetkalarini) sinchkovlik bilan tahlil qilindi. Biz nominal balandlik va kuzatilgan (bir oy o‘tgandan keyingi) balandlik orasidagi farqni aniqladik, bu esa vertikal siljishni anglatadi, keyin esa uni 30 kunga bo‘lish orqali

ISSN 3030-3907

o‘rtacha kunlik siljish tezligini (subsidence rate) topdik. Ushbu tahlil natijalari karyer bortining jiddiy dinamik holatini ko‘rsatadi.


Ushbu grafik 2025-yil sentabr oyining 4- sanasida Qolmoqir karyeridagi 17 ta nazorat nuqtalarining kumulyativ siljish vektori (mm) bo‘yicha o‘zgarishini ko‘rsatadi. Har bir chiziq bitta RP nuqtani anglatadi.

Qolmoqir karyeri nazorat nuqtalari bo‘yicha kumulyativ siljish vektori



1-diagramma. Kumulyativ siljish vektori

Qolmoqir karyeri – Sentabr oylik RP monitoringi



2-diagramma. Nazorat nuqtalari bo‘yicha o‘rtacha kunlik siljish tezligi


ISSN 3030-3907

1-jadval

Qolmoqir karyerida tanlangan nazorat nuqtalarining 1 oylik vertikal siljish tahlili

Nazorat nuqtasi (RP)	Nominal balandlik (Enom, m)	Kuzatilgan balandlik (Eobs, m)	Vertikal siljish (ΔE), (mm)	O‘rtacha kunlik tezlik (mm/kun)	Xavf darajasi
Rp003	604.1	604.13	20	2.86	Kritik
Rp004	604.9	604.0	90	6.43	Yuqori
Rp005	606.0	605.99	10	0.86	Xavotirli
Rp006	604.9	604.88	20	2.86	Kritik
Rp013	599.2	599.19	10	1.43	Xavotirli
Rp014	601.4	601.34	10	1.43	Xavotirli
Rp015	602.1	602.03	10	1.43	Xavotirli
Rp019	602.5	602.43	7	1.0	Xavotirli
Rp020	600.7	600.71	-1	-0.14	Xavfsiz
Rp021	602.4	602.38	-2	-0.29	Xavfsiz
Rp022	601.9	601.47	-5	-0.71	Xavfsiz
Rp023	598.4	598.48	4	0.57	Barqaror
Rp024	601.4	601.09	-3	-0.43	Xavfsiz
Rp025	601.1	600.87	-2	-0.29	Xavfsiz
Rp026	601.5	601.39	-1	-0.14	Xavfsiz
Rp067	591.2	590.24	-9	-1.29	Xavfsiz
Rp069	590.7	590.84	14	2.0	Kritik

Quyidagi 3D ustunli grafik Qolmoqir karyeridagi nazorat nuqtalarining 2025-yil sentabr oyidagi o‘rtacha kunlik vertikal siljish tezligiga asoslangan xavf darajalarini ko‘rsatadi.



Ranglar tavsifi:

- Barqaror (<10 mm/kun)
- Xavotirli (10–20 mm/kun)
- Xavfli (20–50 mm/kun)
- Kritik (50–100 mm/kun)
- Yuqori xavf (>100 mm/kun)

3-diagramma. O‘rtacha kunlik vertikal siljish tezligiga asoslangan xavf darajalari

ISSN 3030-3907

Monitoring natijalari shuni ko‘rsatdiki, sentabr oyining boshidan oxirigacha karyer yonbag‘irlaridagi harakatlar murakkab dinamikaga ega bo‘ldi. Dastlabki haftada aksariyat nazorat nuqtalarida siljish tezliklari me’yoriy chegarada yoki uncha katta bo‘lmagan darajada qayd etildi (yashil/sariq zona). Masalan, 5-sentabrda shimoliy bort tepasidagi RP003 nuqtasi sutkasiga ~31 mm siljish tezligiga ega edi. Bu “yuqori” xavf darajasiga mos tushadi, lekin hali “kritik” emas (31 mm/kun < 50 mm/kun). Xuddi shu vaqtda janubiy bortda joylashgan bir nechta nuqtalarda (masalan, RP021–RP026 oralig‘ida) tezliklar 21–41 mm/kun atrofida bo‘lib, butun janubiy yonbag‘ir bo‘ylab sezilarli, ammo boshqarilishi mumkin harakat borligini anglatgan. Infratuzilma nuqtalaridan karyer ostidagi temir yo‘lga yaqin JD1 nuqtasida esa tezlik ~40,6 mm/kun bo‘lib, bu ham anchayin yuqori edi. Dastlabki oy boshidagi bunday yuqori tezliklar shuni ko‘rsatadiki, ayrim sektorlarda allaqachon “ikkilamchi o‘rmalash” (secondary creep) bosqichi yakunlanib, deformatsiya jarayoni tezlashuv bosqichiga o‘tgan. Kuzatishlarimizdan kelib chiqib quyidagicha taxmin qilishimiz mumkin-ki, bu hodisa yozdan kuzga o‘tish davridagi haroratning keskin tushishi va yer osti suvlari bosimining ortishi bilan bog‘liq bo‘lishi mumkin. Chunki harorat pasayganda tog‘ jinslarida termal qisqarish sodir bo‘ladi, kuzgi yomg‘irlar esa yoriqlarga singib, ularda gidrostatik bosimni oshiradi – natijada jinslar siljishga moyil holga keladi

Ikkinchi hafta (12-sentabr atrofida) kuzatuvlar kutilmagan bir holatni ko‘rsatdi: vaqtinchalik barqarorlashuv kuzatildi. Ya’ni ayrim xavfli nuqtalarda siljish tezligi pasayib, go‘yo tinchlangan dek tuyuldi. Masalan, RP003 nuqtasida 12-sentabrda tezlik ~26 mm/kun gacha sekinlashdi (oy boshiga nisbatan biroz past). Temir yo‘l yaqinidagi JD1 nuqtasida esa tezlik juda keskin tushib, atigi ~6 mm/kun ni tashkil etdi – ya’ni deyarli “yashil” xavfsiz zona darajasiga qaytdi. Bu hodisa mutaxassislar uchun “soxta barqarorlik” fenomeni sifatida ma’lum. Ko‘pincha, bunday qisqa fursatlik stabillashuv tog‘ massividagi bloklarning vaqtincha “qulflanishi” (bir-birini qisib turishi) natijasida yuzaga keladi yoki masalan, ortiqcha yuklamalar vaqtincha tarqalib, tizim muvozanat holatiga kelgandek bo‘ladi. Bunday paytda vizual kuzatuvchi aldanishi mumkin – “xavf o‘tdi shekilli” deb o‘ylashi mumkin. Ammo, aslida bu – ko‘chki jarayonining xuddi fırtına oldi sukunati kabi holati, xolos. Haqiqatan ham, bizning kuzatuv ma’lumotlarimizda 12-sentabrdagi qisqa relaksatsiyadan so‘ng deformatsiya jadalligi keskin oshib ketdi.

Uchinchi va to‘rtinchi hafta davomida (19-26 sentabr) deformatsiya jarayonlari eksponensial tezlashdi. Oy oxiriga kelib shimoliy yonbag‘irda vaziyat nihoyatda xavfli tus oldi. 26-sentabr yakuniy o‘lchov siklida RP003 nuqtasining sutkalik siljish tezligi 242,7 mm/kun ga yetdi. Bu mutlaqo favqulodda ko‘rsatkich bo‘lib, kritik chegaradan qariyb 5 baravar yuqori! Bu nuqta joylashgan massivda

ISSN 3030-3907

chuqur yoriq hosil bo‘lib, tog‘ jinslari katta tezlikda sirpana boshlaganini anglatadi. Geotexnika nazariyasida bunday bosqich “uchinchi darajali o‘rmalash” (tertiary creep) deb ataladi – ya’ni tezlanib boruvchi, nazoratdan chiqayotgan deformatsiya bosqichi. Bunday bosqich, odatda, qisqa muddat ichida to‘liq qulash (ko‘chki) bilan yakun topadi. Shu bilan birga, temir yo‘l liniyasi bo‘ylab JD1 va JD3 nuqtalarida ham siljish tezliklari 46–52 mm/kun gacha yetdi, ya’ni ular ham “yuqori”dan “kritik” chegarasiga o‘tib ketdi. Temir yo‘l traklarining bir necha santimetrga siljishi allaqachon relslarning geometriyasini buzishi va poyezdning izdan chiqishiga sabab bo‘lishi mumkin.

Demak, infratuzilma ob’ektlariga ham jiddiy zarar tahdidi yuzaga keldi. Janubiy yonbag‘ir va boshqa hududlarda ham yakuniy haftada deformatsiyalar tezlashdi, biroq u yerda tezliklar nisbatan pastroq – taxminan 50–100 mm/kun atrofida – bo‘lib, kritik chegara darajasiga yaqinlashdi, lekin hali oshib ketmadi. Olingan natijalarni umumlashtirar ekanmiz, Qolmoqir karyerining kuzatilgan davrdagi barqarorlik holati jiddiy xavotirli deb baholanadi. Bir oy ichida ayrim nuqtalarda jami gorizontal siljishlar 60–70 mm ga yetdi, vertikal cho‘kishlar esa 30–40 mm ni tashkil qildi (masalan, RP003 dagi umumiy vertikal cho‘kish 35 mm atrofida o‘lchandi). Bu ko‘rsatkichlar kutilganidan ancha yuqori. Ta’kidlash joizki, bunday katta siljishlar avvalgi yillarda Kalmakyr konida kuzatilmagan – masalan, 2024-yilda GNSS yordamida o‘tkazilgan monitoringda eng faol nuqtalarda gorizontal siljishlar 68 mm, vertikal siljishlar 31 mm atrofida bo‘lgan edi. 2025-yil sentabridagi biz ko‘rgan holat esa bundan ham oshib ketdi va kon uchun yangi ekstremum bo‘ldi. Bu, ehtimol, kon chuqurligining ortib borishi va tog‘-kon ishlari kengayishi natijasida muhandislik-geologik sharoitlar yomonlashib borayotganini bildiradi. Darhaqiqat, so‘nggi tadqiqotlarda Qolmoqir koni qatlamlarida chuqurlashish sari seysmotektonik faollik oshishi bashorat qilingan edi.

Bizning natijalarimiz ana shu bashoratlar haqiqatga yaqinligini ko‘rsatib turibdi. Ushbu bashoratni ishonchli tarzda amalga oshirish uchun biz deterministik tahlilning cheklovlarini jiddiy ravishda yengib o‘tishga majburmiz, chunki an’anaviy limit muvozanat metodlari faqat xavfsizlik omilini beradi, ammo siljishlar haqida deyarli ma’lumot bera olmaydi. Chekli Elementlar Metodi (FEM) siljish maydonlari haqida ma’lumot bera olsa-da, Qolmoqirning darzliklarga to‘la jins massivlarida, ajralgan bloklar orasidagi murakkab o‘zaro ta’sirlarni mukammal simulyatsiya qilish uchun Diskret Elementlar Metodi (DEM), xususan, UDEC (Universal Distinct Element Code) dasturini qo‘llash shart va zarurdir. UDEC kesishgan yoriqlarni, gidrogeologik bosim ta’sirini va hatto dinamik kuchlanishlarni mukammal modellashtirishga qodir yagona vositadir. Bundan tashqari, Xavfsizlik Omilini (FoS) baholashda, jins mustahkamligidagi barcha noaniqliklarni qamrab olish uchun faqatgina deterministik hisob-kitoblarga emas,

ISSN 3030-3907

balki Ehtimollik (Probabilistik) yondashuvlarga o‘tishimiz, ayniqsa Goss-Xouk (GHB) no-chiziqli kriteriyasini qo‘llash bilan FoS ning haqiqiy xavf oralig‘ini belgilash juda muhimdir. Faqat 3D DEM modellashtirish bizga F1-F4 tektonik yoriqlar sistemasi va gidrogeologik ta’sirning o‘zaro aloqasini chuqur tushunish imkonini beradi, bu esa eng optimal bort geometriyasini tanlashga yordam beradi.

Nihoyat, eng so‘nggi, ammo xavfsizlik uchun eng hayotiy muhim bo‘lgan qadam — bu Sun’iy Intellekt (AI) texnologiyalarini monitoring jarayoniga jadal integratsiya qilishdir. AI, xususan, Mashina o‘rganishi (ML) va chuqur o‘rganish (DL) modellarini qo‘llash, an’anaviy statistik metodlardan keskin ravishda ustun bo‘lgan aniqlikda, murakkab va no-chiziqli geologik ma’lumotlarni tahlil qilish orqali siljishlarni yanada aniq bashorat qilish imkonini beradi. Gibrid modellar, kunlik geodezik o‘lchovlar asosida qiyalik siljishini dinamik prognoz qilishda o‘z samaradorligini isbotlagan. Bizning Rp nuqtalarimizda kuzatilgan 1.71 mm/kun tezlik, bizni ogohlantirish indikatorlariga xavfli darajada yaqinlashayotganimizdan xavotirlanishga majbur qiladi.

Xulosa qilib aytganda, 3D SAR texnologiyasi karyerlarda pog‘onalar turg‘unligini baholashda inqilobiy yondashuv bo‘lib, an'anaviy usullarni to‘ldiradi va xavfsizlikni oshiradi. U deformatsiyalarni erta aniqlash, 3D modellashtirish va xavfni bashorat qilish imkonini beradi. Kelajakda, AI va mashina o‘rganishi bilan birlashib, bu texnologiya yanada samarali bo‘ladi. Konchilik korxonalari uchun 3D SARni joriy etish nafaqat iqtisodiy samarani, balki hayot va atrof-muhitni saqlashni ta'minlaydi.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Osasan G., Yashima A., Towhata I., Nguyen D. S. (2023). Integration of Ground-Based SAR and 3D Slope Stability Analysis for Open-Pit Mine Monitoring. Rock Mechanics and Rock Engineering, 56(4), 2455–2478. https://doi.org/10.1007/s00603-022-03215-7

2. Carlà T., Farina P., Intrieri E., Ketizmen H., Casagli N. (2021). On the monitoring and early-warning of slope failures using real-time GB-InSAR data: the case study of a large open-pit mine. Landslides, 18(5), 1763–1778. https://doi.org/10.1007/s10346-020-01592-5

3. IDS GeoRadar (2024). IBIS-FM & IBIS-ArcSAR: Technical Specifications and Applications in Mining. Brochure, Pisa, Italy.

4. Ахмадов, А. У., Мельникова, Т. Е., & Тоштемиров, У. Т. (2022). Анализ микроклиматических условий карьера Кальмакыр. Евразийский журнал академических исследований, 2(12), 1207-1216

5. https://im-mining.com/2017/06/05/ids-georadar-launches-worlds-first-3d-sar-radar/

ISSN 3030-3907

6. https://medium.com/@Cyber.H0und/sar-use-cases-for-geospatial-analysis-8b14b591b5be

ISSN 3030-3907

TEXNIK UGLERODNING XOSSALARINI ASTM D2414 VA ASTM D3493 KO‘RSATKICHLARI ASOSIDA TALILI

Nosir Tojimurodovich Ortiqov
Toshkent kimyo-texnologiya ilmiy tadqiqot instituti, PhD, katta ilmiy xodim
Tel. +998977490061
Mas’ud Ubaydulla o‘g‘li Karimov
Toshkent kimyo-texnologiya ilmiy tadqiqot instituti Ilmiy ishlar bo‘yicha direktor o‘rinbosari t.f.d., prof.
Abdulaxat Turapovich Djalilov
Toshkent kimyo-texnologiya ilmiy tadqiqot instituti Direktori k.f.d. prof. O‘zRFA akademigi

Annotatsiya: Ushbu ilmiy ishda texnik uglerodning strukturaviy va fizik-kimyoviy xossalari ASTM D2414 (yog‘ni yutish miqdori – YYM) va ASTM D3493 (siqilgan yog‘ni yutish miqdori – SYYM) standartlari asosida kompleks tahlil qilingan. Texnik uglerodning sanoat ahamiyati uning zarracha o‘lchami, agregat va aglomerat tuzilishi, strukturaviy tarmoqlanish darajasi hamda sirt xossalari bilan bog‘liq ekanligi adabiyotlar va eksperimental natijalar asosida yoritilgan. Pech, kanal, atsetilen va piroliz usullari orqali olingan texnik uglerodlarning strukturaviy farqlari tahlil qilinib, uch pog‘onali tuzilish — birlamchi zarracha, agregat va aglomeratsiya tushunchalari batafsil izohlangan. ASTM D3493 bo‘yicha aniqlangan SYYM qiymatlari agregatlarning mexanik siqilish ostida strukturani saqlab qolish qobiliyatini baholash imkonini bergan. Tajriba natijalariga ko‘ra 1-N dan 6-N namunagacha SYYM qiymatlarining muntazam ortib borishi strukturaviy rivojlanishni ko‘rsatgan bo‘lsa, 6-N namunada optimal strukturaviy maksimum kuzatilgan. Keyingi namunalarda (7-N–10-N) SYYM qiymatlarining pasayishi haddan tashqari aglomeratsiya va strukturaviy barqarorlikning kamayishi bilan izohlangan. Olingan natijalar texnik uglerod ishlab chiqarish jarayonida optimal texnologik parametrlar mavjudligini ilmiy asosda tasdiqlaydi.

Kalit so‘zlar: Texnik uglerod, yog‘ni yutish miqdori, agregat, aglomerat, strukturaviy barqarorlik, zarracha o‘lchami, kauchuk-kompozit materiallar, mustahkamlovchi qo‘shimcha.

Аннотация: В данной научной работе проведен всесторонний анализ структурных и физико-химических свойств технического углерода на основе стандартов ASTM D2414 (маслопоглощающая способность - YYM) и ASTM D3493 (маслопоглощающая способность под давлением - SYYM). На основе литературных данных и экспериментальных результатов подчеркивается связь промышленной значимости технического углерода с размером частиц, агрегатной и агломератной структурой, степенью структурного разветвления

ISSN 3030-3907

и свойствами поверхности. Проанализированы структурные различия технических углеродов, полученных печным, канальным, ацетиленовым и пиролизным методами, и подробно объяснены концепции трехстадийной структуры - первичные частицы, агрегаты и агломерации. Значения SYYM, определенные по стандарту ASTM D3493, позволили оценить способность агрегатов сохранять свою структуру при механическом сжатии. Согласно экспериментальным результатам, закономерное увеличение значений SYYM от образца 1-N до 6-N указывало на развитие структуры, при этом оптимальный структурный максимум наблюдался в образце 6-N. Снижение значений SYYM в последующих образцах (7-N–10-N) объяснялось чрезмерной агломерацией и снижением структурной стабильности. Полученные результаты научно подтверждают существование оптимальных технологических параметров в процессе производства технического углерода.

Ключевые слова: Технический углерод, степень маслопоглощения, агрегат, агломерат, структурная стабильность, размер частиц, резинокомпозитные материалы, армирующая добавка.

Abstract: In this scientific work, the structural and physicochemical properties of technical carbon were comprehensively analyzed based on the ASTM D2414 (oil absorption capacity - YYM) and ASTM D3493 (compressed oil absorption capacity - SYYM) standards. The fact that the industrial importance of technical carbon is related to its particle size, aggregate and agglomerate structure, degree of structural branching, and surface properties is highlighted based on literature and experimental results. The structural differences of technical carbons obtained by furnace, channel, acetylene, and pyrolysis methods were analyzed, and the concepts of three-stage structure - primary particle, aggregate, and agglomeration - were explained in detail. The SYYM values determined according to ASTM D3493 allowed us to assess the ability of aggregates to maintain their structure under mechanical compression. According to the experimental results, a regular increase in SYYM values from sample 1-N to 6-N indicated structural development, while an optimal structural maximum was observed in sample 6-N. The decrease in the SYYM values in the following samples (7-N–10-N) was explained by excessive agglomeration and reduced structural stability. The results obtained scientifically confirm the existence of optimal technological parameters in the production process of technical carbon.

Keywords: Technical carbon, oil absorption rate, aggregate, agglomerate, structural stability, particle size, rubber-composite materials, reinforcing additive.

Kirish

ISSN 3030-3907

Texnik uglerod (carbon black) yuqori dispersli, asosan elementar ugleroddan tashkil topgan sanoat materiali bo‘lib, kauchuk, plastmassa, bo‘yoq, siyoh, elektrotexnika va kompozit materiallar ishlab chiqarishda muhim mustahkamlovchi va funksional qo‘shimcha sifatida qo‘llaniladi. Texnik uglerodning sanoat ahamiyati uning zarracha o‘lchami, sirt maydoni, strukturaviy tarmoqlanish darajasi va sirt kimyosi bilan belgilanadi. Ayniqsa, avtomobil shinalari sanoatida texnik uglerod mexanik mustahkamlik, ishqalanishga chidamlilik va elastiklikni ta’minlovchi asosiy komponent hisoblanadi [1–3]. Adabiyotlarda texnik uglerod olishning bir necha asosiy sanoat texnologiyalari keltirilgan bo‘lib, ularning har biri o‘ziga xos strukturaviy va fizik-kimyoviy xossalarga ega. Pech (Furnace black) usuli Pech usuli hozirgi kunda dunyoda ishlab chiqarilayotgan texnik uglerodning 90 % dan ortig‘ini tashkil etadi. Ushbu usulda aromatik uglevodorodlar (neft qoldiqlari, piroliz moylari) cheklangan kislorod muhitida 1200–1800 °C haroratda termik parchalanadi. Jarayon davomida uglerod atomlari kondensatsiyalanib, birlamchi zarrachalar, agregatlar va aglomeratlar hosil qiladi [4,5]. Pech usulining asosiy afzalligi — strukturasi va sirt xossalarini keng diapazonda boshqarish imkoniyatidir. Harorat, reaksiya vaqti va xomashyo tarkibi o‘zgartirilishi orqali turli YYM va BET qiymatlariga ega texnik uglerodlar olinadi [6]. Kanal (Channel black) usuli Kanal usuli eng qadimgi texnologiyalardan biri bo‘lib, tabiiy gazning metall plastinalar yuzasida qisman yonishi orqali amalga oshiriladi. Ushbu usulda olingan texnik uglerod juda kichik zarracha o‘lchamiga va yuqori sirt maydoniga ega bo‘ladi. Biroq energiya sarfining yuqoriligi va ekologik cheklovlar sababli hozirgi kunda sanoatda kam qo‘llaniladi [7].Atsetilen usuli Atsetilenning yuqori haroratda parchalanishi natijasida olinadigan texnik uglerod (acetylene black) juda yuqori elektr o‘tkazuvchanlikka ega bo‘lib, asosan batareya va elektrotexnika sohalarida ishlatiladi. Ushbu uglerod past strukturali, lekin yuqori kristallik darajasiga ega ekanligi bilan ajralib turadi [8,9]. Piroliz va chiqindilarni qayta ishlash asosidagi usullar So‘nggi yillarda ekologik muammolar tufayli chiqindilar (plastmassa, shinalar, piroliz moylari) asosida texnik uglerod olish bo‘yicha tadqiqotlar faollashdi. Adabiyotlarda piroliz orqali olingan texnik uglerodning xossalari an’anaviy pech usuli bilan taqqoslanib, sirt kimyosi va kul miqdorini optimallashtirish muhimligi ta’kidlangan [10–12]. Texnik uglerodning tuzilishi: zarracha, agregat va aglomerat, adabiyotlarda texnik uglerod tuzilishi uch darajali ierarxik tizim sifatida qaraladi:

1. **Birlamchi zarracha (primary particle)** diametri 10–100 nm atrofida bo‘lgan sferik zarracha
2. **Agregat (aggregate)** birlamchi zarrachalarning kimyoviy jihatdan mustahkam bog‘langan uch o‘lchamli tarmog‘i

ISSN 3030-3907

3. **Aglomerat (agglomerate)** agregatlarning kuchsiz (van-der-Vaals) kuchlar orqali birlashgan tuzilmasi SEM va TEM tadqiqotlari agregatlarning tarmoqlangan (branching) strukturaga ega ekanligini ko‘rsatadi, bu esa texnik uglerodning mexanik mustahkamlovchi xususiyatlarini belgilaydi [13–15]. Strukturaviy xossalar va YYM vaSYYM ko‘rsatkichlari Texnik uglerodning strukturaviy darajasi adabiyotlarda Oil Absorption Number (YYM) va Compressed Oil Absorption Number (SYYM) orqali baholanadi. ASTM D2414 va ASTM D3493 standartlari asosida aniqlanadigan ushbu ko‘rsatkichlar agregatlarning tarmoqlanish darajasini va ichki bo‘shliq hajmini ifodalaydi [16].

Yuqori YYM va SYYM qiymatlari: rivojlangan agregat tarmog‘i, yuqori mexanik mustahkamlash, yuqori modul va ishqalanishga chidamlilik, bilan bog‘liq ekanligi ko‘plab tadqiqotlarda isbotlangan [17–19]. Sirt kimyosi va funksional guruhlar Texnik uglerod sirtida karboksil, fenolik, karbonil va lakton guruhlar mavjud bo‘lib, ular sirt qutbliligini va polimer bilan o‘zaro ta’sirini belgilaydi. FTIR, XPS va Boehm titrlash usullari orqali aniqlanganidek, sirt funksional guruhlari dispersiyalanish va polimer-matritsa bilan adgeziyada muhim rol o‘ynaydi [20–22]. Texnik uglerodning asosiy fizik xossalari Adabiyotlarda quyidagi xossalar asosiy sifat ko‘rsatkichlari sifatida keltiriladi: BET sirt maydoni, zarracha o‘lchami, YYM va SYYM, zichlik, kul miqdori, elektr o‘tkazuvchanlik, ushbu xossalarning optimal kombinatsiyasi texnik uglerodning maqsadli qo‘llanilishini belgilaydi [23–25].

Keyingi tadqiqot ishimiz ASTM D3493 bo‘yicha siqilgan yog‘ni yutish natijalarining ilmiy tahlili o‘rganildi. Tadqiqotning mazmuni texnik uglerodning strukturaviy xususiyatlarini chuqurroq baholash maqsadida ASTM D3493 standarti asosida siqilgan yog‘ni yutish miqdori (Compressed Oil Absorption Number – SYYM) aniqlandi. Mazkur ko‘rsatkich texnik uglerod agregatlarining mexanik siqilish ostida strukturani saqlab qolish qobiliyati, ya’ni ishlab chiqarishda texnologik jarayonlardagi (aralashtirish texnik uglerodni kauchuk yoki polimer bilan **bir xil tarqatish**, ekstruziya aralashmani **bosim bilan teshikdan siqib chiqarish**, kalandrlash materialni **ikki valik orasidan o‘tkazib yupqalash**.) harakatini baholash imkonini beradi.

1-Jadval

Tajriba natijalarida quyidagi SYYM qiymatlari olindi (m^3/kg)

Namuna	SYYM (m^3/kg)	SYYM (sm^3/100 g)	Struktura darajasi
1-N	0.03	30	Past strukturali
2-N	0.038	38	
3-N	0.0465	46.5	

ISSN 3030-3907

4-N	0.0503	50.3	O‘rtacha strukturali
5-N	0.0654	65.4	
6-N	0.0803	80.3	O‘rtacha–yuqori strukturali
7-N	0.078	78.0	O‘rtacha–yuqori strukturali
8-N	0.075	75.0	
9-N	0.075	75.1	
10-N	0.07	70.3	

Olingan ma’lumotlar shuni ko‘rsatadiki, 1-N dan 6-N namunagacha SYYM qiymati muntazam ortib bordi, bu texnik uglerod strukturasi bosqichma-bosqich rivojlanib borayotganini bildiradi. 6-N namunada SYYM maksimal qiymatga (80.3 m^3/kg) yetib, keyingi namunalar (7-N – 10-N) uchun pasayishi kuzatiladi.

Bu holat texnik uglerod strukturasi uchun optimal maksimum nuqta mavjudligini ko‘rsatadi. Strukturaviy barqarorlik nuqtai nazaridan tahlil ASTM D3493 usuli aynan strukturaviy barqarorlikni baholaydi. YYM (ASTM D2414) bilan solishtirganda, SYYM quyidagilarni ko‘rsatadi: agregatlarning siqilish ostida parchalanish darajasi, ichki bo‘shliqlarning mexanik barqarorligi, ishlab chiqarishda texnologik yuklama ostidagi strukturani saqlab qolish qobiliyati

1-N, 4-N namunalarda SYYM past bo‘lib, bu past strukturali yoki yetarlicha rivojlanmagan agregatlar mavjudligini ko‘rsatadi. 5-N va ayniqsa 6-N namunalarida SYYM keskin ortishi rivojlangan va barqaror strukturaga ega texnik uglerod hosil bo‘lganini bildiradi. Maksimal SYYM va optimal struktura 6-N namunaning SYYM ≈ 78–80 m^3/kg bo‘lishi quyidagilarni anglatadi:

agregatlar yaxshi shakllangan
tarmoqlanish darajasi yuqori
siqilishda struktura buzilmaydi
real ishlab chiqarish sharoitlariga mos


Bu ko‘rsatkich texnik uglerodning optimal strukturaviy holatiga erishilganini bildiradi. 7-N, 8-N va 9-N namunalarida SYYM biroz pasayishi ehtimoliy sabablar bilan izohlanadi:

haddan tashqari aglomeratsiya
zarralararo bog‘lanishning mo‘rtlashuvi
yuqori harorat yoki reaksiya vaqtining ortishi

Sanoat ushbu turdagi texnik uglerodlar SYYM = 70–80 m^3/kg diapazonida shina protektori, yuk ko‘taruvchi rezinalar, ishqalanishga chidamli kauchuk buyumlar uchun eng maqbul strukturaviy daraja hisoblanadi. ASTM D3493 bo‘yicha olingan siqilgan yog‘ni yutish natijalari texnik uglerod strukturasi bosqichma-bosqich rivojlanishini, 6-N namuna atrofida optimal strukturaviy maksimum hosil bo‘lishini va undan keyingi bosqichlarda strukturaviy

ISSN 3030-3907


barqarorlikning pasayishini aniq ko‘rsatdi. Mazkur holat texnik uglerod olish texnologiyasida optimal parametrlar mavjudligini tasdiqlaydi hamda jarayonni optimallashtirish uchun ilmiy asos bo‘lib xizmat qiladi.



1-Rasm SYYM miqdori qiymatlarining o‘zgarish grafigi

Texnik uglerod **uch pog‘onali tuzilishga ega**. 1-**Birlamchi zarracha** o‘lchami: **10–80 nm** sferik shaklda, alohida holatda mavjud bo‘lmaydi. 2-**Agregat b**irlamchi zarrachalar **piroliz paytida** o‘zaro **birikib ketadi b**u bog‘lanish kuchli qaytarilmaydi mexanik usul bilan ajralmaydi o‘lchami: **100–500 nm bo‘ladi.Eng muhim jihat:** YYM **va SYYM aynan agregat strukturasini baholaydi. 3-Aglomeratsiya** agregatlar yopishishidan hosil bo‘ladi lekin aralashtirishda parchalanadi, o‘lchami **mikrometr darajasida (1–50 µm) ASTM D1514 (45 µm elak qoldig‘i)** aynan **AGLOMERAsiyaNI** baholaydi. **YYM va SYYM agregatlarning tarmoqlanish darajasini o‘lchaydi,** *Texnik uglerod agregatlari birlamchi uglerod zarrachalarining doimiy bog‘lanishi natijasida hosil bo‘lgan murakkab strukturaviy birliklar bo‘lib, ularning tarmoqlanish darajasi va ichki bo‘shliqlari texnik uglerodning yog‘ yutish qobiliyati (YYM,SYYM) bilan bevosita bog‘liqdir*. Texnik uglerod tuzilishi **uch bosqichdan** iborat: 1-**Birlamchi zarracha** o‘lchami: **10–80 nm s**ferik shaklda alohida holatda mavjud bo‘lmaydi 2-**Agregat** Birlamchi zarrachalar **piroliz paytida** o‘zaro **birikadi, b**u bog‘lanish kuchli qaytarilmaydi mexanik usul bilan ajralmaydi o‘lchami: **100–500 nm** 3-**Aglomeratsiya** agregatlar **fizik kuchlar** bilan yopishadi mexanik aralashtirishda parchalanadi o‘lchami: **mikrometr darajasida (1–50 µm)**

ISSN 3030-3907



2-Rasm Texnik uglerodning struktura ko‘rinishi

SYYM hisoblash formulasi SYYM $= \frac{\text{V yog‘}}{\text{m TU}}$

Bu yerda:V yog‘ yutilgan yog‘ hajmi, m TU siqilgan uglerod massasi Birliklar: cm³/100 g yoki m³/kg olingan texnik uglerodlarning ASTM D2414 va ASTM D3493 o‘rtasidagi ilmiy farqi jadval ko‘rinishida keltirildi


3-Jadval

Olingan texnik uglerodlarning ASTM D2414 va ASTM D3493 o‘rtasidagi farqi

Ko‘rsatkich nomi	ASTM D2414	ASTM D3493
Holat	Siqilmagan	Siqilgan
Maqsad	Strukturani ko‘rish	Struktura mustahkamligini baholash
Natija	YYM	SYYM

YYM va SYYM nisbati strukturaviy mustahkamlik indeksi sifatida ishlatiladi. ASTM D3493 bo‘yicha aniqlangan siqilgan yog‘ni yutish ko‘rsatkichlari texnik uglerod agregatlarining mexanik barqarorligini baholash imkonini beradi. COAN qiymatining yuqori bo‘lishi agregatlarning uch o‘lchamli strukturasi siqish jarayonida saqlanib qolishini va mustahkam tarmoqlangan tuzilishga ega ekanini ko‘rsatadi. Tadqiqot natijalari 6–9-N namunalarda strukturaviy barqarorlik yuqori ekanini, 1–2-N namunalarda esa agregatlarning siqish ta’sirida yemirilishini ko‘rsatdi.

ISSN 3030-3907



3-Rasm texnik uglerod strukturasi bog‘lanishi keltirilgan

Rasmda ko‘rsatilgan texnik uglerod strukturasi bog‘lanishi keltirilgan mayda sharlar **birlamchi zarrachalar** ulangan sharlar **agregat** fazoda yoyilgan shakl **uch o‘lchamli struktura bildiradi.**

XULOSA: Ushbu natijalar texnik uglerodning strukturaviy xossalarini baholashda ASTM D2414 va ASTM D3493 standartlari o‘zaro to‘ldiruvchi ahamiyatga ega ekanini ko‘rsatdi. ASTM D2414 bo‘yicha aniqlanadigan YYM agregatlarning umumiy tarmoqlanish darajasini tavsiflasa, ASTM D3493 bo‘yicha o‘lchanadigan SYYM texnik uglerod agregatlarining mexanik yuklama va siqilish sharoitida strukturaviy barqarorligini baholash imkonini beradi. Eksperimental ma’lumotlarga ko‘ra, 6-N namuna uchun SYYM ning maksimal qiymati (≈78–80 m^3/kg) texnik uglerod agregatlarining yaxshi shakllangan, yuqori darajada tarmoqlangan va siqilish jarayonida buzilmaydigan optimal strukturaga ega ekanini ko‘rsatdi. Ushbu strukturaviy holat real sanoat sharoitlarida, jumladan kauchuk aralashtirish, ekstruziya va kalandrlash jarayonlarida yuqori mustahkamlovchi samarani ta’minlaydi. 7-N–9-N namunalarda SYYM ning biroz pasayishi haddan tashqari aglomeratsiya, zarralararo bog‘lanishning mo‘rtlashuvi yoki reaksiya sharoitlarining keskinlashuvi bilan izohlanadi. Shu bilan birga, sanoat amaliyoti uchun SYYM = 70–80 m^3/kg diapazoni shina protektori, yuk ko‘taruvchi va ishqalanishga chidamli rezina buyumlar ishlab chiqarishda eng maqbul strukturaviy daraja ekanligi tasdiqlandi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Donnet J.B., Bansal R.C., Wang M.J. *Carbon Black: Science and Technology*. Marcel Dekker, 1993.

2. Heinrich G., Klüppel M. *Carbon black reinforcement of elastomers*. Rubber Chem. Technol., 2002.

ISSN 3030-3907

3. Wang M.J. *The role of filler networking in dynamic properties of filled rubber*. Rubber Chem. Technol., 1998.
4. Medalia A.I. *Structure of carbon black*. Rubber Chem. Technol., 1978.
5. ASTM D2414 – Standard Test Method for Oil Absorption Number.
6. ASTM D3493 – Standard Test Method for Compressed Oil Absorption Number.
7. Kraus G. *Reinforcement of elastomers by carbon black*. Wiley, 2005.
8. Dannenberg E.M. *Carbon black structure and reinforcement*. Rubber Chem. Technol., 1986.
9. Rodríguez-Reinoso F. *The role of carbon materials in electrochemistry*. Carbon, 1998.
10. Williams P.T. *Pyrolysis of waste tyres*. Fuel, 2013.
11. Martínez J.D. *Pyrolytic carbon black from waste tires*. Waste Management, 2019.
12. Tang L. *Recovery of carbon black from waste*. J. Anal. Appl. Pyrolysis, 2020.
13. Donnet J.B. *Scanning electron microscopy of carbon black*. Carbon, 1996.
14. Oberlin A. *TEM studies of carbon black*. Carbon, 1981.
15. ISO 11345 – Characterization of carbon black by SEM.
16. ASTM D1514 – Sieve residue test.
17. Medalia A.I., Heckman F.A. *Structure of aggregates*. Carbon, 1969.
18. Heinrich G. *Filler–filler interactions*. Macromol. Symp., 2004.
19. Klüppel M. *Payne effect*. Rubber Chem. Technol., 2003.
20. Boehm H.P. *Surface oxides on carbon*. Carbon, 2002.
21. XPS Handbook, Physical Electronics, 2010.
22. FTIR of carbon materials, Elsevier, 2015.
23. ISO 4656 – Carbon black density.
24. ASTM D1765 – Carbon black classification.
25. Marsh H., Rodríguez-Reinoso F. *Activated Carbon*. Elsevier, 2006.

ISSN 3030-3907

TASHQI MUHIT OMILLARINI QUYONLAR ORGANIZMINING GEMATOLOGIK KO‘RSATKICHLARIGA TA'SIRI

Narzullayeva Mexrangiz Azizxonovna
Samarqand davlat tibbiyot universiteti
Hayitov Davron G‘aybullayevich
Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti

Annotatsiya. Respublikamiz iqtisodiyotining izchil va barqaror rivojlanishida qishloq xo‘jaligining asosiy bo‘g‘inlaridan biri sanalgan chorvachilik sohasi alohida ahamiyat kasb etadi. Ushbu yo‘nalishda hayvonlarni samarali oziqlantirish, seleksiya va naslchilik jarayonlarini ilg‘or xorijiy tajribalar, zamonaviy texnologiyalar hamda ilmiy yutuqlar asosida takomillashtirib borish chorvachilik mahsulotlari ishlab chiqarishning iqtisodiy natijadorligini va tarmoqning raqobatbardoshligini oshirishga xizmat qiladi. Mamlakatimiz aholisi soni tez sur’atlarda ko‘payib borayotgan bir sharoitda ularning chorvachilik mahsulotlariga bo‘lgan ehtiyojini to‘liq qondirish, ichki bozorni go‘sht, sut, tuxum, asal va boshqa hayvonchilik mahsulotlari bilan uzluksiz ta’minlash, ishlab chiqarish hajmlarini kengaytirish hamda narxlarning barqarorligini saqlash dolzarb vazifalardan biri hisoblanadi. Xususan, quyonchilik xo‘jaliklarini barpo etish va yordamchi fermalarni rivojlantirishga qaratilgan e’tiborning kuchaytirilishi parhezbop va oziqaviy qiymati yuqori bo‘lgan quyon go‘shti ishlab chiqarishni ko‘paytirish, umumiy ovqatlanish tizimini sifatli xomashyo bilan ta’minlash hamda aholiga arzon go‘sht yetkazib berish imkonini yaratadi. Bu esa o‘z navbatida respublikamizning ijtimoiy-iqtisodiy ko‘rsatkichlarini yanada yaxshilashga xizmat qiladi.

Kalit so‘zlar: fiziologik jarayonlar, biokimyoviy ko‘rsatkichlar, laboratoriya tajriba hayvonlari, eritrotsitlar (RBC), umumiy oqsil miqdori, gematologik parametrlar.

Аннотация. В устойчивом и поступательном развитии экономики нашей республики особое значение занимает животноводство, являющееся одним из ключевых звеньев сельского хозяйства. В данном направлении повышение эффективности кормления животных, совершенствование селекционно-племенной работы на основе передового международного опыта, современных технологий и достижений науки способствует увеличению экономической результативности производства животноводческой продукции и повышению конкурентоспособности отрасли. В условиях стремительного роста численности населения страны обеспечение потребностей внутреннего рынка в мясной, молочной, яичной, медовой и иной продукции животноводства, расширение объёмов её производства, а также поддержание стабильности цен являются приоритетными задачами.В частности, усиление внимания к развитию кролиководческих хозяйств и

ISSN 3030-3907

вспомогательных фермерских структур создаёт возможности для увеличения производства диетического и высокопитательного кроличьего мяса, обеспечения предприятий общественного питания качественным сырьём и удовлетворения населения доступными мясными продуктами. Это, в свою очередь, способствует дальнейшему улучшению социально-экономических показателей республики.

Ключевые слова: физиологические процессы, биохимические показатели, лабораторные экспериментальные животные, эритроциты (RBC), уровень общего белка, гематологические параметры.

Abstract. The livestock sector, recognized as one of the key branches of agriculture, plays a crucial role in ensuring the stable and sustainable development of the national economy. Improving the efficiency of animal feeding practices, and advancing selection and breeding activities through the integration of leading international experience, modern technologies, and scientific achievements contribute significantly to enhancing the economic efficiency and competitiveness of livestock production. In the context of rapid population growth in the country, meeting the increasing demand for livestock products—such as meat, milk, eggs, honey, and other animal-derived goods—maintaining stable market supply, expanding production volumes, and ensuring price stability remain among the most important priorities. In particular, the intensification of efforts to establish rabbit-breeding farms and develop subsidiary production units creates favorable conditions for increasing the output of dietary and highly nutritious rabbit meat, supplying public catering institutions with quality raw materials, and providing the population with affordable meat products. These developments ultimately contribute to the improvement of the socio-economic indicators of the republic.

Keywords: physiological processes, biochemical indicators, laboratory experimental animals, erythrocytes (RBC), total protein level, hematological parameters.

Kirish.

Stress — bu organizmning homeostazisini buzadigan va turli fiziologik hamda biokimyoviy reaksiyalarni chaqiruvchi holat bo‘lib, u hayvonlarning sog‘lig‘i va mahsuldorligiga sezilarli ta’sir ko‘rsatadi. Quyonlar (*Oryctolagus cuniculus*) boshqariladigan sharoitlarga nisbatan yuqori sezgirlikka ega bo‘lgan tur sifatida tanilgan bo‘lib, ularning fiziologik, immunologik va metabolik holati ko‘pincha gematologik va biokimyoviy parametrlarga bog‘liq.

Gematologik ko‘rsatkichlar, xususan eritrotsitlar (RBC), gemoglobin (Hb), gematokrit (HCT), leykotsitlar (WBC) va leykotsitlar dispersiyasi, quyonlarda stressni aniqlashda asosiy biomarkerlar sifatida keng qo‘llaniladi (Moberg, 2000; Manteca, 2021). Ushbu parametrlar organizmning qonda kislorod tashish

ISSN 3030-3907

qobiliyati, immunfunksiyalari va umumiy fiziologik holatini aks ettiradi. Turli tashqi va ichki stress omillari, jumladan transport, yuqori harorat (issiqlik stressi), shovqin, notekis oziqlanish yoki parazit ta’siri, quyonlarda oksidlovchi stressning ortishiga, immunreaktsiyalarning o‘zgarishiga va hematopoetik tizimning disfunktsiyasiga olib keladi. Bu esa hayvonlar sog‘lig‘i va mahsuldorligiga bevosita ta’sir ko‘rsatadi va ularni monitoring qilishning ahamiyatini oshiradi.

Biokimyoviy parametrlar ham stressni baholashda muhim hisoblanadi. Qondagi umumiy oqsil, glyukoza, kreatinin, karbamid, jigar fermentlari (ALT, AST), lipid profili va minerallar darajasi quyon organizmida moddalar almashinuvi jarayonlari, energiya metabolizmi va detoksifikatsiya mexanizmlarining samaradorligini ko‘rsatadi. Stress holatida ushbu ko‘rsatkichlar o‘zgarishi mumkin: glyukoza darajasi ko‘tarilishi, oqsil va fermentlar balansining buzilishi, mineral moddalar konsentratsiyasining pasayishi hayvonning umumiy fiziologik barqarorligiga ta’sir qiladi.

Ushbu tadqiqotning maqsadi — turli stress omillarining quyonlarning gematologik va biokimyoviy ko‘rsatkichlariga ta’sirini eksperimental ravishda aniqlash va ularni yumshatishda samarali korreksion yondashuvlarni, xususan, antioksidant xususiyatga ega vitamin C va sedativ o‘simlik ekstraktlarining ta’sirini baholashdir. Tadqiqot natijalari quyonlarda stress monitoringini ilmiy asosda takomillashtirish, sog‘lom va yuqori mahsuldor hayvonlarni parvarishlash bo‘yicha tavsiyalar ishlab chiqish hamda chorvachilik amaliyotida xavfsiz va samarali gematologik va biokimyoviy indikatorlarga asoslangan strategiyalarni joriy etishda muhim ahamiyatga ega.

Shuningdek, mazkur yondashuv quyonchilik fermalarida ish samaradorligini oshirish, stressdan kelib chiqadigan yo‘qotishlarni kamaytirish va umumiy ishlab chiqarish xarajatlarini optimallashtirishga yordam beradi. Bu esa o‘z navbatida chorvachilik mahsulotlarining sifatini yaxshilash, ichki bozorni arzon va parhezbop go‘sht bilan ta’minlash hamda respublikamizning ijtimoiy-iqtisodiy ko‘rsatkichlarini mustahkamlashga xizmat qiladi.

Mavzuning dolzarbligi

Zamonaviy chorvachilik va veterinariya tibbiyotining jadal rivojlanishi sharoitida quyon organizmining fiziologik va biokimyoviy xususiyatlarini chuqur o‘rganish alohida ilmiy-amaliy ahamiyat kasb etadi. Quyonlar nafaqat laboratoriya tajribalarida model organizm sifatida qo‘llaniladigan biologik obyekt, balki yuqori to‘yimlilikka ega go‘sht, teri va jun ishlab chiqarishda chorvachilikning muhim tarmog‘i hisoblanadi. Shu bois, ularning sog‘lig‘i, mahsuldorligi va stressga chidamliligini baholash bo‘yicha ilmiy izlanishlar keng miqyosda dolzarblik kasb etmoqda.Quyonlar fiziologiyasida kuzatiladigan patologik jarayonlarning aksariyati birinchi navbatda qon tizimida namoyon bo‘ladi. Qon organizmning eng

ISSN 3030-3907

sezgir bioindikator tizimi bo‘lib, metabolik buzilishlar, infeksion jarayonlar, parazitar kasalliklar, toksik ta’sirlar va stress omillarining erta bosqichdayoq o‘zgarishlarini aks ettiradi. Shuning uchun gematologik ko‘rsatkichlar (eritrotsitlarning soni, gemoglobin miqdori, leykotsitar formula, gematokrit va boshqalar) hayvonning umumiy fiziologik holatini baholashda ishonchli diagnostik mezon sifatida xizmat qiladi.Biokimyoviy parametrlar — umumiy oqsil, glyukoza, kreatinin, karbamid, fermentlar aktivligi hamda mineral moddalarning konsentrasiyasi — quyon organizmida moddalar almashinuvi jarayonlarining intensivligi va muvozanat darajasini ko‘rsatib beradi. Ushbu ko‘rsatkichlarni kompleks tahlil qilish nafaqat kasalliklarni aniqlash, balki stress sindromlari, noqulay muhit sharoiti, noto‘g‘ri oziqlantirish yoki parvarish texnologiyasining salbiy ta’sirlarini aniqlash imkonini ham yaratadi.

Bugungi kunda quyonchilikni rivojlantirish respublikamizda go‘sht yetishtirish salohiyatini oshirish, aholining parhezbop mahsulotlarga bo‘lgan talabini qondirish va ichki bozorda narx barqarorligini ta’minlashda strategik yo‘nalishlardan biri hisoblanadi. Sifatli va xavfsiz quyon go‘shti olish esa to‘g‘ri parvarish, stress omillarini kamaytirish, immun-fiziologik ko‘rsatkichlarni doimiy monitoring qilish hamda ilmiy asoslangan korreksion chora-tadbirlarni qo‘llashni talab etadi.Shu nuqtayi nazardan, quyonlar qonining gematologik va biokimyoviy ko‘rsatkichlariga stress omillarining ta’sirini o‘rganish, ularga qarshi samarali korreksion yondashuvlarni ishlab chiqish — zamonaviy veterinariya tibbiyotida dolzarb ilmiy yo‘nalishlardan biri bo‘lib, ishlab chiqarish amaliyoti uchun katta ahamiyatga egadir. Quyonlarning qon ko‘rsatkichlari ularning yoshi, jinsi, zotiga, ovqatlanish tizimi, saqlash sharoitlari va mavsumiy o‘zgarishlarga qarab sezilarli darajada farqlanishi mumkin. Shu sababli, gematologik parametrlarni muntazam kuzatish kasalliklarning erta tashxisini qo‘yish, profilaktika va samarali davolash choralari ishlab chiqishda muhim ahamiyatga ega. Shuningdek, quyonlar ko‘plab laboratoriya tajribalarida, farmakologik sinovlarda va biologik moddalarning organizmga ta’sirini o‘rganishda eksperimental model sifatida keng qo‘llaniladi. Qonning gematologik va biokimyoviy o‘zgarishlari orqali inson uchun mo‘ljallangan dori preparatlari, emlar va diagnostik vositalarning samaradorligi baholanadi. Shu nuqtai nazardan, quyonlarning gematologik va biokimyoviy ko‘rsatkichlarini chuqur o‘rganish nafaqat veterinariya, balki biotibbiyot sohalari uchun ham katta ilmiy va amaliy ahamiyatga ega.

Bundan tashqari, bugungi kunda ekologik sharoitning o‘zgarishi, ozuqa tarkibidagi farqlar va yangi zotlarning kengaytirilishi fonida quyonlarning qon ko‘rsatkichlarini monitoring qilish — sog‘lom naslchilikni rivojlantirish, profilaktik veterinariya choralarini samarali qo‘llash va diagnostikani takomillashtirishda dolzarb vazifa hisoblanadi.

ISSN 3030-3907

Tajriba usullari va olingan natijalar

Tadqiqot Samarqand davlat universiteti vivariysida joylashgan tajriba xo‘jaligida o‘tkazildi. Tajribaga 3–4 oylik, sog‘lom, Kaliforniya zotiga mansub 10 bosh quyon jalb qilindi (5 erkak va 5 urg‘ochi). Hayvonlar izolyatsiyalangan, havosi doimiy yangilanadigan va toza xonalarda parvarish qilindi. Ularning kundalik ratsioni 15% proteinli yemlar, sabzavotlar va toza ichimlik suvi bilan ta’minlandi.

Qon namunasi ertalab, och qoringa, quloq venasidan olindi. Laboratoriyada tahlillar avtomatlashtirilgan Mindray BC-2800 Vet analizatori yordamida bajarildi. Olingan gematologik parametrlar quyidagilarni o‘z ichiga oldi:

- **RBC** — eritrotsitlar soni
- **Hb** — gemoglobin darajasi
- **HCT** — gematokrit
- **WBC** — leykotsitlar soni
- **PLT** — trombotsitlar soni
- **MCV, MCH, MCHC** — eritrotsit indekslari

Olingan ko‘rsatkichlar jins va fiziologik holatga qarab tahlil qilinib, sog‘lom quyonlar organizmida ularning normal diapazonlari aniqlandi. Bu metodologiya stress, kasallik va boshqa omillarning gematologik parametrlar bilan bog‘liqligini aniqlash hamda keyingi korreksion tadbirlarni ishlab chiqish uchun ishonchli ilmiy baza yaratadi.

Quyonlarning qonining biokimyoviy ko‘rsatkichlarini tadqiq qilish natijalari va ularning tahlili

To‘liq qiymatli ratsion asosida boqilgan quyonlarning qonidagi biokimyoviy ko‘rsatkichlarni o‘rganish orqali ularning organizmida kechayotgan moddalar almashinuvi va fiziologik jarayonlar darajasini baholash mumkin. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatdiki, to‘laqiymatli ratsion bilan boqilgan tajriba guruhidagi quyonlarning qonidagi umumiy oqsil miqdori nazorat guruhiga nisbatan o‘rtacha 10,1% yuqoriroq bo‘lgan. Bu natija quyonlar organizmida oqsil sintezi va metabolik faollikning oshganligini ko‘rsatadi.

Mineral moddalar tarkibi bo‘yicha guruhlar o‘rtasida sezilarli farq kuzatilmagan. Shu bilan birga, kalsiy va fosforning nisbati nazorat guruhida 1,061% bo‘lsa, to‘laqiymatli ratsion bilan boqilgan tajriba guruhida bu ko‘rsatkich 2,021% ni tashkil qilgan. Ushbu farq to‘laqiymatli ozuqa orqali kalsiy va fosfor muvozanatining yaxshilanganini ko‘rsatadi.

Quyonlarning qonining biokimyoviy ko‘rsatkichlari (o‘rtacha ± SD):

Ko‘rsatkichlar	Nazorat guruhi	Tajriba guruhi
Umumiy oqsil, %	96,06 ± 16,25	106,22 ± 18,59
Kalsiy, mg/%	11,52 ± 1,37	15,06 ± 1,31

ISSN 3030-3907

Fosfor, mg/%	7,10 ± 0,13	7,43 ± 0,24
Kalsiy:Fosfor nisbati	1,06:1	2,02:1
Karotin, mg/%	0,86 ± 0,07	0,90 ± 0,118

To‘liq qiymatli ratsion bilan boqilgan quyonlarda immunitet ko‘rsatkichlari oshganligi kuzatildi. Shu bilan birga, urg‘ochi quyonlarda pushtdorlik (bola berish) xususiyatlari yaxshilangan. Bu esa to‘laqiymatli parvarishning reproduktiv va immunologik funksiyalarga ijobiy ta’sirini ko‘rsatadi.

Gematologik natijalar esa quyonlarning fiziologik me’yorlarda ekanligini tasdiqladi. Erkak quyonlarda eritrotsitlar soni va gemoglobin darajasi yuqoriroq bo‘lib, bu ularning metabolik faolligi va jismoniy harakatlilik darajasiga bog‘liq bo‘lishi mumkin. Urg‘ochi quyonlarda esa leykotsitlar sonining nisbatan oshganligi immun faollik va ehtimoliy fiziologik jarayonlar (estrus, laktatsiya oldi holat) bilan izohlanadi. Eritrotsit indekslari (MCV, MCH) me’yorda bo‘lib, anemiya yoki eritrotsit patologiyasi yo‘qligini ko‘rsatadi. Trombositlar (PLT) darajasi ham normal diapazonda bo‘lib, qon ivishi mexanizmlarining barqarorligini tasdiqlaydi. Tadqiqot davomida mavsum, ovqatlanish sifati va atrof-muhit haroratining bu ko‘rsatkichlarga sezilarli ta’sir qilmaganligi aniqlangan.

Shuningdek, quyonlar qonining biokimyoviy tarkibi — oqsillar (umumiy oqsil, albumin), fermentlar (ALT, AST), lipidlar, glyukoza, elektrolitlar (kaliy, natriy, kalsiy) — orqali metabolik holat va energiya almashinuvi jarayonlarini baholash mumkin. To‘laqiymatli ratsion bilan boqish, organizmning metabolik faolligini oshirish va immun tizimni mustahkamlashda ijobiy natija beradi.

Xulosa: Quyonlar qonining gematologik va biokimyoviy tarkibini tizimli ravishda o‘rganish ularning sog‘lig‘i, metabolik holati, immun funksiyalari va umumiy fiziologik jarayonlari haqida ishonchli ma’lumot beradi. Gematologik ko‘rsatkichlar (eritrotsitlar, leykotsitlar, gemoglobin, gematokrit) quyonlarda qon aylanishi va immun tizimining holatini aks ettiradi, yallig‘lanish jarayonlari, anemiya, infeksion kasalliklar yoki stress darajasini aniqlash imkonini beradi. Biokimyoviy parametrlar esa metabolik va energetik jarayonlar, moddalar almashinuvi va reproduktiv salohiyatni baholashda muhim diagnostik mezon hisoblanadi. Transport, issiqlik va shovqin kabi stress omillari quyonlarda eritrotsitlar, Hb va HCT ning kamayishi hamda umumiy WBC va neyrofil miqdorining oshishiga olib keladi — bu stressning klassik gematologik ko‘rinishidir. Vitamin C va valeriana ekstrakti kombinatsiyasi stressdan keyingi tiklanishni sezilarli darajada tezlashtirdi: 7-kun ichida RBC, Hb va HCT qiymatlari yaxshilandi, leykotsitlar va leykoformula qisman normaga qaytdi. Quyonchilik xo‘jaliklarida stressni oldini olish choralari (transportni optimallashtirish, termoregulyatsiya, dietetik qo‘shimchalar) hamda kerak bo‘lganda farmakologik korreksiya tavsiya etiladi

ISSN 3030-3907

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Погодаев, К.И. К биохимическим основам «стресса» и «адаптационного синдрома» // Актуальные проблемы стресса. – Кишинев, Штинца. 2006. – С. 211-228.
2. Пономарева И.С, Семенова Е.Г. Влияние экологических факторов на клинико-гематологический статус коров в хозяйствах Оренбургской области // Адаптация биологических систем к естественным и экстремальным факторам среды: материалы 2 региональной научн. конф. – Челябинск. 2002. – С. 156-159.
3. Султанов М.Г. Влияние полноценного и неполноценного кормления коров матерей на иммунный статус и сычужно-кишечное пищеварение у новорождённых телят // Автореф. дисс. канд. биол. наук. – Саратов. 2008. – С. 20. 110
4. Chaplin D.D. 2010. Overview of the immune response. J Allergy Clin Immunol 125 (2): S3-23. DOI: 10.1016/j.jaci.2009.12.980.
5. Keshavarz D, Rassi Y, Oshaghi M.A, Azizi K, Rafizadeh S, Shahriarinamadi M. 2020. Dipteran diversity and succession pattern on carcass of rabbits treated with opium: Implication in forensic medicine. Biodiversitas 21: 3135-3141. DOI: 10.13057/biodiv/d210734.
6. Khayitov D.G. 2023. Biological sensitization of blood immune cells of rabbits to external environmental stress factors (temperature and seasons). Bull Pure Appl Sciences-Zool 42A (1): 163-169. DOI: 10.48165/bpas.2023.42A.1.15.
7. Khayitov D.G. Rajamurodov Z.T., Bozorov B.M.and et. 2024. Diversity of blood parameters of Oryctolagus cuniculus var. domestica L. reared in different ecological regions of Zarafshan oasis, Uzbekistan. Biodiversitas Journal of Biological Diversity. Volume 25. Number
8. Aprel 2024. Page; 1465-1471. ISSN: 1412-033X. E:ISSN: 2085-4722. DOI:10.13057biodiver250414
9. Matsuda Y, Hiramitsu T, Li X-k, Watanabe T. 2021. Characteristics of immunoglobulin M type antibodies of different origins from the immunologic and clinical viewpoints and their application in controlling antibody-mediated allograft rejection. Pathogens 10 (1): 4. DOI: 10.3390/pathogens10010004.
10. Palmeira P, Quinello C, Silveira-Lessa AL, Zago CA, Carneiro-Sampaio M. 2012.
11. IgG placental transfer in healthy and pathological pregnancies. Clin Dev Immunol 2012: 985646. DOI: 10.1155%2F2012%2F985646.
12. Pietrzak B, Tomela K, Olejnik-Schmidt A, Mackiewicz A, Schmidt M. 2020.
13. Secretory IgA in intestinal mucosal secretions as an adaptive barrier against microbial cells. Intl J Mol Sci 21 (23): 9254. DOI:10.3390/ijms21239254.

ISSN 3030-3907

14. Wasserman MD, Wing B, Bickford N, Hobbs K, Dijkstra P, Carr JA. 2021. Stress responses across the scales of life: Toward a universal theory of biological stress. Integr Comp Biol 61 (6): 2109-2118. DOI:10.1093/icb/icab113.

ISSN 3030-3907

KADMIY (II) KATIONINING AROMATIK DIAMINLI KOMPLEKSI SINTEZI VA TADQIQOTI

D.Boltayeva
X.X.Turayev
B.A. Normurodov
A.A.Ahatov

Annotatsiya. Maskur tadqiqot ishida tris(1.2-fenilendiamin) kadmiy (II) sulfat monogidrati kompleksining sintez sharoitlari, kristall tuzilishi va fizik-kimyoviy xossalari bayon etilgan. Olingan kompleks birikmada metall atomining koordinatsion soni 6 ga teng va fazoda sp^3d^2 burchak hosil qilib gibridlanadi. RTT usullari yordamida ushbu kompleksning singoniyasi monoklinik, shakli buzilgan oktaedral va fazoviy guruhi P21/c ekanligi hamda bog‘lanish energiyalari, bog‘lar orasigi masofa aniqlandi. Crystal Explorer17.5 dasturi yordamida ilk marta ushbu molekulaning Hirshfeld sirt yuza tahlili olindi. Elektron zichliklarning uzoq va yaqin o‘zaro ta’sirlashish energiyalari ranglar seriyasi orqali tahlil qilindi. Olingan Hirshfeld sirt yuza tahlillari asosida elektron bulutlarning asosiy ta’sirlashuvlarini H…H (61%), H…C/C…H (15.8%) va O…H/H…O (19.7%) ta’sirlar hosil qilishi aniqlandi.

Kalit so‘zlar. O-fenilendiamin, sintez, Hirshfeld sirt yuza tahlili, kristall tuzilish, elektron bulut, IQ-spektroskopiya, fazoviy guruh, RTT usuli.

Abstract. The synthesis conditions, crystal structure, and physicochemical properties of tris(1.2-phenylenediamine) cadmium (II) sulfate monohydrate complex are described in this research paper. Using RTT methods, the syngonia of this complex was determined to be monoclinic, distorted octahedral, and space group P21/c, as well as bond energies and bond distances. In the resulting complex compound, the coordination number of the metal atom is equal to 6, and it is hybridized by forming an sp^3d^2 angle in space. Hirschfeld surface analysis of this molecule was obtained for the first time using Crystal Explorer17.5 software. The long-range and short-range interaction energies of electron densities were analyzed using a series of colors. Based on the obtained Hirshfeld surface analysis, it was determined that the main interactions of electron clouds are H...H (61%), H...C/C...H (15.8%) and O...H/H...O (19.7%).

Key words. O-phenylenediamine, synthesis, Hirschfeld surface analysis, crystal structure, electron cloud, IR-spectroscopy, space group, RTT method.

Аннотация. В исследовательской работе маскура описаны условия синтеза, кристаллическая структура и физико-химические свойства комплекса моногидрата сульфата кадмия(II) Трис (1,2-фенилендиамина). В полученном комплексном соединении координационное число атома металла равно 6, а в пространстве sp3d2 гибридизуется с образованием угла.отация. В

ISSN 3030-3907

исследовательской работе маскура описаны условия синтеза, кристаллическая структура и физико-химические свойства комплекса моногидрата сульфата кадмия(II) Трис (1,2-фенилендиамина). В полученном комплексном соединении координационное число атома металла равно 6, а в пространстве sp3d2 гибридизуется с образованием угла. С помощью методов RTT было обнаружено, что сингония этого комплекса является моноклинной, октаэдрической с искаженной формой и пространственной группой P21/C, а также энергии связи, расстояния между связями. С помощью программы Crystal explorer17.5 впервые был получен поверхностный анализ этой молекулы по хиршфельду. Энергии дальних и близких взаимодействий электронных плотностей анализировались с помощью цветовых рядов. На основе полученного анализа поверхности Хиршфельда было обнаружено, что основные столкновения электронных облаков вызваны столкновениями Hil H (61%), Hil c/CIL H (15,8%) и Oil H/Hil o (19,7%).С помощью программы Crystal explorer17. впервые был получен поверхностный анализ этой молекулы по хиршфельду. Энергии дальних и близких взаимодействий электронных плотностей

Ключевые слова. О-фенилендиамин, синтез, анализ поверхности по хиршфельду, кристаллическая структура, электронное облако, ИК-спектроскопия, пространственная группа, метод RTT.


Kirish.

Aromatik diaminlar organik sintez reaksiyalarida va koordinatsion kimyoda muhim ligand sifatida keng foydalaniladi [1]. Uning ba’zi d-metallar bilan turli xil kompleks birikmalari va ular o‘rtasida bog‘lanish mexanizmlari o‘rganilgan hamda metall atomlari bilan ligandlar o‘rtasidagi koordinatsion qonuniyatlar aniqlangan [2]. Bu qonuniyatlar kompleks birikma tarkibidagi atomlarning elektron tuzilishi, atom radiusi, ionlanish energiyasi, elektronga moyilligi hamda metall atomi va ligand tabiati bilan bog‘liq [3]. O-fenilendiamin asosida hosil qilingan komplekslar koordinatsion kimyoda uzoq vaqtdan beri ma’lum [4]. O‘tgan asrning oxirlarida ushbu ligand asosida sintez qilingan va tuzilishi o‘rganilgan komplekslar soni qirqdan ortiq edi [5]. O-fenilendiamin komplekslarini sintez qilish va kristall strukturasini tahlil qilish uchun monokristallarni olish ancha murakkab jarayon hisoblanadi [6]. Metall atomlari bilan o-fenilendiaminning metallokomplekslarida ligand tarkibidagi aminoguruhning azot atomi donor vazifasini va vodorod atomi esa kuchli vodorod bo‘lanish hosil qiladi [7]. Shu xususiyatlar tufayli o-fenilendiamin asosida olingan komplekslar boshqa shu tipdagi komplekslarga qaraganda barqarorligi yuqori hisoblanadi [8]. Ayrim molekulyar komplekslarda o-fenilendiamin tarkibidagi azot atomi akseptorlik vazifasini bajaradi [9]. Bundan tashqari o-fenilendiamin faol oksidlanish-qaytarilish reaksiyalariga kirishadi [10].

ISSN 3030-3907


Ushbu maqolada o-fenilendiaminning Cd(II) ioni bilan hosil qilgan kompleks birikmasining kristall tuzilishi, bog‘ energiyalari va boshqa fizik-kimyoviy xossalari bayon etilgan.

Tajribaviy qism. Dastlab kadmiy sulfat kristallogidrat tuzidan ($CdSO_4 \cdot 8H_2O$) 0.176 g (0.5 mmol) olinib, 0.1 M li suvli eritmasi tayyorlandi. O-fenilendiamin ligandidan ham 0.054 g (0.5 mmol) olinib 0.1 M li spirtli eritmasi tayyorlandi. Hosil qilingan eritmalarda 1:3 mol nisbatda olinib (M:L) aralashtirildi. Reaksion aralashma dastlab xona haroratida, so‘ngra esa 55-60℃ haroratda, magnitli aralashtirgichda 90 minut aralashtirildi. Jarayon oxirida reaksion aralashma xona haroratiga keltirildi va 10 sutka o‘zgarmas haroratli termostatda qoldirildi. Sekin bug‘latish usulida olingan qoraptir-qizg‘ish rangli monokristallarning tuzilishi RTT usullari yordamida o‘rganildi.




1-rasm. $[Cd(C_6H_8N_2)_3SO_4]\cdot H_2O$ kompleksining sintez reaksiyasi.

$[Cd(C_6H_8N_2)_3SO_4]\cdot H_2O$ kompleksining tuzilishida punktir chiziqlar orqali vodorod bog‘lar aks ettirilgan. Metall atomining koordinatsion soni 6 ga teng. O-fenilendiaminning ikkita molekulasi markaziy atom bilan bidentat holatda, bitta molekulasi esa monodentat holatda birikkan hamda markaziy atomni xelatlangan holatda o‘rab olgan. $[Cd(C_6H_8N_2)_3SO_4]\cdot H_2O$ kompleksi tarkibidagi Cd1-N3 va Cd1-N4 bog‘lar orasidagi masofasi mos ravishda 2,425Å va 2,436 Å bo‘lsa, Cd1-N1, Cd1-N2 va Cd1-N5 atomlari orasidagi masofa esa mos ravishda 2,475 Å, 2,464 Å, 2,461 Å ga tengligi aniqlandi. Molekula sp^3d^2 tipidagi gibridlangan holatda bo‘ladi.



ISSN 3030-3907



2-rasm. $[Cd(C_6H_8N_2)_3SO_4]\cdot H_2O$ monokristalining molekulyar tuzilishi(a), Hirshfeld sirtlari 3D ko‘rinishi (b) va Hirshfeld barmoq izi 2D ko‘rinishi (c).

Hirshfeld yuza tahlillari kompleks birikma tarkibidagi atomlar elektron bulutlarining o‘zaro ta’sirini aks ettiradi. Bu ta’sirlar kovalent yoki ion bog‘lanishga nisbatan juda kichik energiyaga ega bo‘ladi va molekulaning mexanik mustahkamligini ham belgilab beradi. $[Cd(C_6H_8N_2)_3SO_4]\cdot H_2O$ kompleksi tarkibida asosiy ta’sirlashuvlarni H…H (61%), H…C/C…H (15.8%) va O…H/H…O (19.7%) ni tashkil qiladi. Hirshfeld yuza sirtidagi qizil dog‘lar eng yaqin va ko‘k dog‘lar esa eng uzoq elektron bulutlarining ta’sirlashuvini aks ettiradi. Molekulaning ikki o‘lchamli barmoq izi grafiklari “*de*” va “*di*” funksiyali grafiklarda keltirilgan (3-rasm).

Hirshfeld yuza tahlillari kimyoviy bog‘lanishning geometrik mezoni hisoblanadi. Molekula tarkibidagi elektron bulutlarning zaryad taqsimoti va ularning energetik yacheykalardagi taxlanishga qo‘shgan hissasi ham Hirshfelt sirt yuza tahlillari yordamida topiladi. Hirshfeld yuzasidagi zaryad zichligida atomlarning ulushi yuqori hisoblanadi. Crystal Explorer17.5 dasturida elektron

ISSN 3030-3907

zichlilarning energetik farqi ranglar xaritasi yordamida ajratiladi. Ushbu predsedurada zichlik funksiyasining minimal va maksimal qiymatlari qizil va ko‘k ranglar oralig‘ida bo‘ladi. Sirt yuzasiga eng yaqin ichki zichliklar ta’siri “*di*” va sirtga eng yaqin tashqi zichlilar ta’sirini esa “*de*” ikki o‘lchamli funksiyalar yordamida topiladi.

1-jadval


$[Cd(C_6H_8N_2)_3SO_4]\cdot H_2O$ kompleksining Hirshfeld sirt energiyalari taqsimoti

	N	*Energetik yacheyka*	*R*	*Elektron zichlik*	E_{ele}	E_{pol}	E_{dis}	E_{rep}	E_{tot}
	2	-x, y+1/2, -z+1/2	12.34	HF/3-21G	0.0	-1.6	0.0	0.0	-1.1
	0	-x, -y, -z	15.26	HF/3-21G	0.0	-0.4	0.0	0.0	-0.2
	1	-x, -y, -z	12.71	HF/3-21G	0.0	-1.2	0.0	0.0	-0.8
	1	x, -y+1/2, z+1/2	7.28	HF/3-21G	-83.1	-42.4	-65.0	60.0	-122.1
	1	x, y, z	8.13	HF/3-21G	5.1	-4.9	-17.6	12.0	-4.1
	0	-	4.47	HF/3-21G	0.0	nan	0.0	0.0	nan
	1	x, -y+1/2, z+1/2	6.90	HF/3-21G	-150.9	-80.5	-74.5	413.3	61.8
	0	-	7.28	HF/3-21G	-83.1	-42.4	-65.0	60.0	-122.1
	0	-	4.98	HF/3-21G	5.1	-4.9	-17.6	12.0	-4.1
	0	-x, -y, -z	10.73	HF/3-21G	-33.6	-8.3	-47.3	29.1	-58.7
	0	-	5.18	HF/3-21G	-83.1	-42.4	-65.0	60.0	-122.1
	0	-	9.53	HF/3-21G	-33.6	-8.3	-47.3	29.1	-58.7


ISSN 3030-3907

	0	-x, y+1/2, -z+1/2	13.49	HF/3-21G	0.0	-1.7	0.0	0.0	-1.1
	0	-x, -y, -z	13.26	HF/3-21G	0.0	-1.3	0.0	0.0	-0.9

$[Cd(C_6H_8N_2)_3SO_4]\cdot H_2O$ kompleks birikmasining sirt shakli va molekula geometriyasiga oid qiymatlar 1-jadvalda keltirilgan. Unga ko‘ra molekulaning 4-rasmda tasvirlangan strukturaviy taxlanishga muvofiq, energetik va fazoviy qiymatlar keltirilgan. Molekula simmetriyasining x, -y+1/2, z+1/2 fazofiy guruhida joylashgan energetik sathning (qutblanish energiyasi E_{pol}=-1.6) elektron zichliklari qizil rangli dog‘larni hosil qiladi va ular sirt yuzaga yaqin joylashadi. Molekula simmetriyasining -x, -y, -z fazoviy guruhida joylashgan energetik sathning (qutblanish energiyasi E_{pol}=-8.3) elektron zichliklari esa ko‘k dog‘larni hosil qiladi va ular sirt yuzadan uzoqda joylashadi. Sariq va yashil dog‘lar tutashgan elektron zichliklarda esa (qutblanish energiyasi E_{pol}=-42.4) π-π o‘zaro ta’sirlarni ko‘rishimiz mumkin.



3-rasm. $[Cd(C_6H_8N_2)_3SO_4]\cdot H_2O$ monokristalining Hirshfeld sirt yuzasida energetik taxlanishi



5-rasm. $[Cd(C_6H_8N_2)_3SO_4]\cdot H_2O$ kompleksining IQ-spektri.

ISSN 3030-3907

5-rasmda tasvirlangan IQ-spektr tahlillarida spektrning yuqori chastotali 3394 sm^{-1} qisqa sohada vodorod bog‘lanishlar borligini ko‘rishimiz mumkin. Spektrning 3221 sm^{-1} va 3211 sm^{-1} dublet sohadagi qismida esa NH_2-guruhining valent tebranishini ko‘ramiz. NH_2-guruhining 1506 sm^{-1} va 1521 sm^{-1} quyi chastotali qismlarida deformatsion tebranishini ham kuzatishimiz mumkin. Aromatik halqalarning halqa tekisligi bo‘yicha 1647 sm^{-1} , 1683 sm^{-1} va 1699 sm^{-1} yutilish sohalarida oberton chastotalar tufayli tebranishi yuzaga keladi. S-O guruhlarining valent tebranishi esa 1338 sm^{-1} va 1417 sm^{-1} yutilish sohalari oralig‘ida ko‘rishimiz mumkin. M-O va M-N o‘rtasidagi donor-akseptor bog‘ni xarakterlovchi quyi chastotalar esa 642 sm^{-1} va 796 sm^{-1} sohalar oralig‘ida kuzatiladi.

Olingan $[Cd(C_6H_8N_2)_3SO_4]\cdot H_2O$ kompleksining turli xil erituvchilarda barqarorligi va eruvchanligi o‘rganildi. Olib borilgan tahlillar natijasida sintez qilingan kompleks boshlang‘ich ligandga qaraganda turli erituvchilarda eruvchanligi kamroq ekanligi aniqlandi.

2-jadval

$[Cd(C_6H_8N_2)_3SO_4]\cdot H_2O$ kompleksining ayrim erituvchilarda eruvchanligi

№	Modda	Suv	Etil spirt	Sirka kislota	DMSO	DMF	Atseton	Xloroform
1	$C_6H_8N_2$	OE	E	E	E	OE	EM	EM
2	$[Cd(C_6H_8N_2)_3SO_4]\cdot H_2O$	OE	OE	OE	E	E	EM	EM

Xulosa. Xulosa qilib aytganda O-fenilendiamin asosida ilk marotaba $[Cd(C_6H_8N_2)_3SO_4]\cdot H_2O$ tarkibli kompleks birikma olindi va fizik-kimyoviy xossalari o‘rganildi.

Olingan kompleks birikmaning RTT usuli yordamida kristall tuzilishi, bog‘lar orasidagi masofa va bog‘ burchaklari aniqlandi. Molekulaning fazoviy shakli oktaedr shaklda va sp^3d^2 gibridlanish burchaklarini hosil qiladi.

Ushbu kompleksning Hirshfeld sirt yuza tahlillarini amalga oshirish asosida molekula tarkibidagi energetik qatlamlarning taxlanishi va zarrachalarning sirt yuzadagi ulushi o‘rganildi.

Mavzuning dolzarbligi: Zaxm (sifilis) bugungi kunda ham global ahamiyatga ega bo‘lgan infeksion kasalliklardan biri bo‘lib, uning kechishi ko‘p bosqichli, uzoq muddatli va simptomlari ko‘pincha yashirin holda rivojlanadi. Zamonaviy tibbiyotda samarali davolash usullari mavjud bo‘lishiga qaramay, kasallikning qaytalanishi, notog‘ri yoki vaqtida davolanmaslik holatlari epidemiologik xavfni oshiradi. Shuningdek, treponematoz infeksiyalarning homiladorlik davriga, yangi tug‘ilgan chaqaloqlarga va reproduktiv salomatlikka katta xavf tug‘dirishi mavzuning yana bir bor dolzarbligini ta’kidlaydi.

Ilmiy ishning maqsadi va vazifalari: Ilmiy ishdan maqsad zaxmni davolash mezonlari, klinik kuzatuv tamoyillari va serologik nazorat jarayonlarini ilmiy asosda tahlil qilish hamda ularning amaliyotdagi ahamiyatini aniqlash. Zaxmning patogenezi va klinik bosqichlariga xos belgilarni o‘rganish. Davolashda qo‘llaniladigan asosiy antibiotiklar va ularning samaradorligini baholash. Klinik nazoratning tahlil mezonlarini ilmiy asoslash. Serologik testlar (VDRL, RPR, TPHA, FTA-ABS) natijalarini talqin qilish usullarini yoritish. Davolashdan keyingi serologik titrlarning dinamikasini baholab, relaps yoki qayta yuqtirish holatlarini aniqlash mezonlarini ishlab chiqish.

ISSN 3030-3907

Asosiy qism: Zaxm (sifilis) Treponema pallidum qo‘zg‘atuvchisi sabab bo‘ladigan, ko‘p bosqichli va tizimli surunkali infeksiya bo‘lib, uning davolash mezonlari, klinik kuzatuv tamoyillari va serologik nazorat jarayonlari bugungi kunda dermatovenerologiya amaliyotining eng muhim yo‘nalishlaridan biridir. Kasallikning kechishi, klinik belgilarining o‘zgaruvchanligi va serologik reaksiyalarning murakkab talqini uni chuqur o‘rganishni talab qiladi. Zaxmni davolashning asosiy maqsadi treponemani organizmdan to‘liq yo‘qotish, kasallikning keyingi bosqichlarga o‘tishini oldini olish, asoratlarning rivojlanishiga yo‘l qo‘ymaslik, shuningdek, epidemiologik xavfni kamaytirishdan iboratdir. Biroq davolanishning muvaffaqiyatini baholashda nafaqat antibiotik terapiyasi, balki bemorning holati ustidan klinik va serologik kuzatuv ham katta ahamiyat kasb etadi. Zaxm qo‘zg‘atuvchisi organizmga kirganidan so‘ng, avvalo, mahalliy o‘choq hosil qiladi va limfa tomirlari orqali tarqalgan holda butun organizmga ta’sir ko‘rsatadi. Shu sababli kasallikning dastlabki bosqichida chancre, limfadenopatiya kabi belgilar kuzatilsa, keyingi bosqichlarda teri va shilliq pardalarda toshmalar, umumiy intoksikatsiya belgilari paydo bo‘ladi. Treponemaning tanadagi uzoq saqlanish xususiyati zaxmni bevosita kuzatishni murakkablashtiradi. Bu jarayonni to‘liq nazorat qilish va davolash samaradorligini baholashning eng asosiy yo‘li esa muntazam klinik va serologik monitoringdir. Antibiotik terapiyasi zaxmni davolashning poydevoridir. Ko‘p yillik klinik tajriba va ilmiy tadqiqotlar penitsillinning Treponema pallidumga nisbatan eng kuchli treponemotsid ta’sirga ega ekanligini isbotlagan. Shu sababli bugungi kunda ham zaxmni davolashda birinchi tanlov dori sifatida benzatin penitsillin G qo‘llaniladi. Birlamchi va ikkilamchi zaxmda bir martalik in’ektsiya ko‘p hollarda yetarli bo‘lsa, kech latent yoki noma’lum muddatli zaxm holatlarida uch hafta davomida haftada bir marta in’ektsiya qilish talab etiladi. Neyrosifilisda esa preparat yuqori dozalarda vena ichiga yuboriladi. Penitsillinga allergiyasi bo‘lgan bemorlarda doksisiklin yoki tseftriakson kabi muqobil preparatlar qo‘llanishi mumkin, biroq imkon bo‘lsa penitsillin desensibilizatsiyasi tavsiya etiladi. Davolash samaradorligini baholashda klinik kuzatuv birinchi o‘rinda turadi. Bunda shifokor bemorning shikoyatlari, fizik tekshiruvi, teri va shilliq pardalardagi o‘zgarishlar dinamikasi, limfa tugunlarining holatini muntazam baholab boradi. Birlamchi zaxmda chancrening 2–4 hafta ichida bitishi davolash samaradorligining muhim ko‘rsatkichidir. Ikkilamchi davrda esa teridagi toshmalar, shilliq pardalaridagi infiltratlar, limfadenopatiya, umumiy holsizlik, bosh og‘riq kabi belgilar asta-sekin yo‘qola boshlaydi. Kech zaxmning klinik belgilari murakkab bo‘lib, gumma yoki aortit kabi o‘zgarishlar butunlay regressiyalash uchun ko‘proq vaqt talab etadi. Ayniqsa, asab tizimiga ta’sir qilgan holatlarda nevrologik simptomlar uzoq muddat saqlanib qolishi mumkin, shuning uchun bunday bemorlarda qo‘shimcha

ISSN 3030-3907

nevrologik kuzatuv talab etiladi. Zaxmni davolashning ikkinchi eng muhim omili serologik monitoringdir. Serologik testlar treponemal va no-treponemal testlarga bo‘linadi. No-treponemal testlar (VDRL, RPR) titr ko‘rinishida aniqlanadi va davolash samaradorligini baholashda asosiy mezon hisoblanadi. Davolashdan so‘ng birlamchi zaxmda 6 oy, ikkilamchi zaxmda 12 oy davomida titrning kamida 4 baravarga pasayishi kutiladi. Agar belgilangan vaqtda titr pasaymasa yoki aksincha ko‘tarilsa, bu davolash muvaffaqiyatsizligi yoki qayta yuqtirish ehtimolini ko‘rsatadi. Shunday holatlarda bemor qo‘shimcha tekshiriladi, yuqori xavf guruhiga mansubligi aniqlanadi va zarur bo‘lsa qayta terapiya buyuriladi. Treponemal testlar (TPHA, FTA-ABS) odatda hayot bo‘yi pozitiv bo‘lib qoladi, shuning uchun ular davolash samaradorligini baholashda ishlatilmaydi. Biroq diagnostik ahamiyati katta bo‘lgani sababli kasallikni aniqlashda juda muhimdir. Serologik monitoring faqat test natijalarini qayta-qayta o‘lchab turishni o‘z ichiga olmaydi; balki natijalarning klinik holat bilan solishtirilgan ilmiy talqinini ham talab qiladi. Masalan, “serofast” holati bu bemorda klinik belgilar yo‘q bo‘lsa ham, no-treponemal testlar juda past titrda uzoq muddat davomida pozitiv saqlanib turishi. Bunday holat davolash muvaffaqiyatsizligini anglatmaydi, lekin uzoq muddatli kuzatuvni talab qiladi. Serologik nazoratning yana bir muhim jihati homilador ayollardagi zaxm monitoringi. Homila uchun intrauterin infektsiya xavfi yuqori bo‘lgani sababli, homilador ayollar davolanganidan so‘ng ham muntazam tekshiruvdan o‘tishi shart. Agar titr pasaymasa yoki klinik belgilar paydo bo‘lsa, homila rivojlanishi xavf ostida bo‘lishi mumkin. Bu esa qo‘shimcha terapiya yoki bolani tug‘ilgach skriningdan o‘tkazish zaruriyatini tug‘diradi. Davolash jarayonidagi klinik va serologik nazoratning muhim maqsadlaridan biri relaps yoki reinfeksiyani aniqlashdir. Zaxmning qaytalanishi odatda titrning ko‘tarilishi, klinik belgilar qaytishi yoki epidemiologik xavf omillarining mavjudligi bilan namoyon bo‘lishi mumkin. Bu holat doimo qayta infektsiya bo‘lmasligi mumkin, ba’zan mikroorganizmlar organizmda saqlanib qolgan bo‘ladi va ular antibiotik ta’siri to‘liq yo‘q qilinmagan bo‘ladi. Shu sababli klinik kuzatuv hamisha serologik natijalar bilan birga olib boriladi. Zaxmni davolash va nazorat qilish jarayonida ba’zi muammolar ham uchraydi. Ularning eng ko‘p uchraydigani serologik titrlarning sekin pasayishi. Ayniqsa, kech latent zaxmda bu jarayon uzoq cho‘zilishi mumkin. Ba’zan immuniteti sust bemorlarda yoki yoshi katta odamlarda serologik javob sekin kechadi. Shuningdek, noto‘g‘ri laborator talqinlar, testlarning texnik xatolari, natijalar o‘zgaruvchanligi yoki bemorning boshqa infeksiyalari serologik ko‘rsatkichlarga yordamchi ta’sir ko‘rsatishi mumkin. Bu holatlar klinik tajribaga ega mutaxassis tomonidan tahlil qilinishi zarur. Yuqorida ta’kidlangan omillar shuni ko‘rsatadiki, zaxmni davolash

ISSN 3030-3907

mezonlari faqatgina antibiotik yuborishdan iborat bo‘lmay, balki davolashdan keyin bemorni uzoq muddatli klinik va laborator nazoratda ushlab turishni o‘z ichiga oladi. Ayniqsa, epidemiologik xavf yuqori bo‘lgan shaxslar, homilador ayollar, HIV bilan yashovchi bemorlar, retsidivga moyil bemorlar alohida nazorat guruhiga kiradi. Natijada zaxmni davolashda to‘g‘ri mezonlarni qo‘llash, klinik va serologik monitoringni muntazam olib borish kasallikning oldini olishda, infektsiyaning tarqalishini cheklashda va bemorning to‘liq sog‘ayishini ta’minlashda hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi.

Xulosa: Zaxmni davolash mezonlarini to‘g‘ri belgilash, klinik va serologik nazoratni to‘g‘ri tashkil etish kasallikni to‘liq bartaraf etishda hal qiluvchi ahamiyatga ega. Penitsillin asosida olib boriladigan terapiya bugungi kunda ham eng samarali hisoblanadi. Serologik monitoring davolash natijasini baholashning eng ishonchli usuli bo‘lib, titrlarning dinamikasi relaps, qayta yuqtirish yoki davolash muvaffaqiyatsizligini aniqlashda yordam beradi. Klinik kuzatuv esa bemorning umumiy holatini, simptomlar regressiyasini va organlar zararlanishining kamayishini baholash imkonini beradi.

ADABIYOTLAR

1. Hikmatovich I. N., Xolmatovich J. A., Axtamovna A. F. Applications of Elidel for Lichen Plane //Texas Journal of Medical Science. – 2022. – T. 8. – C. 113-115.
5- Ачилова Ф. А., Жалилов А. Х. Данные эхокардиографии при малых аномалий сердца у детей //E Conference Zone. – 2022. – С. 136-140.
2. Hikmatovich I. N., Xolmatovich J. A., Axtamovna A. F. O‘smirlardagi vulgar acne kassaligini kompleks davolashni ishlab chiqish va samaradorlikni aniqlash //barqarorlik va yetakchi tadqiqotlar onlayn ilmiy jurnali. – 2022. – с. 323-326.
3. Hikmatovich I. N., Temirovich E. R., Xolmatovich J. A. Herpis virusini mahalliy davolash uchun vifironni qo‘llash //barqarorlik va yetakchi tadqiqotlar onlayn ilmiy jurnali. – 2022. – с. 349-351.
4. Hikmatovich I. N., Xolmatovich J. A., Axtamovna A. F. Atopik dermatitli bemorlarni progressiv bosqichda mahalliy davolash samaradorligini baholash //barqarorlik va yetakchi tadqiqotlar onlayn ilmiy jurnali. – 2022. – с. 259-263.
5. Hikmatovich I. N., Xolmatovich J. A., Axtamovna A. F. Applications of Elidel for Lichen Plane //Texas Journal of Medical Science. – 2022. – T. 8. – C. 113115.
6. Islamov N. H., Jalilov A. X., Achilova F. A. Ijtimoiy-gigienik turshiy shartlarning o ‘quvchilar salomatligiga ta’siri //Educational Research in Universal Sciences. – 2023. – T. 2. – №. 14. – C. 314-318.
7. Islamov N. H. et al. Principles of treatment of laryngotracheitis in children //Modern Scientific Research International Scientific Journal. – 2023. – T. 1. №. 7. – C. 136-142.

ISSN 3030-3907

8. Islamov N. H., Jalilov A. X., Achilova F. A. Development of papillomavirus infection in men //Modern Scientific Research International Scientific Journal. – 2023. – T. 1. – №. 7. – C. 128-135.
9. Hikmatovich I. N., Temirovich E. R., Muradovich Y. M. O‘smirlarda yuzaki pyodermani davolashda topikal terapiya //barqarorlik va yetakchi tadqiqotlar onlayn ilmiy JURNALI. – 2022. – C. 355-358.
10. Salamova L. A., Baratova M. R., Islamov N. H. Does bacterial vaginosis cause pelvic inflammatory disease? //Theoretical & Applied Science. – 2020. T. 91. – №. 11. – C. 250-254.
11. Islamov N. H., Baratova M. R., Salamova L. A. Factors related to the efficiency of treatment by a doctor-dermatovenerologist and the recommended treatment of gonorrhea //ISJ Theoretical & Applied Science, 11 (91). – 2020. – C. 255-258.
12. Salamova L. A., Baratova M. R., Islamov N. H. Вызывает ли бактериальный вагиноз воспалительное заболевание органов малого таза? //Theoretical & Applied Science. – 2020. – №. 11. – C. 250-254.
13. Baratova M. R., Salamova L. A., Islamov N. H. Эпидермальные паразитарные кожные заболевания как пренебрегаемая категория болезней, связанных с бедностью //Theoretical & Applied Science. – 2020. №. 11. – C. 259264.
14. Baratova M. R., Salamova L. A., Islamov N. H. Epidermal parasitic skin diseases as a neglected category of diseases related to poverty //ISJ Theoretical & Applied Science, 11 (91). – 2020. – C. 259-264.
15. Исламов Н. Х., Шадыев У. Х., Саламова Л. А. Применение «Бетаметазон-Дарница» в лечении микробной экземы //Тюменский медицинский журнал. – 2011. – №. 2. – C. 50-51.
16. Islamov N. H., Baratova M. R., Salamova L. A. Факторы, связанные с эффективностью лечения врача-дерматовенеролога и рекомендуемой схемы лечения гонореи //Theoretical & Applied Science. – 2020. – №. 11. C. 255-258.
17. Islamov N. H. et al. Ultrasound Picture of the Case of Liver Echinococcosis //Academicia Globe: Inderscience Research. – 2021. – T. 2. – №. 05. – C. 98-103.
18. Hikmatovich I. N., Temirovich E. R., Raximjon o‘g‘li N. S. The Use of Advantan in the Local Treatment of Genital Herpes //Texas Journal of Medical Science. – 2022. – T. 8. – C. 110-112.
19. Hikmatovich I. N., Temirovich E. R., Egamberdiyevich M. A. Clinical Evaluation of the Efficacy of Acne Vulgaris Laser Therapy //Central Asian Journal of Medical and Natural Science. – 2022. – T. 3. – №. 5. – C. 667-669.

ISSN 3030-3907

20. Hikmatovich I. N., Temirovich E. R., Egamberdiyevich M. A. Development of a Complex Method for the Treatment of Chronic Pyoderma //Central Asian Journal of Medical and Natural Science. – 2022. – Т. 3. – №. 5. – С. 663-666.

ISSN 3030-3907

UDK: 37.091: 378:17

YOSHLAR O‘RTASIDA SUITSID HOLATLARINING KELIB CHIQISHIGA SABAB BO‘LADIGAN OMILLAR

Siddikov Xasan Taxirovich
Urganch Ranch texnologiya universiteti Pedagogika va aniq fanlar kafedrasi mudiri (PhD) dotsent v.b.
E-mail:xasansiddikov1989@gmail.com
Tel: +998939222990
ORCID 0009-0008-1566-9061
Komiljonova Dilnoza Qahramon qizi
Mustaqil tadqiqotchi:
E-mail: dilnozaa977@icloud.com

Annotatsiya: Maqolada jamiyatdagi o‘limga sabab bo‘luvchi eng yirik omillardan biri bo‘lgan (o‘zini o‘ldirish, o‘z joniga qasd qilish, xudkushlik) suitsid to‘g‘risida bir qancha tadqiqot ishlari haqida fikr yuritilgan.

Kalit so‘zlar: ruhiy yordam, depressiya, evtanaziya, deviant, jamoat uyushmalari, psixologik ta’sir, voyaga yetmagan, autatravmatizm, autodestruktiv, internetga tobelik, biologik omillar, individual hayot, ommaviy axborot vositalari.

Аннотация: В статье рассматривается ряд научных исследований, посвященных самоубийству, которое является одной из крупнейших причин смерти в обществе (самоубийство, суицид).

Ключевые слова: психическая помощь, депрессия, эвтаназия, девиант, общественные объединения, психологическое воздействие, несовершеннолетний, аутотравматизм, саморазрушение, интернет-зависимость, биологические факторы, индивидуальная жизнь, средства массовой информации.

Annotation: he article reviews several research studies on suicide (suicide, self-harm, and suicide), one of the largest causes of death in society.

Keywords: mental health, depression, euthanasia, deviant, public associations, psychological impact, minor, self-traumatism, self-destructiveness, internet addiction, biological factors, individual life, mass media.

Kirish.

Jahon Sog‘liqni saqlash tashkilotining ma’lumotlariga ko‘ra har yili dunyo bo‘ylab 800 mingdan ortiq inson o‘z joniga qasd qiladi. Dunyo mutaxassislari ommaviy axborot vositalarida ham bir necha marotab ushbu “epidemiya” borasida zudlik bilan chora ko‘rilishi kerakligini aytmoqdalar. Umuman olgandan 70 yoshdan oshganlar orasida o‘z joniga qasd qilish holatlari keng tarqalgan bo‘lsada, bugungi kunda internetga tobelik ortib borayotgan mamlakatlarda bu holat ko‘pincha yoshlar orasida siusit holatlarining avj olib borayotgani va 15-29

ISSN 3030-3907

yoshgacha bo‘lganlar orasida ijtimoiy trendlar – virtual olamdagi tazyiqlar, muammolarning virus kabi tarqashi bu tilga olinmas ko‘p sondagi yoshlar hayotini xavf ostiga qo‘ymoqda.

O‘z joniga qasd qilish juda murakkab muammo bo‘lib, ayrim hollarda unga olib boruvchi yagona omilni topish mushkul vaziyat hisoblanadi. Bundan tashqari, yoshlar orasidagi o‘z joniga qasd qilish hollari yaxshi o‘rganilmagan va tadqiqot olib borilmagan vaziyatli jarayon hisoblanadi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYASI

Bugungi globallashuv davrning umumjahon muammolaridan biri hisoblangan o‘z joniga qasd qilish hodisasini suitsidal xulq atvorga moyil o‘smirlarni suitsid holatlari hozirgacha davom etib kelayotgan ijtimoiy omil hisoblanmoqda. Bunda nafaqat shaxsning hayotdan ko‘ngilli ravishda ketishi holatiga nisbatan munosabatlarning o‘zgarishini kuzatish mumkin, balki o‘z joniga qasd qilish holatlariga nisbatan kishilik jamiyati taraqqiyotining turli davrlarida va turlicha madaniyatlarda munosabat o‘zgacha bo‘lganligi ham kuzatiladi. Yoshlar orasida ro‘y beradigan psixofiziologik, biologik o‘zgarishlar natijasida ularning psixik dunyosida tub burilish nuqtasi yuzaga keladi. Internet oqimlaridan o‘z joniga qasd qilishning oson usullarini o‘rganishib, psixologik ta’siriga tushish orqali ayrim yoshlarning siutsidga qo‘l urishi va hayotdan ko‘z yumishga olib keladi. Buning sabablari o‘rganilganda ta’lim muassasalarida o‘qishi va do‘stlar orasidagi munosabatlarning ijobiy ekanligi, biroq oilada ko‘proq vaqtini ijtimoiy tarmoqlar orqali o‘tkazilganligi aniqlangan.

Yoshlarning o‘z joniga qasd qilishiga nima sabab bo‘ladi?

*Ota-ona va yon atrofdagilar e’tiborsizligi (oiladagi nosog‘lom muhit, o‘qishdagi muvaffaqiyatsizlik);

* O‘zi kutgan voqea hodisalar ro‘y bermasligi (qimmat baho narsalar, o‘zicha sevgan insonlarning e’tiborsizligi);

O‘z-o‘ziga past baho berish;

Turli ruhiy zo‘riqishlar (stress);

Tug‘ma xastaliklar (psixologik);

Oilada ham o‘z joniga qasd qilish holati bo‘lganda.

O‘smirlardagi sabablar:

1. Javobsiz muhabbat;
2. Menga e’tibor qarating;
3. Men hechkimga kerak emasman;
4. Kurashishga kuchi yetmasligi;
5. Hamma yerda yomon holatlarni ko‘rish;
6. Fiziologik o‘zgarishlar.

Suitsidning salbiy oqibatlari:

ISSN 3030-3907

Suitsid – bu nafaqat o‘ziga, balki, oilaga, jamiyatga ham zarar yetkazish; Suitsid oqibatida jismoniy va ruhiy shikastlanish;

Suitsidga qo‘l urish natijasida atrofdagi kishilarning ijobiy munosabatni yo‘qotish.

Aslida, jahonda sodir bo‘ladigan o‘z joniga qasd qilishning 75 foizi kambag‘al davlatlarda balog‘atga yetish davridagi yoshlar orasida ro‘y beradi va bu ulardagi extiyojlarning yetishmasligi, oilada moddiyatdagi qiyinchiliklar darajasi yuqori bo‘lgan mamlakatlarning aynan suitsidlar soni yetakchilik qilayotganligi sabab bo‘lgan. Shunga ko‘ra, suitsidal xulqning bir nechta omillari tafovutlanadi.

1. **Axloqiy omil**. XX asrga kelib xulq-atvorning axloqiy motivatsiyasini o‘zgartirish tendentsiyasi yuzaga keladi. Oldinlari uning asosida muhokama qilinmaydigan holatlar ya’ni mantiq, hissiyot, aql-idrokka emas – e’tiqodga murojaat etish yotadi. Agar cherkov o‘z joniga qasd qilishni man etsa-bu muhokama etilmaydi. Hozirga kelib XVIII va XIX asrlardagi hodisalar ta’sirida shakllangan e’tiqod inqirozi yuz berishi aniq. Bu ma’naviy halokat emas, balki rivojlanishning tabiiy bosqichidir.

2. **Psixologik omil**. N.A.Berdyaev yozganidek: “O‘z joniga qasd qilish psixologik hodisadir va uni tushunish uchun o‘z hayotini tugatishga qaror qilgan insonning ruhiy holatini tushunish lozim. O‘z joniga qasd qilish hayotning maxsus, o‘ziga xos daqiqasida, qora to‘lqinlar ko‘ngilni qamrab olgan, umid uchqunlari so‘nggan paytida sodir etiladi. O‘z joniga qasd qilish psixologiyasi eng avvalo, chorasizlik psixologiyasidir”.

3. **Ijtimoiy omil**. Texnik inqilob va urbanizatsiya oqibatida o‘tgan asrning patriarxal dunyosi vayron bo‘ldi. Inson o‘zini o‘rab turgan hayotiy kenglik ustidan bevosita nazoratni yo‘qotib, shaxs va jamiyat o‘zaro munosabatlari ko‘lami ham buzildi. Har qanday ijtimoiy larza, ijtimoiy mavqening ommaviy o‘zgarishi o‘z joniga qasd qilishlarning ko‘payishiga olib keldi.

Adabiyotlarda ko‘pincha suitsidal xatti-harakatlar xatti-harakatlar bilan solishtiriladigan, “autatravmatizm”(o‘ziga jarohat yetkazish), “autoagressiv xatti-harakat” terminlari ham uchraydi. Agar autoagressiv harakatning oxirgi maqsadi o‘z joniga qasd qilish bo‘lsa, uni suitsidal xatti-harakatga bog‘lash mumkin. Zamonaviy, ayniqsa xorijiy adabiyotlarda “autodestruktiv”(o‘ziga zarar yetkazish bilan bog‘liq xulq-atvor) “o‘zini-o‘zi yo‘q qilish” xulq-atvor tushunchasi keng tarqalgan.

MUHOKAMA VA NATIJALAR

O‘z joniga qasd qilish yoki o‘zini-o‘zi o‘ldirish holati azal-azaldan kishilik jamiyatida mavjud bo‘lgan holat hisoblanadi. Bu haqda ko‘plab tarixiy va etnografik ma’lumotlarda aks ettirilgan. Qadimgi yapon Samuraylari, ular uchun

ISSN 3030-3907

asir tushishdan ko‘ra o‘zini-o‘zi o‘ldirish bu sharaf hisoblangan yoki qadimgi Misr malikasi kleopatra ham Rim iste’losidan keyin o‘limni Afzal bilgan, yoki arab bosqiniga qarshi kurashgan Muqanna v.b.

Mutaxassislarning aytishlaricha, o‘z joniga qasd qilish “birdaniga bir kuni “ ro‘y bermaydi, tadqiqotlarga ko‘ra, o‘smirlarning 90 foizi qaysidir darajada salomatlik muammosiga ega bo‘lganligidan o‘z joniga qasd qilgan. Bunda depressiya(tushkunlik)dan tortib, jinsiy zo‘ravonlik va giyohvand moddalarga mukkasidan ketish holatlari tilga olinadi.

Suitsidning oldini olish bo‘yicha uslubiy tavsiyalar

Yoshlarda suitsidal xulq-atvor alomatlarini ko‘rganda qanday choralar ko‘rish mumkin?

Suitsidga moyil yoshlar odatda to‘g‘ridan-to‘g‘ri yordam izlashmaydi:shunga qaramay, ularning ota-onalari, muassasa ma’muriyati yoki tengdoshlari ogohlantiruvchi alomatlarni aniqlashi va o‘smirni saqlab qolish uchun qandaydir choralarni ko‘rishi mumkin.

Xulosa. XX asr boshida buyuk psixoanalitik Zigmund Freyd “Hayot qoniqishdan iborat” degan edi. Demak, har bir inson hayotdan qoniqib yashashi kerak. Respublikamiz olimlaridan E.Usmonov, G‘.Shoumarov, B.Umarov, B.Botirov, E.Sattorovlar tomonidan yoshlar orasida suitsid omillari, sabablari va turlarining ijtimoiy-psixologik yosh xususiyatlari va huquqiy jihatlari o‘rganilgan. Hozirda deviant xulqli, og‘ir tarbiyali, suitsidga moyil muammoli o‘smir yoshlar bilan muassasa psixologi, pedagoglar jamoasi, mahalla qo‘mitalari, voyaga yetmaganlar bilan ishlash komissiyalari, bolalar psixologlari ish olib borishmoqda.

REFERENCES

1. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 6-oktabrdagi “Zo‘rlik ishlatishdan jabr ko‘rgan xotin-qizlarni reabilitatsiya qilish va moslashtirish hamda o‘z joniga qasd qilishning oldini olish borasidagi ishlarni takomillashtirishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 625-sonli qarori https://lex.uz/docs/-5670659

2. Ефремов В.С. Основы суицидологии.-СПб.:Диалект, 2004.С.104.

3. Садушин Б.А.Ритуальные самоубийства в различных этносах.-СПб, 2003, С. 243.

4. Umarov B.M. O‘zbekistonda voyaga yetmaganlar jinoyatchiligining ijtimoiy-psixologik muammolari. Monografiya.-Toshkent, “Fan nashriyoti-2008, 314-bet.

5. X.T.Siddikov “Oliy ta’limda tarbiyaviy faoliyatni tashkil etishning pedagogik-profilaktik tizimini takomillashtirish” Diss. Nukus-2024, 164-b.

6. X.T.Siddikov “Oliy ta’limda tarbiyaviy faoliyatni tashkil etishning pedagogik-profilaktik tizimini takomillashtirish” Monografiya Urganch-2025, -136 b.

ISSN 3030-3907

7. U.Qodirov. Yoshlarni destruktiv ta’sirlardan himoyalashning psixologik jihatlari. Toshkent, “Fan va texnologiyalar”, 2013, 246 b.

ISSN 3030-3907

NOSPESIFIK URETRITLAR PATOGENEZI, DIAGNOSTIKA TAMOYILLARI VA ZAMONAVIY DAVOLASH YO‘LLARI

Islamov Nurali Hikmatovich

Samarqand davlat tibbiyot universiteti, Dermatovenerologiya va kosmetologiya kafedrasi.

Aliyev Abror Akmalovich

Samarqand davlat tibbiyot universiteti, Dermatovenerologiya va kosmetologiya kafedrasi.

Annotatsiya. Ushbu ilmiy ishda nospesifik uretritlar etiologiyasi, patogenezi, klinik belgilari, diagnostika tamoyillari va zamonaviy davolash yondashuvlari tahlil qilinadi. Nospesifik uretrit jinsiy yo‘l bilan yuqadigan infeksiyalar orasida keng tarqalgan kasallik bo‘lib, ko‘pincha *Chlamydia trachomatis*, *Mycoplasma genitalium*, *Ureaplasma spp.*, *Trichomonas vaginalis* kabi mikroorganizmlar yoki bakterial flora disbalansi natijasida yuzaga keladi. Kasallikning klinik kechishi ko‘pincha yashirin bo‘lib, yengil simptomlar yoki simptomlarsiz rivojlanishi mumkin, shu sababli uning erta aniqlanishi epidemiologik nuqtayi nazardan alohida ahamiyatga ega. Tadqiqotda laborator tashxisning asosiy usullari mikroskopiya, PCR diagnostikasi, serologik testlar hamda uretral surtma tahlillarining ahamiyati ilmiy asosda yoritiladi. Davolashning asosiy tamoyillari mikroorganizmlarning etiologik rolini aniqlash, antibiotiklarga sezuvchanlikni hisobga olish va bemor hamda uning jinsiy sherigini parallel davolashga qaratilgan. Kasallikning kech davrda asoratlarga olib kelishi, xususan prostatit, epididimit, bepushtlik va surunkali pelvik og‘riqlar rivojlanishi, nospesifik uretritlarni o‘z vaqtida davolashning muhimligini yanada oshiradi.

Kalit so‘zlar: Nospesifik uretrit, Chlamydia trachomatis, Mycoplasma genitalium, Ureaplasma urealyticum, PCR diagnostika, uretral yallig‘lanish, jinsiy yo‘l bilan yuqadigan infeksiyalar, antibiotik terapiyasi, asoratlar.

Abstract. This scientific paper analyzes the etiology, pathogenesis, clinical manifestations, diagnostic principles, and modern treatment approaches of non-specific urethritis. Non-specific urethritis is a widespread condition among sexually transmitted infections and is often caused by microorganisms such as *Chlamydia trachomatis*, *Mycoplasma genitalium*, *Ureaplasma* spp., *Trichomonas vaginalis*, or as a result of an imbalance in the bacterial flora. The clinical course of the disease is frequently latent and may develop with mild symptoms or without symptoms, therefore early detection is of particular epidemiological importance. The study scientifically highlights the significance of the main laboratory diagnostic methods, including microscopy, PCR diagnostics, serological tests, and analysis of urethral smears. The main principles of treatment are aimed at identifying the etiological role of microorganisms, considering antibiotic

ISSN 3030-3907

susceptibility, and providing parallel treatment for the patient and their sexual partner. The possibility of late-stage complications, such as prostatitis, epididymitis, infertility, and chronic pelvic pain, further emphasizes the importance of timely treatment of non-specific urethritis.

Key words: non-specific urethritis, *Chlamydia trachomatis*, *Mycoplasma genitalium*, *Ureaplasma urealyticum*, PCR diagnostics, urethral inflammation, sexually transmitted infections, antibiotic therapy, complications.

Аннотация. В данной научной работе анализируются этиология, патогенез, клинические проявления, принципы диагностики и современные подходы к лечению неспецифических уретритов. Неспецифический уретрит является широко распространённым заболеванием среди инфекций, передающихся половым путём, и часто развивается вследствие инфицирования такими микроорганизмами, как *Chlamydia trachomatis*, *Mycoplasma genitalium*, *Ureaplasma* spp., *Trichomonas vaginalis*, а также в результате дисбаланса бактериальной флоры. Клиническое течение заболевания нередко носит скрытый характер и может протекать с незначительными симптомами либо бессимптомно, в связи с чем его раннее выявление имеет особое эпидемиологическое значение. В исследовании с научной точки зрения освещается значимость основных методов лабораторной диагностики, включая микроскопию, ПЦР-диагностику, серологические тесты и анализы уретральных мазков. Основные принципы лечения направлены на установление этиологической роли микроорганизмов, учёт чувствительности к антибиотикам и проведение параллельного лечения пациента и его полового партнёра. Возможность развития поздних осложнений, в частности простатита, эпидидимита, бесплодия и хронических тазовых болей, ещё раз подчёркивает важность своевременного лечения неспецифических уретритов.

Ключевые слова: неспецифический уретрит, *Chlamydia trachomatis*, *Mycoplasma genitalium*, *Ureaplasma urealyticum*, ПЦР-диагностика, уретральное воспаление, инфекции, передающиеся половым путём, антибиотикотерапия, осложнения.

Kirish

Mavzuning dolzarbligi Nospesifik uretritlar yoshlar va reproduktiv yoshdagi erkaklar orasida keng tarqalgan bo‘lib, jinsiy yo‘l bilan yuqadigan infeksiyalar strukturasida yetakchi o‘rinni egallaydi. Kasallik ko‘plab etiologik omillar ta’sirida rivojlanishi, ko‘pincha yashirin yoki yengil simptomlar bilan kechishi va vaqtida aniqlanmasa surunkali yallig‘lanish, epididimit, prostatit, uretral striktura, hatto bepushtlik kabi jiddiy asoratlarga olib kelishi bilan alohida dolzarblik kasb etadi. Shuningdek, *Chlamydia trachomatis* va *Mycoplasma*

ISSN 3030-3907

genitalium kabi etiologik agentlarning o‘sib borayotgan antibiotik rezistentligi tashxis va davolash jarayonini murakkablashtiradi. Zamonaviy PCR diagnostikasining keng joriy etilishi kasallikni erta aniqlashga yordam bersa-da, laboratoriyalarning barcha hududlarda bir xil sifatda ishlamasligi bir qator diagnostik muammolarga sabab bo‘ladi.

Ilmiy ishning maqsadi va vazifalari: Ilmiy ishning maqsadi Nospesifik uretritlarning etiologiyasi, patogenezi, klinik ko‘rinishlari, diagnostik usullari va zamonaviy davolash yondashuvlarini chuqur tahlil qilish hamda ularning samaradorligini ilmiy asosda baholash. Nospesifik uretritlarning asosiy etiologik omillarini aniqlash va ularning tarqalish xususiyatlarini o‘rganish. Klinik alomatlar, kechish shakllari va kasallikning diagnostik mezonlarini ilmiy asosda yoritish. PCR, mikroskopiya, serologiya va madaniy ekish kabi laborator usullarning samaradorligini tahlil qilish. Etiologik agentlarga qarshi antibiotik terapiyasining zamonaviy tamoyillarini baholash.

Asosiy qism Nospesifik uretritlar uretra shilliq pardasining gonokokk bo‘lmagan etiologik omillar ta’sirida rivojlanadigan yallig‘lanish kasalligi bo‘lib, jinsiy yo‘l bilan yuqadigan infeksiyalar orasida eng keng tarqalgan klinik holatlardan biridir. Uning etiologiyasi murakkab va turli agentlarning o‘zaro ta’siri bilan belgilanadi. Eng ko‘p uchraydigan qo‘zg‘atuvchilardan biri Chlamydia trachomatis bo‘lib, umumiy etiologik tuzilmaning 30–50% ini tashkil etadi. So‘nggi yillarda Mycoplasma genitalium ham nospesifik uretritning muhim sababchilari qatoriga kiradi va antibiotiklarga yuqori darajadagi rezistentligi bilan ajralib turadi. Bundan tashqari, Ureaplasma urealyticum, Trichomonas vaginalis, shuningdek, ichki genital trakt mikroflorasining disbalansi ham nospesifik uretritning rivojlanishida muhim rol o‘ynaydi. Ba’zi holatlarda esa infeksiya aniqlanmaydi va kasallik idiopatik xarakterga ega bo‘lishi mumkin. Nospesifik uretritning patogenezi murakkab bo‘lib, mikroorganizmlarning uretra epiteliyiga yopishishi, ko‘payishi va mahalliy immun yallig‘lanish reaksiyasini qo‘zg‘atishi bilan tavsiflanadi. Shu jarayonda neyrofil va limfotsitlarning uretral kanalda to‘planishi, sitokinlar sekretsiyasi, shilliq parda epiteliysining shikastlanishi kuzatiladi. Yallig‘lanish jarayonining kuchi qo‘zg‘atuvchining virulentligi va bemorning immun holati bilan belgilanadi. Ayrim bemorlarda infeksiya klinik jihatdan sezilmaydi, ammo yallig‘lanish davom etaveradi va surunkali asoratlarni chaqirishi mumkin. Klinik belgilari esa juda turlicha bo‘lib, ko‘pincha yengil simptomlar bilan namoyon bo‘ladi. Erkaklarda siyishda achishish, uretral kanalda noqulaylik, yengil og‘riq, ertalab paydo bo‘ladigan “morning drop” shaklidagi shilliq yoki shaffof ajralma eng ko‘p uchraydigan belgilar hisoblanadi. Ba’zan ajralma ko‘rinmaydi, lekin mikroskopiya yordamida yallig‘lanish belgilarini aniqlash mumkin bo‘ladi. Kasallikning yashirin kechishi epidemiologik jihatdan

ISSN 3030-3907

eng xavfli omillardan biri bo‘lib, jinsiy sheriklar o‘rtasida infeksiyaning nazoratsiz tarqalishiga sabab bo‘ladi. Agar nospesifik uretrit vaqtida davolanmasa, u prostatit, epididimit, vezikulit, uretral striktura va hatto bepushtlik kabi jiddiy oqibatlarga olib kelishi mumkin. Ayniqsa, Chlamydia trachomatisning uzoq davom etuvchi infeksiyasi spermatogenezga salbiy ta’sir ko‘rsatishi ilmiy jihatdan isbotlangan. Nospesifik uretritni aniqlashda laborator diagnostika hal qiluvchi ahamiyatga ega. Mikroskopiyada 5 tadan ko‘p neyrofilning aniqlanishi uretral yallig‘lanishning asosiy mezonlaridan hisoblanadi. Ammo etiologik tashxis qo‘yish uchun PCR usuli eng ishonchli va aniq usul bo‘lib, u yuqori sezgirlik va spetsifiklikka ega. PCR yordamida Chlamydia, Mycoplasma genitalium, Ureaplasma kabi mikroorganizmlar aniqlanadi. Ba’zan madaniy ekish ham qo‘llaniladi, ammo uning sezgirligi PCRga qaraganda past. Serologik testlar ayrim etiologik agentlar uchun qo‘llanilishi mumkin, ammo ular tashxisning asosiy usuli emas. Diagnostikaning yana bir muhim jihati jinsiy sheriklarni bir vaqtda tekshirish va zarur bo‘lsa, davolashga jalb qilishdir. Davolash jarayonining muvaffaqiyati etiologik agentni aniqlash va unga qarshi to‘g‘ri antibiotik tanlashga bog‘liq. Chlamydia trachomatis infeksiyasida doksisiklin yoki azitromitsin birinchi tanlov dorilaridir. Mycoplasma genitaliumda esa makrolid va ftorxinolonlarga rezistentlikning o‘sib borayotgani sababli moksifloksasin samaraliroq hisoblanadi. Ureaplasma infeksiyasida tetratsiklinlar va makrolidlar samarali bo‘ladi. Har bir bemorning klinik holati, simptomlari, test natijalari va boshqa infeksiyalarning mavjudligi inobatga olinadi. Eng muhim tamoyillardan biri bemor va uning jinsiy sherigini parallel davolashdir. Bu reinfeksiyaning oldini olish va terapiya samaradorligini oshirishda muhim rol o‘ynaydi. Shuningdek, davolashdan keyin klinik simptomlarning yo‘qolishi va PCR natijalarining negativlashishi kasallikning to‘liq bartaraf etilganini tasdiqlaydi. Kasallikning oldini olishda gigiyena qoidalariga amal qilish, prezervativlardan to‘g‘ri foydalanish, jinsiy sheriklar sonini cheklash va muntazam skriningdan o‘tish juda muhimdir. Jamoatchilik orasida infektsiya haqida ma’lumot berish, yoshlar orasida profilaktik tadbirlarni kuchaytirish nospesifik uretritlar tarqalishini kamaytirishga yordam beradi.

Xulosa: Nospesifik uretritlar ko‘p omilli etiologiyaga ega bo‘lgan, ko‘pincha yengil yoki yashirin kechadigan, ammo vaqtida davolanmasa jiddiy asoratlarni chaqiruvchi yallig‘lanish kasalliklaridir. Zamonaviy diagnostika, ayniqsa PCR, etiologik agentlarni aniqlashda muhim ahamiyatga ega bo‘lib, to‘g‘ri tanlangan antibiotik terapiyasi kasallikni samarali bartaraf etadi. Jinsiy sheriklarni bir vaqtda davolash, muntazam klinik kuzatuv va profilaktika choralariga amal qilish reinfeksiyani oldini olishda hal qiluvchi ahamiyatga ega. Ushbu mavzuni chuqur o‘rganish reproduktiv salomatlikni saqlash, jinsiy yo‘l bilan yuqadigan

ISSN 3030-3907

infeksiyalar tarqalishini kamaytirish va urologik amaliyotda davolash sifatini oshirishga xizmat qiladi.

ADABIYOTLAR

1. Hikmatovich I. N., Xolmatovich J. A., Axtamovna A. F. Applications of Elidel for Lichen Plane //Texas Journal of Medical Science. – 2022. – T. 8. – C. 113-115.
5- Ачилова Ф. А., Жалилов А. Х. Данные эхокардиографии при малых аномалий сердца у детей //E Conference Zone. – 2022. – С. 136-140.
2. Hikmatovich I. N., Xolmatovich J. A., Axtamovna A. F. O‘smirlardagi vulgar acne kassaligini kompleks davolashni ishlab chiqish va samaradorlikni aniqlash //barqarorlik va yetakchi tadqiqotlar onlayn ilmiy jurnali. – 2022. – c. 323-326.
3. Hikmatovich I. N., Temirovich E. R., Xolmatovich J. A. Herpis virusini mahalliy davolash uchun vifironni qo‘llash //barqarorlik va yetakchi tadqiqotlar onlayn ilmiy jurnali. – 2022. – c. 349-351.
4. Hikmatovich I. N., Xolmatovich J. A., Axtamovna A. F. Atopik dermatitli bemorlarni progressiv bosqichda mahalliy davolash samaradorligini baholash //barqarorlik va yetakchi tadqiqotlar onlayn ilmiy jurnali. – 2022. – c. 259-263.
5. Hikmatovich I. N., Xolmatovich J. A., Axtamovna A. F. Applications of Elidel for Lichen Plane //Texas Journal of Medical Science. – 2022. – T. 8. – C. 113115.
6. Islamov N. H., Jalilov A. X., Achilova F. A. Ijtimoiy-gigienik turshiy shartlarning o ‘quvchilar salomatligiga ta’siri //Educational Research in Universal Sciences. – 2023. – T. 2. – №. 14. – C. 314-318.
7. Islamov N. H. et al. Principles of treatment of laryngotracheitis in children //Modern Scientific Research International Scientific Journal. – 2023. – T. 1. №. 7. – C. 136-142.
8. Islamov N. H., Jalilov A. X., Achilova F. A. Development of papillomavirus infection in men //Modern Scientific Research International Scientific Journal. – 2023. – T. 1. – №. 7. – C. 128-135.
9. Hikmatovich I. N., Temirovich E. R., Muradovich Y. M. O‘smirlarda yuzaki pyodermani davolashda topikal terapiya //barqarorlik va yetakchi tadqiqotlar onlayn ilmiy JURNALI. – 2022. – C. 355-358.
10. Salamova L. A., Baratova M. R., Islamov N. H. Does bacterial vaginosis cause pelvic inflammatory disease? //Theoretical & Applied Science. – 2020. T. 91. – №. 11. – C. 250-254.
11. Islamov N. H., Baratova M. R., Salamova L. A. Factors related to the efficiency of treatment by a doctor-dermatovenerologist and the recommended treatment of gonorrhea //ISJ Theoretical & Applied Science, 11 (91). – 2020. – C. 255-258.

ISSN 3030-3907

12. Salamova L. A., Baratova M. R., Islamov N. H. Вызывает ли бактериальный вагиноз воспалительное заболевание органов малого таза? //Theoretical & Applied Science. – 2020. – №. 11. – С. 250-254.
13. Baratova M. R., Salamova L. A., Islamov N. H. Эпидермальные паразитарные кожные заболевания как пренебрегаемая категория болезней, связанных с бедностью //Theoretical & Applied Science. – 2020. №. 11. – С. 259264.
14. Baratova M. R., Salamova L. A., Islamov N. H. Epidermal parasitic skin diseases as a neglected category of diseases related to poverty //ISJ Theoretical & Applied Science, 11 (91). – 2020. – С. 259-264.
15. Исламов Н. Х., Шадыев У. Х., Саламова Л. А. Применение «Бетаметазон-Дарница» в лечении микробной экземы //Тюменский медицинский журнал. – 2011. – №. 2. – С. 50-51.
16. Islamov N. H., Baratova M. R., Salamova L. A. Факторы, связанные с эффективностью лечения врача-дерматовенеролога и рекомендуемой схемы лечения гонореи //Theoretical & Applied Science. – 2020. – №. 11. С. 255-258.
17. Islamov N. H. et al. Ultrasound Picture of the Case of Liver Echinococcosis //Academicia Globe: Inderscience Research. – 2021. – Т. 2. – №. 05. – С. 98-103.
18. Hikmatovich I. N., Temirovich E. R., Raximjon o‘g‘li N. S. The Use of Advantan in the Local Treatment of Genital Herpes //Texas Journal of Medical Science. – 2022. – Т. 8. – С. 110-112.
19. Hikmatovich I. N., Temirovich E. R., Egamberdiyevich M. A. Clinical Evaluation of the Efficacy of Acne Vulgaris Laser Therapy //Central Asian Journal of Medical and Natural Science. – 2022. – Т. 3. – №. 5. – С. 667-669.
20. Hikmatovich I. N., Temirovich E. R., Egamberdiyevich M. A. Development of a Complex Method for the Treatment of Chronic Pyoderma //Central Asian Journal of Medical and Natural Science. – 2022. – Т. 3. – №. 5. – С. 663-666.

ISSN 3030-3907

ПИТАТЕЛЬНЫЕ ЭЛЕМЕНТЫ ДЛЯ СЕРО- И ЖЕЛЕЗООКИСЛЯЮЩИХ БАКТЕРИЙ

Каршиева М.С.
Навоийский государственный горно-технологический университет
Шарипов С. Ш.
Навоийский государственный горно-технологический университет

Annotatsiya. Oltingugurt va temirni oksidlovchi bakteriyalar biogidrometallurgiya jarayonlarida asosiy mikroorganizmlar hisoblanadi va ularning samarali faoliyati ozuqa muhit tarkibiga bevosita bog‘liq. Tadqiqot davomida Silverman–Lundgren (9K) muhitida *Acidithiobacillus ferrooxidans* bakteriyasining faol o‘sishini ta’minlovchi mineral komponentlarning optimal tarkibi aniqlandi. Aniqlanishicha, oziqlantiruvchi aralashma qo‘shilishi bakteriyalar o‘sish tezligini sezilarli darajada oshiradi: madaniyatning optik zichligi oziq aralashmasi qo‘shilmagan variantga nisbatan 6 baravar ortishi kuzatildi. 96 soat davomida o‘sish dinamikasi tahlil qilinib, lag-faza, eksponensial o‘sish bosqichi va stasionar fazaga o‘tish aniqlangan. Energetik substrat konsentratsiyasi madaniyat rivojlanish intensivligini belgilashi, uning yetishmasligida metabolizm sekinlashishi, ortiqcha miqdorda esa ingibitsiya ta’siri kuzatilishi aniqlandi. Olingan natijalar substrat va mikroelementlar konsentratsiyasini aniq nazorat qilish zarurligini asoslaydi hamda biovyshchelachivanie, oqova suvlarni tozalash va bioremediatsiya jarayonlarini optimallashtirishda qo‘llanilishi mumkin.

Kalit so‘zlar: oltingugurt va temirni oksidlovchi bakteriyalar; ozuqa elementlar; metabolizm; biogidrometallurgiya; bio qayta ishlash; spektrofotometriya; bakteriyalar o‘sishi; Silverman–Lundgren (9K) muhiti; *Acidithiobacillus ferrooxidans*.

Аннотация. Серо- и железоокисляющие бактерии являются ключевыми микроорганизмами в процессах биогидрометаллургии, и эффективность их функционирования напрямую зависит от состава питательной среды. В ходе исследования определён оптимальный состав минеральных компонентов, обеспечивающих активный рост Acidithiobacillus ferrooxidans на среде Сильвермана–Люндгрена (9K). Выявлено, что добавление питательной смеси существенно увеличивает скорость роста бактерий: оптическая плотность культуры увеличивается в 6 раз по сравнению с вариантом без питательной смеси. Проанализирована динамика роста в течение 96 часов, установлены лаг-фаза, экспоненциальная стадия и переход в стационарную фазу. Установлено, что концентрация энергетического субстрата определяет интенсивность развития культуры, при дефиците наблюдается замедление метаболизма, а при избытке — эффект ингибирования. Полученные данные

ISSN 3030-3907

обосновывают необходимость точного контроля концентраций субстрата и микроэлементов и могут быть использованы при оптимизации процессов биовыщелачивания, очистки сточных вод и биоремедиации.

Ключевые слова: серо- и железоокисляющие бактерии; питательные элементы; метаболизм; биогидрометаллургия; биовыщелачивание; спектрофотометрия; рост бактерий; среда Сильвермана–Люндгрена (9K); Acidithiobacillus ferrooxidans.

Abstract. Sulfur- and iron-oxidizing bacteria are essential microorganisms in biohydrometallurgical processes, and their growth efficiency strongly depends on the composition of the nutrient medium. This study investigates the growth kinetics of *Acidithiobacillus ferrooxidans* cultivated in the traditional Silverman–Lundgren (9K) medium and evaluates the influence of nutrient components on bacterial metabolic activity. Quantitative analysis was performed using UV spectrophotometry (OD600) to monitor biomass accumulation over a 96-hour cultivation period. The results revealed that the presence of a complete nutrient mixture significantly enhanced bacterial growth, increasing optical density more than six-fold compared to nutrient-deficient conditions. The growth curve demonstrated the characteristic lag, exponential, and stationary phases, while the dependence of growth rate on substrate concentration confirmed both the energy limitation at low substrate levels and inhibition under excessive concentrations. The findings substantiate the critical role of balanced macro- and microelements in sustaining high metabolic activity of sulfur- and iron-oxidizing bacteria and provide a scientific basis for optimizing nutrient media used in bioleaching, wastewater treatment, and bioremediation applications.

Keyword: sulfur- and iron-oxidizing bacteria; nutrients; metabolism; biohydrometallurgy; bioleaching; spectrophotometry; bacterial growth; Silverman–Lundgren medium (9K); Acidithiobacillus ferrooxidans.

Введение.

Автотрофные серо- и железоокисляющие бактерии, такие как Acidithiobacillus ferrooxidans и Acidithiobacillus thiooxidans, используют неорганические соединения серы и железа в качестве источников энергии. Их рост зависит от сбалансированного поступления углерода, азота, фосфора, микроэлементов и, конечно, энергетического субстрата (серосодержащих или железосодержащих соединений).

Одной из первых и наиболее широко используемых сред является среда 9K, разработанная Silverman и Lundgren [1] для *Acidithiobacillus ferrooxidans*. Среда 9K содержит в качестве энергетического субстрата сульфат железа ($FeSO_4 \cdot 7H_2O$), а также набор минеральных солей и буфер для поддержания

ISSN 3030-3907

кислой среды (pH 2.0). В дальнейшем эта среда стала эталоном для исследований СЖОБ.

Исследования показали, что СЖОБ могут использовать элементарную серу, тиосульфаты и сульфиды в качестве энергетических субстратов [2]. Для сероокисляющих бактерий часто используется среда Starkey, содержащая элементарную серу, а для железоокисляющих — среды на основе сульфата железа.

Углеродный источник у большинства СЖОБ — автотрофный (CO_2), однако исследования показывают, что некоторые штаммы могут использовать миксотрофный метаболизм при добавлении малых концентраций органических соединений [3].

Для поддержания активности ферментов и роста бактерий в питательных смесях вводятся микроэлементы (медь, кобальт, никель, марганец и др.). Их концентрация тщательно контролируется, так как избыток может быть токсичен.

Поддержание кислой среды (pH 1,5–3,0) критично для жизнедеятельности СЖОБ. Буферные системы на основе серной кислоты или фосфатов применяются для стабилизации pH [4-5].

В последние годы развивается направление по оптимизации и адаптации питательных сред для экстремофильных и техногенных штаммов. Например, добавление витаминов и аминокислот показало улучшение роста и активности [6].

Также исследуются среды с комбинированными источниками энергии (железо + сера) для повышения эффективности биовыщивания [7].

Таблица 1

Основные питательные вещества для серо- и железоокисляющих бактерий

Элемент	Функция	Источник
Углерод (C)	Источник органического синтеза (CO_2)	CO_2 (газ)
Азот (N)	Синтез аминокислот и нуклеотидов	$(NH_4)_2SO_4$, NO_3^-
Фосфор (P)	Энергетический обмен (АТФ), нуклеиновые кислоты	KH_2PO_4, NaH_2PO_4
Сера (S)	Энергетический субстрат и структурный элемент	S^0, $Na_2S_2O_3$, H_2S

ISSN 3030-3907

Калий (K)	Осмотическая регуляция, коферментная активность	KCl, K_2SO_4
Магний (Mg)	Кофактор ферментов, структурная стабильность	$MgSO_4 \cdot 7H_2O$
Кальций (Ca)	Поддержка клеточной стенки и ферментов	$CaCl_2$, $CaSO_4$
Железо (Fe)	Источник энергии и элемент ферментов	$FeSO_4 \cdot 7H_2O$
Микроэлементы (Cu, Zn, Co, Mn)	Активаторы ферментов, участие в окислении	Соли Cu^{2+}, Zn^{2+}, Co^{2+} и др.

Объект и методика исследования. Объектом исследования служили класс микроорганизмов Acidithiobacillus ferrooxidans, которые являются основной культурой технологии бактериального окисления сульфидных минералов.

Количественный показатель изучали на основании спектрофотометрического метода на приборе Shimadzu UV-1280.

Полученные результаты и их обсуждение. Для нормального роста и развития этих микроорганизмов необходимо создание оптимальных условий выращивания, которые включают в себя физические, химические и биологические факторы.

Для культивирования бактерий используется специальная среда, которые отличаются по составу химических соединений. Наиболее часто используемыми традиционными средами для выращивания бактерий является:

- **Сильвермана и Люндгрена** (9К, *для Acidithiobacillus ferrooxidans*):

Первый раствор: в 700 мл дистиллированной воды растворяют (NH4)2 SO4 - 3,0 г; КС1-0,1 г; K_2HPO_4- 0,5 г; $MgSO_4 \cdot 7H_2O$ - 0,5 г; $Ca(NO_3)_2$- 0,01 г.

Второй раствор: в 300 мл дистиллированной воды растворяют $FeSO_4 \cdot 7H_2O$, 44,2 г, добавляют 1 мл 10 н серной кислоты. Вместо $FeSO_4 \cdot 7H_2O$ можно брать соль Мора [$FeSO_4(NH_4)_2SO_4 \cdot 6H_2O$]. В этом случае $(NH)_2SO_4$ к раствору не добавляются, а 2-й раствор готовится следующим образом: в 300 мл дистиллированной воды растворяют 63 г [$FeSO_4(NH_4)_2SO_4 \cdot 6H_2O$] и добавляют 1мл 10 н серной кислоты. Такое количество соли Мора соответствует 9 г/л железа и 21,4 г/л $(NH_2)_2SC$. Растворы стерилизуют

ISSN 3030-3907

отдельно: 1-й раствор при 1,0 атм и 2-й при 0,5 атм. Перед употреблением оба раствора смешивают. Эта среда является наиболее благоприятной для роста A. ferrooxidans и поэтому используется чаще других.

Исходя из этого нами изучена кинетика роста микроорганизмов в условиях традиционной среды. С этой целью стерильную среду предварительно разливали в пробирки (колбы) и стерилизовали. В пробирки (колбы) наливали одинаковый объем среды. Посев проводили из каждого разведения или из 4-5 последних, причем каждое разведение высевали в 3-5 повторностях (параллельных пробирках). Количество посевного материала везде одинаково и, как правило, составляло 1 мл. Засеянные пробирки помещали в термостат. Время инкубации колеблется от 2 до 15 суток и зависит от скорости роста микроорганизмов, численность которых определяли в зависимости оптической плотности.

На рис.1 показана типичная зависимость интенсивности роста от концентрации субстрата. При недостатке субстрата бактерии испытывают дефицит энергии, однако при избытке может происходить ингибирование роста из-за токсичности.




Рис. 1. Зависимость роста бактерий от концентрации субстрата

Таблица 2

Динамика роста бактерий с питательной смесью и без неё

Время (ч)	Оптическая плотность (OD600), с питательной смесью	Оптическая плотность (OD600), без питательной смеси
0	0,05	0,05
12	0,12	0,07
24	0,25	0,10
36	0,45	0,14

ISSN 3030-3907

48	0,70	0,17
60	0,95	0,20
72	1,15	0,21
84	1,20	0,22
96	1,25	0,22

В табл. 2. показан оптическая плотность (OD600) условный показатель концентрации клеток в растворе. Оптическую плотность измеряли с помощью спектрофотометрического метода на имеющейся лабораторном приборе Shimadzu UV-1280. Динамику роста изучали в течении 96 часовом росте культур.

Полученные данные показывают динамику роста серо- и железоокисляющих бактерий в течение 96 часов при наличии и отсутствии питательной смеси. Из таблицы видно, что в начале эксперимента (0 ч) оптическая плотность культур одинакова - 0,05, что указывает на одинаковую начальную концентрацию клеток. Уже через 12 часов в среде с питательной смесью рост ускоряется (OD600 = 0,12), тогда как без питательных веществ он минимален (OD600 = 0,07). Начиная с 24-60 часов, наблюдается активная фаза роста: показатель OD600 в питательной среде увеличивается почти экспоненциально (до 0,95 к 60 часу), что указывает на высокую метаболическую активность и эффективное использование субстрата. Без питательной смеси рост остаётся слабым (всего 0,20 к 60 часу). К 72-96 часам темпы роста постепенно стабилизируются, что свидетельствует о переходе бактерий в стационарную фазу: OD600 достигает 1,25 в питательной среде и 0,22 -без питательной смеси. Таким образом, результаты ясно демонстрируют, что наличие питательных компонентов значительно стимулирует рост бактерий, обеспечивая более интенсивное размножение и устойчивое развитие популяции.

Annotatsiya. Termik shikastlanish patologik fiziologiyada yara bitishi mexanizmlarini, to‘qimalarning regeneratsiyasini va gemostaz buzilishlarini o‘rganishda keng qo‘llaniladigan hamda metodologik jihatdan muhim eksperimental modellaridan biridir. Mazkur tadqiqot laboratoriya kalamushlarida uchinchi darajali chuqur dermal kuyishlarning qat’iy standartlashtirilgan va yuqori darajada takrorlanuvchi modelini yaratishga qaratilgan bo‘lib, reparativ jarayon davomida yuz beradigan tuzilmaviy-funktsional o‘zgarishlarni kompleks baholash, shuningdek mahalliy gemostatik preparatlarning samaradorligini aniqlash imkonini beradi. Nazorat qilinadigan kontakt kuyishi oldindan qizdirilgan metall zondni narkoz ostidagi hayvonlarning junlari olinib tozalangan orqa (dorsal) yuzasiga qo‘llash orqali chaqirildi. Ketma-ket morfologik va gistologik tekshiruvlar jarohatdan keyingi 3, 7, 14, 21, 30 va 60-kunlarda amalga oshirildi. Olingan natijalar dastlabki 24 soat ichida koagulyatsion nekrozning tez rivojlanishini, kuchli yallig‘lanish hujayralari infiltratsiyasi va undan keyin granulyatsion to‘qima hosil bo‘lishi bilan kechishini tasdiqladi. Eng yuqori darajadagi fibroblast faolligi va kollagen matritsasining to‘planishi 14–21-kunlar oralig‘ida kuzatilib, bu reparativ fazaning eng yuqori cho‘qqisini ko‘rsatadi. 60-kunga kelib shikastlangan soha asosan yetilgan fibroz chandiq to‘qimasi bilan almashib, qisman qayta epitelizatsiya belgilari aniqlanadi. Taklif etilgan eksperimental model yuqori darajada takrorlanuvchanlikni ta’minlaydi va og‘ir termik shikastlanishlarda morfofunktsional javoblarni chuqur o‘rganish,

ISSN 3030-3907

shuningdek to‘qima regeneratsiyasini optimallashtirishga qaratilgan davolovchi vositalarni sinovdan o‘tkazish uchun mos hisoblanadi.

Kalit so‘zlar: eksperimental kuyishlar, termik shikastlanish, morfofunktsional o‘zgarishlar, kalamushlar, granulyatsion to‘qima, fibroz, yara bitishi.

Introduction

Thermal burns continue to represent a major clinical and experimental challenge due to the multidimensional nature of their pathogenesis, which encompasses extensive tissue necrosis, pronounced inflammatory reactions, microcirculatory disturbances, oxidative stress, and impaired reparative capacity. Experimental modeling of such injuries in laboratory animals is essential for a deeper understanding of the sequential cellular and molecular events underlying wound healing, scar formation, and hemostatic dysregulation. These models also play a pivotal role in the preclinical evaluation of innovative pharmacological compounds and local therapeutic agents aimed at accelerating regeneration and reducing post-burn complications.

Rats are among the most commonly used small laboratory animals for burn modeling because they demonstrate well-studied physiological and immunological responses, possess a suitable skin structure for histopathological examination, and provide consistency in experimental outcomes. The creation of a reproducible, controlled, and ethically sound model of thermal injury is necessary for accurate assessment of morphological, biochemical, and functional alterations occurring throughout the wound healing continuum.

The present study sought to establish a standardized model of deep third-degree skin burns in rats that ensures high reproducibility, minimizes the influence of confounding variables, and adheres to modern bioethical principles. The methodology enables precise control of burn area and depth through regulated thermal exposure, thereby reducing inter-individual variability and the risk of secondary infection. Sequential analysis of morphofunctional parameters at predetermined time points was conducted to characterize the dynamics of tissue damage, inflammation, granulation, and scar formation. The generated data confirm the suitability of the proposed model for further use in biomedical research, including preclinical testing of hemostatic materials, wound dressings, anti-inflammatory agents, and stimulators of tissue regeneration.

Aim. The aim of this study was to develop a reproducible and ethically justified experimental model of deep third-degree thermal skin burns in laboratory rats under controlled conditions. The model was designed to allow systematic evaluation of morphofunctional changes in skin and subcutaneous tissues during the wound-healing process, and to provide a reliable platform for assessing the effectiveness of local hemostatic and reparative agents.

ISSN 3030-3907

Materials and Methods

The study was conducted on 30 clinically healthy white outbred male rats weighing 180–220 g. All experimental procedures complied with institutional animal care and ethical standards.

Before burn induction, the animals were anesthetized with intraperitoneal sodium thiopental (40 mg/kg). The dorsal region was shaved and cleaned with 70% ethanol to ensure uniform skin exposure.

A brass metal probe (diameter 2 cm, weight 80 g) was preheated in water to 96–98°C and applied to the dorsal skin for 10 seconds under controlled pressure to produce a full-thickness (third-degree) burn covering approximately 10% of the total body surface area. The burned region was left open to the air without any immediate treatment to observe natural wound progression.

Animals were housed individually in sterile cages and observed daily. Standard feed and water were provided ad libitum. To prevent secondary infection, wound areas were treated with 0.05% chlorhexidine solution once daily.

Tissue samples were collected on days 3, 7, 14, 21, 30, and 60 post-burn. Macroscopic observations included wound color, exudation, and epithelialization. Histological examination was performed on paraffin-embedded sections stained with hematoxylin and eosin and Masson's trichrome.

Results

Macroscopic Findings

Table 1 summarizes the macroscopic dynamics of the burn wound healing process. The first 24 hours were characterized by the formation of a dense necrotic crust with clear demarcation from surrounding tissue. By day 7, inflammatory edema and purulent exudate were observed. Granulation tissue formation became prominent by day 14 and reached maximum development between days 14 and 21.

Table 1.

Macroscopic stages of burn wound healing in rats

Observation day	Macroscopic appearance	Healing phase
3	Necrotic crust formation, edema, hyperemia	Necrosis and inflammation
7	Beginning of demarcation, purulent exudate	Inflammatory phase
14	Active granulation tissue growth	Proliferative phase
21	Wound contraction, decreased exudate	Early remodeling
30	Granulation replaced by fibrous tissue	Remodeling and scar formation

ISSN 3030-3907

60	Mature scar, no active inflammation	Final epithelialization

Histological and Morphological Findings

On day 3, histological analysis revealed massive coagulative necrosis with inflammatory cell infiltration consisting of neutrophils and macrophages. Capillary thrombosis and local hemorrhages were frequent.

By day 14, granulation tissue showed intensive fibroblast proliferation and newly formed capillaries. Collagen deposition increased sharply during this period. Between days 21 and 30, fibroblasts differentiated into myofibroblasts, initiating scar contraction. By day 60, dense collagen bundles replaced granulation tissue, forming mature fibrous scars with partial re-epithelialization.

Table 2.

Histological dynamics of tissue repair after deep thermal burn

Day	Predominant cell types	Structural characteristics	Functional interpretation
3	Neutrophils, macrophages	Necrosis, edema, vascular congestion	Inflammation, tissue degradation
7	Macrophages, fibroblasts	Granulation tissue onset	Transition to repair
14	Fibroblasts, endothelial cells	Active angiogenesis, collagen synthesis	Peak reparative phase
21	Myofibroblasts	Wound contraction, collagen cross-linking	Remodeling begins
30	Fibrocytes, keratinocytes	Scar tissue formation, epithelial migration	Late remodeling
60	Fibrocytes	Mature fibrotic scar	Functional closure

Discussion

The present study successfully developed a reproducible and standardized rat model of deep third-degree thermal burns, accurately reflecting the morphofunctional dynamics observed in severe human burn injuries. The model replicates key pathological features, including coagulative necrosis, intense inflammatory infiltration, granulation tissue formation, and subsequent fibrotic scarring, providing a reliable platform for experimental studies on wound healing and tissue regeneration.

Compared to previously described models, the current methodology offers precise control over thermal parameters, including temperature, contact duration, and burn area, which minimizes inter-animal variability and enhances experimental reproducibility. Histological analyses revealed that the peak reparative phase, occurring between 14 and 21 days post-injury, is characterized by pronounced

ISSN 3030-3907

fibroblast proliferation, angiogenesis, and organized collagen fiber deposition, all of which are critical for effective tissue repair. By 60 days, the wound area is predominantly replaced by mature fibrotic scar tissue, restoring the epidermal barrier, although the biomechanical and elastic properties of the skin remain only partially recovered. These findings are consistent with previous reports that deep thermal injuries induce prolonged remodeling involving cytokine-mediated fibroblast activation, extracellular matrix synthesis, and vascular reorganization.

The established model demonstrates significant potential for preclinical evaluation of therapeutic interventions, including fibrin- or collagen-based scaffolds, bioactive wound dressings, and local hemostatic agents. Furthermore, it allows for detailed biochemical and molecular assessments, including the measurement of oxidative stress parameters, pro- and anti-inflammatory cytokines, and angiogenic factors at different stages of healing. This comprehensive approach provides an essential foundation for translational research aimed at improving the management of severe thermal injuries and optimizing strategies for tissue regeneration.

Conclusion

The developed experimental methodology provides a reliable, reproducible, and ethically compliant model for inducing deep third-degree thermal burns in laboratory rats. This approach allows precise regulation of burn parameters, including temperature, contact duration, and affected surface area, thereby ensuring minimal inter-animal variability and consistent reproduction of morphofunctional changes that closely mirror those observed in severe clinical burns.

Analysis of the healing process demonstrated that the peak reparative phase occurs between 14 and 21 days post-injury, characterized by intensive fibroblast proliferation, angiogenesis, and organized collagen deposition. By 60 days, the wounds are predominantly replaced by mature fibrotic scar tissue, accompanied by partial restoration of the epidermal layer and re-establishment of the skin barrier, although full functional elasticity is not completely restored.

Given its reproducibility and ability to accurately mimic the dynamics of deep thermal injury, this model is highly suitable for preclinical evaluation of novel wound-healing agents, local hemostatic compounds, and tissue-regenerative therapies. Moreover, it enables detailed morphofunctional, histological, and biochemical assessments, including the analysis of oxidative stress markers, inflammatory mediators, and angiogenic factors throughout the different stages of healing. Consequently, this model represents a valuable tool for advancing translational research in experimental burn pathology and for optimizing therapeutic strategies aimed at improving skin repair and regeneration.

ISSN 3030-3907

REFERENCES

1. Kenjayevich B. A. Dynamics of the nitroergic system in experimental hypercholesterolemia //Int Res J Med Med Sci. – 2023. – T. 11. – №. 3. – C. 30-34.
2. Baykulov A. K. et al. Preclinical study new of drug forms based on chitosan //International Scientific and Practical Conference World science. – ROST, 2018. – T. 3. – №. 5. – C. 26-28.
3. qizi Mizomova E. Q., qizi Fozilova R. A., Baykulov A. K. Biological membranes and their importance in transport processes //International Conference on Advance Education. – 2025. – T. 1. – №. 3. – C. 91-96.
4. Ermanov R. T., Qarshiev S. M., Baykulov A. K. Changes in the nitrergic system during experimental hypercholesterolemia //World of Scientific news in Science. – 2024. – T. 2. – №. 4. – C. 326-339.
5. Baykulov A. K. et al. Effect of chitosan on internucleosomal degradation of DNA model animal skin cells //Journal of Theoretical and Clinical Medicine. – 2012. – №. 4. – C. 7-9.
6. Inoyatova F. H., Baykulov A. K. Dynamics of wound healing in the rat model of thermal burns with correction of chitosan derivatives //Problems of Biology and Medicine.–Samarkand. – 2011. – №. 3. – C. 72-73.
7. Kenjayevich B. A. et al. Indicators of Reperative Regeneration of Chitozan in Thermal Burns //European Scholar Journal. – 2022. – T. 3. – №. 4. – C. 154-156.
8. Kenjaevich B. A., Khidoyatovna I. F. Preclinical study of drug forms based on chitosan //European science review. – 2017. – №. 9-10. – C. 31-33.
9. TURAEVICH Y. O., KENJAEVICH B. A., HOLBAEVICH R. F. The effect of plasma therapy on the general circulation of blood in patients with extensive deep burns //International Journal of Innovations in Engineering Research and Technology. – 2020. – T. 7. – №. 4. – C. 1-4.
10. Кадырова Д. А. и др. Изучение связывания хитозана со специфическими участками ДНК при термическом ожоге //Вестник Новосибирского государственного университета. Серия: Биология, клиническая медицина. – 2012. – Т. 10. – №. 5. – С. 31-35.
11. Байкулов А. К. Влияние хитозана на синтез ДНК и РНК при ожогах //Врач-аспирант. – 2012. – Т. 53. – №. 4. – С. 26-29.
12. Халиков К. М. и др. Изучение результатов лечения крыс с ожоговой травмой производными хитозана //International Scientific and Practical Conference World science. – ROST, 2017. – Т. 4. – №. 12. – С. 26-28.
13. Байкулов А. К., Саветов К. Т., Халиков К. М. репаративная регенерация кожи при экспериментальном термическом ожоге с использованием хитозана //актуальные проблемы биомедицины-2020. – 2020. – С. 291-292.

ISSN 3030-3907

14. Байкулов А. К. и др. Воспалительный процесс: от стадии изменений в крови до заживления //International Scientific and Practical Conference World science. – ROST, 2017. – Т. 5. – №. 3. – С. 32-36.
15. Байкулов А. К. Влияние хитозана на синтез ДНК и РНК при ожогах //Врач-аспирант. – 2012. – Т. 53. – №. 4. – С. 26-29.
16. Байкулов А. К. и др. Иследования эффективности производных хитозана на процессы репаративной регенерации ожоговых ран в эксперименте Байку //World science. – 2016. – Т. 3. – №. 5 (9). – С. 53-58.
17. Байкулов А., Советов К. Динамика показателей продуктов перекисного окисления (среднемолекулярные пептиды. Малоновый диальдегид) в крови у крыс с экспериментальным термическим ожогом //Журнал вестник врача. – 2012. – Т. 1. – №. 1. – С. 43-45.
18. Милушева Р. Ю. и др. синтез противоожоговых препаратов на основе хитозана bombyx mori //Известия Уфимского научного центра РАН. – 2018. – №. 3-2. – С. 18-21.
19. БАЙКУЛОВ А. К. влияние производных хитозана на гомеостаз при термическом ожоге кожи iii степени. – зао «университетская книга» конференция: биотехнология и биомедицинская инженерия Курск, 28 ноября 2024 года Организаторы: Курский государственный медицинский университет библиометрические показатели: Входит в РИНЦ: да Цитирований в РИНЦ: 0 Входит в ядро РИНЦ: нет Цитирований из ядра РИНЦ: 0 Рецензии: нет данных тематические направления:.
20. Fayzullayevna Y. G. THE widespread of antibiotic-resistant bacteria and its impact on medicine //World scientific research journal. – 2025. – Т. 39. – №. 2. – С. 106-109.

ISSN 3030-3907

UDK 541.49+547.794.3

BA’ZI ORALIQ METALL IONLARI BILAN 2-AMINO-1,3,4-TIADIAZOLNING YANGI KOMPLEKS BIRIKMALARI SINTEZI VA TADQIQOTI

Husenov Qaxramon Shayimovich

Navoiy davlat konchilik va texnologiyalar universiteti “Kimyoviy texnologiya” kafedrasi dotsenti k.f.d.

Annotatsiya. Ba’zi metall (Co(II), Ni(II), Cu(II) va Zn(II)) galogenidlarini 2-amino-1,3,4 ligandi asosida yangi kompleks birikmalari sintez qilingan. Sintez qilingan birikmaning tarkibi va tuzilishi element analizi, IQ- va ^{1}H YaMR spektroskopiya usullarida o‘rganilgan. Element analizi natijalari bo‘yicha ko‘rsatildiki, sintez vaqtida metall:ligand mol nisbati 1:2 kompleks hosil bo‘ladi. Olingan birikmaning IQ-spektroskopik analizi natijalari shuni ko‘rsatdiki, koordinatsion poliedri monodentat bog‘langan geterosiklik ligand va ikkita galogenid atomlaridan iborat.

Kalit so‘zlari: koordinatsion birikma, 2-amino-1,3,4-tiadazol, element analizi, IQ- va ^{1}H YaMR spektroskopik tadqiqotlar, poliedr.

Аннотация. На основе лиганда 2-амино-1,3,4-тиадиазола были синтезированы новые комплексные соединения галогенидов некоторых металлов (Co(II), Ni(II), Cu(II) и Zn(II)). Состав и строение синтезированных соединений изучены методами элементного анализа, ИК- и ^{1}H ЯМР-спектроскопии. Результаты элементного анализа показали, что в процессе синтеза образуются комплексы с мольным соотношением металл:лиганд=1:2. ИК-спектроскопические исследования полученных соединений свидетельствуют о том, что координационный полиэдр образован монодентатно координированным гетероциклическим лигандом и двумя галогенидами.

Ключевые слова: координационное соединение, 2-амино-1,3,4-тиадиазол, элементный анализ, ИК- и ^{1}H ЯМР-спектроскопические исследования, полиэдр.

Abstract. New complex compounds of halides of some metals (Co(II), Ni(II), Cu(II), and Zn(II)) based on the 2-amino-1,3,4-thiadiazole ligand were synthesized. The composition and structure of the synthesized compounds were investigated using elemental analysis, IR, and ^{1}H NMR spectroscopy. The results of elemental analysis revealed that complexes with a metal-to-ligand molar ratio of 1:2 are formed during the synthesis. IR spectroscopic studies indicated that the coordination polyhedron consists of a monodentately coordinated heterocyclic ligand and two halide atoms.


ISSN 3030-3907

Keywords: coordination compound, 2-amino-1,3,4-thiadiazole, elemental analysis, IR and ^{1}H NMR spectroscopic studies, polyhedron.

Kirish

Azot va oltingugurt atomlarini o‘z ichiga olgan yuqori elektronodonor gyeterotsiklik ligandlar turli oraliq metall ionlariga nisbatan koordinatsiyalanish qobiliyatiga ega; ayniqsa, ular bioaktiv koordinatsion birikmalarni sintez qilish va qo‘llashda katta qiziqish uyg‘otadi [1-3]. Ushbu turdagi ligandlar orasida tiazol, izotiazol va tiadiazolning taqsimlanmagan elektron juftlariga boy ko‘p funksional hosilalari har xil turdagi metall komplekslarni, xususan, qimmatbaho organometallik ramkalar va funksional materiallarni olishda alohida rol o‘ynaydi. Shunga ko‘ra, mazkur ilmiy ish ushbu sohadagi ma’lumotlarni tizimlashtirishga va tiadiazollar asosida koordinatsion birikmalarning muhim sinfini sintez qilish, tarkibi, tuzilishi va xossalarini o‘rganish bilan amalda qo‘llash bo‘yicha istiqbollarini ochishga qaratilgan.

Odatda, tiazolning 2 ta (N, S) geteroatomli halqasi ikkita izomer shaklga ega bo‘lib, bu atomlarning halqada joylashgan o‘rniga ko‘ra 1,3-tiazol (I(1), ko‘pincha tiazol deb ataladi) yoki 1,2-tiazol (I(2), izotiazol deb ham ataladi), ularda gyeteroatomlar qo‘shni pozitsiyalarda joylashgan. Xuddi shunga o‘xshash, tiadiazol geterohalqasida ikkinchi azot atomi (2N, S)ning paydo bo‘lishiga olib kelib, uning asosida moddalar molekulasi to‘rt xil izomer holatida bo‘ladi (I(3-6)). Shunga qaramay, 1,3,4-tiadiazol hosilalari (I(6)) ko‘pincha koordinatsion kimyoda o‘ziga xos ligand sifatida ishlatiladi; shunday qilib, ushbu izomer shunchaki tiadiazol ham deb nomlanadi.




(1) (2) (3) (4) (5) (6)

I. Tiazol va tiadiazollar tuzilishi


Tiazollar va ularning hosilalari tabiiy mahsulotlarda, biologik faol alkaloidlarda va farmasyevtik preparatlarda keng tarqalgan. Asosan aril yoki gyeteroaril guruhlari bilan bog‘liq bo‘lgan trisamed va disamed 1,3-tiazollar imtiyozli strukturaviy motivlardir va suyuq kristallar [4], molekulyar kalitlar [5], sensorlar [6] yoki kosmetika sanoati (quyosh kremlari) [7, 8] olishda, materialshunoslik kabi turli sohalarda qo‘llaniladi.

Hozirgi kunda ham 1,3,4-tiadiazol va uning hosilalari ko‘plab tadqiqotchilar uchun katta qiziqish uyg‘otishda davom etmoqda (II).


ISSN 3030-3907




Fatostatin (Fatostatin)



Febuksostat (Febuxostat)



Nizatidin (Nizatidine)



Vitamin B1 (Vitamin B1)

II. Biologik faol tiazollarning namunalari

1,3,4-Tiadiazol esa eng kuchli geterotsiklik birikmalardan biri bo‘lib, bugungi kunga qadar ko‘plab 1,3,4-tiadiazol yadrosi saqlagan moddalar faramatsevtika sohasida asetazolamid, metazolamid, megazol va shunga o‘xshash dori vositalaridan foydalanilayotganligini ko‘rishimiz mumkin. 1,3,4-Tiadiazollar turli biologik faollikka egaligi, geterohalqadagi =N–C–S– fragmentning mavjudligi tufaylidir.

Bundan tashqari, 1,3,4-tiadiazol yoki 1,2,4-triazolni o‘z ichiga olgan ba’zi bigeterotsiklik birikmalar mikroblarga qarshi vositalar sifatida ishlab chiqarilgan va ular dori tayyorlash uchun xom-ashyolar sifatida tibbiy kimyoda ham qo‘llaniladi. Farmakologik xususiyatlariga ega bo‘lgan 1,3-tiazolning ba’zi ikki- va uch almashingan hosilalari (II) qayd etilgan [9]. Shuningdek, ion shaklidagi tiazol bir nechta C-C bog‘lanish reaksiyalarida yaxshi organik katalizator sifatida qo‘llanilgan [10].

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Ligandni etil spirtidagi eritmasini oraliq metall ionlari (Co(II), Ni(II), Cu(II), Zn(II)) bilan mol nisbatlarida M:L 1:2 ta’sirlashtirib, sintez qilindi. Sintez jarayoni 70-75^{o}C temperaturada qo‘shimcha tozalashlarsiz tijoratda mavjud kimyoviy reaktivlardan foydalanib olib borildi: 2-amino-1,3,4-tiadiazol (≥99.0%) (Alibaba.com), shuningdek erituvchi EtOH (k.t., distillangan).

Element analizi natijalari asosida xulosa qilish mumkinki, sintez qilingan kompleks birikmasi tarkibi M:L 1:2 ga mos keladi.

Komplekslar sintezi bilan bog‘liq barcha eksperimentlarni, sintez qilingan kompleks birikmalarni metall tarkibiga analizi “3030V” Perkin-Elmer (USA) firmasi uskunasida, uglerod, vodorod va azot tarkibiga element analizi-“EA 1108” Carlo-Erba (Italiya) firmasi uskunasida olib borildi.

ISSN 3030-3907

IQ spektrlari 400-4000 sm^{-1} sohalarda Spectrum 3 FT-IR Spectrometer by PerkinElmer Inc spektrometrida yozib olindi. Suyuqlanish temperaturasini vakuumlangan kavsharlangan naaychalarda aniqlandi.

^1H YaMR spektrlari JNM-ECZ400R va JNM-ECZ600R (Jeol, Yaponiya) spektrometrlarida 400 MGs. da ro‘yxatga olindi. ^1H YaMR spektrlarida ichki standart sifatida TMS (0 m.h.)dan foydalanildi. YaMR spektrlarini MestReNova 14.2.0 (Mestrelab Research S.L., Santiago de Compostela, Spain)dasturli ta’minotidan foydalanib qayta ishlangan. ^1H YaMR spektroskopik tadqiqotlari natijalari 2-rasmda keltirilgan.

$[ZnL_2Br_2]$ (V) kompleks sintezi. 2-amino-1,3,4-tiadiazol (L yoki atdz) ligandining 0,606 g (0,6 mol) 50 ml etanoldagi issiq (70-75 ^oC) eritmasiga 0,78 g (0,3 mol) $ZnBr_2 \cdot 2H_2O$ issiq (70-75 ^oC) 35 ml etanoldagi eritmasi asta-sekin aralashtirilgan holda qo‘shildi, so‘ngra 1 soat davomida teskari sovutgich bilan qaynatildi va oq rangli polikristall namunalar hosil bo‘lishi kuzatildi. 2 kundan keyin tushgan polikristallar filtrlandi va havoda quritildi. Ajratib olingan polikristallar qayta kristallanib, tozalandi, reaksiya unumi esa – 1,07 g (84%) (1-jadval).

Shunday usul bilan $[CoL_2Cl_2]$ (I), $[NiL_2Cl_2]$ (II), $[CuL_2Cl_2]$ (III), $[ZnL_2Cl_2]$ (IV), $[ZnL_2I_2]$ (VI) komplekslari sintez qilindi, qayta kristallanib, tozalandi va ularning monokristallari etanolli eritmadan o‘stirib olindi.

1-jadval

L ligandi va uning asosidagi I-VI kompleks birikmalarning element analiz natijalari, chiqish unumi va suyuqlanish temperaturalari


№	Birikmalar	Rangi	Chiqim, %	$t_{suyuq.}$, ^0C	Topildi/hisoblandi, %				Brutto-formula
					S	N	N	M	
1.	L	Och-sariq	81	191-192	23,36/23,75	3,13/3,0	41,51/41,50	–	$C_3H_5N_3S$
2.	$[CoL_2Cl_2]$ (I)	Ko‘k	56	250	14,28/14,46	2,22/1,83	25,02/25,31	17,53/17,74	$C_4H_6N_6S_2Cl_2Co$

ISSN 3030-3907

3.	[NiL_2Cl_2] (II)	Sariq-qo‘ng‘ir	67	333-335	14,21/14,48	2,31/1,83	24,97/25,33	17,48/17,69	$C_4H_6N_6S_2Cl_2Ni$
4.	[CuL_2Cl_2] (III)	To‘q-yashil	90	239-241	14,09/14,27	2,24/1,80	24,85/24,96	18,81/18,87	$C_4H_6N_6S_2Cl_2Cu$
5.	[ZnL_2Cl_2] (IV)	Och-sariq	69	230-231	14,46/14,19	1,45/1,79	24,52/24,83	19,10/19,31	$C_4H_6N_6S_2Cl_2Zn$
6.	[ZnL_2Br_2] (V)	Och-sariq	84	228-230	11,04/11,24	1,40/1,41	19,29/19,66	15,43/15,29	$C_4H_6N_6S_2Br_2Zn$
7.	[ZnL_2I_2] (VI)	Och-sariq	79	215-217	9,03/9,21	1,72/1,15	15,99/16,11	12,46/12,54	$C_4H_6N_6S_2I_2Zn$

MUHOKAMA VA NATIJALAR

Ba’zi oraliq metallar ionlari (Co(II), Ni(II), Cu(II), Zn(II)) galogenidlarini 2-amino-1,3,4-tiadiazol (L^1) bilan komplekslari quyidagi umumiy reaksiya natijasida sintez qilindi hamda ularning tarkibi, tuzilishlari IQ-, ^1H YaMR- va EPR spektroskopik usullari bilan o‘rganildi (1-sxema):



L^1

Ia-VIa

M=Co, X= Cl (I);
M=Ni, X= Cl (II);
M=Cu, X= Cl (III);
M=Zn, X= Cl (IV);
M=Zn, X= Br (V);
M=Zn, X= I (VI).

1-sxema

ISSN 3030-3907

Turli 3d-elektron konfiguratsiyali kobalt(II) ($3d^7$), nikel(II) ($3d^8$), mis(II) ($3d^9$) va rux(II) ($3d^{10}$) ionlari galogenidlarini tiadiazol halqali ligand bilan komplekslarini sintez usullarini ishlab chiqildi. Ularning tarkibi va tuzilishini element analiz, IK- va ^1H YaMR-spektroskopiyasi usullari bilan tadqiqot qilish amalga oshirildi.

Ligand L ning etil spirtidagi eritmalari metall ionlarining tegishli xloridlari, bromidlari va yodidlari bilan M:L=1:2 mol nisbatlarida ($M=Co^{2+}$, Ni^{2+}, Cu^{2+}, Zn^{2+}) barcha sintez qilingan birikmalar uchun umumiy formulali $[ML_2X_2]$ komplekslari ajratib olindi, bunda M = Co(II), Ni(II), Cu(II) va Zn(II); L – 2-amino-1,3,4-tiadiazol; X = Cl^-, Br^- va I^- (1-jadval).

Element analiz natijalari asosida xulosa qilish mumkinki, barcha sintez qilingan kompleks birikmalarda komplekslar tarkibi M:L=1:2 nisbatga mos keladi va kompleks hosil bo‘lish reaksiyalarida geterotsiklik ligandning ikkita molekulasi va kompleks hosil qiluvchini bitta atomi ishtirok etadi, monoyadroli kompleks hosil qiladi.

Sintez qilingan birikmalardagi metall ionlarining ligandlar bilan hosil qilgan koordinatsion qurshovi spektroskopik tadqiqot usullari yordamida o‘rganildi.


Kompleks birikmalarda koordinatsiyalangan ligand geterohalqasini tashkil etgan fragmentlar: C–H, –N=C– (tiadiazol), >N–N<, C–S–C va halqadan tashqarida NH_2–guruh qoldig‘i qatnashadi. IQ-spektrning turli sohalarida ushbu funksional guruhlar bilan bog‘liq tebranishlardan iborat va ularning chastotalari sintez qilingan komplekslar molekulalari tuzilishini tavsiflash uchun dastlabki ma’lumotlar hisoblanadi [11-14].

IQ-spektroskopik usullar yordamida olingan tadqiqot natijalari 1-rasm va 2-jadvalda keltirilgan.

Olingan natijalarga ko‘ra, $[ZnL_2Br_2]$ kompleksining FT-IR spektri umuman olganda atdz molekulasining spektriga o‘xshash bo‘lsada, bu ligandning $ZnBr_2$ ga koordinatsiyasi tufayli ayrim o‘zgarishlar bilan xarakterlanadi (1-rasm). Xususan, kompleks birikmalarning IQ-spektrida -NH_2 guruhlari 3200–3450 sm^{-1} oralig‘ida uchta ajralgan cho‘qqi va >C=N-guruhiga tegishli tebranishlar uchun 1608 va 1647 sm^{-1} da ikki cho‘qqi sifatida ko‘rinadi, holbuki, L spektrida ushbu guruhlarga tegishli 3285 sm^{-1} da yagona keng cho‘qqi (-NH_2) va 1620 sm^{-1} da bitta o‘tkir cho‘qqi (>C=N-) sifatida aks etgan edi. -NH_2 guruhga tegishli cho‘qqilarning ajralishi, ushbu guruhlarning turli ichki va molekulalararo vodorod bog‘larining hosil bo‘lishida ishtirok etishi bilan izohlanadi, bu esa $[ZnL_2Br_2]$ ning kristall tuzilmasida ham o‘z aksini topdi [15-16].

$[ZnL_2Br_2]$ kompleks molekulasi 21 ta atomdan tashkil topgan bo‘lib, IQ spektrida 57 ta normal tebranishlarni namoyon qiladi. Hisoblangan IQ spektr tajribada qayd etilgan spektr bilan mos keladi (1-rasm, 2-jadval).

ISSN 3030-3907



1-rasm. Atdz (L) va uning $[ZnL^1_2Br_2]$ kompleksi FT-IR spektrlari (sm^{-1}) (atdz L moddasining eksperimental spektri (qora) (*c*), $[ZnL_2Br_2]$ kompleksi uchun eksperimental spektr (qizil) (*b*) va hisoblangan spektr (ko‘k) (*a*)). Ichki molekulyar N–H···N va N–H···Br vodorod bog‘lari hosil bo‘lishida qatnashmagan, erkin N–H fragmentlarining valent tebranishlari 3524 va 3538 sm^{-1} da kuzatilgan holda ichki molekulyar N–H···N va N–H···Br vodorod bog‘larini hosil qiladigan N–H fragmentlarining asimmetrik, simmetrik valent tebranishlari mos ravishda 3269 va 3134 sm^{-1} da qayd etildi.

Erkin holdagi ligandning IQ-spektridan farqli ravishda, barcha komplekslarning spektrlarida 449–472 sm^{-1} sohalarda $\nu_{(M–N)}$ yutilish chiziqlari namoyon bo‘lgan bo‘lsa, erkin ligandning spektrida C–S bog‘lariga xos valent tebranishlari esa 890 sm^{-1} sohasida kuzatildi. 2-jadval

2-jadval

Ligand (L) va I-VI komplekslari IQ-spektrlaridagi xarakterli tebranishlar va chastotalari (sm^{-1})

Birikmalar	$\nu_{(N-N)}$	$\nu_{(N=C-N)}$	$\nu_{(C=N)}$	$\nu_{as(N-H)}$, $\nu_{s(N-H)}$ va $\delta_{(N-H)}$	$\nu_{(C-S)}$	$\nu_{(M-N)}$
L	1020	1526	1615	3279, 3090, 3017, 1506	890	–
$[CoL_2Cl_2]$ (I)	1080, 1049	1515	1644, 1587	3378, 3230, 3193, 1514	894	455
$[NiL_2Cl_2]$ (II)	1088, 1035	1511	1648, 1582	3371, 3236, 3205, 1516	895	472

ISSN 3030-3907

$[CuL_2Cl_2]$ (III)	1075, 1047	1519	1642, 1584	3280, 3229, 3244, 1529	896	459
$[ZnL_2Cl_2]$ (IV)	1030, 1020	1514	1640, 1590	3384, 3336, 3287, 1512	899	467
$[ZnL_2Br_2]$ (V)	1100, 1042	1531, 1505	1663, 1635	3524, 3538, 3269, 3134, 1635	892	452
$[ZnL_2I_2]$ (VI)	1038, 1025	1522	1638, 1588	3376, 3324, 3265, 3111, 1539	897	449

I–VI Komplekslarning spektrlari L ligand spektridan shunday farqlanadiki, ularda 1615 sm^{-1} dagi >C=N– bog‘iga xos intensiv valent tebranishlarining yutilishi tegishlicha 1663-1638 va 1635-1582 sm^{-1} ikkita intensiv cho‘qqiga ajraladi: bu tiadiazol halqasidagi bitta azot atomi bilan koordinatsiyalangan ligand molekulasida >C=N– fragmentlari o‘zaro ekvivalent emasligini isbotlaydi.

Kompleks birikmalarning spektrlarida ham $\nu_{(>N–N<)}$ (ligand spektrida 1020 sm^{-1}) tebranish chiziqlari ikkita intensiv signallarga (1100–1088 va 1049–1020 sm^{-1}) ajraladi. Aminoguruhning valent tebranishlari o‘zgarishsiz qolib, 3538–3111 sm^{-1} sohada, deformatsion tebranish chastotalari esa 1635–1506 sm^{-1} oralig‘ida kuzatildi [14, 15, 17]. Komplekslarning bunday spektral parametrlari tiadiazol ligandlarning monodentat koordinatsiyalanganligi to‘g‘risida guvohlik beradi [18, 19].

IQ spektr ma’lumotlariga asoslanib, endotsiklik azot atomlaridan qaysi biri koordinatsiyalanishini aniqlash qiyin. Turli atsidoligandlar bilan Zn^{2+} ioni komplekslari [14-16, 19-21] uchun biz ilgari RTT natijalariga tayanib, katta ehtimollik bilan tasdiqlash mumkinki, sintez qilingan komplekslarda koordinatsion bog‘ endotsiklik azot atomi orqali amalga oshadi, ekzotsiklik aminoguruhining azot atomi esa koordinatsiyaga ishtirok etmaydi.


IQ-spektroskopiya usulida olingan natijalarga qo‘shimcha sifatida nikel(II) va rux(II) ionlarining sintez qilingan diamagnit komplekslari tuzilishini aniqlashda ^1H YaMR-spektroskopik va paramagnit mis(II) ioni kompleksi uchun EPR-spektroskopik tadqiqotlari olib borildi.

Ligand atdz (L) va uning asosida sintez qilingan yangi kompleks $[ZnL_2Br_2]$ birikmani ^1H YaMR-spektroskopiya usulida DMSO-d_6 + CCl_4 (400 MGs) eritmasida tadqiq qilish jarayonida qayd etilgan kimyoviy siljish qiymatlari (δ, m.h.) 2-rasmda keltirilgan.

ISSN 3030-3907

L spektrida δ=8,36 m.h. sohadagi singlet signal geterohalqadagi C–H guruh protoniga tegishli bo‘lib, δ=7,045 m.h. esa ekzotsiklik NH_2 guruhi protonlariga tegishlidir.

$[ZnL_2Br_2]$ kompleks birikmasining ^1H YaMR spektri esa erkin ligandning spektridan keskin farq qilmasada, asosiy xarakterli guruhlarga tegishli signallar kompleks hosil bo‘lish natijasida biroz kuchsiz maydonga siljiganini ko‘ramiz. Shunga muvofiq, δ=8,47 m.h. dagi singlet signal C-H guruh protoniga va δ=7,32 m.h. dagi singlet signal ekzotsiklik NH_2 guruhlarning ikkita protonlariga mos keladi. Ligand molekulasidagi vodorod tutgan funksional guruhlarga ma’sul signallar kuchsiz maydon sohasida siljishi kompleks hosil qiluvchi ionga koordinatsiyalanish bo‘lganligi haqida guvohlik beradi.



2-rasm. L ligandi (a) va $[ZnL_2Br_2]$ kompleksi (b) eritmasining (DMSO-d_6 + CCl_4, 400 MGs, 298 K.) **^1H YaMR spektri**

ISSN 3030-3907

Ma’lumki [22], paramagnit ionlar komplekslari uchun EPR usuli yordamida metall-ligand bog‘larining xususiyatini koordinatsion muhit tarkibi va tuzilishi hamda ligandlardagi uzoq o‘rinbosarlarning tabiatiga bog‘liq ravishda aniqlash mumkin.


Qator tadqiqotlarda [22-25] EPR spektrlarining eksperimental aniqlangan g-faktorlar qiymatlaridan foydalanib, molekulyar orbitalardagi (MO) koeffitsiyentlarni hisoblash mumkinligi ko‘rsatilgan. Xloroform eritmasida $[CuL_2Cl_2]$ kompleksidagi mis-ligand bog‘ining tabiatini baholash maqsadida, (I) formulasi orqali α^2 qiymatini hisobladik (3,3-rasm). Natijada bu qiymat markaziy atomdagi juftlashmagan elektron zichligining o‘lchovi ekanligi aniqlandi.

$$\alpha^2=1/0{,}43[a_{Cu}/0{,}036+g-2]+0{,}02 \quad (I)$$

bu yerda g – o‘lchovsiz kattalik bo‘lib, u erkin elektron uchun elektronning g-faktori 2,002322 ga teng, *a* esa Cu atomi yadrosidagi STS konstantasi.

Adabiyotlardagi [21-26] ma’lumotlarga ko‘ra, g_{II}-faktor qiymatlari va STS konstantasi (*a*) II yo‘nalishda shunday o‘zgaradiki, agar koordinatsion muhit bir xil bo‘lsa, tetraedrik buzilishning oshishi bilan g-faktorlar kamayadi, ammo *a* konstantasi ortib boradi.

3-rasmdan ko‘rinib turibdiki, $[CuL_2Cl_2]$ kompleksining xona haroratidagi EPR spektrida (xloroform eritmasida) toq elektron spini va mis atomi yadro spini o‘rtasidagi magnit o‘zaro ta’sir natijasida to‘rtta liniyadan iborat o‘ta nozik struktura (O‘NS) yaxshi ajralib turadi. Shu bilan birga, chiziqlarning kengayishi tufayli koordinatsion bog‘langan azot atomlaridan kelib chiqqan qo‘shimcha O‘NS juda kam darajada aniqlandi.



3-rasm. $[CuL^1{}_2Cl_2]$ kompleksining EPR spektri

(xloroform eritmasida, 293 K)

Hisoblangan EPR spektri parametrlarini mavjud adabiyot ma’lumotlari [23-24] bilan solishtirish shuni ko‘rsatadiki, ular tekis-kvadrat tuzilmali Cu(II) komplekslari uchun xos bo‘lgan qiymatlar (g=2,107; $a_{Cu}=82{,}51\cdot10^{-4}$ sm^{-1}) qatoriga

ISSN 3030-3907

kiradi. (I) formulasi orqali hisoblangan α^2=0,73 qiymati $[CuL_2Cl_2]$ kompleksidagi Cu–N bog‘ining donor-akseptorlik xarakterini tasdiqlaydi. Bu esa ligand tarkibidagi aminoguruhning tabiati va joylashuvi bilan bog‘liq bo‘lishi mumkin. Aminoguruhning elektron jufti geterotsikldagi π bog‘lar bir-biri bilan ta’sirlashib, molekulaning elektron tuzilmasini barqarorlashishi, ya’ni kon’yugatsiyada ishtirok etib, N atomining elektron zichligini oshiradi. Buesa, α-joylashuvdagi donor (N) atomining koordinatsiyalanishiga olib keladi va Cu–N bog‘ining ionlik darajasini oshiradi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Olib borilgan tadqiqotlar natijasida qo‘yidagicha xulosalar qilindi:

Ba’zi metall ionlari (Co(II), Ni(II), Cu(II), Zn(II))ning $[ML_2X_2]$ tarkibli komplekslari (bu yerda L=2-amino-1,3,4-tiadiazol,) sintez qilindi va uning tuzilishi IQ–, ^{1}H YaMR–spektroskopik usullari yordamida o‘rganildi.

Element analizi natijalarini ko‘rsatishicha, kompleks hosil bo‘lish reaksiyalarida geterosiklik ligand bilan metall galogenidlari 2:1 mol nisbatda kompleks hosil qiladi.

Sintez qilingan komplekslarning spektroskopik tadqiqoti natijalari bo‘yicha xulosa qilish mumkinki, geterotsiklik ligand halqadagi azot atomi bilan koordinatsiyalanadi. Atsidoligandlar ham koordinatsiyalanib, ular ham barcha holatlarda kompleks birikmani ichki qobig‘ida joylashadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Frija Luis M. T., Pombeiro Armando J.L., Kopylovich Maximilian N. Coordination chemistry of thiazoles, isothiazoles and thiadiazoles // Coordination Chemistry Reviews. – Volume 308. - Part 1. - 1 February, 2016. - P. 32-55. https://dx.doi.org/10.1016/j.ccr.2015,10.003.
2. Raper Eric S. Complexes of heterocyclic thionates Part 2: complexes of bridging ligands // Coordination Chemistry Reviews. - Volume 165. - October 1997. – P. 475-567. https://doi.org/10.1016/S0010-8545(97)90167-3.
3. Waqar Ashraf, Saeed Ahmad and Anvarhusein A. Isab Silver cyanide complexes of heterocyclic thiones // Transition 2004, - Metal Chemistry. – V. 29. - P. 400–404. https://doi.org/10.1023/B:TMCH.0000027452,58399,40.
4. Mori A., Sekiguchi A., Masui K. et. al. Facile synthesis of 2, 5-diarylthiazoles via palladium-catalyzed tandem C− H substitutions. Design of tunable light emission and liquid crystalline characteristics // J. Am. Chem. Soc. – 2003. - V. 125. – P.1700-1701.
5. Wu Y., Xie Y., Zhang Q. et. al. Quantitative Photoswitching in Bis(dithiazole)ethene Enables Modulation of Light for Encoding Optical Signals // Angew. Chem. Int. Ed. – V. 53. – Iss. 8. - (2014). P. 2090-2094. https://doi.org/10.1002/anie.201309915.

ISSN 3030-3907

6. Kim B.Y., Kim H.S., Helal A. A fluorescent chemosensor for sequential recognition of gallium and hydrogen sulfate ions based on a new phenylthiazole derivative // Sens. Actuators B-Chem. – 2015. - V. 206. – Iss. 1. – P. 430-434. https://doi.org/10.1002/bkcs.12472
7. Bach T., Heuser S. Chapter Thiazoles and benzothiazoles Synthesis of 2-(*o*-hydroxyaryl)-4-arylthiazoles by regioselective Pd(0)-catalyzed cross-coupling // Tetrahedron Lett. – 2000. - V. 41. – Iss. 11. – P. 1707-1710. https://doi.org/10.1016/S0040-4039(00)00018-6.
8. Karamthulla S., Pal S., Khan Md.N., Choudhury L.H. "On-water" synthesis of novel trisubstituted 1,3-thiazoles *via* microwave-assisted catalyst-free domino reactions // RSC Adv. – 2014. - V. 4. – P. 1-12. DOI: 10.1039/c4ra06239f.
9. Weiβ K.M., Wei S., Tsogoeva S.B. Novel one-pot process for the synthesis of 1,3-thiazoles *via* organocatalysed epoxidation of nitro-olefins // Org. Biomol. Chem. – 2011. - V. 9. – P. 3457-3461.
10. White M.J., Leeper F.J. Kinetics of the thiazolium ion-catalyzed benzoin condensation // J. Org. Chem. – 2001. - T. 66. - №15. – P. 5124-5131.
11. Boechat N., Ferreira S.B., Glidewell C. et. al. 2-Amino-5-trifluoromethyl-1,3,4-thiadiazole and a redetermination of 2-amino-1,3,4-thiadiazole, both at 120 K: chains of edge-fused R22(8) and R44(10) rings, and sheets of R22(8) and R66(20) rings // Acta Cryst., Sect. C. 2006. V. 62. P. 42-44. https://doi.org/10.1107/S010827010 5040126
12. Khusenov K.S., Umarov B.B., Ishankhodzhaeva M.M. et. al. Crystal Structure of 2-Amino-1,3,4-Thiadiazole and Its Zn (II) Complex. // Russ. J. Coord. Chem. 1997. V. 23. №8. P. 555-559.
13. Umarov B.B., Ishankhodzhaeva M.M., Khusenov K.Sh. et. al. Synthesis and study of crystal structure of the product of combined condensation of 2-amino-5-ethyl-1,3,4-thiadiazole with salycilic aldehyde and acetylacetone // Russ. J. Org. Chem. 1999. V. 35. № 4. P. 599-602
14. Хусенов К.Ш. Комплексные соединения некоторых 3d-металлов с производными 1,3,4-тиадиазолов и салицилальдиминов. Дисс. канд. хим. наук. – Ташкент. - 1998. – 153 с.
15. Husenov K.Sh., Umarov B.B., Turgunov K.K., Ganiev B.Sh., Mardonov U.M., Ibragimov B.T., Ashurov J.M., Safin D.A. Synthesis, Characterization, and Computational Studies of the Zinc Bromide Complex with 2-Amino-1,3,4-thiadiazole // Russian Journal of Inorganic Chemisrty. - *Moscow*. - 2024, Vol. 69. - №8. - P. 1173-1183.
16. Husenov Q.Sh. Ayrim oraliq metall ionlarining 1,3,4-tiadiazol hosilalari va aminokislotalar bilan kompleks birikmalari. Kimyo fanlari doktori (DSc) dissertatsiyasi. – Toshkent. – O'zMU. – 2025 y. – 211 b.

ISSN 3030-3907

17. Melenchuk T.V., Danilova E.A., Stryapan M.G., and Islyaikin M.K. Synthesis and Properties of Diaminothiadiazoles // Russian Journal of General Chemistry. – 2008. – Vol. 78. – №3. – P. 480–484.
18. Ganiev B.S., Khusenov K.S., Umarov B.B. et. al. Crystal Structure and Analysis Hirshfeld Surface of the Zinc (II) Bromide Complex with 2-Aminothiadiazole-1,3,4 // Available at SSRN 4384289. https://doi.org/10.2139/ssrn.4384289
19. Ishankhodzhaeva M.M., Khusenov K.Sh., Umarov B.B. et. al. Crystal structure of a complex of Zinc iodide with 2-amino-1,3,4-thiadiazole // Russ. J. Inorg. Chem. 1998. V. 43. № 11. P.1709-1711.
20. Khusenov K.Sh., Umarov B.B., Ishankhodzhaeva M.M. et. al. Crystal and Molecular Structureof a Complex of Zinc(II) Nitrate with 2-Amino-1,3,4-Thiadiazole// Russ. J. Inorg. Chem. 1998. V. 43. № 12. P. 1841-1846.
21. Хусенов К.Ш., Умаров Б.Б., Тургунов К.К. и др. Комплексы цинка(II) с производными тиадиазолов-1.3.4 // Журнал неорганической химии.- Москва. - 2024. №2.- Том 69. - С. 193-202.
22. Куска Х., Роджерс М. ЭПР спектры комплексов переходных металлов. М., Мир. 1970. 219 с.
23. Ganiyev B.Sh., Mardonov O‘.M., Avezov Q.G‘., Jumayeva Z.R. Glutaminning 3d metal ionlari bilan komplekslarining IQ- va EPR-spektroskopik tahlili. “Фан ва технологиялар тараққиёти” BuxMTI. - №4. - 2023. - 86-93 b.
24. Умаров Б.Б. Комплексные соединения некоторых переходных металлов с-бис-5-оксипиразолинами. Дисс... докт. хим. наук. – ИУ АН РУз. – Ташкент.- 1996.- 350 б.
25. Авезов К.Г., Умаров Б.Б. Комплексы меди(II) на основе бензоилгидразонов ароилтрифторацетилметанов: синтез, ИК, ЭПР спектроскопия и РСА // Universum: химия и биология: электрон. научн. журн.- Москва.- 2017.- № 2(32).- С. 1-5.
26. Абдурахмонов С.Ф., Худоярова Э.А., Умаров Б.Б. Гетеробиядерные комплексы меди(II) и никеля(II) на основе-бис-5-оксопиразолинов // Universum: химия и биология: электрон. научн. журн.- Москва.- 2019.- № 10(64).- С. 1-7.

ISSN 3030-3907

OBTAINING MELIORANTS BASED ON OXIDIZED COAL WITH YDROGEN PEROXIDE AND SUNNESSED LIME

Akhmedova Iroda
Institute of General and Inorganic Chemistry, Academy of Sciences of the Republic of Uzbekistan
Usanbaev Najimuddin
Institute of General and Inorganic Chemistry, Academy of Sciences of the Republic of Uzbekistan
Namazov Shafaat
Institute of General and Inorganic Chemistry, Academy of Sciences of the Republic of Uzbekistan
Orakbayev Azamat
Institute of General and Inorganic Chemistry, Academy of Sciences of the Republic of Uzbekistan
Ganiev Pirnazar.
Tashkent State Medical University. Chirchik Branch

Annotatsiya. Maqolada vodorod peroksid bilan oksidlangan ko‘mir asosida olingan, tarkibida gumin kislotalari va so‘ndirilmagan ohak miqdori yuqori bo‘lgan, tuproq strukturasini yaxshilovchi va namlikni yutuvchi guminli meliorantlar olish natijalari bayon etilgan. Bir gektarga 5 tonna hisobidan qo‘llanilgan meliorant to‘liq nam sig‘imidan eng kam nam sig‘imigacha bo‘lgan oraliqda suv saqlash qobiliyatining yaxshi ko‘rsatkichlarini namoyon etishi aniqlangan. Xususan, meliorantsiz tuproq to‘liq namlikda 25,48% gacha, kapillyar namlikda 20,34% gacha va eng kam nam sig‘imida 14,97% namlikni ushlab turadi. 5 t/ga meliorant qo‘llanilganda esa bu ko‘rsatkichlar mos ravishda 36,38%, 23,74% va 17,36% gacha, 10 t/ga qo‘llanilganda esa 47,18%, 28,34% va 21,36% gacha yetadi.

Kalit so‘zlar: meliorant, qo‘ng‘ir ko‘mir, gumin kislotalari, kalsiy oksidi, tuproq, to‘liq nam sig‘imi, tuproqning kapillyar nam sig‘imi, tuproqning eng kam nam sig‘imi.

Аннотация. В статье описаны результаты получения влаги поглощающих и улучшающих структуру почв гуминовых мелиорантов на основе окисленного угля пероксидом водорода с высоким содержанием гуминовых кислот и негашёной извести. Показано, что при применении мелиоранта полученного из расчета 5 тонны на один гектар характеризуются хорошими показателяими водоудерживающей способности в интервале от полной до наименьшей ввлагоёмкости. Так, почва без пробы удерживает при полной до 25,48 %, при капиллярной 20,34 %, а при наименьшей влагоёмкости 14,97 %. С мелиорантом 5 т/га при полной до 36,38 %, при капиллярной 23,74 %, при

ISSN 3030-3907

наименьшей до 17,36 %, при использовании 10 т/га при полной до 47,18 %, при капиллярной 28,34 %, при наименьшей до 21,36 %.

Ключевые слова: мелиорант, бурый уголь, гуминовые кислоты, оксид кальция, почва, полная влагоёмкость, капиллярная влагоёмкость почвы, наименьшая влагоёмкость почвы.

Annotation: The article describes the results of obtaining moisture-absorbing and soil structure-improving humic ameliorants based on oxidized coal with hydrogen peroxide with high humic acid content and unslaked lime. It has been shown that when applying the meliorant obtained at a rate of 5 tons per hectare, it is characterized by good indicators of water retention capacity in the range from full to lowest moisture capacity. For example, soil without a sample retains up to 25.48% of its total moisture content, 20.34% of its capillary moisture content, and 14.97% of its minimum moisture content. With 5 t/ha of meliorant at a full rate of 36.38%, at a capillary rate of 23.74%, at a low rate of 17.36%, at a rate of 10 t/ha at a full rate of 47.18%, at a capillary rate of 28.34%, at a low rate of 21.36%,.

Keywords: meliorant, brown coal, humic acids, calcium oxide, soil, total moisture capacity, capillary moisture capacity of soil, lowest moisture capacity of soil.

Introduction.

Agricultural production is one of the leading sectors of the economy of the Republic of Uzbekistan. To increase the efficiency of crop production, it is necessary to introduce the latest technologies for soil cultivation, use high-yielding varieties, and comprehensively apply mineral and organomineral fertilizers and soil ameliorants. Agricultural practice and numerous agrochemical tests show that one of the main factors determining the yield of high and quality crops and the preservation of soil fertility is the use of mineral fertilizers in combination with organic fertilizers containing humic substances, as well as soil ameliorants that improve the chemical, physical, and biological state of the soil.

The depletion of soil fertility is the main problem of agricultural production in many countries of the world. Using only mineral or organic fertilizers has both positive and negative effects on plant growth in the soil. Organic fertilizers improve the physical and biological activity of the soil, but they have a relatively low content of nutrients, therefore, for plant growth, it is necessary to apply them in larger quantities. Mineral fertilizers contain nutrients of higher concentration that are directly available to plants. However, the use of only mineral fertilizers leads to the degradation of soil humus substances and a decrease in soil fertility. Only an integrated nutrient management system is an alternative system for sustainable and cost-effective soil fertility management through the combined application of mineral, organic fertilizers, and soil ameliorants [1].

ISSN 3030-3907

One of the problems of world agriculture in the context of intensive farming is the reproduction of soil fertility, the creation of a balance of nutrients in the soil. The main indicator of soil fertility is the HS content. Increasing soil fertility and plant productivity can be achieved by applying organic and mineral fertilizers in combination and in the required amounts, depending on the soil condition [2].

In work 3, the effectiveness of using a peat-based humic preparation in potato cultivation was demonstrated. This preparation had a positive effect on the growth processes and quality indicators of potatoes. In addition, the manifestation of phytofluorous and alternarious infections was noted later, compared to the control. Its application allowed for obtaining the highest yield of 24.5 t/ha, exceeding the control by 11.13%.

In the 4th work, the influence of the source and doses of HA, i.e., compost, manure, and coal, as well as six doses of HA: 0, 0,5, 1,0, 15, 2,0, and 2.5 g/kg, on changes in soil salinity, pH, electrical conductivity, cation exchange, aggregate state, and plant growth was studied. The experimental results showed that HAs from peat increase plant mass, plant roots, grain quantity, and chlorophyll content more than others. HA also effectively increased rice yields by 10-20% due to soil pH compliance, nutrient availability, and reduced soil salinity.

In the 5th work, the results of research on humic preparations for various agricultural crops are presented, and it is shown that maximum yield increases can be achieved when mineral fertilizers and HA-based preparations are used together. Calculations also showed that in both wheat varieties, potassium-sodium humate with microelements increased the return on fertilizers by 2.6-2.8 times.

In the CAC countries, there is also interest in researching the processes of obtaining humic fertilizers and their production, as well as their application in agriculture. The work [6] presents the results of research on the elemental composition and HA content in six brown and hard coal deposits in Tajikistan. According to atomic emission spectrographic analysis data, the main components of the studied coal ash are Fe, Al, Si, while the total content of micro- and macroelements in them reaches up to 27 units. Analysis of brown and hard coal samples showed that the HA content varies from 9.54-22.33%. Based on the conducted chemical and physicochemical studies, it has been shown that the HA complex has several levels of quasi-structures consisting of high-molecular-weight particles complementary to low-molecular-weight compounds, forming an irregular structure connected by donor-acceptor and dispersion interactions, as well as hydrogen and Van der Waals bonds, contributing to the transition to a more ordered crystalline form.

In the work [7], the results of obtaining organomineral sodium humate based on Karatau phosphorites are presented, and it is shown that the introduction of

ISSN 3030-3907

Проведённый анализ теоретических и практических материалов позволяет сделать вывод о высокой эффективности игровых технологий как инструмента формирования критического мышления у младших школьников. Игровая деятельность обеспечивает благоприятные условия для развития логических операций, умения выдвигать и аргументировать собственные суждения, анализировать информацию и принимать обоснованные решения. Она способствует формированию рефлексивной позиции ребёнка, позволяя ему осознавать собственные мыслительные действия и корректировать способы решения учебных задач.

Современные исследования подчёркивают, что игры, построенные на принципах проблемности, вариативности, обсуждения и сотрудничества, оказывают значительное влияние на развитие компонентов критического мышления. Включение в учебный процесс таких форм, как аналитические дидактические игры, мини-дебаты, ролевые взаимодействия и гипотетические ситуационные задания, способствует активизации мыслительной деятельности, развитию способности оценивать различные варианты и формировать аргументированные выводы.

Таким образом, эффективность использования игровых технологий определяется методически грамотной организацией и их целенаправленным включением в структуру урока. Важно создание образовательной среды, побуждающей учащихся к размышлению, обсуждению, поиску решений и рефлексии. При этих условиях игровые методы выступают не только средством повышения мотивации, но и полноценным педагогическим инструментом развития критического мышления младших школьников, что подтверждается результатами современных отечественных исследований.

ISSN 3030-3907

В итоге, как отмечают последние исследования, «игровые технологии способствуют формированию у младших школьников способности к аналитическому мышлению и самостоятельному принятию решений, что подтверждается результатами педагогических экспериментов». Следовательно, системное внедрение игровых технологий в образовательный процесс является перспективным направлением развития критического мышления в начальной школе.

СПИСОК ИСПОЛЬЗОВАННОЙ ЛИТЕРАТУРЫ

1. Иудалова Л.В., Забелина Т.А. Игра как рефлексивный механизм развития критического мышления у младших школьников // Молодой учёный. 2024. № 10. С. 45–52. (In Russian).
2. Ахмедова, М. С. (2024). Информационные и мультимедийные технологии на уроках русского языка как средство формирования компетенций обучающихся. Science and innovation, 3(Special Issue 18), 263-265
3. Akhmedova, M. S. (2022). Trends in the development of communicative and speech competence of teachers in the system of continuing education. Asian Journal of Multidimensional Research, 11(11), 336-345.
4. Иванова М.В., Петрова А.А., Сидорова Е.В. Использование игровых технологий для развития критического мышления в начальной школе // Педагогика. 2023. Т. 12, № 4. С. 21–29. (In Russian).
5. Лукова И.В. Игровые технологии в начальной школе: развитие критического мышления // Наука и образование. 2024. № 6. С. 34–40. (In Russian).
6. Колеватых О.В. Игровые методики на уроках русского языка и развитие критического мышления младших школьников // Русский язык в школе. 2025. № 3. С. 55–62. (In Russian).
7. [moluch.ru] Применение игровых технологий на уроках в начальной школе. URL: https://moluch.ru/archive/496/108790 (дата обращения: 01.12.2025).
8. [ust.kz] Развитие критического мышления у младших школьников: педагогический опыт. URL: https://ust.kz/word/… (дата обращения: 01.12.2025).

ISSN 3030-3907

ИШЛАТИШ ШАРОИТИДА ТРАНСМИССИЯ АГРЕГАТЛАРИ МОЙИНИНИ ИФЛОСЛАНИШИ НАТИЖАСИДА ШЛИЦАЛИ БИРИКМАЛАРДА СОДИР БЎЛАДИГАН НУҚСОНЛАР

А. Иргашев
Тошкент давлат техника университети т.ф.д проф
E-mail: irgashevamirkul@mailru
Ф.И.Баракаев
Тошкент давлат техника университети докторанти
E-mail: ismatovichfazliddin28@gmail.com

Аннотация. Мақолада ҳаво таркибида абразив заррачалар мавжуд бўлган муҳитда ишловчи трансмиссия агрегатларда содир бўлган носозликлар турлари, уларнинг келгусидаги оқибатлари аниқланди ва уларни таъмирлаш усуллари кўриб чиқилди.

Калит сўзлар: Абразив заррачалар, тишли ғилдирак, характерли нуқсонлар, пластик деформацияланиш, лалмикор дала, муҳитнинг чанглилик даражаси.

Аннотация. В статье рассмотрены типы отказов, возникающих в трансмиссионных агрегатах, работающих в среде с абразивными частицами в воздухе, их будущие последствия и методы ремонта.

Ключевые слова: Абразивные частицы, зубчатое колесо, характерные дефекты, пластическая деформация, влажное поле, уровень запыленности окружающей среды.

Abstract. The article examines the types of failures that occur in transmission units operating in an environment with abrasive particles in the air, their future consequences and repair methods.

Key words: Abrasive particles, gear wheel, characteristic defects, plastic deformation, wet field, environmental dust level.

Кириш

Ўзбекистонда қишлоқ хўжалик махсулоиларини ишлаб чиқариш жараёнида кенг фойдаланиладиган ғилдиракли тракторларнинг катта қисмини тузилиши жаҳатдан бир-бирларига яқин бўлган ТТЗ-80, МТЗ – 80 ва МТЗ – 82 тракторлари ташкил қилади. Улардан далани шудгорлаш, экишга тайёрлаш, экиш ишларини бажариш, суғориш тизимларини яратиш, уларни таъмирлаш, экинларга агротехник ишлов бериш, етиштирилган ҳосилни йиғиш, транспорт ишларини бажариш ва бошқа қишлоқ хўжалилик ишларини бажариш билан боғлиқ бўлган фаолиятларни амалга оширишда фойдаланилди.

Тракторлар томонидан бажариладиган иш турлари дала ҳудудининг ҳолатига ва иш бажариладиган майдондаги ҳавонинг чанглилик даражасига боғлиқ бўлган ҳолда, улар шартли равишда тўрт гуруҳга бўлинган ҳолда

ISSN 3030-3907

трансмиссия агрегатларининг асосий деталларида содир бўладаган носозликлар асосида тадқиқ қилинган. Ишлатиш шароитида назоратда бўлган тракторларнинг 24 таси чопиқ ишларига, 51 таси ҳайдов ишларига, 63 таси транспорт ишларини бажаришга ва 34 таси лалмикор далаларга ишлов беришга жалб этилган. Бунда трактор агрегати мойининг абразив заррачалар билан ифлосланинишнинг ГОСНИТИ томонидан рухсат этилган рухсат этилган миқдори 0,25% [3, 4] бўлганда, трансмиссия агрегатлари мойида тўпланганг абразив заррачаларнинг амалдаги миқдори: чопиқ ишларини бажаришда 0,59% ни; ҳайдов ишларини бажаришда 0,57% ни; транспорт ишларини бажаришда 0,48% ни; лалимикор даллаларга ишлов беришда 0,72 % ни ташкил қилди [1, 2]. Тадқиқот натижаларига кўра абразив заррачаларнинг мойдаги миқдори: чопиқ ишларини бажаришда 2,28 мартага; ҳайдов ишларини бажаришда 1,28 мартага; транспорт ишларини бажаришда 1,92 мартага; лалмикор далага ишлов беришда эса 2,88 мартага юқори эканлиги аниқланди. Умуман, ҳисоб натижаларига кўра барча иш шароити учун аниқланган трактор агрегатининг мойида тўпланган абразив заррачаларнинг ўртача арифметик миқдори рухсат этилган миқдоридан 2,28 марта юқори эканлигини кўрсатди.

Қуйида келтирилган 1 - жадвалда МТЗ-82, тракторларинг трансмиссия агрегатлари деталларида илатиш шароитида содир бўлган нуқсонлари ва уларни таъмирлаш усуллари келтирилган.

1-жадвал

МТЗ-82 тракторлари трансмиссия агрегатларининг шлицали бирикма қисимларида илатиш шароитида содир бўладиган нуқсонлари ва уларни таъмирлаш усуллари

№	Агрегатга тегишли бўлган детал	Деталларда содир бўлган характерли нуқсонлар	Детални таъмирлаш усуллари
1	Узатмалар қуттисининг бирламчи вали	Шлица ишқаланиш сиртларининг ейилиши, пластик деформация-ланиши, тишларнинг синиши. Валнинг узунлиги бўйича деформацияланиши.	Номинал ўлчам бўйича таъмир-лаш, тўғрилаш, шестерняни алмаштириш.
2	Илшашиш муфтасининг диски	Диск тешиги шлицасининг ишқаланиш сиртларини ейилиши, пластик деформацияланиши, синиши.	Номинал ўлчам бўйича таъмир-лаш, гардишни алмаштириш

ISSN 3030-3907

3	Узатмалар қутисининг валлари	Шлица ишқаланиш сиртлариининг ейилиши, пластик деформацияла- ниш.	Номинал ўлчам бўйича таъмир-лаш, тўғрилаш.
4	Узатмалар қуттисининг шестернялари	Шестерня тешикдаги шлицалари ишқаланиш сиртларининг ейилиши, синиши, пластик деформациялани-ши, шестерня тишларини ейилиши, синиши.	Шлицани но-минал ўлчамга таъмирлаш, шестерняни алмаштириш.
5	Бош узатма шестерняси	Шестерня тешикдаги шлицаларнинг ишқаланиш сиртларини ейилиши, синиши, пластик деформациялани-ши, шестерня тишларининг ейили-ши, синиши.	Номинал ўлчам бўйича таъмир-лаш, шестер-няни алмашти-риш
6	Орқа кўприк ярим ўқлари	Деталдаги шлицаларнинг ишқа-ланиш сиртларини ейилиши, сини-ши, пластик деформацияланиши, шестерня тишларининг ейилиши, синиши. Деформацияланиши.	Шлицаларни номинал ўлчам бўйича таъмир-лаш, ярим ўқни алмаштириш
7	Охирги узатманинг валлари	Вал шлицаси ишқаланиш сиртла-рини ейилиши, пластик деформация-ланиши, тишларининг синиши. Вал-нинг узунлиги бўйича деформация-ланиши.	Номинал ўлчам бўйича таъмир-лаш, тўғрилаш. Вални алмаш-тириш.
8	Охирги узатманинг шестернялари	Шестерня тешикдаги шлицаларнинг ишқаланиш сиртларини ейилиши, синиши, пластик деформациялани-ши, шестерня тишларини ейилиши, синиши.	Номинал ўлчам бўйича таъмир-лаш, тўғрилаш, шестерняни алмаштириш.
9	Ёнаки қувват олувчи вал шестерняси	ҚОВ шестерняси шлицаларининг ишқаланиш сиртларини ейилиши, синиши, пластик деформация-ланиши. Шестерня тишларининг ейилиши, синиши.	Шестернядаги шлицаларнинг ишқаланиш сиртини номи-нал ўлчам бўйи-ча таъмирлаш, тўғрилаш, шес-терняни алмаштириш.

МТЗ-82 тракторининг констукцияси таҳлил қилинганда транмиссия агрегатларидаги шлицалали бирикмалалрнинг сони 60 тага яқин бўлиб,

ISSN 3030-3907

уларнинг асосий қисмини тўғри ёнли шлицали бирикмалар ташкил қилади. Эволвентали шлицали бирикмадан тракторнинг қувват олувчи валида ва охирги узатмасида фойдаланилади. Трансмиссия агрегаридаги шлицали бирикмаларнинг барчаси агрегат корпусидаги мой ванналарида тўлиқ мойлаш шароитида ишлайди. 1 - жадвалда келтирилган деталлар таҳил қилинганда барча шлицали бирикмаларнинг ишқаланиш сиртларида абразив ейлиш излари ва 55-58% шлицали бирикма, пластик деформация эса 26 – 28 % деталларининг ишқаланишда сиртларида содир бўлиши кузатилди. Ейилиш тури бўйича тадқиқ қилинган шестерня тишларининг нуқсонлари абразив ейилишдан ва толиқишдан бузилишдан иборат. Тишларида синиш ва дарз кетиш ҳоллари бўлган шлицали деталлар ва тишли ғилдираклар 6-8 % атрофида бўлиб, бундай нуқсонга эга бўлган деталлар янгисига ёки таъмирланганига алмаштирилади. Шлица тишлари ва шестерня тишларида қалинлиги бўйича ейилиш содир бўлган ҳолларда, улар босим остида ишлов бериш ёки суюқлантириб қоплаш усулларидан бири билан таъмирланади. Узунлиги бўйича қолдиқ деформацияга эга бўлган вал ва ярим ўқлар 14-16% ни ташкил қилди, ушбу нуқсонлар қизидириб деформациялаш усули билан бартараф этилади.

Шундай қилиб ўтказилган тадқиқотлар асосида қуйидаги хулосалар қилиш мумкин.

1. Атроф муҳитнинг чанглилик даражасига боғлиқ бўлган ҳолда, мойдаги абразив заррачалар таъсирида трансмиссия агрегатларининг деталларида содир бўладаган носозликлар тадқиқ қилинган.

2. Трансмиссия агрегатларининг шлицали бирикмаларнинг ишқаланиш сиртларида абразив ейлиш 55-58% шлицали бирикмаларда, пластик деформация эса 26 – 28 % деталларининг ишқаланишда сиртларида содир бўлиши аниқланган.

3. Шлица тишлари ва шестерня тишларида қалинлиги бўйича ейилиш содир бўлган ҳолларда, уларни босим остида ишлов бериш ёки суюқлантириб қоплаш усулларидан бири билан таъмирлаш усуллари таклиф этилган.

ААДАБИЁТЛАР

1. Иргашев А, Эгамбердиева Н. А. Оценка активности абразивных частиц в масле агрегатов машин, с зубчатыми передачами. Universum: технические науки: научный журнал. – № 2(119). Часть 2., М., Изд. «МЦНО», 2024. С.5-7.

2. Иргашев А., Эгамбердиева Н.А.. Тракторлардан фойдаланиш шароитини трансмиссия агрегатларининг ресурсига таъсири. AGRO Ilm – O‘zbekiston qishloq va suv xo‘jaligi vazirligi, mahsus son №7. 2025. 138 - 139 b.

ISSN 3030-3907

3. Скундин Г.И. Зубчатые передачи и шлицевые соединения. // М.: ЦИНТИ. Серия Машиностроение. 1960. -188 с.
4. Скундин Г.И. Пути повышения долговечности и снижения веса трансмиссии тракторов. Сб. науч. тр. научно-исследовательского автотракторного института. - М.: 1962. 78 с.

ISSN 3030-3907

WI-FI TARMOQLARINING XAVFSIZLIGINI TA’MINLASH USULLARI VA ULARNING SAMARADORLIGINI TAHLIL QILISH

F. O‘.Toshboltayev
Farg‘ona davlat universiteti, Axborot texnologiyalari kafedrasi, katta o‘qituvchi, p.f.b.f.d.
E-mail: toshboltayevfaxriddin88@gmail.com
Abdusamadova Ma’sumaxon Abdulhamid qizi
Farg‘ona davlat universiteti talabasi
E-mail:abdusamatovamasumaxon1014@gmail.com
Husanova Shahloxon Zokirjon qizi
Farg‘ona davlat universiteti talabasi
E-mail:shahloxon821@gmail.com

Annotatsiya: ushbu maqolada simsiz (Wi-Fi) tarmoqlarning xavfsizligini ta’minlash muammolari, xavfsizlik protokollarining turlari hamda ularning ishlash mexanizmlari tahlil qilinadi. Maqolada WEP, WPA, WPA2 va WPA3 protokollarining afzallik va kamchiliklari solishtirib, ularning samaradorligi amaliy jihatdan yoritilgan. Tadqiqot natijalari asosida Wi-Fi tarmoqlarining himoya darajasini oshirish bo‘yicha takliflar ishlab chiqilgan.

Kalit so‘zlar: Wi-Fi, xavfsizlik, WEP, WPA, WPA2, WPA3, tarmoq himoyasi, autentifikatsiya, kriptografiya**.**

Аннотация: в данной статье рассматриваются проблемы обеспечения безопасности беспроводных (Wi-Fi) сетей, анализируются типы протоколов безопасности и механизмы их работы. В статье сравниваются преимущества и недостатки протоколов WEP, WPA, WPA2 и WPA3, а также приводится практический анализ их эффективности. На основе проведённых исследований разработаны предложения по повышению уровня защиты Wi-Fi сетей.

Ключевые слова: Wi-Fi, безопасность, WEP, WPA, WPA2, WPA3, защита сети, аутентификация, криптография

Abstract : this article examines the issues of ensuring the security of wireless (Wi-Fi) networks, analyzing the types of security protocols and their operating mechanisms. The advantages and disadvantages of WEP, WPA, WPA2, and WPA3 protocols are compared, and their effectiveness is analyzed in practice. Based on the research results, recommendations have been developed to enhance the protection level of Wi-Fi networks.

Keywords: Wi-Fi, security, WEP, WPA, WPA2, WPA3, network protection, authentication, cryptography

Kirish

ISSN 3030-3907

Axborot texnologiyalarining jadal rivojlanishi bilan bir qatorda simsiz aloqa tizimlarining ham keng qo‘llanilishi kuzatilmoqda. Wi-Fi texnologiyasi foydalanuvchilarga qulaylik yaratgan bo‘lsa-da, u orqali uzatilayotgan ma’lumotlarning xavfsizligi masalasi dolzarb bo‘lib qolmoqda. Bugungi kunda axborot tarmoqlariga nisbatan tahdidlar — parol o‘g‘irlash, ruxsatsiz kirish, “man-in-the-middle” (MITM) hujumlari, “sniffing” va “spoofing” kabi usullar orqali amalga oshirilmoqda. Shu sababli, Wi-Fi tarmoqlarini himoyalash mexanizmlarini chuqur o‘rganish va ularning samaradorligini tahlil qilish zamonaviy axborot xavfsizligi siyosatining muhim yo‘nalishidir

Adabiyotlar tahlili

IEEE 802.11 standarti Wi-Fi tarmoqlari uchun rasmiy texnik hujjat hisoblanadi. U simsiz tarmoqlarda ma’lumotlarni uzatish, autentifikatsiya va xavfsizlik protokollarini (WEP, WPA, WPA2, WPA3) batafsil yoritadi. Ushbu manba tarmoqlarni loyihalash va xavfsizlikni tashkil etishda asosiy qo‘llanma vazifasini bajaradi. Standartning kuchli tomonlari – rasmiy va ishonchli bo‘lishi, texnik detalni aniq taqdim etishi. Biroq, murakkabligi va texnik tili sababli yangi o‘quvchilar uchun tushunishi qiyin bo‘lishi mumkin.

Stallingsning kitobi tarmoq xavfsizligi nazariyasi va amaliyotini o‘zida jamlagan. Kitobda WEP, WPA/WPA2, WPA3 kabi xavfsizlik protokollarining ishlash prinsiplari, autentifikatsiya va kriptografiya asoslari batafsil tushuntiriladi. Bu manba nazariy bilimlarni amaliy misollar bilan boyitadi, protokollarni solishtirish imkonini beradi. Kamchilik sifatida, kitob Wi-Fi standartlarining texnik tafsilotlariga chuqur kirib bormaydi.

Wi-Fi Alliance hujjati WPA3 protokolining yangi imkoniyatlari va xavfsizlikni oshirish usullarini ko‘rsatadi. Bu manba amaliy qo‘llanma sifatida muhim bo‘lib, protokolni joriy etishdagi tavsiyalarni beradi. Cheklovlari shundaki, hujjat faqat WPA3 ga yo‘naltirilgan bo‘lib, eski standartlar bilan solishtirishni to‘liq o‘z ichiga olmaydi.

Tanenbaumning kitobi tarmoqlar nazariyasi va arxitekturasini keng yoritadi. OSI modelidan boshlab protokollar, xavfsizlik mexanizmlari va tarmoq loyihalashtirish prinsiplari tushuntiriladi. Nazariy jihatdan eng mukammal manbalardan biri bo‘lib, Wi-Fi xavfsizligini tushunishda tizimli yondashuvni ta’minlaydi. Biroq, zamonaviy Wi-Fi xavfsizligi bo‘yicha amaliy tavsiyalarni kamroq beradi.

Keltirilgan adabiyotlar bir-birini to‘ldiradi: IEEE 802.11 va Wi-Fi Alliance rasmiy va amaliy standartlar bilan, Stallings nazariy va amaliy tahlil bilan, Tanenbaum esa tarmoqlar nazariyasi va tizimli yondashuv bilan boyitadi. Shu manbalar asosida Wi-Fi xavfsizligi protokollari (WEP, WPA/WPA2, WPA3) samaradorligi, afzallik va kamchiliklari aniqlanadi. Ular tarmoq xavfsizligini

ISSN 3030-3907

ta’minlash va Wi-Fi tarmoqlarini loyihalash uchun zarur bo‘lgan ilmiy asosni beradi.

Tadqiqot metodologiyasi

Ushbu tadqiqotning metodologiyasi Wi-Fi tarmoqlarining xavfsizlik darajasini baholash, qo‘llaniladigan himoya protokollarining samaradorligini aniqlash hamda ularning amaliy qo‘llanish holatini tahlil qilishga qaratilgan. Tadqiqot jarayoni nazariy-analitik, solishtirma tahlil, eksperimental sinov va statistik baholash kabi ilmiy metodlar asosida amalga oshirildi.

Birinchidan, ilmiy adabiyotlar, xalqaro standartlar (IEEE 802.11), Wi-Fi Alliance tomonidan ishlab chiqilgan xavfsizlik me’yorlari hamda WEP, WPA, WPA2 va WPA3 protokollarining texnik hujjatlari o‘rganildi. Ushbu bosqichda nazariy tahlil va dokumental tahlil metodlari qo‘llanildi.

Ikkinchidan, Wi-Fi xavfsizlik protokollarining imkoniyatlari, zaifliklari va kriptografik mexanizmlari solishtirma tahlil metodi orqali taqqoslandi. Tarmoqni himoyalashda ishlatiladigan shifrlash algoritmlari (RC4, AES-CCMP, SAE) funksional jihatdan o‘rganilib, ularning himoya darajasi bo‘yicha ilmiy xulosalar ishlab chiqildi.

Uchinchidan, amaliy tajribalar o‘tkazilib, turli xavfsizlik protokollaridan foydalanadigan Wi-Fi tarmoqlariga hujumlar (packet sniffing, deauthentication attack, brute-force attack) simulyatsiya qilindi. Bu jarayonda eksperimental metod va penetratsion testlash elementlaridan foydalanildi. Olingan natijalar asosida har bir himoya turining real sharoitdagi samaradorligi baholandi.

To‘rtinchidan, tajriba natijalari qayta ishlanib, samaradorlik ko‘rsatkichlari — hujumga qarshi chidamlilik, shifrlash kuchi, autentifikatsiya mexanizmining barqarorligi va foydalanish qulayligi — statistik tahlil metodi orqali umumlashtirildi. Natijalar asosida Wi-Fi tarmoqlarida qaysi protokolning afzal ekanligi yuzasidan ilmiy xulosa chiqarildi.

Natijalar va ularning tahlili

Tadqiqot jarayonida Wi-Fi tarmoqlarining xavfsizligini ta’minlovchi WEP, WPA, WPA2 va WPA3 protokollarining texnik imkoniyatlari, ularning himoya darajasi, zaifliklari va amaliy sharoitdagi samaradorligi har tomonlama o‘rganildi. O‘tkazilgan eksperimental sinovlar va solishtirma tahlillar ushbu protokollar orasidagi farqlarni aniq ko‘rsatdi. WEP protokoli eng eski va zaif himoya vositasi ekani ma’lum bo‘ldi. RC4 shifrlash algoritmi, kalit uzunligining qisqaligi va ivning takrorlanishi tufayli paketlarni yig‘ish va tahlil qilish orqali tarmoqni bir necha daqiqada buzish mumkinligi tajribada tasdiqlandi. Shu sababli WEP zamonaviy Wi-Fi tarmoqlari uchun yaroqsiz hisoblanadi. WPA protokoli WEPga qaraganda yaxshiroq himoya taqdim etsa-da, TKIP algoritmidagi zaifliklar, paketlarni manipulyatsiya qilish imkoniyati va PSK kalitlarini topishga doir hujumlar uning

ISSN 3030-3907

samaradorligini cheklab qo‘yadi. Amaliy sinovlar WPA himoyasining hozirgi kunda yetarli emasligini ko‘rsatdi. WPA2 protokoli AES-CCMP shifrlashiga asoslangan bo‘lib, tajriba natijalarida yuqori darajadagi barqarorlik namoyish etdi. Biroq PSK kaliti murakkab bo‘lmagan holatlarda tarmoqka kirish xavfi ortishi qayd etildi. Shu bilan birga, WPA2-Enterprise rejimi korporativ tarmoqlar uchun yanada kuchli himoya ta’minlashi aniqlandi. Eng yuqori samaradorlik WPA3 protokolida kuzatildi. SAE autentifikatsiya mexanizmi offline brute-force hujumlarga imkon qoldirmadi, forward secrecy funksiyasi esa ma’lumotlarni qo‘shimcha himoya qildi. Tajribalar WPA3 protokolining amaliy jihatdan eng ishonchli himoya vositasi ekanini ko‘rsatdi.

Penetratsion testlar natijalarida Wi-Fi tarmoqlarining umumiy xavfsizligiga ta’sir qiluvchi omillar ham aniqlab olindi. Murakkab va uzun parollardan foydalanish, routerda faqat zamonaviy shifrlash protokollarini yoqish, tarmoqni segmentlarga ajratish, firmware yangilab borish va xavfsizlik siyosatini to‘g‘ri tashkil etish tarmoqni sezilarli darajada mustahkamlaydi. Shuningdek, MAC filtering yoki SSID yashirish kabi oddiy usullar real xavfsizlik darajasini kuchaytirmasligi amaliy sinovlarda tasdiqlandi.

Umuman olganda, tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, Wi-Fi tarmoqlarida xavfsizlikni ta’minlashda asosiy rolni ishlatilayotgan shifrlash protokoli va autentifikatsiya mexanizmi bajaradi. WEP va WPA protokollari zamonaviy tahdidlar qarshisida zaif bo‘lsa, WPA2 nisbatan barqaror, WPA3 esa hozirda eng samarali va ishonchli himoya tizimi hisoblanadi. Tahlil qilingan ma’lumotlar Wi-Fi tarmoqlarining xavfsizligini oshirishda texnik chora-tadbirlarni to‘g‘ri tanlash hamda muntazam qo‘llash zarurligini ko‘rsatdi.

Xulosa

Wi-Fi tarmoqlarining xavfsizligini ta’minlash zamonaviy axborot infratuzilmasining ajralmas qismidir. Tahlillar shuni ko‘rsatadiki, eski protokollar (WEP, WPA) bugungi tahdidlar uchun yetarli emas. Shuning uchun foydalanuvchilar va tashkilotlar Wi-Fi tarmoqlarida WPA3 standartini qo‘llashlari, VPN texnologiyalaridan foydalanishlari va autentifikatsiya siyosatini kuchaytirishlari lozim. Bu nafaqat foydalanuvchi ma’lumotlarini himoya qiladi, balki milliy axborot xavfsizligi tizimini mustahkamlashga ham xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Coleman, D., Westcott, D. CWNA: Certified Wireless Network Administrator Study Guide. Sybex, 2020.
2. Wi-Fi Alliance. WPA3 Security Enhancements Overview, 2020.
3. Tanenbaum A. S. Computer Networks. 6th Edition, Pearson, 2021.
4. Cisco Systems. Wireless LAN Design Guide: 802.11ac and 802.11ax Best Practices, 2022.

ISSN 3030-3907

5. Stallings, W. Network Security Essentials: Applications and Standards. Pearson, 2022.

ISSN 3030-3907

YASSI VA VAKUUMLI QUYOSH KOLLEKTORLARINING TEXNIK VA IQTISODIY XUSUSIYATLARINI SOLISHTIRISH.

Egamov Dilmurod Abduraimovich
Andijon davlat texnika instituti "Muqobil energiya manbalari" kafedrasi assistenti
Olimov Qobiljon Farxodbek o'g'li
Andijon davlat texnika instituti talabasi
Andijon, O'zbekiston.
Tel:+998936101320

Abstract: This article provides a comparative analysis of the technical and economic characteristics of flat-plate and evacuated tube solar collectors. The study examines their operating principles, efficiency, costs, operating conditions, and suitability for the climatic conditions of Uzbekistan. The research integrates both theoretical and practical aspects and offers recommendations on energy efficiency and investment effectiveness.

Keywords: Solar collectors, flat plate collector, vacuum collector, energy efficiency, climate of Uzbekistan, investment cost.

Аннотация: В данной статье проводится сравнительный анализ технических и экономических характеристик плоских и вакуумных солнечных коллекторов. В работе рассматриваются принципы их функционирования, эффективность, затраты, условия эксплуатации, а также их соответствие климатическим условиям Узбекистана. Исследование объединяет теоретические и практические аспекты и содержит рекомендации по вопросам энергосбережения и инвестиционной эффективности.

Ключевые слова: Солнечные коллекторы, плоский коллектор, вакуумный коллектор, энергоэффективность, климат Узбекистана, инвестиционные затраты.

Annotatsiya: Ushbu maqolada yassi va vakuumli quyosh kollektorlarining texnik va iqtisodiy xususiyatlari solishtiriladi. Maqola kollektorlarning ishlash prinsiplari, samaradorligi, xarajatlari, ekspluatatsiya shartlari hamda O'zbekiston iqlimiga mosligi nuqtai nazaridan tahlilni o'z ichiga oladi. Tadqiqot amaliy va nazariy jihatlarni uyg'unlashtirib, energiya tejamliligi va investitsion samaradorlikka oid tavsiyalar beradi.

Kalit so'zlar: Quyosh kollektorlari, yassi kollektor, vakuumli kollektor, energiya samaradorligi, O'zbekiston iqlimi, investitsiya bahosi

Kirish.

Quyosh kollektorlaridan foydalanish barqaror energiya manbalariga o'tishda muhim rol o'ynaydi. Issiq suv ta'minoti, issiqlik tizimlari va sanoat jarayonlarida quyosh energiyasini qayta ishlatish bilan energiya xarajatlarini pasaytirish

ISSN 3030-3907

mumkin. Maqolaning maqsadi — yassi va vakuumli kollektorlarning afzalliklari va kamchiliklarini nazariy va amaliy jihatdan taqqoslash, hamda O‘zbekiston sharoitida qaysi turning samaraliroq ekanligini aniqlash.


Quyosh kollektorlarining umumiy ishlash prinsipi. Quyosh kollektorlarining umumiy ishlash prinsipi quyosh nurlanishini qabul qilish, uni issiqlik energiyasiga aylantirish va hosil bo‘lgan issiqlikni issiqlik tashuvchi muhit orqali iste’molchiga uzatishga asoslanadi. Ushbu jarayon bir necha ketma-ket fizik bosqichlar orqali amalga oshiriladi. Birinchi bosqichda quyosh nurlari kollektorning shaffof qoplamasi (odatda temperlangan shisha yoki maxsus polimer) orqali o‘tib, absorber sirtga tushadi. Absorber odatda yuqori issiqlik o‘tkazuvchanlikka ega bo‘lgan metall (mis, alyuminiy, po‘lat)dan tayyorlanadi va uning sirtiga quyosh nurlarini maksimal yutish uchun qora yoki selektiv qoplama surtiladi. Selektiv qoplamalar quyosh nurini yaxshi yutib, issiqlikni tashqi muhitga kam qaytarish xususiyatiga ega bo‘ladi. Ikkinchi bosqichda absorberda to‘plangan issiqlik ichki quvurlar tizimi orqali harakatlanuvchi issiqlik tashuvchi muhitga (odatda suv, antifriz yoki suv-glikol aralashmasi) uzatiladi. Ushbu jarayon issiqlik o‘tkazuvchanlik va konveksiya qonunlari asosida sodir bo‘ladi. Issiqlik tashuvchi muhitning qizishi natijasida uning zichligi kamayadi va tizimda tabiiy yoki majburiy aylanish hosil bo‘ladi. Uchinchi bosqichda qizigan issiqlik tashuvchi muhit akkumulyatsiya bakiga yo‘naltiriladi. Bu bakda issiqlik jamlanadi va zarur vaqtda iste’molchilarga uzatiladi. Akkumulyator baklari issiqlik yo‘qotilishini kamaytirish uchun qalin issiqlik izolyatsiya qatlami bilan qoplanadi [1-2].

Quyosh kollektor tizimlari aylanish turiga qarab ochiq va yopiq konturli bo‘ladi. Ochiq tizimlarda suv bevosita kollektor ichidan oqib o‘tadi va isitiladi. Yopiq tizimlarda esa issiqlik tashuvchi suyuqlik bilan suv alohida kontur orqali issiqlik almashinuvchida isiydi. Yopiq tizimlar sovuq iqlim sharoitida muzlash xavfi bo‘lmagani sababli keng qo‘llanadi. Shuningdek, quyosh kollektor tizimlari tabiiy aylanishli (termosifon) va majburiy aylanishli (nasos yordamida) bo‘lishi mumkin. Tabiiy aylanishli tizimlarda suvning harakati zichliklar farqi hisobiga amalga oshadi, majburiy tizimlarda esa elektr nasoslar yordamida doimiy aylanish ta’minlanadi. Majburiy aylanishli tizimlar yirik quvvatli va ko‘p iste’molchili ob’yektlarda samaraliroq hisoblanadi. Umuman olganda, quyosh kollektorlarining ishlash prinsipi ekologik toza, qayta tiklanadigan energiya manbai hisoblangan quyosh energiyasidan to‘g‘ridan-to‘g‘ri issiqlik olishga asoslangan bo‘lib, an’anaviy yoqilg‘ilarga bo‘lgan ehtiyojni sezilarli darajada kamaytirishga xizmat qiladi.

Yassi kollektorlar tavsifi — tekis panelli qurilmalar bo‘lib, shisha qoplama ostida metall yoki boshqa materialdan yasalgan absorber qatlami mavjud. Ular oddiy konstruktsiyaga ega, masshtabda ishlab chiqarish va o‘rnatish qulay.

ISSN 3030-3907

Vakuumli kollektorlar tavsifi — har bir kollektor elementi vakuumlangan shisha shlangcha (tube) shaklida bo‘ladi. Vakuum issiqlik yo‘qotilishini minimallashtiradi va sovuq sharoitlarda ham samaradorlikni yuqori darajada saqlashga yordam beradi [3-4].



1-rasm. Zamonaviy kollektorlar

1-jadval

Kollektorlar texnik parametrlari.

Mezoni	Yassi kollektor	Vakuumli kollektor
Ishlash prinsipi	Tekis absorber + shisha qoplama	Vakuumli boroskopik trubka
FIK	O`rta (40-70%)	Yuqori (50-85%)
Sovuq mavsumda isitish qobiliyati	Pastroq	Yuqori (vakkum izolyatsiyasi sababli)
Narxi	Pastroq boshlang`ich xarajat	Yuqori boshlang`ich xarajat
O`rnatish va texnik xizmat	Oddiy va arzon xizmat ko`rsatish	Murakkabroq maxsus malaka talab qiladi
Mexanik mustahkamlik	Yaxshi (shisha qoplama sinishi mumkin)	Har bir quvur uchun alohida himoyalangan , xizmat muddati uzoqroq
Ishlash muddati	15-25 yil (kollektor materialiga bog`liq	20-30yil (yaxshi xizmat ko`rsatilsa

ISSN 3030-3907

Joylashtirish moslashuvi	Eng egri srtlar uchun ham moslasha oladi	Odatda tekkis maydon talab qiladi
Texnik murakkabligi	Past	Yuqori

O‘zbekiston iqlimi sharoitida qaysi biri maqulligi — tahlil.

O‘zbekiston hududida iqlim asosan kontinental bo‘lib, yozda juda issiq va qishda sovuq bo‘lishi mumkin. Quyidagi jihatlar muhim: Qishda harorat past bo‘lishi, ayniqsa tog‘li hududlarda, Quyoshli kunlar soni ko‘p — yillik nurlanish darajasi yuqori, Shamol va chang ta’sirining variantligi [5-7].

Tahliliy xulosalar: Voha va pasttekislik hududlari (masalan, Qashqadaryo, Xorazm): bu hududlarda yassi kollektorlar arzon va samarali bo‘lishi mumkin, chunki qishning ekstremal sovuqligi kamroq va quyoshli kunlar ko‘proq: Tog‘li va sovuq hududlar (masalan, Toshkent viloyatining ba’zi hududlari, Farg‘ona vodiysi qisman): vakuumli kollektorlar samaraliroq, chunki ular past haroratlarda ham yuqori samaradorlikni saqlaydi; Barcha hududlar uchun umumiy tavsiya: agar byudjet cheklangan va asosiy maqsad yozgi oylar uchun issiq suv bo‘lsa — yassi kollektor; agar maqsad yil davomida (jumladan qishda) yuqori samaradorlik va energiya mustaqilligiga erishish bo‘lsa — vakuumli kollektor investitsiyasi oqlanadi.

Energiya tejamliligi va investitsiya nuqtai nazaridan baholash.

Energiya tejamliligi. Yassi kollektorlar: yaxshi optimallashtirilgan tizimlarda yillik issiqlik energiyasi tejami sezilarli bo‘lib, odatda boshlang‘ich investitsiyani 4–8 yil ichida qaytarish mumkin (energiya narxi va tizim hajmiga bog‘liq). Vakuumli kollektorlar: yuqori samaradorlik tufayli yillik energiya tejami ko‘proq; qaytish muddati yuqori boshlang‘ich xarajat sabab 5–10+ yil bo‘lishi mumkin, lekin qishda va kam nurlanishli davrlarda ustunlik beradi [8-11].

2-jadval

Investitsion tahlil.

	Yassi tizim uchun	Vakuumli tizim uchun
Boshlang`ich harajat	1000 USD	1700 USD
Yillik tejamkorlik	300USD	420USD
Investitsiya qoplanish muddati	1000/300=tahiniy 3.5yil	1700/420=tahminiy 4yil

XULOSA: Ushbu tadqiqotda yassi va vakuumli quyosh kollektorlarining texnik, iqtisodiy hamda ekspluatatsion xususiyatlari har tomonlama tahlil qilindi. O‘rganishlar shuni ko‘rsatdiki, yassi kollektorlar konstruktiv jihatdan sodda, boshlang‘ich xarajatlari nisbatan arzon va issiq iqlimli hududlarda yuqori

ISSN 3030-3907

samaradorlik ko‘rsatadi, biroq sovuq va shamolli sharoitlarda issiqlik yo‘qotishlari ortib, samaradorligi pasayadi. Vakuumli kollektorlar esa yuqori termal izolyatsiyaga ega bo‘lib, past harorat va kam quyoshli kunlarda ham barqaror ishlashi bilan ajralib turadi, ammo ularning boshlang‘ich qiymati va texnik xizmat ko‘rsatish xarajatlari yuqoriroq hisoblanadi. O‘zbekistonning kontinental iqlimi, yuqori quyosh nurlanish salohiyati va hududlar bo‘yicha haroratlar farqini inobatga olgan holda, pasttekis va issiq hududlar uchun yassi kollektorlar iqtisodiy jihatdan maqsadga muvofiq, sovuq va tog‘li hududlar uchun esa vakuumli kollektorlar energetik samaradorlik nuqtai nazaridan ustun ekanligi aniqlandi. Investitsion tahlillar shuni ko‘rsatadiki, har ikkala turdagi kollektorlar ham o‘rta muddatda o‘zini oqlaydi va uzoq istiqbolda energiya xarajatlarini sezilarli darajada kamaytirishga xizmat qiladi. Umuman olganda, quyosh kollektorlaridan kompleks va hududga mos holda foydalanish O‘zbekiston sharoitida energiya tejamkorligini oshirish, an’anaviy yoqilg‘ilarga bo‘lgan qaramlikni kamaytirish hamda ekologik barqarorlikni ta’minlashda muhim ahamiyat kasb etadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI.

1. Duffie, J.A., Beckman, W.A. Solar Engineering of Thermal Processes. 4-nashr, John Wiley & Sons, New York, 2013.
2. Kalogirou, S.A. Solar Energy Engineering: Processes and Systems. Academic Press, London, 2014.
3. Twidell, J., Weir, T. Renewable Energy Resources. 3-nashr, Routledge, London, 2015.
4. Kreider, J.F., Kreith, F. Solar Heating and Cooling: Active and Passive Design. Hemisphere Publishing, Washington, 2000.
6. Soteris A. Kalogirou Solar Thermal Collectors and Applications. Progress in Energy and Combustion Science Journal, 2004.
7. Атабаев Х.А., Саидов С.Ш. Қайта тикланувчи энергия манбалари. Тошкент: “Фан ва технология”, 2018.
8. D.D. Alijanov, D.A. Egamov, O.B. Parpiyev “Nazariy elektrotexnika” o‘quv qo‘llanma. Andijon; 2022.
9. Zuhritdinov Alisher Faraxidin o‘g‘li, Yo‘lchiyev Mash'albek Erkinovich, Xakimov Temurbek Bahodirjon o‘g‘li (2023). QATTIQ JISMLARNING CHIZIQLI KENASH KOEFFİSİENTINING HARORATGA BOG‘LILIGINI O‘rganish. AMALIY FAN VA TEXNOLOGIYA XALQARO BULLETENI SJIF = 5.955 , https://doi.org/10.5281/zenodo.7969053 .
10. Xakimov Temurbek Boxodirjon o`g`li, Rahmonov Asliddin Abdulhamid o‘g‘li.(2024). QUYOSH xujayrasi uchun INVERTORLAR VA

ISSN 3030-3907

NAZORATCHILARNI TANLASH. LUChShIE INTELLEKTUALNYE ISLEDOVANIYA.149-152.

11. Muhiddin Atajonov, Qudratbek Mamarasulov, Odilbek Dexqonboyev, Temur Xakimov. (2024). Fotovoltaik modul asosida quyosh panellari modelini tadqiq qilish. https://doi.org/10.1063/5.0241785 . Amaliy fan va texnikaning zamonaviy muammolariga bag‘ishlangan xalqaro ilmiy konferentsiya AIP Conf. Proc.

12. Xakimov Temur , Abdumutalipov - Orzumurod o‘g‘li Shahobiddin .(2024). Ishlab chiqarish komparalarida energiya samaraliligini oshirish uchun energiyalarni boshqaruv tizimini tamoqlash. Luchshie intellektualnye isledovaniya. ISSN : 3030-3680 . 81-86.

TITAN DIOKSIDINING XUSUSIYATLARI, QO‘LLANILISHI, VA TIKRIK ORGANIZMLARGA TA’SIRI.

Oltiboyeva Mavsuma G‘ulom qizi

Samarqand davlat tibbiyot universiteti

Annotatsiya. Titan dioksidi (TiO_2) — keng ko‘lamda ishlatiladigan noorganik oksid bo‘lib, sanoat, tibbiyot, oziq-ovqat texnologiyasi va kosmetika sohalarida muhim ahamiyatga ega. Ushbu birikma yuqori kimyoviy barqarorligi, oqartiruvchi xususiyati va yorug‘likni qaytarish koeffitsientining kattaligi bilan ajralib turadi. So‘nggi yillarda titan dioksidining nanozarrachalari ko‘p miqdorda qo‘llanilishi sababli uning tirik organizmlar uchun xavfsizligi masalasi ilmiy jamoatchilik e’tiborida turibdi. Maqolada titan dioksidining fizik-kimyoviy xususiyatlari, amaliy qo‘llanilishi va u bilan bog‘liq biologik ta’sirlar ilmiy nuqtai nazardan yoritiladi.

Kalit so‘zlar: E-171, stabilizator, fotokatalizator, makrozarrachalar, nanozarrachalar.

Аннотация. Диоксид титана (TiO_2) — широко используемый неорганический оксид, имеющий большое значение в промышленности, медицине, пищевой промышленности и косметике. Это соединение характеризуется высокой химической стабильностью, отбеливающими свойствами и большим коэффициентом отражения света. В последние годы, в связи с широким использованием наночастиц диоксида титана, вопрос их безопасности для живых организмов стал предметом пристального внимания научного сообщества. В статье рассматриваются физико-химические свойства, практическое применение и биологическое воздействие диоксида титана с научной точки зрения.

Ключевые слова: E-171, стабилизатор, фотокатализатор, макрочастицы, наночастицы.

Abstract. Titanium dioxide (TiO_2) is a widely used inorganic oxide, which is of great importance in industry, medicine, food technology and cosmetics. This compound is characterized by high chemical stability, whitening properties and a large light reflection coefficient. In recent years, due to the large use of titanium dioxide nanoparticles, the issue of their safety for living organisms has become a matter of concern to the scientific community. The article discusses the physicochemical properties, practical applications and biological effects of titanium dioxide from a scientific point of view.

Keywords: E-171, stabilizer, photocatalyst, macroparticles, nanoparticles.

Kirish

Titan dioksidi, titan dioksidi (TiO2) ning ilmiy nomi, juda optik va pigment xususiyatlariga ega juda barqaror oksid bo‘lib, asosan oq noorganik pigment

ISSN 3030-3907

sifatida ishlatiladi. Uning toksik bo‘lmagan, eng yaxshi shaffofligi, eng yaxshi oqligi va yorqinligi hisobga olinadi. Hozirgi kunda u qoplama, plastmassa, qog‘oz, bosma siyohlar, kimyoviy tola, kauchuk, kosmetika va boshqa sohalarda keng qo‘llaniladigan dunyodagi eng yaxshi bajariladigan oq pigmentdir. Titan dioksidi uchta kristall shakliga ega, ular rutil, anataz va titandan iborat.Ular orasida plastinka titan turini pigment sifatida ishlatish mumkin emas va pigment sifatida sanoat sifatida foydalanish asosan anataz va rutil tipidagi titan dioksidi hisoblanadi.

Titan dioksidi yuqori tozaligi, zarrachalarning bir xilligi, yaxshi optik ishlash, kuchli sinish kuchi, yuqori dekolorizatsiya kuchi, kuchli yashirish kuchi, kam yog‘li singdirish va yuqori suv dispersiyasining afzalliklariga ega. U asosan qoplamalar, siyohlar, kimyoviy tola, kauchuk va shishadan foydalaniladi., kosmetika, sovun, plastmassa va qog‘oz kabi sohalarda ko‘p foydalaniladi. Titan dioksidining afzalliklariga qo‘shimcha ravishda, rutil titan dioksidi yaxshiroq ob-havoga ega va yashirish qobiliyatiga ega va asosan rivojlangan sanoat pigmentlarida, sirlangan lateks qoplamalarida, plastmassalarda ishlatiladi va yuqori avtomatik kuchga ega.

Yuqori darajadagi yengillik, yuqori sifatli qog‘oz qoplamalari va mumli qog‘ozlar uchun kauchuk materiallar. Pigment xususiyatlari nuqtai nazaridan, rutil titan dioksidi titan dioksiddan ustundir va rutil titan dioksidi asosan sirt bilan qoplangan.2010 yilda Xitoyning Redstone titan dioksidi umumiy titan dioksidining 57 foizini tashkil qiladi, bu dunyodagi 90% darajadan ancha past. Kelgusida Xitoyda rutil titaniumdioksidi nisbati yaxshilanishi uchun hali ko‘p imkoniyatlar mavjud.

Xozirgi kunda titan dioksidi sanoatida uchta katta o‘zgarishlar ro‘y bermoqda:

Dunyo titan dioksidi ishlab chiqarishining o‘sishi nisbatan sekin, Osiyo-Tinch okeani mintaqasi, ayniqsa Xitoyning titaniumdioksidi ishlab chiqarish jadal o‘sib bormoqda va dunyo titan dioksidi sanoati Osiyo-Tinch okeani mintaqasiga, ayniqsa Xitoyga o‘tmoqda;

Pastki oqimlarda titaniumdioksidning ishlashiga yuqori talablar paydo bo‘lganda, titaniumdioksidi qoplamali tozalash muhim vositaga aylandi, turli xil maxsus titan dioksidlari paydo bo‘ldi va titan dioksidi sanoatini umumiy ta'minotdan maxsusgacha rivojlantirish mahsulotlar ko‘tarilish joyida;

Titan dioksidi ikki turga bo‘linadi: anataz va rutil. Garchi titan dioksidi yuqori narx ko‘rsatkichlari tufayli hali ham bozor ulushini egallab turgan bo‘lsa-da, rutil titan dioksidi juda yaxshi ishlashi tufayli sanoatning kelajakdagi rivojlanishi hisoblanadi. Katta tendentsiya

Potentsial. Xitoyning titaniumdioksidi mahsuloti tarkibida rutil titan dioksidning ulushi ortib bormoqda, bu 57% ni tashkil etadi, ammo baribir

ISSN 3030-3907

dunyodagi 90% dan ancha past. Xitoyning titaniumdioksidi mahsulot tarkibi rutil titan dioksidga faol ravishda aylanmoqda

Xulosa qilib aytganda, Xitoyning titaniumdioksidi sanoati, ayniqsa maxsus rutil titan dioksidi istiqbollari hali ham optimistikdir.

Titan va titanium qotishmasini qo‘llash

Titan 1950 yillarda ishlab chiqilgan muhim tarkibiy metaldir.Titan qotishmasi past zichlikka ega, yuqori o‘ziga xos kuchga ega, yaxshi korroziyaga chidamliligi, past issiqlik o‘tkazuvchanligi, toksik bo‘lmagan, magnitlanmaydigan, payvandlanadigan, biokomponentli va sirtga ega. Keng xususiyatlar bilan bezatilishi mumkin. U aviatsiya, aerokosmik, kimyoviy, neft, elektr energiyasi, tibbiyot, qurilish, sport mollari va boshqa sohalarda keng qo‘llaniladi. Dunyoning ko‘plab mamlakatlari titanium qotishma materiallarining ahamiyatini tan olishdi va izchil izlanishlar olib borishdi. 2011 yilda global tijoriy aviatsiya iste'moli ulushi 46% ga etdi, harbiy titan materiallari ulushi 9% ni tashkil etdi (asosan harbiy aviatsiya) va aviatsiyaning barcha sohalarida iste'mol qilingan titanning ulushi 50% dan oshdi; Sanoat tomonidan iste'mol qilinadigan titanning ulushi 43 foizni, rivojlanayotgan bozorlarda esa 2 foizni tashkil etadi.

Rivojlangan aerokosmik va harbiy mudofaa sanoatiga ega Shimoliy Amerika va Evropa Ittifoqida, ayniqsa AQShda titan mahsulotlariga bo‘lgan talabning qariyb 50 foizi aerokosmik va harbiy mudofaaga to‘g‘ri keladi. Yaponiyada kimyo sanoati va boshqa sanoat sanoat titanlari talabga nisbatan ustundir. Yaponiya titan assotsiatsiyasining ma'lumotlariga ko‘ra, aerokosmik Yaponiya titaniga bo‘lgan talabning atigi 2% dan 3% gacha. Yaponiyadagi kabi, Xitoyda titan mahsulotlariga talabning katta qismi. Kimyo va energetika sohalarida aerokosmik atigi 10% ni tashkil qiladi. Xitoy dunyodagi eng katta titan ishlab chiqaruvchisi va iste'molchilaridan biriga aylangan bo‘lsa ham, uning ishlab chiqarishining ko‘p qismi velosiped tokchalari va golf to‘plari uchun past navli titanium bilan cheklangan.

Kimyoviy sohada ishlatiladigan novda yoki korroziyaga qarshi quvur. Ammo so‘nggi yillarda Osiyo mintaqasida aerokosmosda ishlatiladigan titan miqdori sezilarli darajada oshdi. Titan bozorining istiqboli nisbatan yorqin ekanligini ko‘rish mumkin.

1. Titan dioksidi qoplamalarda ishlatiladi. Qoplama sanoatida titanium dioksidi porlashi mumkin. Arxitektura qoplamalari, avtomobil qoplamalari yoki mebel qoplamalari bo‘ladimi, uning mavjudligidan ajralmas. Titan dioksidi nafaqat kuchli yashirish quvvatini ta'minlabgina qolmay, qoplama sirtini yanada silliq va nozik qiladi, balki kimyoviy barqarorlik, korroziyaga chidamlilik, yorug‘lik qarshiligi va ob-havoga chidamlilik kabi qoplamaning fizik va kimyoviy xususiyatlarini oshiradi. Bundan tashqari, u ultrabinafsha nurlar va namlikning

ISSN 3030-3907

kirib borishini oldini oladi, shu bilan qoplamaning qarishini kechiktiradi va xizmat muddatini uzaytiradi. Arxitektura qoplamalari sohasida titan dioksidining iste'moli ayniqsa katta bo‘lib, bu binolarga kuchli va chiroyli qoplama beradi.

2. Titan dioksidi qog‘oz ishlab chiqarishda ishlatiladi. Qog‘oz ishlab chiqarish sanoati ham titanium dioksidining muhim qo‘llanilishi sohalaridan biridir. To‘ldiruvchi sifatida titanium dioksid qog‘ozning oqligi va porloqligini sezilarli darajada yaxshilaydi va uni vizual ravishda yanada chiroyli qiladi. Shu bilan birga, u qog‘ozning mexanik mustahkamligi va chidamliligini oshirishi va bosma materiallar sifatini yaxshilashi mumkin. U yaxshi yashirish kuchi va ob-havoga chidamli bo‘lib, bo‘yoq, plastmassa va kauchuk kabi materiallarni bo‘yash va himoya qilish uchun ishlatilishi mumkin.

3. Pardoz uchun titan dioksidi. Kosmetika sohasida titan dioksidi ham ajralmas rol o‘ynaydi. Tonal krem, lab bo‘yog‘i va ko‘z soyasi kabi kosmetika mahsulotlarida titanium dioksid mahsulotning yashirish kuchi va rangi yorqinligini oshirish uchun yumshatuvchi va oqartiruvchi vosita sifatida ishlaydi. Bundan ham muhimi, u ultrabinafsha nurlarini yutish, zararli ultrabinafsha nurlariga qarshilik ko‘rsatish va terini shikastlanishdan himoya qilish uchun asosiy quyoshdan himoya qiluvchi tarkibiy qism sifatida ishlatilishi mumkin.

4. Tozalash uchun titan dioksidi. Titan dioksidi ham tozalash va kanalizatsiya tozalashda katta salohiyatga ega. Fotokatalizator sifatida u yorug‘lik ta'sirida ozon, oltingugurt dioksidi va azot oksidi kabi turli xil ifloslantiruvchi moddalarning oksidlanishini yoki kamayishini tezlashtirishi mumkin, bu esa atmosferani tozalaydi. Kanalizatsiyani tozalashda titan dioksidi oqava suvlarni tozalash samaradorligini oshirishga va suv resurslarimizni himoya qilishga yordam beradi.

5. Titan dioksidi elektron qurilmalarda qo‘llaniladi. Titan dioksidi ham yaxshi fotoelektrik xususiyatlarga ega va optoelektronik asboblarni tayyorlashda keng qo‘llaniladi. Masalan, yorug‘lik energiyasini elektr energiyasiga aylantirish yoki kimyoviy reaktsiyalarni katalizlash uchun quyosh batareyalari, fotokatalitik elektrodlar va boshqalarni ishlab chiqarish uchun ishlatilishi mumkin. Energetika sohasida titanium dioksidi katta qo‘llash potentsialiga ega va qayta tiklanadigan energiyani rivojlantirish va undan foydalanish uchun yangi echimlarni taqdim etishi kutilmoqda.

6. Tibbiyotda titan dioksidi foydalanuvchilari. Titan dioksidi tibbiyot sohasida ham keng qo‘llaniladi. U yaxshi biologik muvofiqlik va antibakterial xususiyatlarga ega va tibbiy materiallar va dori tashuvchilarni tayyorlash uchun ishlatilishi mumkin. Shu bilan birga, titan dioksidi tibbiy asboblarni dezinfektsiyalash va fotokatalitik sterilizatsiya orqali havoni tozalash uchun ham ishlatilishi mumkin. Titan dioksidining qo‘llanilishi bundan ancha ko‘p. Uning

ISSN 3030-3907

yuqori kimyoviy barqarorligi, yarimo‘tkazgich xususiyatlari va fotokatalitik faolligi uni ko‘plab sohalarda juda foydali qiladi.

Titan (IV) oksidi ($TiO2$ titana dioksidi) farmatsevtikada ko‘p qo‘llaniladi, asosan quyidagi maqsadlarda: quyoshdan himoya qiluvchi vositalarda tabiiy filtr sifatida, dori-darmon va kosmetika vositalariga oq rang beruvchi pigment (o‘rinbosar) sifatida, dori kapsulalari va tabletkalarida plomba moddasi, dori moddalarining so‘rilishini yaxshilovchi va stabilizator sifatida ishlatiladi, chunki u xavfsiz, inert (reaksiyaga kirmaydigan) va UV nurlarini yutish xususiyatiga ega.

Titan dioksidi (TiO_2) —oziq-ovqat qo‘shimchalaridan tortib kosmetika va sanoat mahsulotlarigacha ko‘plab sohalarda ishlatiladi. Uning tirik organizmlarga ta’siri zarrachalarning o‘lchami, miqdori, kirish yo‘li (nafas, ovqat, teri) va ekspozitsiya davomiyligiga bog‘liq.

Quyida uning asosiy ta’sirlari:

Odamlar organizmi uchun ta'siri har bir organ va to‘qimalar misolida to‘liqo‘rganilmagan. Asosan nafas olish a’zolari orqali organizmga Zarar yetkazadi degan fikrlar mavjud. Eng katta xavf nanozarrachalar (≤100 nm) bilan bog‘liq.Nafas orqali kirganda o‘pkaga chuqur kirishi, yengil yallig‘lanish yoki oksidlovchi stress chaqirishi mumkin. Sanoatda chang ko‘p bo‘lgan joylarda (bo‘yoq, qurilish, pigment ishlab chiqarish) uzoq muddatli ta’sir xavfli bo‘lishi mumkin.

Titan dioksidi (TiO_2) ma’lum miqdorda Oziq-ovqat orqali ham organizmga kiradi. Chunki Titan dioksidi E171 (oq rang beruvchi) ozuqa bo‘yog‘i sifatida ishlatiladi. Bunda titan dioksidining Nano o‘lchamli fraksiyalari ichak epiteliysiga ta’sir qilishi, immun reaksiyalarni kuchaytirishi haqida tadqiqotlar mavjud. Yevropa Ittifoqida 2022 yildan boshlab E171 oziq-ovqatda foydalanish taqiqlangan, chunki uning xavfsizligi to‘liq isbotlanmagan. Oziq-ovqat maxsulotlaridan tashqari teri orqali ham kirishi mumin. Turli kosmetik krem va quyoshdan himoyalovchi kremlar tarkibida uchraydi. Lekin titan dioksidining asosiy qismi teri yuzasida qoladi, odatda teri to‘sig‘idan o‘ta olmaydi, shuning uchun xavflilik darajasi pastroq deb hisoblanadi.

Hayvonlar uchun ta'siri tekshirilganda, laboratoriya sinovlarida yuqori dozalarda ichak mikrobiotasida o‘zgarishlar, yengil yallig‘lanish, organlarga to‘planish holatlari kuzatilgan. Baliqlar va suv organizmlarida nanozarrachalar suvda cho‘kib, gillalar, metabolizm va harakat faolligiga ta’sir qilishi mumkin.

O‘simliklarda ta’siri ikki xil bo‘lishi mumkin: Ijobiy: past konsentratsiyada fotosintezni oshirishi, o‘sishni rag‘batlantirishi mumkin (nanoqurilmalar sifatida).

Salbiy: yuqori miqdorda hujayra membranalariga zarar yetkazishi yoki oksidlovchi stress chaqirishi mumkin.

ISSN 3030-3907

Xulosa qilib aytganda, titan dioksidi muhim noorganik birikma sifatida sanoat, atrof-muhitni muhofaza qilish, energetika va tibbiyotda keng qo‘llaniladi. Uning o‘ziga xos xususiyatlari va ko‘p qirraliligi titan dioksidini ko‘plab sohalarda ajralmas materiallardan biriga aylantiradi. U o‘zining noyob xususiyatlari bilan inson hayotiga ko‘plab qulaylik va go‘zallik olib keldi. Kelajakda ilm-fan va texnologiyaning rivojlanishi va sanoatning rivojlanishi bilan titanium dioksidini qo‘llash sohalari kengayib boradi va insoniyat uchun ko‘proq qiymat yaratadi.

Titan dioksidi **makrozarrachalar** shaklida nisbatan xavfsiz. **Nanozarrachalar** shaklida esa potentsial xavflar yuqoriroq: yallig‘lanish, oksidlovchi stress, hujayra darajasida o‘zgarishlar dozasiga, o‘lchamiga va ekspozitsiya davomiyligiga juda bog‘liq. Ko‘pgina regulatorlar (EFSA, ANSES) ehtiyot chorasi sifatida uni ba’zi sohalarda cheklashni ma’qul ko‘rgan.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. European Food Safety Authority (EFSA). (2021). *Safety assessment of titanium dioxide (E171) as a food additive.* EFSA Journal, 19(5): 6585.
2. World Health Organization (WHO). (2020). *Titanium dioxide: Environmental health criteria.* Geneva: WHO Publications.
3. International Agency for Research on Cancer (IARC). (2010). *Titanium dioxide, IARC Monographs on the Evaluation of Carcinogenic Risks to Humans.* Vol. 93.
4. Weir, A., Westerhoff, P., Fabricius, L., Hristovski, K., & von Goetz, N. (2012). *Titanium dioxide nanoparticles in food and personal care products.* Environmental Science & Technology, 46(4), 2242–2250.
5. Osmond, M. J., & McCall, M. J. (2010). *Zinc oxide and titanium dioxide nanoparticles in sunscreen: Human safety review.* Nanotoxicology, 4(1), 15–41.
6. O‘tkirovich X. A. et al. OSHQOZONNING MORFOFUNKSIONAL HOLATINI O ‘RGANISHDA BIOKIMYOVIY USULLARNING QO ‘LLANILISHI //Лучшие интеллектуальные исследования. – 2025. – Т. 56. – №. 3. – С. 215-221.
7. Hasan o‘g‘li X. X. et al. MEDICINAL PROPERTIES OF THE LICORICE PLANT AND METHODS OF ITS REPRODUCTION //AMERICAN JOURNAL OF APPLIED MEDICAL SCIENCE. – 2025. – Т. 3. – №. 2. – С. 130-134.
8. G‘ulom qizi Samarkand O. M. et al. MORPHOFUNCTIONAL CHANGES IN THE STOMACH UNDER THE INFLUENCE OF FOOD DYES (E-171, E-173) AND THEIR CORRECTION //International journal of advanced research in education, technology and management. – 2024. – Т. 3. – №. 5. – С. 194-199.
9. Alikovna J. F. et al. SALVIA O‘SIMLIGINING XUSUSIYATLARI //JOURNAL OF INNOVATIONS IN SCIENTIFIC AND EDUCATIONAL RESEARCH. – 2023. – Т. 6. – №. 2. – С. 217-218.

ISSN 3030-3907

10. Алтыбоева М. Г., Бозорова Н. С. СОВРЕМЕННЫЕ ВЗГЛЯДЫ НА КИШЕЧНУЮ МИКРОФЛОРУ У ДЕТЕЙ //Научный Фокус. – 2023. – Т. 1. – №. 5. – С. 109-112.

ISSN 3030-3907

MANAGEMENT OF UROLITHIASIS IN PREGNANT WOMEN: MODERN CLINICAL APPROACHES

Narkulova Soxiba Uktamovna
Assistant, Department of Obstetrics and Gynecology №3, Samarkand State Medical University, Samarkand, Uzbekistan
Kurbanov Shavkat Sharafbayevich
Clinical Resident, Department of Urology, Samarkand State Medical University, Samarkand, Uzbekistan

Abstract. Urolithiasis during pregnancy represents a challenging clinical condition due to its multifactorial pathogenesis, diagnostic limitations, and potential maternal–fetal complications. This study aimed to evaluate the clinical course, diagnostic strategies, and effectiveness of modern management approaches for urolithiasis in pregnant women. A prospective observational study involving 112 pregnant patients was conducted between 2021 and 2024. Conservative, metabolic, and minimally invasive treatment methods were assessed. The results demonstrated that pregnancy-related hormonal and anatomical changes significantly contribute to urinary stasis and stone formation. Conservative therapy was effective in the majority of mild and moderate cases, while ureteral stenting proved to be the most reliable intervention in severe obstruction. Implementation of a structured clinical algorithm improved maternal outcomes and reduced obstetric complications.

Keywords: pregnancy, urolithiasis, obstructive nephropathy, ureteral stenting, ultrasound, MRI.

Annotatsiya. Homiladorlik davrida siydik-tosh kasalligi ko‘p omilli patogenezga ega bo‘lib, ona va homila uchun jiddiy xavf tug‘dirishi mumkin. Ushbu tadqiqot homilador ayollarda urolitiazning klinik kechishi, diagnostik imkoniyatlari va zamonaviy davolash usullarining samaradorligini baholashga qaratilgan. 2021–2024-yillarda 112 nafar homilador ayol ishtirokida prospektiv kuzatuv o‘tkazildi. Konservativ, metabolik va minimal invaziv davolash usullari tahlil qilindi. Natijalar homiladorlikka xos gormonal va anatomik o‘zgarishlar siydik turg‘unligi va tosh hosil bo‘lishini kuchaytirishini ko‘rsatdi. Og‘ir obstruksiya holatlarida ureteral stentlash eng samarali va xavfsiz muolaja sifatida aniqlandi. Taklif etilgan klinik algoritm asoratlar xavfini kamaytirdi.

Kalit so‘zlar: homiladorlik, urolitiaz, obstruktiv nefropatiya, ureteral stent, UZD, MRT.

Аннотация. Мочекаменная болезнь у беременных является сложной клинической проблемой, обусловленной гормональными, анатомическими и метаболическими изменениями. В статье представлены результаты проспективного наблюдения за 112 беременными женщинами с уролитиазом. Оценена эффективность консервативной, метаболической и минимально

ISSN 3030-3907

инвазивной терапии. Установлено, что при выраженной обструкции уретеральное стентирование является наиболее эффективным методом лечения. Разработан клинический алгоритм ведения пациенток, способствующий снижению материнских и перинатальных осложнений.

Ключевые слова: беременность, уролитиаз, обструкция, уретеральный стент, УЗИ, МРТ.

Introduction

Pregnancy is a dynamic physiological process characterized by extensive hormonal, hemodynamic, anatomical, and metabolic adaptations aimed at maintaining maternal–fetal homeostasis. While these changes are essential for normal gestation, they simultaneously predispose pregnant women to several pathological conditions, particularly disorders of the urinary system. Among these, urolithiasis represents a clinically significant problem due to its potential to cause severe maternal morbidity and adverse obstetric outcomes.

Although the overall incidence of urolithiasis during pregnancy remains relatively low, reported between 0.03% and 1%, it is considered one of the leading non-obstetric causes of acute abdominal pain and hospital admission during gestation. Importantly, renal colic during pregnancy is not a benign condition; it has been associated with increased uterine activity, premature cervical changes, and an elevated risk of preterm labor and premature rupture of membranes.

From a pathophysiological perspective, pregnancy induces several mechanisms that collectively promote stone formation. Progesterone plays a central role by relaxing smooth muscle fibers of the ureters, leading to reduced peristalsis and physiological hydronephrosis. This phenomenon is observed in up to 80–90% of pregnant women and is more pronounced on the right side due to uterine dextrorotation and compression of the right ureter by the ovarian vein complex.

Simultaneously, estrogen-mediated increases in renal plasma flow and glomerular filtration rate result in enhanced urinary excretion of calcium, sodium, oxalates, and uric acid. These metabolic changes create a lithogenic urinary environment. Pregnancy-associated hypocitraturia further reduces the natural inhibition of calcium crystallization, thereby facilitating stone growth and aggregation. Mechanical compression of the ureters by the enlarging uterus during the second and third trimesters exacerbates urinary stasis and contributes to stone migration and obstruction.

Clinically, urolithiasis in pregnancy presents a diagnostic dilemma. Symptoms such as flank pain, nausea, vomiting, and hematuria may overlap with obstetric conditions including placental abruption, preterm labor, or appendicitis. Furthermore, the use of ionizing radiation is limited due to fetal safety concerns,

ISSN 3030-3907

necessitating reliance on ultrasound and magnetic resonance imaging, which may have reduced sensitivity for small or distal ureteral stones.

Given these complexities, the management of urolithiasis during pregnancy requires a multidisciplinary approach involving obstetricians, urologists, radiologists, and neonatologists. The primary goal is to relieve maternal symptoms, preserve renal function, and prevent obstetric complications while minimizing fetal risk. The present study seeks to provide an in-depth evaluation of clinical presentation, diagnostic strategies, treatment outcomes, and pregnancy-related consequences of urolithiasis in a cohort of 112 pregnant women.

MATERIALS AND METHODS

Study Design and Ethical Considerations

This prospective observational study was conducted between January 2021 and December 2024 at the clinical bases of Samarkand State Medical University. The study protocol conformed to the principles of the Declaration of Helsinki and was approved by the local ethics committee. Written informed consent was obtained from all participants prior to inclusion.

Study Population

A total of 112 pregnant women aged 19 to 39 years (mean age 27.8 ± 3.6 years) with confirmed urolithiasis were enrolled. Patients were included across all trimesters: 28% in the first trimester, 41% in the second trimester, and 31% in the third trimester. Primigravidae constituted 68% of the study population, reflecting the increased susceptibility of first-time pregnancies to urinary tract adaptations.

Inclusion and Exclusion Criteria

Inclusion criteria comprised confirmed intrauterine pregnancy, clinical symptoms suggestive of urolithiasis, and radiological confirmation via ultrasound or MRI. Exclusion criteria included pre-existing chronic kidney disease (stage ≥ III), congenital urinary tract anomalies, autoimmune renal disorders, malignancy, and severe obstetric complications unrelated to urolithiasis.

Diagnostic Protocol

All patients underwent standardized clinical evaluation, including assessment of pain intensity using the visual analog scale (VAS), measurement of body temperature, and evaluation of urinary symptoms. Laboratory investigations included complete blood count, urinalysis, serum creatinine, C-reactive protein (CRP), procalcitonin (PCT), and metabolic urinary parameters (oxalate, urate, phosphate).

Ultrasound examination served as the first-line imaging modality and was performed in all patients to determine stone size, localization, and degree of hydronephrosis. Doppler uroflowmetry was used to assess functional obstruction by measuring resistive indices and urinary flow patterns. Non-contrast MRI was

ISSN 3030-3907

selectively employed in diagnostically ambiguous cases or when differentiation between physiological and pathological hydronephrosis was required.

Therapeutic Strategy

Management decisions were individualized based on gestational age, stone characteristics, severity of obstruction, and presence of infection. Conservative therapy included adequate hydration, antispasmodics, and pregnancy-safe analgesics. Metabolic therapy with citrate preparations was prescribed to correct hypocitraturia and reduce stone growth. Minimally invasive interventions, such as ureteral stenting or percutaneous nephrostomy, were reserved for cases of persistent pain, progressive obstruction, infection, or impaired renal function.

Statistical Analysis

Statistical analysis was performed using SPSS version 26.0. Continuous variables were expressed as mean ± standard deviation, while categorical variables were presented as frequencies and percentages. Comparative analyses were conducted using chi-square and Student's t-tests, with statistical significance set at $p < 0.05$.

RESULTS

Clinical presentation varied significantly depending on gestational age, stone size, and localization. Flank pain was reported by 86% of patients and represented the most common presenting symptom. Pain intensity was significantly higher in patients with distal ureteral stones compared to those with renal pelvic calculi ($p < 0.01$).

Dysuria was observed in 58% of patients and was more frequently associated with distal ureteral stones. Hematuria was detected in 42% of cases, while fever and elevated inflammatory markers were present in 24%, indicating concomitant urinary tract infection. Notably, infection-associated urolithiasis was more common during the second and third trimesters.

Stone localization analysis revealed that distal ureteral stones accounted for 54% of cases, proximal ureteral stones for 22%, renal pelvic stones for 16%, and calyceal stones for 8%. Oxalate stones were the predominant chemical composition (63%), followed by uric acid stones (24%) and phosphate stones (11%). Mixed stones were rare (2%).

Conservative therapy resulted in spontaneous stone passage in 72% of patients, particularly when stone size was less than 6 mm and obstruction was mild. Metabolic therapy with citrate preparations significantly improved outcomes in patients with recurrent or metabolically active stones. Ureteral stenting was required in 24 patients with severe obstruction and resulted in rapid symptom relief in 95% of cases.

ISSN 3030-3907

Pregnancy outcomes analysis demonstrated term delivery in 77% of patients. Preterm birth occurred in 14% of cases and was significantly associated with severe obstruction, infection, and delayed intervention ($p < 0.05$). Neonatal complications were observed in 8% of cases, primarily related to prematurity.

PATHOGENETIC MECHANISMS OF UROLITHIASIS DURING PREGNANCY

The pathogenesis of urolithiasis during pregnancy is complex and multifactorial, involving hormonal, metabolic, anatomical, and immunological mechanisms that interact dynamically throughout gestation. Unlike urolithiasis in non-pregnant individuals, stone formation during pregnancy is strongly influenced by gestation-specific physiological adaptations.

Progesterone plays a pivotal role by inducing relaxation of smooth muscle fibers in the ureters and renal pelvis, leading to reduced peristaltic activity and prolonged urinary transit time. This phenomenon contributes to urinary stasis, which is a critical prerequisite for crystal nucleation and aggregation. Physiological hydronephrosis, observed in the majority of pregnancies, further complicates urinary drainage and masks early pathological obstruction.

Estrogen-related increases in renal plasma flow and glomerular filtration rate lead to enhanced urinary excretion of lithogenic substances, including calcium, oxalates, sodium, and uric acid. Hypercalciuria during pregnancy is well documented and results from increased intestinal calcium absorption mediated by vitamin D. Simultaneously, pregnancy-associated hypocitraturia diminishes the inhibitory effect of citrate on calcium stone formation, thereby accelerating crystallization processes.

Mechanical factors also play a significant role. Progressive enlargement of the uterus during the second and third trimesters results in extrinsic compression of the ureters, particularly on the right side due to uterine dextrorotation and anatomical relationships with the iliac vessels. This mechanical compression not only promotes urinary stasis but also facilitates stone migration from the renal pelvis into the ureter, where obstruction becomes clinically significant.

Emerging evidence suggests that inflammatory and immunological mechanisms may further contribute to stone formation during pregnancy. Subclinical urinary tract inflammation, alterations in urinary pH, and changes in the urinary microbiome may create a microenvironment favorable for crystal adherence to the urothelium. These factors highlight the importance of considering urolithiasis in pregnancy as a systemic condition rather than a purely mechanical problem.

TRIMESTER-SPECIFIC CLINICAL FEATURES

ISSN 3030-3907

The clinical presentation of urolithiasis during pregnancy varies significantly across trimesters, reflecting the progressive nature of physiological and anatomical changes.

During the first trimester, symptoms are often mild or nonspecific. Flank discomfort may be intermittent, and laboratory abnormalities are usually minimal. Diagnostic challenges are particularly pronounced at this stage, as symptoms may mimic early pregnancy-related gastrointestinal complaints.

In the second trimester, increased uterine size and enhanced hormonal effects lead to more pronounced urinary stasis. Renal colic becomes more frequent and intense, and ultrasound often reveals moderate hydronephrosis. This period is associated with the highest rate of first-time urolithiasis diagnosis.

The third trimester is characterized by maximal mechanical compression of the ureters and the highest risk of severe obstruction. Clinical manifestations during this period tend to be more dramatic, including persistent flank pain, fever, and laboratory signs of inflammation. Importantly, urolithiasis in the third trimester carries the greatest risk of triggering preterm labor due to reflex uterine contractions induced by pain and infection.

Understanding trimester-specific differences is essential for tailoring diagnostic and therapeutic strategies and for predicting obstetric outcomes.

DIFFERENTIAL DIAGNOSIS IN PREGNANT WOMEN WITH FLANK PAIN

Differential diagnosis of flank pain during pregnancy is particularly challenging due to the wide range of obstetric and non-obstetric conditions that may present with overlapping symptoms. Acute appendicitis, placental abruption, preterm labor, ovarian torsion, and acute pyelonephritis must all be considered.

Physiological hydronephrosis of pregnancy represents a major diagnostic pitfall, as it may be misinterpreted as pathological obstruction. Doppler uroflowmetry plays a crucial role in distinguishing these conditions by assessing functional impairment rather than anatomical dilation alone.

In contrast to urolithiasis, placental abruption is typically associated with uterine tenderness, vaginal bleeding, and fetal distress, while appendicitis presents with right lower quadrant pain and systemic inflammatory response. Careful clinical evaluation combined with targeted imaging is essential to avoid misdiagnosis and inappropriate intervention.

LONG-TERM MATERNAL AND PERINATAL IMPLICATIONS

Beyond acute management, urolithiasis during pregnancy has potential long-term implications for both maternal and neonatal health. Women who develop stones during pregnancy are at increased risk of recurrence in subsequent

ISSN 3030-3907

pregnancies and in the postpartum period, particularly if underlying metabolic abnormalities persist.

From a perinatal perspective, recurrent renal colic, infection, and obstructive nephropathy may lead to placental insufficiency, fetal growth restriction, and preterm birth. Although most neonates in this study had favorable outcomes, the observed association between severe obstruction and prematurity underscores the need for long-term follow-up.

Postpartum metabolic evaluation and counseling regarding dietary modification, hydration, and recurrence prevention are therefore essential components of comprehensive care.

CLINICAL IMPLICATIONS AND FUTURE DIRECTIONS

The findings of this study support the integration of standardized clinical algorithms into routine obstetric and urological practice. Early identification of high-risk patients, particularly those with large stones or signs of infection, allows for timely intervention and improved outcomes.

Future research should focus on refining non-invasive diagnostic tools, exploring the role of urinary biomarkers in early detection, and evaluating the long-term safety of emerging minimally invasive techniques during pregnancy. Multicenter studies with larger cohorts are needed to establish evidence-based guidelines tailored specifically to pregnant populations.

Urolithiasis during pregnancy is a multifaceted condition influenced by hormonal, metabolic, mechanical, and inflammatory factors. Its clinical course varies across trimesters and requires a high index of suspicion for timely diagnosis. Conservative management remains effective in most cases; however, minimally invasive interventions, particularly ureteral stenting, are indispensable in severe obstruction. A multidisciplinary, algorithm-based approach is essential to optimize maternal and perinatal outcomes.

DISCUSSION

The findings of this study confirm that urolithiasis during pregnancy is a multifactorial condition resulting from the interplay of hormonal, metabolic, and mechanical factors. The predominance of distal ureteral stones observed in our cohort is consistent with international data and may be attributed to reduced ureteral peristalsis and increased intraluminal pressure during pregnancy.

Conservative management remains the cornerstone of treatment and is effective in the majority of cases. However, delayed intervention in patients with progressive obstruction or infection significantly increases the risk of maternal and fetal complications. Our results support ureteral stenting as the preferred minimally invasive intervention due to its high efficacy and favorable safety profile.

ISSN 3030-3907

The use of Doppler uroflowmetry and MRI enhanced diagnostic accuracy and facilitated timely decision-making. Importantly, a structured clinical algorithm allowed for individualized management and improved obstetric outcomes.

CONCLUSION

Urolithiasis during pregnancy represents a complex clinical challenge requiring early diagnosis, careful monitoring, and individualized management. Conservative therapy is effective in most cases, while ureteral stenting provides safe and reliable relief in severe obstruction. A multidisciplinary approach and adherence to evidence-based clinical algorithms are essential to optimize maternal and fetal outcomes.

REFERENCES

1. Türk C., et al. *European Urology*. 2022.
2. Semins M.J., Matlaga B.R. *Int Braz J Urol*. 2020.
3. Stothers L., Lee L.M. *Obstet Gynecol Surv*. 2021.
4. Andreoiu M., MacMahon R. *Curr Opin Urol*. 2020.
5. Delakas D., et al. *Urology Annals*. 2021.
6. Swartz M.A., Lydston D. *Clin Obstet Gynecol*. 2020.
7. Scales C.D., et al. *J Urol*. 2022.
8. Golan R., et al. *Magn Reson Imaging*. 2021.
9. Patel S., Shah P. *Urol Res*. 2022.
10. ACOG Practice Bulletin No.234. 2022.
11. Lim R., et al. *J Minim Invasive Urol*. 2023.
12. Hendricks F., et al. *J Obstetric Imaging*. 2021.

ISSN 3030-3907

KARBID USULIDA ATSETILEN ISHLAB CHIQARISH TEXNOLOGIYASINING MUAMMOLARI

Rayimov Zuhriddin Xayriddin o‘gli
Buxoro davlat texnika universiteti dotsenti, Buxoro, O‘zbekiston.
E-mail: zuhriddinrayimov0@gmail.com
Boboqulova Maqsudaxon To‘xtapo‘lat qizi
Buxoro davlat texnika universiteti talabasi, Buxoro, O‘zbekiston.
E-mail: maksudakhan909@gmail.com

Annotation. This article analyzes the main challenges of acetylene production by the carbide method, including the strongly exothermic reaction, reactor overheating, excessive formation of hydroxide precipitates, instability of carbide quality, and limitations affecting the purity of the produced acetylene. Issues such as high energy consumption and environmental load are also highlighted. Additionally, the study examines the potential for effective utilization of the calcium hydroxide precipitate formed as a reaction by-product, including its application as building lime, a cement additive, a neutralizing reagent, or a soil-ameliorating material. The article proposes solutions aimed at optimizing the technology and creating added value through the recycling of waste products.

Keywords: Acetylene, calcium carbide, carbide method, burnt limestone (CaO), calcium carbonate ($CaCO_3$), acetylene concentration, exothermic reaction, phosphine (PH_3), hydroxide precipitates, energy efficiency, waste recycling, building lime, ameliorating material, neutralizing reagent, process optimization.

Аннотация. В данной статье анализируются основные проблемы технологии получения ацетилена карбидным методом, такие как сильно экзотермическая реакция, перегрев реакторов, обильное образование гидроксидных осадков, нестабильность качества карбида и ограничения, связанные с чистотой получаемого ацетилена. Также рассматриваются недостатки, связанные с высоким энергопотреблением и экологической нагрузкой. Кроме того, освещаются возможности эффективного использования гидроксида кальция, образующегося как побочный продукт реакции, — в качестве строительной извести, добавки к цементу, нейтрализующего реагента или мелиоранта. В статье предлагаются решения, направленные на оптимизацию технологии и получение дополнительной ценности за счёт переработки отходов.

Ключевые слова: ацетилен, карбид кальция, карбидный метод, обожжённый известняк (CaO), карбонат кальция ($CaCO_3$), концентрация ацетилена, экзотермическая реакция, фосфин (PH_3), гидроксидные осадки, энергетическая эффективность, переработка отходов, строительная известь, мелиорант, нейтрализующий реагент, оптимизация технологии.

ISSN 3030-3907

Annotatsiya. Ushbu maqolada karbid usulida atsetilen ishlab chiqarish texnologiyasining asosiy muammolari — kuchli ekzotermik reaksiya, reaktorlarning qizishi, gidroksid cho‘kmalarining ko‘pligi, karbid sifatining barqaror emasligi va atsetilenning tozaligi bilan bog‘liq cheklovlar tahlil qilinadi. Jarayonning yuqori energiya sarfi, ekologik yuk kabi kamchiliklar ham ko‘rsatib o‘tiladi. Shu bilan birga, reaksiya mahsuloti sifatida hosil bo‘ladigan kalsiy gidroksid cho‘kmasidan samarali foydalanish - qurilish ohagi, sement qo‘shimchasi, neytrallovchi reagent yoki meliorativ material sifatida qo‘llash imkoniyatlari yoritiladi. Maqolada texnologiyani optimallashtirish va chiqindilardan qo‘shimcha qiymat yaratishga qaratilgan yechimlar ham taklif etiladi.

Kalit so‘zlar: Atsetilen, kalsiy karbid, karbid usuli, pishirilgan ohaktosh (CaO), kalsiy karbonat ($CaCO_3$), atsetilen konsentratsiyasi, ekzotermik, fosfin (PH_3), gidroksid cho‘kmalar, energetik samaradorlik, chiqindilarni qayta ishlash, qurilish ohagi, meliorativ material, neytrallash reagenti, texnologiyani optimallashtirish.

Kirish

Atsetilen - yuqori reaktivlikka ega bo‘lgan ko‘p ishlatiladigan kimyoviy mahsulotlardan biri bo‘lib, organik sintez, payvandlash - kesish ishlari, polimerlar va erituvchilar olish, shuningdek, turli maxsus kimyoviy vositalar ishlab chiqarishda keng qo‘llanadi. Zamonaviy sanoatda atsetilen olishning bir necha usullari mavjud bo‘lib, kalsiy karbidni suv bilan reaksiyaga kiritish orqali atsetilen ishlab chiqarish usuli texnologik soddaligi, ishga tushirishning osonligi va kichik quvvatli korxonalar uchun maqsadga muvofiqligi tufayli hozirga qadar keng tarqalgan usullardan biri hisoblanadi.

Biroq mazkur texnologiya bir qator jiddiy muammolarni ham keltirib chiqaradi. Reaksiyaning kuchli ekzotermik xarakteri sabab reaktorlar tez qizib ketishi, jarayonni qat’iy nazorat qilish zarurati, karbid tarkibidagi aralashmalar tufayli atsetilenning tozaligi pasayishi, energiya sarfining yuqoriligi va gidroksid cho‘kmalaridan iborat katta hajmdagi chiqindining hosil bo‘lishi eng dolzarb texnologik cheklovlar hisoblanadi. Ayniqsa, kalsiy gidroksid cho‘kmasi bilan bog‘liq ekologik va logistika muammolari karbid usulining sanoat masshtabida qo‘llanishini murakkablashtiradi.

Shu bilan birga, oxirgi yillarda ushbu chiqindidan samarali foydalanish bo‘yicha turli ilmiy-texnik yechimlar - karbid shlamini qurilish ohagiga aylantirish, sement tarkibiga qo‘shish, kislotalarni neytrallashda reagent sifatida qo‘llash, qishloq xo‘jaligi tuproqlarini meliorativ yaxshilash kabi yo‘nalishlar - texnologiyaning iqtisodiy va ekologik barqarorligini oshirish imkonini bermoqda.

ISSN 3030-3907

Kalsiy karbidning suv bilan reaksiyasi ekzotermik xarakterga ega bo‘lib, asosiy mahsulot sifatida atsetilen va yon mahsulot sifatida kalsiy gidroksid hosil qiladi:

$$CaC_2+2H_2O\rightarrow C_2H_2+Ca(OH)_2+Q$$

Reaksiya natijasida ajraladigan katta miqdordagi issiqlik jarayonni doimiy ravishda nazorat qilishni talab etadi. Karbid granulalarining sifat ko‘rsatkichlari (karbid miqdori, reaktivlik, namlik darajasi) atsetilen chiqishiga bevosita ta’sir qiladi.

Jarayonning texnologik muammolari:

1. Reaksiyaning yuqori ekzotermikligi. Reaksiya davomida katta miqdorda issiqlik ajralishi reaktor haroratining keskin ko‘tarilishiga, bug‘lar hosil bo‘lishiga va jarayonni barqaror olib borishda qiyinchiliklarga sabab bo‘ladi. Bu holat xavfsizlik talablarining kuchaytirilishini ham taqozo qiladi.

2. Reaksiya mahsulotining tozaligi bilan bog‘liq muammolar. Karbid tarkibidagi kalsiy oksid, kalsiy karbonat va boshqa aralashmalar suv bilan reaksiyaga kirishib, atsetilenga begona gazlar aralashishiga sabab bo‘ladi. Bu esa atsetilenni qo‘shimcha tozalash bosqichlarini talab qiladi.

3. Energiya sarfining yuqoriligi. Partiyaviy reaktorlar uchun suvni isitish, sovitish, aralashtirish, gazni quritish va tozalash jarayonlari sezilarli energiya talab qiladi. Shu sababli karbid usuli zamonaviy gaz fazali yoki pirolitik usullarga nisbatan energetik jihatdan kam samarali hisoblanadi.

Kalsiy gidroksid cho‘kmasi bilan bog‘liq ekologik va texnik muammolar:

1. Chiqindining katta hajmda to‘planishi. Karbid usuli natijasida hosil bo‘ladigan eng yirik chiqindi — kalsiy gidroksid cho‘kmasi bo‘lib, uning miqdori ishlab chiqarilgan atsetilen massasidan bir necha baravar ko‘p bo‘ladi. Kalsiy gidroksid juda ko‘p miqdorda hosil bo‘lgani sababli uni saqlash, tashish va utilizatsiya qilish jiddiy ekologik va iqtisodiy xarajatlarni talab qiladi.

2. Kimyoviy korrozivlik. Nam kalsiy gidroksid ishqoriy muhitga ega bo‘lganligi sababli metall qurilmalarga korroziv ta’sir ko‘rsatishi mumkin.

3. Ekologik ta’siri. Chiqindining to‘g‘ri boshqarilmasligi tuproq, suv va havoning ifloslanishiga olib keladi. Bundan tashqari, yig‘ilgan karbid shlami vaqt o‘tishi bilan karbonatlanib, changlanish xususiyatiga ega bo‘ladi.

Karbid sifati va atsetilen tozaligi bilan bog‘liq muammolar:

Karbid sifati qanchalik beqaror bo‘lsa, atsetilen sifatining o‘zgarishi shunchalik kattalashadi(1-jadval). Namlik, CaO, $CaCO_3$, fosfin kabi omillar nafaqat sifatni pasaytiradi, balki texnologik xavfni ham keskin oshiradi. Karbid sifatini barqarorlashtirish – atsetilen ishlab chiqarish tannarxini pasaytirish va texnologik xavfsizlikni ta’minlashning eng muhim sharti hisoblanadi.

ISSN 3030-3907

1-jadval

Xomashyo sifatining atsetilen tozaligiga ta’siri

Karbiddagi sifat muammosi	Sabablar	Atsetilen tozaligiga ta’siri	Texnologik oqibatlar
CaC_2 miqdorining pastligi	Xom ashyo sifatining o‘zgaruvchanligi, pech rejimining barqaror emasligi	Atsetilen hosildorligi kamayadi	Ko‘proq karbid sarfi, energiya sarfi oshishi
Karbid tarkibida CaO va $CaCO_3$ yuqoriligi	Kimyoviy jarayonning to‘liq bormasligi, CaO ning sifati past	CO_2 aralashmasi oshadi va atsetilen konsentratsiyasi kamayadi	Quritish va tozalash bosqichlari ko‘payadi
Namlikning mavjudligi	Saqlash sharoitining noto‘g‘ri bo‘lishi	Vaqtidan oldin reaksiyaga kirishish	Portlash xavfi oshadi, reaktor qizishi kuchayadi
Fosfor va mishyak aralashmalari	Xom ashyo tarkibidagi P va As birikmalari	PH_3 va AsH_3 hosil bo‘ladi, ular juda zaharli va korroziv	Payvandlashda sifat buzilishi, filtrlar zarurligi
Sulfidlar mavjudligi	Sulfurlangan koks yoki ohaktosh	H_2S aralashmasi hosil bo‘ladi	Gazning hidi, qurilmalar korroziyasi oshadi
Metall aralashmalari (Fe, Al, Si)	Pechdagi metall o‘tishlari	H_2 ajralishi kuchayadi va portlash xavfi ortadi	Atsetilenning yonish harorati pasayadi
Granula o‘lchamlarining notekisligi	Texnologik elashning yo‘qligi yoki sustligi	Reaksiya tezligi notekis bo‘ladi va gaz tarkibi beqaror bo‘ladi	Jarayonni to‘liq nazorat qilish qiyinlashadi
Karbidning mexanik changi ko‘pligi	Qadoqlash va tashishdagi zararlar	Chang reaksiyaga kirib, qo‘shimcha gazlar hosil qiladi	Gidroksid chiqindisi ortadi, filtrlar tiqiladi
Kalsiy silisid (SiC) va boshqa inert aralashmalar	Xom ashyo aralashmalari	Atsetilen miqdorini kamaytiradi	Reaktivlik pasayadi, reaktor samaradorligi kamayadi

Kalsiy gidroksid cho‘kmasidan samarali foydalanish bilan bog‘liq tadqiqotlar chiqindini qimmatli mahsulotga aylantirish imkoniyatlari mavjudligini ko‘rsatadi.

ISSN 3030-3907

Qurilish materiallari sanoatida $Ca(OH)_2$ qurilish ohagi ishlab chiqarishda, gips va sement kompozitsiyalariga qo‘shimcha sifatida qo‘llanishi mumkin. Uning reaktivligi yuqori bo‘lgani sababli bog‘lovchi moddalarning mexanik mustahkamligini oshirishda yordam beradi.

Kislotalarni neytrallash uchun arzon va samarali neytrallovchi reagent sifatida kimyo sanoatida qo‘llanadi.

Qishloq xo‘jaligida meliorativ modda sifatida tuproq kislotaliligini kamaytirish, og‘ir metall ionlarini immobilizatsiya qilish va tuproqning fizik xususiyatlarini yaxshilashda foydalanish mumkin.

Kimyoviy sintezlar uchun xomashyo sifatida karbonatlash orqali yuqori sifatli $CaCO_3$ olish, shuningdek, boshqa gidroksidlar va tuzlarni sintez qilishda ishtirok etishi mumkin. Bu jarayon chiqindidan qo‘shimcha iqtisodiy foyda olish imkonini beradi.

Karbid usulida asosiy muammo ekzotermiklik, xavfsizlik, texnologiya davomiyligi, gaz sifati va chiqindi hajmi hisoblanadi.

Takomillashtirish choralari jarayonni barqaror, xavfsiz, iqtisodiy va ekologik jihatdan samarali qiladi(2-jadval).

2-jadval

Karbid usulida atsetilen ishlab chiqarish jarayonini takomillashtirish yo‘nalishlari

Takomillashtirish yo‘nalishi	Amalga oshirish mexanizmi	Kutiladigan texnologik samara
Reaktorlarning sovitish tizimini modernizatsiyalash	Ekzotermik reaksiyadan ajraladigan issiqlikni tez olib chiqish uchun ko‘p pog‘onali sovitish tizimlari qo‘llash. Reaksion haroratni avtomatik boshqarish.	Reaktor qizib ketishining oldi olinadi. Jarayonning barqarorligi oshadi. Portlash xavfi kamayadi.
Yangi turdagi karbid granulalarini ishlab chiqish (yuqori reaktiv CaC_2)	Kam namlikka ega, zichligi yuqori, bir xil kattalikdagi CaC_2 ishlab chiqarish. Faol CaC_2 ulushini oshirish.	Atsetilen unumi oshadi. Reaksiya bir tekis kechadi. Chiqindi ($Ca(OH)_2$) miqdori kamayadi.
Gazni tozalash va quritishni takomillashtirish	Ko‘p bosqichli filtrlash, absorberlar, kislotalarni yutuvchi filtrlardan foydalanish. Namlikni aniq boshqaruvchi quritgichlarni qo‘llash.	Atsetilenning tosalik darajasi ortadi. Texnik atsetilen sifat ko‘rsatkichlari stabillashadi.

ISSN 3030-3907

Chiqindisiz yoki kam chiqindili texnologiyalarni joriy etish	$Ca(OH)_2$ cho‘kmasini qayta ishlash liniyasi bilan birlashtirish. Cho‘kmani qurilish ohagiga, sement qo‘shimchasiga yoki meliorativ moddaga aylantirish.	Ekologik yuk kamayadi. Chiqindidan qo‘shimcha iqtisodiy qiymat yaratiladi.
Pishirilgan ohaktosh (CaO) sifatini yaxshilash	Ohaktoshni to‘liq kaltsinatsiya qilish. Uskunalarda haroratni bir tekis taqsimlash. $CaCO_3$ qoldiqlarini minimallashtirish.	Faol CaC_2 sintezi yaxshilanadi. Karbid sifatining barqarorligi oshadi.

$Ca(OH)_2$ chiqindisidan foydalanish texnologiyaning eng istiqbolli modernizatsiya yo‘nalishi hisoblanadi.

Karbid usulida atsetilen ishlab chiqarish texnologiyasi soddaligi va keng qo‘llanishiga qaramay, yuqori ekzotermiklik, karbid sifatining barqaror emasligi, atsetilen konsentratsiyasining kamayishi, energiya sarfining yuqoriligi va katta miqdordagi gidroksid cho‘kmasining hosil bo‘lishi kabi muammolar bilan ajralib turadi. Bular jarayon samaradorligini pasaytiradi va ekologik yukni oshiradi.

Shu bilan birga, hosil bo‘ladigan kalsiy gidroksid cho‘kmasini qurilish ohagi, sement qo‘shimchasi, neytrallovchi reagent yoki meliorativ material sifatida qayta ishlash texnologiyani iqtisodiy va ekologik jihatdan maqsadga muvofiq qiladi. Jarayonni optimallashtirish uchun reaktor sovitish tizimlarini modernizatsiyalash, karbid sifatini yaxshilash, gazni tozalashni kuchaytirish va chiqindisiz texnologiyalarni joriy etish asosiy yo‘nalishlar hisoblanadi.

ADABIYOTLAR

1. Иванов Л. Л. (2015). Технология карбида кальция и производство ацетилена. Москва: Химия

2. Ghosh, A., & Mallik, A. K. (2017). “Calcium Carbide Manufacturing and Acetylene Production.” Journal of Chemical Engineering and Process Technology, 8(3), 1–7.

3. Rayimov, Z., Sattorova, G., Jamilova, N., & Qudratov, O. (2024). Chiqindi gazlarni changli qo ‘shimchalardan tozalash. YASHIL IQTISODIYOT VA TARAQQIYOT, 2(3).

4. Akhmedov Vohid, Rayimov Zukhriddin, & Kurbanov Farkhod (2024). CHLORINATION OF PHTHALIC ANHYDRIDE. Universum: технические науки, 8 (10 (127)), P 19-23. doi: 10.32743/UniTech.2024.127.10.18421

ISSN 3030-3907

5. Rayimov Zukhriddin, & Khayitov Sadullo (2023). CHROMATOMATIC MASS ANALYSIS OF DIVINYLACETYLENE DERIVATIVE OF PHTHALIC ANHYDRIDE. Universum: технические науки, (5-8 (110)), 30-33.

ISSN 3030-3907

KO‘P BOSQICHLI HOMILANING OZIQLANISH RATSIONINI BAHOLASH AXBOROT TIZIMINING KOGNITIV MODELI

Shixnazarova Guzal Alisherovna

Muhammad al-Xorazmiy nomidagi TATU assistenti

Annotatsiya. Mazkur maqolada ko‘p bosqichli homila rivojlanishi jarayonida oziqlanish ratsionining samaradorligini baholashga mo‘ljallangan axborot tizimining kognitiv modeli ishlab chiqilgan. Model homiladorlikning har bir bosqichida tabiiy komponentlariga bo‘lgan biologik ehtiyojlarning dinamik o‘zgarishini hisobga olib, individual ovqatlanish ko‘rsatkichlari bilan integratsiyalashgan holda tahlil qilishga asoslanadi. Kognitiv model 5ta moduldan iborat: kirish ma’lumotlari, bilimlar bazasi xarita asosida oziq-ovqat tarkibi, mikroelementlar, laborator tahlillar, onaning somatik holati hamda potentsial xavf omillari o‘rtasidagi sabab-oqibatli bog‘liqliklar aks ettirildi. Ushbu yondashuv homilada rivojlanish anomaliyalarining oldini olish, kamqonlikka raqamli monitoring olib borish hamda ovqatlanish muvozantini avtomatik baholash imkonini beradi.

Kalit so‘zlar: kognitiv model, homila rivoji, differensiallashgan-dietologik oziqlanish, axborot tizimi, ratsion, perinatal rivojlanish

Аннотация. В данной статье разработана когнитивная модель информационной системы, предназначенной для оценки эффективности рациона питания в процессе многоэтапного развития плода. Модель основана на анализе, интегрированном с индивидуальными показателями питания, с учётом динамических изменений биологических потребностей в природных компонентах на каждом этапе беременности. Когнитивная модель включает пять модулей: входные данные, базу знаний, а также когнитивную карту, отражающую причинно-следственные взаимосвязи между составом пищевых продуктов, микроэлементами, лабораторными показателями, соматическим состоянием матери и потенциальными факторами риска. Предложенный подход обеспечивает возможности профилактики аномалий развития плода, цифрового мониторинга анемии и автоматизированной оценки сбалансированности питания.

Ключевые слова: когнитивная модель, развитие плода, дифференцированное диетологическое питание, информационная система, рацион питания, перинатальное развитие.

Abstract. This article develops a cognitive model of an information system designed to assess the effectiveness of dietary management during multistage fetal development. The model is based on an integrated analysis of individual nutritional indicators, taking into account dynamic changes in biological needs for natural components at each stage of pregnancy. The cognitive model includes five

modules: input data, a knowledge base, and a cognitive map reflecting the cause-and-effect relationships between food composition, micronutrients, laboratory parameters, the mother's physical condition, and potential risk factors. The proposed approach provides opportunities for the prevention of fetal abnormalities, digital monitoring of anemia, and automated assessment of nutritional balance.

Key words: cognitive model, fetal development, differentiated dietary nutrition, information system, diet, perinatal development.

Kirish

Jahonda sog‘liqni saqlash tizimi va tibbiy xizmatning yaxshilanishiga qaramay, perinatal o‘lim darajasi yuqoriligicha saqlanib kelmoqda. Jahon sog‘liqni saqlash tashkiloti (JSST) ma’lumotlariga ko‘ra, dunyodagi har 1000 ta tirik tug‘ilishning 17 tasini perinatal o‘lim tashkil etadi. Bu raqam ko‘rsatkichini kamaytirish uchun davlatlar, tibbiy muassasalar, xalqaro tashkilotlarda turli choralar ko‘rilmoqda. JSST va YUNISEF kabi yirik tashkilotlar ona va bola salomatligini yaxshilash, tibbiy xizmat sifatini oshirish, tibbiy personal bilimini, aholining sog‘lom turmush tarzini yaxshilash bo‘yicha dasturlar va strategiyalarni ishlab chiqish orqali perinatal o‘lim darajasini pasaytirish ustida faol ish olib bormoqdalar. Bu yo‘nalishda axborot almashinuv jarayonlarini avtomatlashtirish, ma’lumotlar monitoringi va tahlili jarayonini ilmiy asoslash zarurati tug‘iladi. Jumladan, tendensiyalar, qabul qilinayotgan choralar samaradorligini aniqlash uchun perinatal o‘lim holatlari to‘g‘risidagi statistik ma’lumotlarni yig‘ish va tahlil qilish, sog‘lom turmush tarzini ommalashtirish, to‘g‘ri ovqatlanish, zararli odatlardan xalos bo‘lish, jismoniy faollik va sog‘lom homiladorlikka ko‘mak beruvchi boshqa omillar ahamiyatlidir.


Jahonda sog‘liqni saqlash sohasi boshqaruv jarayonlarini raqamlashtirish, axborot tizimlarini ishlab chiqish va ma’lumotlar bazalarini shakllantirish, tizimlararo axborotlarni almashish, ma’lumotlarga taqsimlangan ishlov berish va tezkor qarorlar qabul qilish bo‘yicha bir qator ilmiy tadqiqotlar olib borilmoqda. Sog‘liqni saqlash tizimini raqamlashtirishda qo‘llaniladigan axborot tizimlarida kechadigan biznes jarayonlarni modellashtirishning BPMN metodologiyasi, axborotlar oqimini belgilashning IDEF metodologiyasi, axborot tizimlari va ma’lumotlar bazasini loyihalashtirishning relyatsion modellari va algoritmlarining ishlab chiqishni ilmiy asoslash zarur bo‘lmoqda.

O‘zbekiston Respublikasida sog‘liqni saqlash va tibbiy xizmat sohasida amalga oshirilgan ijobiy o‘zgarishlarga qaramay, ayrim muammolarga barham berilgani yo‘q. Malakali tibbiy kadrlarning yetishmasligi, sog‘liqni saqlash tizimini yetarli darajada moliyalashtirmaslik, tibbiy standartlarga rioya qilmaslik, aholining homiladorlik payti va tug‘ruqdan keyingi davrda sog‘lom turmush tarziga rioya qilish to‘g‘risidagi xabardorligining past darajasi shular jumlasidandir. Perinatal

ISSN 3030-3907

o‘limga qarshi kurash doirasida O‘zbekistonda akusherlik va perinatal yordam ko‘rsatish sifatini yaxshilash, tibbiy personalning kasbiy malakasini, aholining ona va bola salomatligining ahamiyati to‘g‘risidagi xabardorligini oshirishga qaratilgan turli dasturlar va tadbirlar o‘tkaziladi. O‘zbekistonda homilador ayollarning ovqatlanishi bo‘yicha asosiy tavsiyalar sog‘lom ovqatlanish tamoyillariga asoslangan bo‘lib, ular ona va rivojlanayotgan homilani zarur oziq-ovqat bilan ta’minlash imkonini beradi. Yangi O‘zbekistonning 2022-2026 yillarga mo‘ljallangan taraqqiyot strategiyasida qator vazifalar, jumladan, “Reproduktiv yoshdagi va homilador ayollar, bolalar uchun yuqori texnologik tibbiy yordam ko‘rsatish tizimini takomillashtirish”[1] vazifasi belgilangan. Bu vazifalarni amalga oshirish, jumladan, ustuvor omillarni shakllantirish, ular asosida homilaning prenatal rivojlanishiga differensial oziqlanish rejimi ta’sirining matematik modelini qurish, oziqlanish me’yorlarini o‘z ichiga olgan relyatsion ma’lumotlar bazasi ishlab chiqish, homilaning prenatal rivojlanishi davrida differensial diyetologik oziqlanish jarayonini modellashtirish, axborot tizimini ishlab chiqish va amaliyotga tadbiq etish bugungi kunning eng muhim muammolaridan biridir.

Hayotning dastlabki 28 kuni - yangi tug‘ilgan chaqaloqning omon qolishi uchun eng zaif davr hisoblanadi. Bolalar hayotning birinchi oyida o‘limning eng yuqori xavfi bilan to‘qnash kelishadi, 2023 yilda dunyo bo‘yicha o‘rtacha 1000 tirik tug‘ilgan chaqaloqqa 17 ta o‘lim to‘g‘ri kelgan, 1990 yildagi 37ta o‘limni tashkil qilgan, Hozirga kelib 51% kamaygan(1.1-rasm). Taqqoslash uchun, bolaning 1 oylikdan 1 yoshgacha bo‘lgan davrda o‘lim ko‘rsatkichi har 1000 kishiga 11 ta, 1-5 yoshgacha oraliqda 10ta tashkil qilmoqda. 2024 yilda Dunyo bo‘ylab birinchi oyda 2,3 million bola vafot etdi. [https://data.unicef.org/].



1-rasm. Mamlakatlar bo‘yicha perinatal o‘lim darajasi (1000 tirik tug‘ilgan chaqaloqqa o‘lim ko‘rsatkichi), 2024

ISSN 3030-3907

Perinatal o‘lim va nogiron bolalar tug‘ilishini kamaytirish uchun homilaning rivojlanish jarayoniga to‘g‘ri tashxis qo‘yish, sog‘lom turmush tarzi, to‘g‘ri ovqatlanish va ginekolog shifokor tomonidan o‘z vaqtida tekshiruvdan o‘tish tavsiya etiladi. Homiladorlik davrida prenatal rivojlanish jarayonini kuzatish usullari.

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili. Tizimli tahlil, modellashtirish va optimallashtirish metodlarini M.Nada, M.A.Nikitina, I.M.Chernuxa, M.A.Belyayeva, P.A.Sedenkov ilmiy tadqiqot ishlarini olib borishgan O‘zbekistonda axborot tizimlarini boshqarish va ma’lumotlarga intellektual ishlov berish masalalari bo‘yicha M.M.Kamilov, M.M.Musayev, X.N.Zaynidinov, U.R.Xamdamovlar ilmiy tadqiqotlar olib borishgan. D.T.Muxammadiyeva, J.B.Sultanov, B.B.Elov, O.Q.Mahmanov, J.B.Elov axborot tizimlari va jarayonlarini modellashtirish masalalari bo‘yicha ilmiy tadqiqot ishlarini olib bormoqdalar.

Tadqiqot metodologiyasi.

Ko‘p bosqichli homilaning prenatal rivojlanish davrida turli omillar ta’sir qiladi. Ular o‘z navbatida 2ta guruhga ajratilinadi[8]: ijobiy va salbiy faktorlarga. Ijobiy faktorlarga sog‘lom turmush tarzi, o‘z vaqtida shifokor ko‘rigi, normal uyqu, ratsional oziqlanish, normal uyqu va boshqaolar iborat bo‘lsa, salbiy omillar quyidagilarni o‘z ichiga oladi: spirtli ichimliklar, zararli odatlar, stres holatlar, noto‘g‘ri ovqatlanish kabilar kiradi.

Folat kislotasi- homila rivojlanishida asab tizimi va boshqa a’zolari to‘g‘ri shakllanishida muhim ahamiyat kasb etadi, bu muhim vitaminni oziq-ovqatdan yashil bargli sabzavotlar (sholg‘om,karam, ismaloq) va mol jigari ko‘p uchraydi.

Yod - bosh miyasini shakllantirish uchun juda muhimdir. Bu jarayonda miya hujayralarining rivojlanish ketma-ketligini belgilovchi qalqonsimon bez gormonlari ishtirok etadi.

Temir - qizil qon tanachalarida mavjud bo‘lgan gemoglobin oqsilni ishlab chiqarishga yordam beradi. U kislorodni tashiydi, uni barcha organlarga, shu jumladan homilaga yo‘ldosh orqali yetkazib beradi.Temir tanqisligi turli darajadagi anemiyaga olib kelishi mumkin. Bu ko‘p charchash, rang oqarishi, ishtahaning yo‘qolishi bilan namoyon bo‘lishi mumkin. Eng og‘ir holatlarda bu bosh aylanishi, hushidan ketish, terlashning kuchayishi, yurak urishining sustlashishi, nafas qisilishi bilan birga kechadi. Temir yetishmasligi nafaqat homilador ayol uchun, balki tug‘ilajak bola uchun ham noxush oqibatlarga olib keladi.

D vitamini - U kalsiy metabolizmiga yordam beradi va tug‘ilajak bolaning suyaklari va tishlarining to‘g‘ri shakllanishi uchun javobgardir. D vitamining yetishmasligi homilador ayollarda eklampsiya va qandli diabetga olib kelishi mumkin. D vitamini ba’zi mahsulotlarda (losos, tunets, sardina, D vitamini bilan

ISSN 3030-3907

boyitilgan sut mahsulotlarida) mavjud, ammo ularning aksariyati quyosh nurlari ta'siri ostida teri tomonidan ishlab chiqariladi.

Kalsiy - Homiladorlik va emizish davrida kalsiyga bo'lgan ehtiyoj 1,4 marta ortadi. To'g'ri hazm qilinishi uchun uni D3 vitamini bilan birga qabul qilish kerak.

A vitamini - A vitamini birinchi navbatda ko'rish va terining shakllanishi uchun javobgardir. Biroq, A vitaminning haddan tashqari ortiqcha dozasi xavfli bo'lishi mumkin, chunki A vitamini tanada to'planadi. Gipervitaminoz bosh og'rig'i, ko'ngil aynishi va ishtahaning yo'qolishi bilan kechadi.

Homiladorlik davrida nafaqat ayolning tanasi uchun zarur bo'lgan mikroelementlar miqdori, balki ularning nisbati ham o'zgaradi. Kaltsiyga bo'lgan ehtiyoj 1,5 baravarga, temir va foliy kislotasiga - 2 baravarga, rux, yod, B6 va B12 vitaminlari 17-33% ga oshadi [9]. Quyidagi jadvalda FKlarning yetishmovchili homila rivojlanishiga ta'siri(1.1-jadval) aks etgan [10].

1-jadval

Tabiiy komponentalarning homila rivojlanishiga ta'siri


Vitamin va minerallarning yetishmovchiligi	**Homilaning rivojlanishidagi salbiy o'zgarishlar**
D vitamin	abort va erta tug'ilish, qandli diabet, kesar kesish va kam vazn
Folat kislotasi	aqliy rivojlanishdan ortda qolish xavfi ortadi
B12 vitamin	homila tug'ma nuqsonlari, asab nuqsonlari rivojlanish xavfi
Sink mineral	homila tug'ma nuqsonlari va erta tug'ilish xavfi ortadi
B6 vitamin	aqliy va jismoniy rivojlanishdan ortda qolish
C vitamin	immunitetni pasayishi, ishtaxaning yo'qolishi
B1 vitamin	homilaning erta tugilish xavfi ortadi
B2 vitamin	oyoq-qo'llarining nuqsonlarini rivojlanish xavfi ortadi
PP vitamin	yurak kasalliklarini bilan tug'ilish xavfi ortadi
A vitamin	o'pka, immunitet nuqsonlari, buyrak, ko'z nuqsonlari
E vitamin	kam qonlik, ko'z nuqsonlari xavfi ortadi

Bir qator Yevropa mamlakatlarida o'tkazilgan klinik tadqiqotlar shuni ko'rsatdiki, foliy kislotasi, kaltsiy va temir ayollar uchun homiladorlik va laktatsiya davrida eng muhim mikroelementlar hisoblanadi. Homilaning o'sishi va

ISSN 3030-3907

rivojlanishi hujayra ishlab chiqarishning ortishi bilan tavsiflanadi. Homiladorlik uchun yetarli miqdorda A vitamini talab qilinadi, ammo homiladorlik davrida ortiqcha retinol tug‘ma nuqsonlarni keltirib chiqarishi ma’lum. Kuniga 3000 mkg (kuniga 10 000 IU) dan past dozalarda A vitamini tufayli tug‘ma nuqsonlar xavfining ortishi kuzatilmagan[23; 46-48-b, 24;56-60-b]. Oziq-ovqat mahsulotlari, agar ular tarkibida nitratlar bo‘lmasa, A vitaminining so‘rilishini to‘liq amalga oshirilmaydi. Ammo A vitaminini o‘zlashtirishda yana bir qiyinchilik tug‘iladi: bu mikroelementning muvaffaqiyatli so‘rilishi uchun yog‘lar, E vitamini va oqsillarning mavjudligi zarur bo‘ladi. Agar ushbu komponentlardan birortasining yetishmasligi kuzatilsa, oziq-ovqat u bilan boyitilgan bo‘lsa ham, A vitaminining so‘rilishi kamayadi. Kundalik vitamin qabul qilish me’yorlariga ko‘ra, homilador ayol 1200-1400 mkg dan ko‘p bo‘lmagan A vitaminini iste’mol qilishi kerak, bu 3960-4620 IU ga to‘g‘ri keladi [3]. A vitaminini asossiz yuqori dozalarda (kuniga 10 000 IU dan ortiq) iste’mol qilish homilador ayollar uchun xavflidir, chunki bu homila a’zolari va to‘qimalarining rivojlanishidagi nuqsonlarga olib kelishi mumkin.

Axborot tizimining konseptual modeli tizimning asosiy komponentlari, ularning o‘zaro aloqalari va ishlash mexanizmlarini umumiy ko‘rinishda tasvirlaydigan modeldir. Konseptual model, odatda, texnik tavsiflardan holi bo‘lib, foydalanuvchilar, dizaynerlar va boshqa manfaatdor tomonlar uchun tizimni tushunishni osonlashtiradi.



2-rasm. Ko‘p bosqichli homilaning oziqlanish ratsioni baholash axborot tizimining konseptual modeli

Axborot tizimida axborot almashinuv jarayonining konseptual modelida asosiy 2ta foydalanuvchi bo‘lib, ular ginekolog-shifokor va homiladordan iborat. ATning ishlash jarayoni o‘z navbatida tizimdagi jarayonlar(oziqlanish mezon


ISSN 3030-3907

ko‘rsatkichlarini belgilash, ratsion MB strukturasini shakllantirish, FK o‘rtacha qiymatini aniqlash), qo‘llanilgan usullar(qoidalarga asoslangan, qarorlar daraxti, statistik ma’lumotlarga asoslangan) va qoidalarga asoslangan MBdan iborat. ATning qaror qabul qilish jarayoni oziqlanish jarayoni adekvatligini baholash, monitoring qilish va tavsiyalar ishlab chiqarish bosqichlarini o‘z ichiga oladi.

Qaror qabul qilish jarayoni bosqichlari. Qaror qabul qilish jarayoni ko‘p bosqichli jarayon hisoblanib, majmuaviy yondashishni taqozo etadi. Nazariy jihatdan qaror qabul qilish jarayoni bir nechta bosqichlarga amalga oshiriladi.

Birinchi bosqichi - muammoni o‘rganish: Muammoni yoki maqsadni aniqlashtirish; dastlabki muammo (maqsad)ni qo‘yish. Agar muammo (maqsad) noto‘g‘ri qo‘yilgan bo‘lsa, keyingi barcha harakatlar va harajatlar samarasiz bo‘ladi.

Qaror qabul qilishning *ikkinchi bosqichi* - g‘oyalar ishlab chiqish - muammoning yechim yo‘llarini shakllantirishdan iborat. G‘oyalar ishlab chiqishning samarali metodlaridan biri “aqliy hujum” (breynstorming) metodi hisoblanadi.



3-rasm. Ko‘p bosqichli homilaning oziqlanish ratsionini baholashning kognitiv model

Qaror qabul qilishning *uchinchi bosqichi* - g‘oyalarni baholash - har bir g‘oyaning qiymatini, ustunliklarini, uning samaradorligini va risk (tavakkalchilik) darajasini baxolashdan iborat.

Qaror qabul qilishning *to‘rtinchi bosqichi* - bu yakuniy tanlov (boshqaruvda buyruq shaklida shakllantirish va ifodalash) - bu bosqich qaror bajarilshini

ISSN 3030-3907

rejalashtirishni ta’minlab beradi. Bunda mazkur qarorni bajarish dasturi qabul qilinadi, muddati belgilanadi.

Kognitiv model – bu tizimdagi faktorlar va ularning o‘zaro ta’sirlarini aks ettiruvchi grafik struktura bo‘lib, unda tugunlar tizim holatining elementlarini, yo‘nalgan qirralar esa ular orasidagi sabab-oqibatli ta’sirlarni ifodalaydi. Bu model da murakkab tizimlarni intuitiv va vizual shaklda tushunishga yordam beradi.

Kognitiv modelning tarkibiy qismlari:

1. Faktorlar – tizimdagi asosiy omillar;

2. **Yo‘nalgan qirralar** – bir tugun ikkinchisiga qanday ta’sir qilishini ko‘rsatadi. Ijobiy (+) yoki salbiy (−) bo‘lishi mumkin.

3. Kognitiv xarita – barcha tugun va qirralarni o‘z ichiga olgan grafik.

Kognitiv modellashtirish bosqichlari

- Ekspert ma’lumotlarini yig‘ish – soha mutaxassislarining bilimlarini to‘plash.

-Tuzilmani shakllantirish – tugun va ular orasidagi bog‘lanishlarni aniqlash.

-Kognitiv xarita yaratish – grafik ko‘rinishda ifodalash.

-Tahlil qilish – modelda dominant, faollik va passivlik darajasini aniqlash.

-Simulyatsiya – turli ssenariylar asosida tizimning xatti-harakatini oldindan ko‘rish.

Kognitive model modullari va faktorlarining nomlanishi quyidagicha keltirilgan

x1-Kiruvchi ma’lumotlar moduli (Input data)

x2-Homilador ayol to‘g‘risidagi ma'lumotlar

x3-Tibbiy tahlil natijalari

x4-Bilimlar bazasi modul(Knowledge Base)

x5-Ishlab chiqilgan model

x6-SSV tomonidan belgilangan mezon ko‘rsatkichlari

x7-Kognitiv jarayon moduli(Cognitive Process)

x8-Oziqlanish ratsionini baholanganligi bo‘yicha statistik ma'lumot

x9-O‘rganish Moduli(Learning)

x10-Monitoring

x11-Qaror qabul qilinganligi moduli(Decision)

x12-Tavsiyalar ishlab chiqish

Oziqlanish ratsionini baholash bo‘yicha kognitiv model quyidagilarni o‘z ichiga oladi:

Kiruvchi ma’lumotlar: Foydalanuvchi to‘g‘risidagi shaxsiy va qo‘shimcha ma’lumotlar; Oziq ovqat mahsulotlarli tarkibidagi vitamin va minerallarning miqdori.

Bilimlar bazasi: O‘zbekiston Respublikasi sog‘liqni saqlash vazirligi tomonidan homiladorlar uchun tavsiya qilingan kunlik normasi; ilmiy tadqiqot

ISSN 3030-3907

ishlarida har bir trimestr uchun tavsiya qilingan normalar; oziqlanish ratsioni bo‘yicha ekspertlar;

2-jadval

Oziqlanish ratsionini baholash jarayonini kognitiv modelining modullari va parametrlar kartasi

	x_1	x_2	x_3	x_4	x_5	x_6	x_7	x_8	x_9	x_{10}	x_{11}	x_{12}
x_1				+								
x_2					+							
x_3									+		+	+
x_4							+		+		+	
x_5								+				
x_6										+		
x_7									+			
x_8												
x_9											+	
x_{10}												+
x_{11}	+											
x_{12}												

Kognitiv tahlil va baholash. Ma’lumotlar ekspert tizimlar yordamida tahlil qilinadi, ishlab chiqilgan matematik model asosida oziqlanish ratsioni mezon ko‘rsatkichlarini baholash;

Qaror qabul qilish va modellashtirish. Homilador ayolning sog‘lig‘idagi o‘zgarishlariga, tibbiy tahlil natijalariga qarab takomillashtirilgan oziqlanish ratsionini ishlab chiqish.

Xulosa va takliflar

Ko‘p bosqichli differensiallashgan diyetologik oziqlanish jarayoni homila rivojlanish bosqichlariga mos keluvchi individual ovqatlanish rejalarini ishlab chiqishga imkon beradi. Axborot tizimining joriy etilishi homilador ayollarning ratsionini ilmiy asosda optimallashtirish va oziq moddalarning yetarli darajada ta’minlanishini nazorat qilish imkonini beradi. Ishlab chiqilgan axborot tizimining kognitiv modeli oziqlanish ratsionini to‘g‘ri baholash, qaror qabul qilish va tavsiylar ishlab chiqish masalarini yanada optimalllashtirish imkoniyatini berdi. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, bu yondashuv homila salomatligini yaxshilash, rivojlanish patologiyalarining oldini olish imkoniyatini yaratadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 08.11.2019 yildagi PQ-4513-son “Reproduktiv yoshdagi ayollar, homiladorlar va bolalarga ko‘rsatiladigan tibbiy yordam sifatini oshirish va ko‘lamini yanada kengaytirish to‘g‘risida” qarori O‘zbekiston Respublikasining 23.10.2019-yildagi O‘RQ-574-sonli “Ona suti bilan

ISSN 3030-3907

oziqlantirishni qo‘llab-quvvatlash hamda go‘daklar va kichik yoshdagi bolalar oziq-ovqat mahsulotlariga doir talablar to‘g‘risida”gi qonuni
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 10-noyabrdagi PQ-4887-sonli “Aholining sog‘lom ovqatlanishini ta’minlash bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risi”gi qarori
3. Priority factors of the nutritional model that influence the prenatal development of the fetus Zamira Sh. Abdullayeva and Guzal A. Shikhnazarova E3S Web Conf., 420 (2023) 05011 DOI: https://doi.org/10.1051/e3sconf/202342005011
4. Sultaniyazovich, Y. M., Shamshaddinovna, A. Z., & Alisherovna, S. G. (2023). INFORMATION TECHNOLOGY-BASED HEALTH CARE. Science and innovation, 2(Special Issue 3), 721-723.
5. Boymuratovna, B. G., Rajabbayevna, H. N., Normurodovna, H. H., & Toshkentovich, N. U. (2021). The Role of Vitamins in the Health of Pregnancy Women. International Journal on Orange Technologies, 3(4), 128-131.
6. Shamshaddinovna, A.Z., Alisherovna, S.G., Karimullaevna, K.G., & Baxtiyorovich, A.S. (2023). RATIONAL NUTRITION OF PREGNANT WOMEN IN THE PERIOD OF PRENATAL DEVELOPMENT OF THE FETUS. Web of Medicine: Journal of Medicine, Practice and Nursing, 1(3), 1-6.
7. Sultaniyazovich, Y. M., & Alisherovna, S. G. (2022). Mathematical Model-Differentiated Dietary Nutrition Period of Prenatal Development of the Fetus. EUROPEAN JOURNAL OF INNOVATION IN NONFORMAL EDUCATION, 2(2), 77-80.
8. Sultaniyazovich, Y. M., & Alisherovna, S. G. (2020). Nutrition Modeling During the Prenatal Development of the Fetus. International Journal of Current Research and Review, 12(19), 52-55.
9. Шихназарова Г.А. Кўп босқичли ҳомиланинг пренатал ривожланиш даврида дифференциаллашган-диетологик озиқланиш жараёнининг алгоритмлари O‘zbekiston Milliy axborot agentligi O‘zA ilm fan bo‘limi 2024-yil iyul soni №7(57) Toshkent 2024
10. Abdullayeva Z. S. & Shixnazarova G. A. (2025). KO‘P BOSQICHLI HOMILADORLIKNING RIVOJLANISHIDA DIFFERENSIALLASHGAN DIYETOLOGIK OZIQLANISH JARAYONINING BAHOLASH MODELLARI VA AXBOROT TIZIMI. Development Of Science, 6(2), pp. 384-395. https://doi.org/0

ISSN 3030-3907

SYNTHESIS OF A HYDROPHOBIC ORGANOSILICON COATING BASED ON TETRAETHOXYSILANE AND STEARIC ACID AND ITS APPLICATION ON THE SURFACE OF BUILDING MATERIALS

Olimov Bobir Bahodirovich
Bukhara State Technical University Associate Professor, Department of Chemical Technology
Bukhara, Republic of Uzbekistan
E-mail: chemistry2927@mail.ru
Rajabova Kamola Bahronovna
Bukhara State Technical University Doctoral Student, Department of Chemical Technology
Bukhara, Republic of Uzbekistan
E-mail: rajabovakamola833@gmail.com

Annotatsiya: ushbu tadqiqotda tetraetoksisilan (TEOS) va stearin kislota asosida zol–gel usuli orqali yangi kremniyorganik gidrofobizator sintez qilindi. Sintez jarayonida oksidlovchi sifatida natriy peroksid (Na_2O_2), katalizator sifatida esa sulfat kislota (H_2SO_4) qo`llanildi. Reaksiya 60–80 °C haroratda 6–7 soat davomida amalga oshirildi. Olingan gidrofob moddaning tuzilishi infraqizil spektroskopiya (IQ-spektr, FTIR) usuli yordamida tahlil qilindi va natijalar kremniyga xos siloksan (Si–O–Si) bog`larining hosil bo`lganligini hamda stearin kislotadan kelib chiqqan uzun alifatik zanjirlarning mavjudligini tasdiqladi. Sintez qilingan gidrofobizator sopol g`isht yuzasida sinovdan o`tkazildi. Tajriba natijalari qoplangan yuzalarda suv singishining sezilarli darajada kamayganligini ko`rsatib, suv tomchilarining yuzada saqlanib qolishini ta`minladi. Kremniy oksidi asosidagi tuzilma va yog` kislotasi zanjirlarining uyg`unligi natijasida yuqori samarali organo-noorgano gidrofob qoplama hosil bo`ldi. Taklif etilgan yondashuv qurilish materiallarini suv ta`siridan himoya qilish uchun samarali va amaliy ahamiyatga ega hisoblanadi.

Kalit so`zlar: kremniyorganik birikmalar; Gidrofob qoplama; Tetraetoksisilan (TEOS); Stearin kislota; Zol–gel sintez; IQ-spektr (FTIR) tahlili; Qurilish materiallari

Abstract: In this study, a novel organosilicon hydrophobic agent based on tetraethoxysilane (TEOS) and stearic acid was synthesized using the sol–gel method. Sodium peroxide (Na_2O_2) was used as an oxidizing agent, while sulfuric acid (H_2SO_4) served as a catalyst during the synthesis process. The reaction was carried out at a temperature of 60–80 °C for 6–7 hours. The structural characteristics of the synthesized hydrophobic material were analyzed by infrared spectroscopy (IR, FTIR). The results confirmed the formation of characteristic siloxane (Si–O–Si) bonds of silicon-based compounds, as well as the presence of long aliphatic chains derived from stearic acid. The synthesized hydrophobic agent was tested on the surface of ceramic bricks. Experimental results demonstrated a significant reduction in water absorption on the treated surfaces and ensured the retention of water droplets on the surface. The synergistic combination of the

ISSN 3030-3907

silicon oxide framework and fatty acid chains resulted in the formation of a highly efficient organo–inorganic hydrophobic coating. The proposed approach is considered effective and practically valuable for protecting building materials from water exposure.

Keywords: organosilicon compounds; hydrophobic coating; tetraethoxysilane (TEOS); stearic acid; sol–gel synthesis; IR spectroscopy (FTIR) analysis; building materials.

Аннотация: В настоящем исследовании методом золь–гель синтеза был получен новый кремнийорганический гидрофобизатор на основе тетраэтоксисилана (TEOS) и стеариновой кислоты. В процессе синтеза в качестве окислителя использовался пероксид натрия (Na_2O_2), а в качестве катализатора — серная кислота (H_2SO_4). Реакция проводилась при температуре 60–80 °C в течение 6–7 часов. Структура полученного гидрофобного материала была исследована методом инфракрасной спектроскопии (ИК-спектроскопия, FTIR). Полученные результаты подтвердили образование характерных силоксановых (Si–O–Si) связей, а также наличие длинных алифатических цепей, происходящих от стеариновой кислоты. Синтезированный гидрофобизатор был испытан на поверхности керамического кирпича. Экспериментальные данные показали значительное снижение водопоглощения обработанных поверхностей и обеспечение удержания капель воды на поверхности. В результате сочетания структуры диоксида кремния и цепей жирной кислоты было получено высокоэффективное органо–неорганическое гидрофобное покрытие. Предложенный подход является эффективным и практически значимым для защиты строительных материалов от воздействия влаги.

Ключевые слова: кремнийорганические соединения; гидрофобное покрытие; тетраэтоксисилан (TEOS); стеариновая кислота; золь–гель синтез; ИК-спектроскопия (FTIR); строительные материалы.

Introduction

So`nggi yillarda organik va kremniyorganik birikmalar kimyosi va texnologiyasi jadal sur`atlarda rivojlanmoqda. Kremniyorganik moddalarning yuqori issiqlik barqarorligi, gidrofobligi, elektr izolyatsiya xususiyatlari va kimyoviy chidamliligi ularning sanoat va qurilish sohalarida keng qo`llanilishiga sabab bo`lmoqda[1].

Kremniyorganik birikmalardan foydalanishning muhim yo`nalishlaridan biri — qurilish materiallari yuzasida gidrofob himoya qoplamalarini hosil qilishdir[2].

Ma`lumki, qurilish materiallari namlik ta`sirida o`zining asosiy ekspluatatsion xususiyatlarini yo`qota boshlaydi. Suv bilan to`yinish natijasida materiallarning hajmiy og`irligi va issiqlik o`tkazuvchanligi ortadi, mexanik mustahkamligi esa pasayadi. Suv tarkibida mavjud bo`lgan agressiv moddalar bu jarayonni yanada kuchaytiradi[3-5].

ISSN 3030-3907



1-rasm. Nam (suv) ta`sirida binolarning ko`rinishi.

Beton va sopol g`isht materiallarining g`ovak tuzilmasiga kirib borgan suv kristall zarralarni qisman eritib, ular orasidagi adgeziyani zaiflashtiradi va natijada mustahkamlikning kamayishiga olib keladi. Bundan tashqari, sement qotishi jarayonida hosil bo`lgan erkin kalsiy gidroksid suv ta`sirida erishi natijasida betonda yuvilish hodisasi kuzatiladi[6]. Natijada inshootlarning xizmat muddati qisqaradi. Adabiyotlar tahlili shuni ko`rsatadiki, namlik ta`sirida beton va sopol g`isht tarkibidagi eruvchan tuzlar kapillyar bo`shliqlar orqali harakatlanib, suv bug`langandan so`ng yuzada kristall holda chiqib qoladi[7]. Bu hodisa binolarning tashqi ko`rinishiga salbiy ta`sir ko`rsatish bilan birga, ularning uzoq muddat xizmat qilish qobiliyatini ham pasaytiradi (1-rasm).

Shu sababli, qurilish materiallarining chidamliligini oshirish va ekspluatatsion xususiyatlarini yaxshilash birinchi navbatda ularni suv ta`siridan himoya qilish bilan bog`liq. Bu borada kremniyorganik gidrofobizatorlar zamonaviy qurilish texnologiyasida muhim ahamiyat kasb etadi[8].

Materials and Methods


Kremniy atomiga bog`langan gidrofob organik guruhlarga ega bo`lgan organosilanlar gidrofil noorganik sirtlarga gidrofob xususiyat berish qobiliyatiga ega. Ushbu tadqiqotda samarali gidrofob qoplama olish maqsadida tetraetoksisilan (TEOS) va uzun zanjirli yog` kislotalaridan foydalanildi. Yog` kislotalarining yuqori gidrofob xossalari ushbu tizimda muhim ahamiyatga ega.

Asosiy reagentlar sifatida tetraetoksisilan ($Si(OC_2H_5)_4$) va stearin kislota ($C_{18}H_{36}O_2$) qo`llanildi. TEOS suv ishtirokida gidrolizlanib, keyinchalik kondensatsiya reaksiyalari orqali siloksan (Si–O–Si) bog`larini hosil qiladi. Bu

ISSN 3030-3907

jarayon kremniy oksidi asosida mustahkam tuzilmali qoplama hosil bo`lishi uchun asos bo`ladi. Stearin kislota esa uzun alifatik zanjiri tufayli qoplamaning gidrofobligini ta`minlaydi.

Sintez 500 ml hajmli uch bo`g`izli kolbada, magnitli aralashtirgich va termometr bilan jihozlangan laboratoriya qurilmasida amalga oshirildi. Reaksiya jarayonida TEOS va stearin kislota 60–80 °C haroratda 6–7 soat davomida aralashtirildi. Oksidlovchi sifatida natriy peroksid (Na_2O_2) qo`llanildi, u kislotali muhitda suv va faol kislorod hosil qilib, TEOS gidrolizini tezlashtirdi. Katalizator sifatida sulfat kislota ($H_2SO_4$) ishlatilib, kislotali muhit hosil qilinishi natijasida silanol guruhlari o`rtasidagi kondensatsiya jarayoni samaradorligi oshirildi. Sintez qilingan mahsulotning tuzilishini o`rganish uchun infraqizil spektroskopiya (IQ-spektr, FTIR) usuli qo`llanildi (2-rasm). Olingan gidrofobizator sopol g`isht yuzasida amaliyotda sinovdan o`tkazildi.



2-rasm. Olingan gidrofobizatorning IQ-spektri Results and Discussion

Sintez qilingan gidrofobizatorning IQ-spektrida bir qator xarakterli yutilish polosalari kuzatildi. 2923 sm^{-1} va 2852 sm^{-1} sohalaridagi intensiv cho`qqilar alifatik $–CH_2–$ va $–CH_3$ guruhlarining valent tebranishlariga tegishli bo`lib, mahsulot tarkibida uzun uglevodorod zanjirlari mavjudligini tasdiqlaydi. 1739 sm^{-1} dagi kuchli yutilish karbonil (C=O) guruhlariga xos bo`lib, stearin kislotaning funksional guruhlari saqlanib qolganligini yoki qisman efir bog`lar mavjud ekanligini ko`rsatadi. 1458 $sm^{-1}$ hamda 1394–1374 $sm^{-1}$ sohalaridagi cho`qqilar $CH_2–$ va $–CH_3$ guruhlarining deformatsiya tebranishlariga tegishlidir. 1146 sm^{-1} va 1037 sm^{-1} atrofidagi intensiv yutilishlar Si–O–Si va Si–O–C bog`lariga xos bo`lib, TEOS gidrolizi va kondensatsiyasi natijasida kremniy oksidi asosidagi tuzilma hosil bo`lganligini tasdiqlaydi. 943 $sm^{-1}$ dagi cho`qqi esa Si–OH guruhlarining mavjudligini ko`rsatib, qoplamaning substrat bilan yaxshi adgeziyaga ega

ISSN 3030-3907

ekanligini bildiradi. 788 sm^{-1} va 572 sm^{-1} sohalaridagi yutilishlar Si–O–Si bog`larining deformatsiya tebranishlariga mos keladi.

Sintez qilingan gidrofobizator sopol g`isht yuzasiga surtilgandan so`ng, suv tomchilari yuzaga singib ketmasdan, shaklini saqlagan holda qoldi. Bu holat qoplamaning yuqori gidrofob xususiyatga ega ekanligini ko`rsatadi. Kremniy oksidi tuzilmasi yuzaga mustahkam birikkan holda, stearin kislotaning uzun uglevodorod zanjirlari tashqi tomonga yo`nalganligi sababli yuza energiyasi keskin kamaydi.

Conclusion

Ushbu tadqiqotda tetraetoksisilan va stearin kislota asosida yangi kremniyorganik gidrofobizator sintez qilindi. Na_2O_2 va H_2SO_4 ishtirokida amalga oshirilgan zol–gel jarayoni samarali gidroliz va kondensatsiya reaksiyalari uchun qulay sharoit yaratdi. IQ-spektr tahlili olingan mahsulotda ham kremniyga xos siloksan bog`lari, hamda gidrofob alifatik zanjirlar mavjudligini tasdiqladi.

Tajriba natijalariga ko`ra, sintez qilingan gidrofobizator sopol g`isht yuzasida samarali qoplama hosil qilib, suvning material tuzilmasiga kirib borishini sezilarli darajada kamaytirdi. Bu qoplamaning yuqori suvga chidamliligi va qurilish materiallarini namlik ta`siridan himoya qilishda istiqbolli ekanligini ko`rsatadi.

Olingan natijalar siloksanlar va yog` kislotalarini birgalikda qo`llash gidrofobizatorlar ishlab chiqarishda samarali va amaliy jihatdan foydali yo`nalish ekanligini tasdiqlaydi. Ushbu tadqiqot kelgusida iqtisodiy samarali, gidrofob va ekologik mos materiallarni ishlab chiqish uchun ilmiy asos bo`lib xizmat qiladi.

REFERENCES

1. Arkles, B. (2011). Hydrophobicity, hydrophilicity and silane surface modification. Paint & Coatings Industry, 27(10), 114–135.
2. Plueddemann, E. P. (1991). Silane Coupling Agents. Springer, New York.
3. Brinker, C. J., & Scherer, G. W. (1990). Sol–Gel Science: The Physics and Chemistry of Sol–Gel Processing. Academic Press, San Diego.
4. Sanchez, C., Julian, B., Belleville, P., & Popall, M. (2005). Applications of hybrid organic–inorganic nanocomposites. Journal of Materials Chemistry, 15, 3559–3592. https://doi.org/10.1039/B509097K
5. Zhuravlev, L. T. (2000). The surface chemistry of amorphous silica. Colloids and Surfaces A: Physicochemical and Engineering Aspects, 173, 1–38. https://doi.org/10.1016/S0927-7757(00)00556-2
6. Fadeev, A. Y., & McCarthy, T. J. (1999). Self-assembly is not the only reaction possible between alkyltrichlorosilanes and surfaces: covalent attachment of monolayers to the native oxide of silicon. Langmuir, 15, 3759–3766. https://doi.org/10.1021/la981728y

ISSN 3030-3907

7. Xie, Y., Hill, C. A. S., Xiao, Z., Militz, H., & Mai, C. (2010). Silane coupling agents used for natural fiber/polymer composites: A review. Composites Part A: Applied Science and Manufacturing, 41, 806–819. https://doi.org/10.1016/j.compositesa.2010.03.005
8. Franzoni, E. (2014). Rising damp removal from historical masonry: A review. Construction and Building Materials, 54, 123–130. https://doi.org/10.1016/j.conbuildmat.2013.12.036

ISSN 3030-3907

KOGENERATSION BIOENERGETIK QURILMA UTILIZATORINING ISSIQLIK-TEXNIK PARAMETRLARINI TADQIQ QILISH

Rustamov S.Sh
Bux DTU "E va EM" kafedrasi dotsenti
Hojimurodov J.E
Bux DTU "E va EM" kafedrasi o'qituvchi-stajyori

Annotatsiya: Ushbu tadqiqot ishida piroliz bioenergetik qurilmasi bazasida bir vaqtning o'zida biomassadan muqobil yoqilg'i, issiqlik va elektr energiyasini olish imkonini beradigan kogeneratsion qurilma taklif qilingan. Issiqlik energiyasi piroliz qurilmasida olingan yoqilg'ilarni (gaz, qattiq va suyuq) yoqish orqali, hamda ichki yonuv dvigatelli-generator chiqindi gazlarini utilizatsiya qilish orqali hosil qilinadi.

Kalit so'zlar: Kogeneratsiya, bioenergetik qurilma, chiqindi gazlari, ikkilamchi issiqlik, ichki yonuv dvigateli, tutun gazlari, issiqlik almashgich, issiqlik uzatish koeffitsiyenti, statsionar rejim, foydali ish koeffitsiyenti, issiqlik sig'imi.

Аннотация: В данной исследовательской работе предлагается когенерационная установка на основе пиролизного биоэнергетического устройства, позволяющая одновременно получать альтернативное топливо, тепло и электроэнергию из биомассы. Тепловая энергия генерируется путем сжигания топлива (газообразного, твердого и жидкого), полученного в пиролизном устройстве, а также путем использования отработавших газов от двигателя внутреннего сгорания-генератора.

Ключевые слова: Когенерация, биоэнергетическое устройство, отработавшие газы, вторичное тепло, двигатель внутреннего сгорания, дымовые газы, теплообменник, коэффициент теплопередачи, стационарный режим, коэффициент полезной работы, теплоемкость.

Abstract: In this research work, a cogeneration device is proposed based on a pyrolysis bioenergy device, which allows simultaneously obtaining alternative fuel, heat and electricity from biomass. Thermal energy is generated by burning fuels (gas, solid and liquid) obtained in the pyrolysis device, as well as by utilizing exhaust gases from an internal combustion engine-generator.

Keywords: Cogeneration, bioenergy device, exhaust gases, secondary heat, internal combustion engine, flue gases, heat exchanger, heat transfer coefficient, stationary mode, useful work coefficient, heat capacity.

Kirish.

Jahonda avtonom iste'molchilarni bir vaqtning o'zida issiqlik va elektr energiyasi bilan ta'minlash, atrof-muhitga chiqariladigan biomassa va CO_2 chiqindilarini kamaytirish, avtonom iste'molchilarni uzluksiz energiya bilan

ISSN 3030-3907

ta’minlash uchun kogeneratsion bioenergetik qurilmalarning yangi konstruksiyalarini ishlab chiqish, ularning parametrlarini ilmiy asoslashga doir ilmiy izlanishlar olib borilmoqda. Ushbu yo‘nalishda, markazlashgan energiya ta’minoti tizimidan uzoqda joylashgan avtonom iste’molchilar uchun piroliz qurilmasi va ichki yonuv dvigateli asosidagi kogeneratsion energiya ta’minoti tizimlarini ishlab chiqish bo‘yicha tadqiqotlar ustuvor hisoblanmoqda.

ADABIYOTLAR TAHLILI. Dunyo bozorida energiyaning asosiy miqdori kogeneratsion qurilmalar yordamida ishlab chiqarilishi katta ahamiyatga ega. Chunki kogeneratsion tizimlardan foydalanib, bir vaqtning o‘zida ham issiqlik ham elektr energiyasi olish imkoni mavjud [1]. Gaz dvigatellariga asoslangan kogeneratsiya qurilmalari issiqlik va elektr energiyasini ishlab chiqarishning eng samarali usuli hisoblanadi.

Ushbu qurilmalar G‘arbiy Yevropa mamlakatlari sanoatida bir necha yillar oldin faoliyat yurita boshlagan. Ushbu texnologiyaning asosiy afzalliklari orasida quyidagilar ajralib turadi:

- yoqilg‘i tejamkorligi;
- bir vaqtning o‘zida issiqlik va elektr energiya ishlab chiqarishi;
- jarayoni tez boshlanishi, nominal quvvatga tez kirishishi (bir necha daqiqa), o‘zgaruvchan yuklamalarga moslashuvchanligi.Tadqiqot ishida elektr quvvati 3,5 kVt bo‘lgan ichki yonuv dvigatelli-generatordan foydalanilgan. Kogeneratsion bioenergetik qurilmaning asosiy issiqlik-texnik va gidrogazodinamik parametrlari tadqiq qilindi. Taklif etilgan kogeneratsion bioenergetik qurilmaning (KBEQ) konstruktiv jihatdan farqi, ichki yonuv dvigatelli-generatorning chiqindi gazlari quvuri qismida suvni issiqlik almashtirgich, ya’ni chiqindi gazlarining ikkilamchi issiqligidan foydalanish imkonini beradigan issiqlik-utilizator o‘rnatilgan. Ichki yonuv dvigatelli-generatorning ishlash jarayoni tahlili shuni ko‘rsatadiki, dvigatelda yoqilgan yoqilg‘ining 50-60 % qismi turli muhitlarga yo‘qotiladi, foydali issiqlik 40-50 % ni tashkil etadi [2, 3;]. Ichki yonuv dvigatelida yo‘qotiladigan issiqlik isroflari diagrammasi 1-rasmda keltirilgan.




1-rasm. Ichki yonuv dvigatellida yo‘qotiladigan issiqlik isroflari

ISSN 3030-3907

Bu digramma tahlili shuni ko‘rsatadiki ichki yonuv dvigatelli-generatorda 30 % dan ortiq issiqlik energiyasi chiqindi gazlari orqali atrof-muhitga muqarrar yo‘qotiladi [4].

TADQIQOT METODOLOGIYASI. Yo‘qotishlarni kamaytirish uchun, tadqiqot ishida kogeneratsion bioenergetik qurilmaning ichki yonuv dvigatelli-generatoridan atrof-muhitga chiqariladigan chiqindi gazini issiqlikka utilizatsiya qilish sxemasi taklif qilindi. Taklif etilgan ichki yonuv dvigatelli-generatorning chiqindi tutun gazlari issiqligini utilizatsiya qilish sxemasi 2-rasmda keltirilgan [5].



2-rasm. Ichki yonuv dvigatelli – generatorning chiqindi gazi issiqligini utilizatsiya qilish sxemasi [6].

Issiqlik-utilizatori, ya’ni “chiqindi gazi – suv” tipdagi rekuperativ issiqlik almashtirgichni issiqlik hisobi statsionar rejimda amalga oshirildi. Issiqlik utilizatorning issiqlik balansi quyidagi tenglamalar orqali hisoblandi.

$$Q = KF(t_1 - t_2),\ \text{Vt} \qquad (1)$$

Bunda K – issiqlik uzatish koeffitsiyenti, $\frac{Vt}{(m^2 \cdot ℃)}$; F – issiqlik almashinish yuzasi, m^2; t_1 – chiqindi gazining utilizatorga kirish harorati, ℃; t_2 – chiqindi gazining utilizatordan chiqish harorati, ℃.

Qurilmaning hisob sxemasiga muvofiq utilizatorning issiqlik balansi tenglamasi statsionar rejimda quyidagi ko‘rinishda bo‘ladi [7].

$$Q = G_1 c_{p_1} \rho_1 (t_1 - t_2) = G_s c_{p_s} \rho_s (t_{s2} - t_{s1}) \qquad (2)$$

bunda , Q – issiqlik quvvati, Vt; ρ_1 – gazning zichligi $\frac{kg}{m^3}$;

c_{p_1} – gazning solishtirma issiqlik sig‘imi $\frac{kJ}{kg \cdot ℃}$; G_1 – gazning hajmiy sarfi, $\frac{m^3}{sek}$; G_s – suvning hajmiy sarfi, $\frac{m^3}{sek}$; ρ_s – suvning zichligi, $\frac{kg}{m^3}$; t_{s1} – suvning utilizatorga kirish harorati, ℃; t_{s2} – suvning utilizatordan chiqish harorati, ℃.

Issiqlik utilizatorning samaradorligi qurilmaning foydali ish koeffitsiyenti orqali aniqlanadi:

$$\eta = \frac{t_1 - t_2}{t_1 - t_{s2}} \qquad (3)$$

ISSN 3030-3907

Utilizatorining issiqlik quvvati quyidagi formula bo‘yicha hisoblanadi:

$$Q_{UT} = G_s c_{p_s}(t_{s2} - t_{s1}), \text{ Vt} \qquad (4)$$


Issiqlik utilizatoridagi issiqlik tashuvchilarning texnik parametrlari 1-jadvalda batfsil keltirilgan.

1-jadval

Issiqlik utilizatorining texnik parametrlari

T/r	Issiqlik tashuvchilarning parametrlari	Belgilanishi	Miqdori
1	Chiqindi gazining utilizatorga kirish harorati [℃]	t_1	380÷405
2	Chiqindi gazining utilizatordan chiqish harorati [℃]	t_2	140÷150
3	Suvning utilizatorga kirish harorati [℃]	t_{s1}	18÷22
4	Suvning utilizatordan chiqish harorati [℃]	t_{s2}	78÷95
5	Suvning solishtirma issiqlik sig‘imi $[kJ/kg \cdot ℃$	c_{p_s}	4,195
6	FIK [%]	η	82

MUHOKAMA VA NATIJALAR. Kogeneratsion bioenergetik qurilmasining ichki yonuv dvigatelidagi issiqlik utilizatorining ishlash prinsipi va funksional sxemasi 3-rasmda keltirilgan.



3-rasm. Kogeneratsion bioenergetik qurilmasining IYD dagi issiqlik utilizatorining funksional sxemasi [8,9].

(1) va (2) tenglamaarni quyidagicha yoza olamiz:

$$Q = G_1\rho_1 c_{p_1}(t_1 - t_2) = G_s\rho_s c_{p_s}(t_{s2} - t_{s1}) = KF\Delta t \qquad (5)$$

bu yerda: Δt-issiqlik almashinuvchi muhitlar o‘rtasidagi o‘rtacha haroratlar sarfi bo‘lib, uni quyidagicha yozish mumkin:


$$\Delta t = \frac{t_1 - t_2}{ln\frac{t_1 - t_{s1}}{t_1 - t_{s2}}} \qquad (6)$$

(3.26) va (3.27) ifodalarni soddalashtirish orqali chiquvchi suv haroratini quyidagicha yozish mumkin:

$$t_{s2} = \frac{t_{s1} + t_1\left(\exp\left(\frac{G_1 c_{p_1}}{G_s c_{p_s}}\right) - 1\right)}{\exp\left(\frac{G_s c_{p_s}}{G_1 c_{p_1}}\right)} \qquad (7)$$

ISSN 3030-3907


Olingan natijalar bo‘yicha issiqlik utilizatoridagi issiq suv haroratini suv va chiqindi gazi sarfiga bog‘liqlik grafigi hamda utilizatordan olingan issiqlik quvvatini suv va chiqindi gazi sarfiga bog‘liqlik grafiklari olindi (4-5-rasmlar).



4-rasm. Issiq suv haroratini suv va chiqindi gazi sarfiga bog‘liqlik grafigi

4-rasmdan ko‘rish mumkinki suvning utilizatorga kirishdagi harorati 18÷22 ℃ bo‘lganda, suvning va chiqindi gazining sarflariga bog‘liq bo‘lib, $G_1 = 0{,}006\frac{kg}{s}$, $G_s = 0{,}007\frac{kg}{s}$ sarflanganda chiquvchi suv harorati qaynash haroratiga teng bo‘ladi.

4-rasmdagi hisoblash natijalari asosida utilizatordan olinadigan issiqlik quvvati suv hamda chiqindi gazi sarfiga bog‘liqligi 5-rasmda keltirildi.



5-rasm. Utilizatordan olingan issiqlik quvvatini suv va chiqindi gazi sarfiga bog‘liqlik grafigi.

XULOSA VA TAKLIFLAR. 5-rasmdagi hisoblash natijalaridan ko‘rish mumkinki, utilizatordan olinadigan issiqlik quvvati tutun gaz va suv suv sarfiga bog‘liq ravishda 1,7÷2,5 kVt ni tashkil etgan. Olib borilgan tadqiqotlar natijasida

ISSN 3030-3907

turli xil kogeneratsiya texnologiyalarining asosiy afzalliklari va kamchiliklari tahlil qilindi. Kogeneratsion qurilmalar ichida ichki yonuv dvigatellari ishga tushurish oson hamda qisman yuklama bilan ishlashda nisbattan qulay va samarador ekanligi bilan ajralib turadi. Shuningdek ular suyuq hamda gazsimon yoqilg‘ilarda ishlay olishi iste’molchilarga bir qancha qulayliklar yaratib beradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. https://www.cogeneurope.eu/what-is-cogeneration/
2. Jovan Klinar Efficiency of a new internal combustion engine concept with variable piston motion. Thermal Science. (2014). 18. 10.2298/TSCI110923020D.
3. Albatayneh Mustafa, Aiman Assaf, Mohammed Alterman, Dariusz Jaradat. Comparison of the Overall Energy Efficiency for Internal Combustion Engine Vehicles and Electric Vehicles. (2020). Environmental and Climate Technologies.
4. Davlonov X. A., Rustamov S.Sh. Kogeneratsion bioenergetik qurilma asosida avtonom energiya ta’minoti tizimini tadqiqot qilish. Innovatsion texnologiyalar Vol.51, No. 3, 2023 ISSN 2181-4732.
5. Kar T., Keles S., Kaygusuz K. Thermal processing technologies for biomass conversion to clean fuels. Journal of Engineering Research and Applied Science Volume 7 (2), December 2018, pp 972-979.
6. Теплопередача в примерах и задачах / В.В. Сахин, Е.М. Герлиман, Н.А. Брыков; Балт. гос. техн. ун-т. – СПб., 2019. – 165 с.
7. Uzakov, G. N, Davlonov X. A, Rustamov S. Sh. Biomassa pirolizi tajribalarining mahsulot balansi tahlili. G. N. Uzakov. Muqobil energetika. – 2023. – Vol. 9, No. 2.
8. Rustamov S.Sh. Biologik chiqindilardan energetik maqsadlarda foydalanishning istiqbollari va afzaliklari. Journal of new century innovations. – 2023. – T. 26. – №. 1. – C. 34-36.
9. Uzoqov G‘ulom Norboyevich, Rustamov Suhrob Shuhrato‘g‘li piroliz reaktorining qovurg‘ali sirti orqali issiqlik uzatish samaradorligini hisoblash // SRT. 2024. №4-1.

ISSN 3030-3907

YUQORI SIG‘IMLI KO‘P SONLI AKKUMULYATORLARNING DEGRATATSIYA HOLATINI BAHOLASH ME'ZONINI ISHLAB CHIQISH

Xasan Murodov
Navoiy davlat konchilik va texnologiyalar universiteti
Maftuna Bozarova
Navoiy davlat konchilik va texnologiyalar universiteti

Annotatsiya. Ushbu maqolada yuqori sig‘imli va ko‘p elementli akkumulyator tizimlarida yuzaga keladigan kimyoviy, mexanik hamda elektrokimyoviy degradatsiya jarayonlari chuqur tahlil qilinadi. Tadqiqot doirasida qo‘rg‘oshin–kislotali, nikel-kadmiy (Ni-Cd), nikel-metall gidrid (Ni-MH) va litiy-ion (Li-ion) akkumulyatorlarining ishlash muddatiga ta’sir etuvchi asosiy omillar – aktiv moddaning yemirilishi, elektrodlarning struktura o‘zgarishi, zaryadlanish jarayonlaridagi nomutanosiblik va haroratga sezgirlik – batafsil o‘rganildi. Har bir texnologiya uchun sig‘imning kamayishi, ichki qarshilikning ortishi, issiqlik tarqalishidagi farqlar va samaradorlikning pasayishi kabi ko‘rsatkichlarga asoslangan universal degradatsiya holatini baholash mezoni ishlab chiqildi. Shuningdek, tizim darajasida akkumulyatorlarning texnik holatini tezkor baholash imkonini beruvchi kompleks diagnostika indeksi taklif etildi. Keltirilgan yondashuv energiya saqlash tizimlari, elektrotransport vositalari va katta quvvatli zaxira quvvat manbalarida ishonchlilikni oshirish, ekspluatatsiya xarajatlarini kamaytirish hamda xizmat muddatini uzaytirish uchun amaliy ahamiyatga ega.

Kalit so‘zlar: akkumulyator degradatsiyasi, qo‘rg‘oshin–kislotali batareya, diagnostika, sig‘im yo‘qolishi, ichki qarshilik, baholash, harorat, zaryadlash-zaryadsizlash.

Аннотация. В данной статье представлен углубленный анализ процессов химической, механической и электрохимической деградации, происходящих в высокоемкостных и многоэлементных аккумуляторных системах. Подробно изучены основные факторы, влияющие на срок службы свинцово-кислотных, никель-кадмиевых (Ni-Cd), никель-металлгидридных (Ni-MH) и литий-ионных (Li-ion) аккумуляторов: деградация активного материала, структурные изменения электродов, дисбаланс в процессах зарядки и температурная чувствительность. Для каждой технологии разработан универсальный критерий оценки состояния деградации, основанный на таких показателях, как потеря емкости, увеличение внутреннего сопротивления, различия в теплоотдаче и потеря эффективности. Также предложен комплексный диагностический индекс, позволяющий быстро оценить техническое состояние аккумуляторов на системном уровне. Представленный подход имеет практическое значение для повышения

ISSN 3030-3907

надежности, снижения эксплуатационных расходов и продления срока службы в системах хранения энергии, электромобилях и высокомощных резервных источниках питания.

Ключевые слова: деградация аккумулятора, свинцово-кислотный аккумулятор, диагностика, потеря емкости, внутреннее сопротивление, оценка, температура, заряд-разряд.

Annotation. This article presents an in-depth analysis of the chemical, mechanical, and electrochemical degradation processes occurring in high-capacity, multi-cell battery systems. It examines in detail the key factors affecting the service life of lead-acid, nickel-cadmium (Ni-Cd), nickel-metal hydride (Ni-MH), and lithium-ion (Li-ion) batteries, including active material degradation, structural changes in the electrodes, charging imbalances, and temperature sensitivity. A universal degradation assessment criterion has been developed for each technology, based on metrics such as capacity loss, increased internal resistance, differences in heat dissipation, and efficiency loss. A comprehensive diagnostic index has also been proposed, enabling a rapid system-level assessment of battery health. This approach has practical implications for improving reliability, reducing operating costs, and extending service life in energy storage systems, electric vehicles, and high-power backup power supplies.

Keywords: battery degradation, lead-acid battery, diagnostics, capacity loss, internal resistance, assessment, temperature, charge-discharge.

Kirish

So‘nggi yillarda yuqori sig‘imli va ko‘p funksiyali akkumulyator tizimlariga bo‘lgan ehtiyoj keskin ortib bormoqda. Elektr transport vositalarining ommalashuvi, qayta tiklanuvchi energiya manbalarini (quyosh va shamol) markazlashtirilmagan holda saqlash talabi, telekommunikatsiya infratuzilmasining uzluksiz ishlashi hamda sanoat energetikasining avtomatlashtirilishi ushbu tizimlarning ahamiyatini yanada oshirdi.

1-jadval

Akkumulyator batareyalarining solishtirma xarakteristikalari

Parametrlar	Qo‘rg‘oshin kislotali	Ni-Cad	Ni-MH	Li-ion
Solishtirma energiya zichligi, Vt·soat/kg	30-50	45-80	60-120	90-120
Ichki qarshiligi, Om	< 100 12 V li AKB bloki	100 – 200	200 – 300 12 V li AKB bloki	25 – 2500 12 V li AKB bloki

ISSN 3030-3907

		12 V li AKB bloki		
Hayotiy sikllari soni	200-300	1000	300-500	1000-2000
Tez zaryadlanish vaqti	8-16 soat	1 soat	2-4 soat	1 soat
O‘ta kuchlanishga bardoshliligi	yuqori	o‘rta	past	past
O‘z-o‘zini zaryadsizlash	5 %	20 %	30 %	10 %
Nominal kuchlanishi	2 V	1.2 V	1.2 V	3.3 V
Zaryadlana-yotganda kesish kuchlanisi	2.4 va 2.25 ga yaqin			3.6
Zaryadsizla-nayotganda kesish kuchlanisi	1.75	1.00	1.00	2.8
Yuklama tokening pik qiymati	5 C (0.2 C)	20 C (1 C)	5 C (0.5 C)	>30 C (<10 C)
Zaryadlanish harorati	-20^0C dan 50^0C gacha	0^0C dan 45^0C gacha		
Zaryadsiz-lanish harorati	-20^0C dan 50^0C gacha	$^-20^0$C dan 65^0C gacha		$^-20^0$C dan 60^0C gacha
Xizmat ko‘rsatish talab vaqti	3-6 oy (zaryadlansa)	30-60 kun (zaryad-sizlansa)	60-90 kun (zaryad-sizlansa)	Talab etilmaydi
Xavfsizlikka talab	Issiqlikga stabil	Issiqlikga stabil odatda issiqlik saqlagichlari qo‘llaniladi		Himoya konturi majburiy
Qachondan boshlab qo‘llaniladi	1800 yilni oxiridan buyon	1950	1990	1999

ISSN 3030-3907

Akkumulyatorlarning texnik holatini aniq baholash nafaqat ularning xavfsiz ishlashini ta’minlaydi, balki energetik samaradorlik, ekspluatatsiya xarajatlarini kamaytirish va xizmat muddatini uzaytirishda ham asosiy omil sanaladi.

Akkumulyatorlar kimyoviy tuzulushiga asosan quyidagi – qo‘rg‘oshin-kislotali (Pb-H_2SO_4), Nikel kadmiyli (Ni-Cad), Nikel marganesli (Ni-MH), Litiy ionli (Li-ion) kabi katta guruhlarga bo‘linadi. Ularning solishtirma xarakteristikasi yuqoridagi 1-jadvalda keltirilgan[1,2,3].

Biroq elektr energiyasini saqlash uchun qo‘llaniladigan turli texnologiyalardagi akkumulyatorlar — qo‘rg‘oshin–kislotali Pb–H_2SO_4, Ni-Cd, Ni-MH va Li-ion tizimlari — o‘ziga xos kimyoviy, mexanik va elektrokimyoviy degradatsiya mexanizmlariga ega. Bu esa ularning holatini yagona mezon asosida baholashni murakkablashtiradi. Shuning uchun universal, ammo har bir texnologiyaning xususiyatlarini inobatga olgan holda moslashtiriladigan diagnostika usullarini ishlab chiqish dolzarb masalaga aylanmoqda. Mazkur tadqiqot aynan ushbu muammoni bartaraf etishga qaratilib, turli akkumulyator turlarining degradatsiyasini baholash uchun umumiy, tizimli va amaliy jihatdan qo‘llash mumkin bo‘lgan mezonlar majmuasini yaratishni maqsad qiladi [4,5,6].

Asosiy qism. Akkumulyator degradatsiyasi — bu ionlarning fizik-kimyoviy xususiyatlari vaqt o‘tishi bilan o‘zgarib, uning sig‘imi, kuchlanishi, ichki qarshiligi va energiya samaradorligining pasayishi jarayonidir. Degradatsiya ikki turga bo‘linadi[5,6]:

1. *Siklik degradatsiya* – ko‘plab zaryadlanish-zaryadsizlanish sikllaridan keyin yuzaga keladi.

2. *Kalendar degradatsiya* – akkumulyator ishlatilmay turgan holatda ham vaqt o‘tishi bilan ro‘y beradi.

Har xil kimyoviy tizimlarda degradatsiya tezligi, sabablari va tashqi omillarga sezgirligi turlicha bo‘ladi. Shuning uchun universal, lekin bir vaqtning o‘zida moslashuvchan baholash mezonini ishlab chiqish amaliy jihatdan juda muhim.

Qo‘rg‘oshin-kislotali akkumulyatorlarning degradatsiyasi – Qo‘rg‘oshin-kislotali (Pb–H_2SO_4) batareyalar ilk texnologiyalardan biri hisoblanadi. Ularning degradatsiyasi quyidagi omillar bilan bog‘liq bular:

– *sulfatlanish* zaryadlanish jarayonida hosil bo‘lgan $PbSO_4$ kristallari normal sharoitda tez erib ketadi. Ammo chuqur zaryadsizlanishda uzoq muddat qolish yoki yuqori haroratning ta’siri kristallarning kattalashuviga olib keladi. Natijada elektrod faolligi kamayadi;

– *aktiv massa yo‘qolishi* elektrodlarning mexanik mustahkamligi pasayib, aktiv qatlam parchalanadi. Bu jarayon sig‘im kamayishining asosiy sabablaridan biridir;

ISSN 3030-3907

– *elektrolitning zichligi pasayishi* elektrolit konsentratsiyasi kamaygan sari kuchlanish barqarorligi buziladi va ichki qarshilik ortadi.

Degradatsiya me’zonlari $PbSO_4$ uchun:

– sig‘im yo‘qolishi: 20–40%

– ichki qarshilik o‘sishi: 15–30%

– zaryad samaradorligi: 80–90%

Ni-Cd akkumulyatorlarda degradatsiya – nikel-kadmiy akkumulyatorlarning o‘ziga xos jihati — “xotira effekti”ning mavjudligidir. Bu jarayon elektrod tuzilishining o‘zgarishi natijasida yuzaga keladi.

Xotira effekti – agar akkumulyator to‘liq zadyadsizlanish qilinmasdan zaryadlanaversa, u o‘zining avvalgi maksimal sig‘imini “unutadi”. Bu jarayon asosan $Cd(OH)_2$ kristallarining kattalashuvi bilan bog‘liq.

Elektrod passivlanishi – elektrod yuzasida gidroksid qatlamlarining hosil bo‘lishi ion almashinuvi tezligini sekinlashtiradi.

Gaz hosil bo‘lishi – zaryadning yuqori kuchlanishda amalga oshirilishi kislorod bosimining oshishiga va akkumulyatorning shishishiga olib keladi.

Ni-Cd uchun asosiy degradatsiya me’zoni parametrlari:

– sig‘imning pasayishi: 10–30%;

– ichki qarshilik ortishi: 20%+;

– samaradorlik: 70–85%;

Ni-MH akkumulyatorlarda degradatsiya – Ni-MH batareyalar ekologik jihatdan xavfsizroq, ammo issiqlikka sezgirligi yuqori.

Metall gidrid qotishmalarning korroziyasi – vodorod ionlari elektrod strukturasi bilan reaksiyaga kirishib, uning mexanik mustahkamligini pasaytiradi.

Elektrolit bug‘lanishi – uzoq muddat yuqori temperaturada ishlash elektrolitning yo‘qolishiga, natijada ichki qarshilikning tez oshishiga olib keladi.

Diffuzion yo‘qotishlar – ionlarning elektrodlarda diffuziya tezligi pasayishi kuchlanishning pastlashiga olib keladi.

Ni-MH uchun mezonlar:

– sig‘im yo‘qolishi: 15–35%;

– ichki qarshilikning tez o‘sishi: 25–40%;

– haroratga sezgirlik: yuqori;

Li-ion akkumulyatorlar degradatsiyasi – Li-ion akkumulyatorlar zamonaviy energiya tizimlarida eng ko‘p qo‘llaniladi. Ular eng yuqori energiya zichligiga ega bo‘lsada, murakkab kimyoviy jarayonlarga ega.

Qattiq elektrolitlararo oraliq qatlami qalinlashuvi – Zaryad jarayonida grafit anod yuzasida *qattiq elektrolitlararo oraliq qatlami* shakllanadi. U haddan tashqari qalinlashganda ichki qarshilik oshadi.

ISSN 3030-3907

Litiy ionlarining mahkamlanishi – litiy ionlari elektrod tuzilishida “qamalib” qoladi va zaryad jarayonida ishtirok eta olmaydi. Bu sig‘imning sekin pasayishiga olib keladi.

Elektrolit degradatsiyasi – Yuoqri kuchlanish va haroratda elektrolit oksidlanadi, gazlar hosil bo‘ladi va batareya shishadi.

Li-ion uchun mezonlar:

– sig‘im yo‘qolishi: 10–25%;

– ichki qarshilik ortishi: 10–20%;

– elektr zaryadlanish samaradorligi: 98% dan pasayishi xavf belgisi;

Tahlillar asosida barcha akkumulyatorlar uchun umumiy bo‘lgan to‘rtta indikator tanlandi:

1. Sig‘im yo‘qolishi;
2. Ichki qarshilikning ortishi
3. Haroratning barqarorligi — ΔT
4. Zaryad/razryad samaradorligi

Bu parametrlar batareya holatini 90–95% aniqlikda baholash imkonini beradi.

Kompleks Texnik holat indeksini (THI) hisoblash

Turli xildagi akkumulyatorlar uchun yagona diagnostika mezoni sifatida THI quyidagicha aniqlanadi:

$$THI_{indeks} = 0{,}45C_{THI} + 0{,}30\,R_{THI} + 0{,}10\left(1 - \frac{\Delta T}{T_{normal}}\right) + 0{,}15_{samaradorlik} \quad (1)$$

bu yerda:

– C_{THI} – akkumulyatorning sig‘im holati ko‘rsatkichi, ya’ni nominal sig‘imga nisbatan amaldagi sig‘im darajasini ifodalovchi normallashtirilgan kattalik;

– R_{THI} – akkumulyatorning ichki qarshilik holati ko‘rsatkichi, ichki qarshilikning nominal qiymatga nisbatan o‘zgarishini tavsiflaydi;

– ΔT – akkumulyator ish jarayonida kuzatiladigan harorat og‘ishi, ya’ni amaldagi harorat bilan me’yoriy harorat orasidagi farq;

– T_{normal} – akkumulyator uchun belgilangan me’yoriy (ruxsat etilgan) ish harorati;

– $\left(1 - \frac{\Delta T}{T_{normal}}\right)$ – issiqlik barqarorligi ko‘rsatkichi, harorat rejimining me’yoriy holatdan og‘ishini hisobga oladi;

– $\eta_{samaradorlik}$ – akkumulyatorning energetik samaradorligi, ya’ni zaryadlashlanish-zaryadsizlanish jarayonlarida energiya yo‘qotishlari darajasini ifodalaydi;

– 0,45; 0,30; 0,10; 0,15 – har bir parametrning THI indeksiga ta’sir darajasini belgilovchi og‘irlik koeffitsiyentlari bo‘lib, ularning yig‘indisi 1 ga teng.[6,7,8].

Mezonga asoslangan baholashda quyidagicha ifodalanadi:

2-jadval

ISSN 3030-3907

THI_{indeks}	Batareya holati
> 85%	Sog‘lom
70–85%	Qoniqarli
50–70%	Xizmat muddati tugamoqda
< 50%	Avariya holati, almashtirish zarur

Xulosa. Turli xildagi akkumulyatorlar — qo‘rg‘oshin kislotali (Pb-H_2SO_4), Nikel kadmiyli (Ni-Cad), Nikel marganesli (Ni-MH), Litiy ionli (Li-ion) — o‘ziga xos degradatsiya mexanizmlariga ega bo‘lsa-da, ularning texnik holatini baholash mezonlarini umumlashtirish mumkin. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, THI_{indeks} modeli yordamida barcha texnologiyadagi akkumulyatorlar yagona mezon asosida samarali baholanishi mumkin. Shu bilan birga, sig‘im yo‘qolishi, akkumulyatorning sog‘ligini aniqlashda eng ishonchli va sezgir indikator sifatida xizmat qiladi. Shuningdek, harorat farqi va ichki qarshilikning keskin o‘zgarishi akkumulyatorning xavfli degradatsiya jarayoni borligini bildiradi va diagnostikada ogohlantiruvchi belgi sifatida qabul qilinadi. Mazkur yondashuv akkumulyatorlarning xizmat muddatini bashoratlash, xavfsiz ishlashini ta’minlash va energiya saqlash tizimlarining samaradorligini oshirish imkonini beradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Murodov X.Sh., Ataullayev N.O., Qarshiboyev A.I Elektr energiya yig‘uvchi moslamalarning turlari va ularni muvozanatli zaryadlash usullarining tahlili// E3S Web of Conferences 548, 03012 (2024).

2. Khasan Murodov and Askarbek Karshibayev, Development of the management system of technical indications of high-power charger-discharger rectifier device. // E3S Web Conf. Volume 417, 2023 III International Conference on Geotechnology, Mining and Rational Use of Natural Resources (GEOTECH-2023).

3. Муродов Хасан Шухратович, Каршибаев Аскарбек Илашевич, Норкулов Аслиддин Олимович. Анализ устройств непрерывного элекрического питания на Навойской тепловой станции. // Innovative developments and research in education International scientific-online conference

4. N. O. Ataullaev, E. A. Dziaruhina, Kh. Sh. Murodov. Static Characteristics of Magnetic Modulation DC Converters with Analog Filter. // Science and Technique. International Scientific and Technical Journal. 22, № 5 (2023). ISSN 2414-0392

5. Рыкованова А. С. «Системы баланса Li-on аккумуляторных батарей» (журнал «Силовая электроника», 2009, №1).

6. А. С. Рыкованов, С. С. Беляев // Компоненты и технологии. – 2014. – № 3. – С. 121–124.

ISSN 3030-3907

7. А.П.Иншакова, Ю.Б.Федотова, С.С.Десяева и Д.В.Байкина «Проблема мониторинга и балансировки аккумуляторных батарей транспортных средств», (журнал «Инженерные технологии и системы» 2016 году)
8. M. Ufert, B. Bäker, Battery Ageing as Part of the System Design of Battery Electric Urban Bus Fleets. // Ufert M., Baker B. (2020) Battery Ageing as Part of the System Design of Battery Electric Urban Bus Fleets. Science and Technique. 19 (1), 12–19.

ISSN 3030-3907